ISSN 2181-7839

XALQ TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2021

3-maxsus son

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

MUNDARIJA

TAHRIRIYAT

	4	Boshlang‘ich ta’limni takomillashtirish – kelajagimizning asosiy omilidir

TA’LIM VA TARBIYA NAZARIYASI

Sh. Nurullayeva	6	Zamonaviy o‘qituvchi mahorati va ijodkorligi muammolari
N. Oripova	10	Bo‘lajak mutaxassislarda kasbiy e’tiqodni shakllantirish mezonlari
S. Yuldashev	13	Boshlang‘ich ta’lim ixtisosligi talabalarini texnologik ta’limga kreativ yondashuvga tayyorlashning nazariy asoslari
I. Kamolov	17	Kasbiy faoliyat jarayonida talabalar ijodiy fikrlash qobiliyatinig shakllanashi va rivojlanashi
E. Maxmanov	20	Fizikadan masalalar yechishda modellashtirish kompetensiyasini shakllantirish
N. Yo‘ldoshev, M. Xolmamatova	24	Savod o‘rgatish davri yozuv darslarida chiroyli yozuv daqiqalarini tashkil etish
A. Soatov	29	Diqqat va uning ta’limiy ahamiyati
A. Amanov, D. Berdiyeva	33	Iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlash – ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida
J. Yo‘ldoshev	36	Ta’lim jarayonida konvergent va divergent fikrlash
A. Ochilov	39	Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini differensial o‘qitishga tayyorlashning tamoyillari va ularning xususiyatlari tahlili
G. Eshboyeva	43	Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy kompetentligini shakllantirish zarurati

TA’LIM VA TARBIYA METODIKASI

Sh. Rahmatullayeva	47	Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijodkorlikni shakllantirishda didaktik o‘yinlardan foydalanish metodikasi
G. Qosimova	51	Boshlang‘ich sinflarda tabiatshunoslik fanlarini o‘qitishda tashxislash va nazorat testlarning ahamiyati
L. Berdiyeva	55	Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘quvchilar ijodkorligini rivojlantirishda didaktik o‘yinlarning imkoniyatlari
D. Shaxmurodova	58	Boshlang‘ich sinf o‘qish darslari orqali o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini oshirish
M. Muhammadiyeva	62	Mas’uliyat hissining inson hayotidagi ahamiyati
S. Turayev	65	Bo‘lajak muhandislarning kasbiy kompetensiyalarini fizika o‘qitish asosida shakllantirish modeli
O. Imomov	68	Bo‘lajak muhandislarga fizika fanidan differensial ta’lim berishning konseptual metodik tizim modeli
R. Yo‘ldoshev	72	Maktabda matematikani amaliyotga yo‘naltirib o‘qitishda o‘qituvchining metodik tayyorgarligining o‘ziga xos aspektlari
U. G‘oyimov	75	Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mehr-sahovatni shakllantirish yo‘llari

ZAMONAVIY TA’LIM TEXNOLOGIYALARI

M. Niyozqulov	78	Boshlang‘ich sinflarga mo‘ljallangan elektron ta’lim resurslari foydalanishdagi metodik yondashuvlar tahlili

A. Soatov	**82**	“MOJOR” sistemasini ikki soatlik dars mashg‘ulotida qo‘llash texnologiyasi
		MILLIY TA’LIM TEXNOLOGIYALARI
U. Nazirov	**86**	O‘quvchilarni intellektual qobiliyatini rivojlantirishda axborot texnologiyalaridan foydalanish yo‘llari va usullari
		TA’LIMDA MENEJMENT
D. Bekmuradova	**90**	Ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbarining o‘rni
		MUSIQA VA SAN’AT TA’LIMI
A. Sattorova	**93**	Tasviriy va amaliy san’at yo‘nalishida kadrlar tayyorlash zaruratining o‘ziga xosligi
		MAKTABGACHA TA’LIM
U. Yoziyeva, L. Turdiqulova	**96**	Bo‘lajak maktabgacha ta’lim tarbiyachilarida milliy iftixor tuyg‘usini shakllantirish
M. Alimardonova	**99**	Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning kognetiv ko‘nikmalarini rivojlantirishda integratsiya jarayonining ahamiyati
T. Ashurova	**102**	Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodkorlikni shakllantirishda predmetlar bilan tanishtirishning ahamiyati
Y. To‘rayev	**106**	Maktabgacha yoshdagi bolalarni to‘g’ri ovqatlantirish prinsiplari
D. Kenjayeva, G. Abdullayeva	**109**	Maktabgacha yoshdagi bolalarning kreativligini tasviriy faoliyat vositalari asosida shakllantirish texnologiyasi
R. Rashidova	**112**	Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarida milliy tuyg‘ularni shakllantirishning muhim ahamiyati
L. Parmonova	**115**	Maktabgacha ta’lim yoshidagi bola umumiy rivojlanishida montessori metodikasining o‘rni
Y. Yarmanova	**118**	Maktabgacha yoshdagi bolalarda shaxsiy sifatlarni tarkib toptirishning pedagogik shartlari
		ILM, MA’RIFAT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR
D. Ximmataliyev, M. To‘rayev	**121**	Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari muhitida bo‘lajak dasturchilarni kasbiy kompetentligini rivojlantirish
T. Bo‘riyeva	**124**	Ommaviy axborot vositalaridan foydalanib maktabgacha yoshidagi bolalarda tabiatga oid bilimlarini shakllantirishning ahamiyati
X. Nekboyev	**127**	Mediata’lim asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-tanqidiy yondashuvini takomillashtirish
		PSIXOLOGIYA
M. Boymatova	**130**	Pedagogik muloqot ijtimoiy-psixologik hamkorlik sifatida
F. Choriyeva	**134**	Maktabgacha yoshdagi bolalar xulq-atvorida yuzaga keladigan salbiy o‘zgarishlarning psixologik xususiyatlari
N. Xolbozorova	**137**	Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar ijtimoiylashuvidagi psixologik to‘siqlar
		XALQ PEDAGOGIKASI
V. Keldiyarova	**141**	Tafakkur va obrazli tafakkur haqidagi dastlabki qarashlar (Aristotel va Farobiy nazariyasi asosida)

BOSHLANG‘ICH TA’LIMNI TAKOMILLASHTIRISH – KELAJAGIMIZNING ASOSIY OMILIDIR

Ta’lim va tarbiya mazmuni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, fan, texnika, madaniyatning obyektiv talablariga asoslanadi. Ta’lim va tarbiya mazmuni tabiat, jamiyat, inson va uning mehnati to‘g‘risida ijtimoiy tartibga mos keladigan bilimlar tizimi sifatida tushuniladi, ularning o‘zlashtirilishi yosh shaxsning aqliy, axloqiy, estetik, mehnat, jismoniy tarbiyasini ta’minlaydi. Ta’lim sohasidagi amalga oshirilayotgan islohotlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “...Yosh avlodni barkamol, ma’naviy va jismonan sog‘lom, yuqori malakali kasb egasi qilib tarbiyalash, ularni mustakil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”, degan mulohazalardan ko‘rinib turibdiki, yurtimizda amalga oshirilayotgan tub islohotlarning yaratuvchisi sifatida shakllanayotgan yosh avlodni voyaga yetkazish, ularning zamon talablari darajasida bilim olishi, shaxs sifatida kamol topishi va kundalik turmush yumushlarini hal etishga tayyorlab borish masalasi asosiy vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Davlatimiz rahbari bolalar tarbiyasi jarayonida o‘z ishini puxta biladigan, malakali va har bir bolaga individual yondasha oladigan pedagog-kadrlarni jalb qilgan holda, ularni go‘daklardan fikr va tafakkurni to‘g‘ri shakllantirib bormasak, kelajakda yuksak saviya, bilim va ma’naviyatga ega bo‘lgan barkamol avlodni tarbiyalash, yosh avlodni tarbiyalashning asosiy bo‘g‘ini bo‘lgan boshlang‘ich ta’lim tizimini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilishi lozimligini ta’kidlaganlar. Zamonaviy boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari ushbu vazifalarni hal etish uchun tashkiliy jihatdan ham, mazmuniy jihatdan ham boshlang‘ich ta’limning integrativ xarakterini, o‘zining bo‘lajak kasbiy faoliyatining integrativ yo‘nalganligini aniq his qila olishi zarur. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligida integratsiyalash zarurati unda kasbiy kompetentlikni shakllantirish samaradorligini belgilab beruvchi asosiy shartlardan biri hisoblanadi.

Boshlang‘ich ta’lim tizimini takomillashtirish – bolalarga ta’lim va tarbiya berishning sifat jihatidan yangi konsepsiyalarini amaliyotga joriy etilishini talab qilmoqda. Eng muhim ustuvor yo‘nalish sifatida boshlang‘ich ta’lim oluvchilarning bilimi, malakasi, ko‘nikmasi, qobiliyatlarini yangicha yondashuvlar asosida shakllantirish, ularning o‘rganish istaklari, talablarini inobatga olgan holda o‘quv fanlarini unifikatsiyalash; chet tillarini erta o‘rganish, axborot va axborot texnologiyalarini kafolatlangan tarzda o‘zlashtirish, ta’lim oluvchilarning individualligini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish, ularning jismoniy va ruhiy salomatligini himoya qilish va mustahkamlashdan iboratdir.

Biz doimiy ravishda ta’lim oluvchilarga “nimani o‘rgatish kerak?”, “nimaga o‘rgatish kerak?”, “qanday o‘rgatish kerak?” degan savollarga javob topib, ularning yechimlari haqida izlanishimiz kerak.

Bizning fikrimizcha, bilim, malaka va ko‘nikmalar mazmunini tanlash uchun quyidagi mezonlardan foydalanish mumkin:

– shaxsning har tomonlama rivojlanishini shakllantirish vazifalari ta’lim-tarbiya mazmunida aks etishi;

– ilm-fan, texnika, madaniyat, ijtimoiy munosabatlarning asosiy yutuqlarini ta’lim-tarbiya mazmuniga kiritish;

– ta’lim-tarbiya mazmunini boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining xususiyatlari, imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda shakllantirish va doimiy muvofiqlashtirib borish;

– boshlang‘ich ta’lim tizimini takomillashtirishda xalqaro tajribalarni o‘rganish hamda ularning tahlillari asosida, eng maqbullaridan foydalanish;

– fanlararo aloqalarni inobatga olish, o‘quv materiallarining takrorlanishini oldini olish, boshqa fanlarni o‘rganish jarayonida shakllangan bilim, ko‘nikma va malakalarga tayanishni ta’minlash.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan vazifalardan kelib chiqib, yana bir, “O‘qituvchi faoliyatidagi eng muhim narsa nima?” degan savolga qanday javob bergan ma’qul? Nazarimizda, bu – o‘quvchilarni o‘rganishga o‘rgatish. O‘quvchilarning o‘rganishi kerak bo‘lgan narsalari esa cheksiz ko‘p – eng muhimi, ular mehnatdan qochmaslikka, ongli, samarali, ijodkorona va mas’uliyat bilan mehnat qilishga o‘rganishlari lozim. Bugungi kunda o‘qituvchilar oldiga qo‘yilayotgan talab ham shu: o‘quv-tarbiya jarayonini muntazam takomillashtirib borish, ta’lim, tarbiya bilan bog‘liq, rivojlantiruvchi va, albatta, amaliy masalalarni sifatli hamda majmuali tarzda hal etish zarur. O‘rgatishga intilish izlanishga undaydi. O‘qituvchi har bir o‘quvchisining maksimal darajadagi faolligini, ayniqsa, jadal fikrlay olish qobiliyatini o‘stirishni ta’minlovchi ish shakllarini izlashi, yangi ko‘rgazmali qurollar yaratish, yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash yo‘lida ish olib borishi shart. Shu tariqa u yangi ish usullari, o‘yinlar, guruhlarda faoliyat yuritishdan foydalanish uchun o‘quvchilarning hayoti, ularni o‘rab turgan real borliq bilan bevosita bog‘liq original, qiziqarli vaziyatlarni topishi, o‘rgatayotgan fani haqiqatan ham muloqot tili, o‘zaro fikr almashish vositasi bo‘ladigan shart-sharoitlarni yaratishi joiz. Bu esa dars jarayoniga chuqur o‘ylangan, butun usuliy tizimga muvofiq bo‘lgan o‘zgarishlar kiritilishini talab qiladi. O‘qituvchi mehnati bilan o‘quvchilar mehnati albatta bir-biri bilan uyg‘unlashib, chinakam ijodiy faoliyatga aylanib ketishi kerak, shundagina u har ikkala tomonda qoniqish hissini paydo qiladi. Faoliyat orqali biz muayyan maqsadga, natijaga erishishni istaymiz. Shuning uchun ham o‘quvchilarga ular nimalarga erishganliklarini namoyish etish, o‘z yutuqlarini tuyish imkonini berish, shu tariqa keyingi xatti-harakatlarga rag‘batlantirish, ularni o‘z ishlari va o‘rtoqlari faoliyatini nazorat qilishga o‘rgatish lozim.

Endi o‘qituvchining asosiy vazifasi o‘quvchiga tayyor bilim berish emas, balki bilimlarni mustaqil egallashlariga ko‘maklashishdan iborat. Buning uchun o‘quvchilarning o‘z qobiliyati va imkoniyatlarini to‘la-to‘kis namoyon etishlari va butun kuch-g‘ayratlarini bilim olishga sarflashlari uchun imkon beradigan darajada ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish zarur. Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganilaridek, “Biz ta’lim va tarbiya tizimining barcha bo‘g‘inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o‘zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz”.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy ta’lim tizimining asosini sifatli va yuqori texnologiyali muhit tashkil etadi. Uning yaratilishi va rivojlanishi texnik jihatdan murakkab, shu bilan bir qatorda bunday muhit ta’lim tizimini takomillashtirishga, ta’lim jarayoniga axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishga xizmat qiladi. Ta’lim jarayonida multimedia texnologiyalaridan foydalanish mashg‘ulotlarni interfaol rejimda olib borishga imkon beradi.

Shaxlo NURULLAYEVA,
Qarshi davlat universiteti
"Pedagogika" fakulteti dekani, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

ZAMONAVIY O'QITUVCHI MAHORATI VA IJODKORLIGI MUAMMOLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada zamonaviy o'qituvchi mahorati, uning tarkibiy qismlari bo'lgan kasbiy bilim, pedagogik qobiliyat va pedagogik texnika turlari haqida ma'lumot berilgan. Shuningdek, pedagogik mahoratning jamiyat ijtimoiy taraqqiyotidagi ahamiyati tahlil qilingan.

Kalit so'zlar. Mahorat, pedagogik mahorat, kasbiy bilim, pedagogik qobiliyat, pedagogik texnika, nutq texnikasi, mimika, pantomimika.

В данной статье представлена информация о мастерстве современного педагога, видах профессиональных знаний, педагогических умений и педагогических приемов, которые являются его составляющими. Проанализировано также значение педагогического мастерства в социальном развитии общества.

Ключевые слова. Мастерство, педагогическое мастерство, профессиональные знания, педагогические способности, педагогическая техника, техника речи, мимика, пантомимика.

This article provides information on the skill of a modern teacher, types of professional knowledge, pedagogical skills and pedagogical techniques that are its components. The importance of pedagogical skills in the social development of society is also analyzed.

Key words. Skill, pedagogical skill, professional knowledge, pedagogical abilities, pedagogical technique, speech technique, facial expressions, pantomime.

Insonlarning ilm-u zakovati yuksak bo'lishi, ma'naviyati boy bo'lishi, xulq-atvori axloqiy me'yorlarga mos bo'lishini istovchi har qanday jamiyatda, har qanday davrda ham ustoz-murabbiylar faoliyatiga alohida e'tibor qaratilgan, ularning mehnati qadrlangan. Jumladan, globallashuv fan va texnologiyalar tezkor sur'atda taraqqiy etayotgan bugungi davrda yoshlarning ilmli bo'lishi, berilayotgan bilimlarning zamonaviy talablarga mos bo'lishi taqozo etiladi. Aynan ushbu holat bugungi kunda mahoratli va ijodkor o'qituvchiga bo'lgan ehtiyoj masalasini dolzarb qilib qo'ymoqda. Xo'sh mahoratli o'qituvchi qanday bo'lishi lozim? Pedagogik mahorat masalasini tahlil qilishdan avval, mahorat tushunchasining mohiyati haqida to'xtalib o'tamiz. "Mohir" so'zi arab tilidan olingan bo'lib, "mohirlik, ustalik, epchillik" ma'nolarini anglatadi. Mahoratli, mohir tushunchalari barcha kasblarga ham nisbatan ishlatilib, "o'z kasbining ustasi", "o'z kasbini chuqur egallagan inson", tegishli sohada yuksak natijalarga erishgan, barcha e'tiborini qozongan mutaxassislarga nisbatan ishlatiladi. Ya'ni o'z sohasida ma'lum bir yangilik yaratgan, yutuqlarga erishgan va ushbu yutug'larini ommalashtirgan kasb egalariga nisbatan bu atama ishlatiladi.

Pedagogik mahorat xususida to'xtaladigan bo'lsak, o'qituvchilik kasbining boshqa sohalardan farq qiluvchi quyidagi o'ziga xos xususiyatlari alohida qayd etiladi:

birinchidan, pedagogik kasb inson shaxsi, uni rivojlantirish ustida ish olib boradi, ya'ni pedagogik faoliyat obyektida inson shaxsi yetakchi o‘rin tutadi. Demak, so‘z insonlar haqida borar ekan, o‘qituvchi xato qilishi mumkin emas;

ikkinchidan, ushbu pedagogik jarayon keyingi bir necha yil emas, bir necha o‘n hatto bir necha yuz yildan keyin o‘z "mevasi"ni beradi. Bugungi yoshlar kelajak uchun xizmat qilishi lozim;

uchinchidan, "kelajak tarbiyachisi" sifatidagi vazifasi o‘qituvchidan tinimsiz izlanishni, o‘z sohasini chuqur egallashni, kelajakni ko‘ra bilishni, jamiyat taraqqiyotini bashoratlay olishni taqozo etadi;

to‘rtinchidan, o‘qituvchi qanday kayfiyatda bo‘lishi – tushkun yoki o‘ta xursand bo‘lishidan qat'i nazar, uning kayfiyati o‘quvchilar auditoriyasiga salbiy ta'sir etmasligi uchun o‘z kayfiyatini boshqara olishni bilishi lozim;

beshinchidan, boshqa ishlab chiqarish sohalaridan farqli ravishda, aynan bir-birini takrorlaydigan pedagogik vaziyat, pedagogik holat mavjud emas. Zero, pedagogik jarayon ishtirokchilari bo‘lmish inson tabiatan betakror qilib yaratilgandir;

oltinchidan, ushbu kasbning mashaqqatlari faqatgina o‘z kasbi va bolalarni sevuvchi fidoyilargina mohirlik darajasiga yetishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Demak, o‘z navbatida, pedagog mahorati ham boshqa kasb mahoratlaridan farq qiladi. Fikrlarimizni umumlashtirgan holda pedagogik mahorat tushunchasiga ta'rif beramiz:

Pedagogik mahorat o‘z kasbini sevuvchi, ustida tinimsiz izlanuvchi, sohasiga doir bilimlarini doimiy ravishda boyitib boruvchi har bir pedagog egallashi mumkin bo‘lgan ta'lim-tarbiya berish san'atidir.

Pedagogik mahoratning san'atga mengzalishi bejiz emas, chunki mahoratli pedagog o‘zigi xos yangiliklar yaratishi, ijod namunalaridan pedagogik jarayonda samarali foydalana bilishi va tajribalarini ommalashtira olishi talab etiladi.

O‘z ishining mohir ustasi bo‘lgan pedagog – bu yuksak darajada madaniyatli, o‘z fanini chuqur biladigan, fanning yoki san'atning tegishli sohalarini yaxshi tahlil eta oladigan, tarbiyalash va o‘qitish metodikasini mukammal egallagan mutaxassis darajasiga yetishi lozim.

Yuqorida keltirilgan ta'riflarni yaxshi tushunib, uning ma'no mohiyatini tahlil etadigan bo‘lsak, ushbu ta'rifda pedagogik mahorat tushunchasi mazmuniga kiradigan quyidagi masalalarni ajratish mumkin bo‘ladi:

1. Umumiy madaniyatning yuqori darajasi, bilimdonlik va aql-zakovatning yuksak ko‘rsatkichi;

2. O‘z sohasiga doir keng va chuqur bilim;

3. Pedagogika, umumiy, yosh va pedagogik-psixologiya kabi fanlar sohasidagi bilimlar bilan qurollanganlik, ulardan o‘qitish va tarbiyalash ishlari tajribasida erkin va ustalik bilan foydalana bilish;

4. O‘quv-tarbiya ishlari metodikasini mukammal egallaganlik.

O‘qituvchilik kasbi dunyodagi eng qadimiy kasblardan biridir. Uning ijtimoiy ahamiyati hech qachon kamaymaydi, so‘nmaydi. O‘qituvchilik kasbi bir qator muhim talablarga javob berishi kerak.


Hozirgi zamon o‘qituvchisining shaxsi uchun eng muhim asos – bu insonparvarlik yo‘nalishidir. O‘qituvchi juda yuksak darajada umumiy madaniyatga ega odam. U juda ko‘p narsani bilishi kerak, hozirgi zamonda o‘zi o‘qiyotgan fan sohasidagi yutuqlardan, yangiliklardan xabardor bo‘lishi, o‘z o‘quvchilarini har kuni o‘qishga o‘rgatib borish

uchun o‘zi muntazam o‘qib o‘rganishi, o‘z bilimini to‘ldirib, chuqurlashtirib borishi kerak.

Demak, o‘qituvchi pedagogik mahoratining asosi o‘z ustida ishlab borish – mustaqil o‘qishdir.

O‘qituvchining pedagogik mahorati shunday bir malakalar yig‘indisidirki, u pedagogga tarbiyalanuvchilar ko‘rib va eshitib turgan narsalar orqali o‘z fikrlarini yetkazish imkonini beradi.

Pedagogik mahorat kompleks tushuncha sifatida quyidagi komponentlarga ega:



Demak, pedagogik mahorat komponentlari 3 ta asosiy guruhga bo‘linadi. Bular:

1. Kasbiy bilimlar.
2. Pedagogik qobiliyat.
3. Pedagogik texnika.

Nazariy bilimlar – tegishli fan sohasiga doir nazariy ma’lumotlar to‘plami;

Amaliy bilimlar – o‘zlashtirilgan nazariy bilimlarni amalda qo‘llash uchun zarur bo‘ladigan bilim, ko‘nikma va malakalar to‘plami;

Metodik bilimlar – o‘zlashtirilgan nazariy va amaliy bilimlarni yosh avlodga o‘rgatish uchun zarur bo‘ladigan metodik bilim, tajribalardan iborat bo‘ladi.

Pedagogik qobiliyat tug‘ma layoqatning faoliyat davomida takomillashgan ko‘rinishi, subyektiv shart-sharoitdir. Pedagogik qobiliyatning bir qancha turlari bo‘lib, ular pedagogik mahoratni egallash uchun xizmat qiladi:

Ularning har biri haqida batafsil to‘xtalib o‘tamiz:

1. Akademik qobiliyat – sohaga oid nazariy bilimlarni o‘zlashtirish uchun xizmat qiladigan qobiliyat turi. Masalan, analitik tafakkuri rivojlangan mutaxassisda aniq fanlarni o‘zlashtirishga nisbatan qobiliyat yaxshi shakllangan bo‘ladi.

2. Didaktik qobiliyat – o‘zlashtirilgan bilimlarni amalda yosh avlodga o‘rgatish uchun yordam beruvchi qobiliyat turi.

3. Kommunikativ qobiliyat turi pedagogik jarayon ishtirokchilari – o‘quvchilar va o‘qituvchilar jamoasi, o‘quvchilarning ota-onalari va boshqa ishtirokchilar bilan muloqot o‘rnata olish qobiliyatidir.

4. Suggestiv qobiliyat – o‘quvchilarga emotsional ta’sir o‘tkaza olish, ularni o‘z imkoniyatlariga ishontira olish va obro‘ orttira olish qobiliyatidir.

5. Perseptiv qobiliyat – o‘quvchilar ruhiy holatini idrok eta olish qobiliyati. Ya’ni o‘quvchilarning yuz ifodasi, ko‘z qarashlarini kuzatish asosida ularning ichki dunyosiga nazar tashlay olish qobiliyatidir.

6. Konstruktiv qobiliyat – o‘z faoliyatini va pedagogik jarayonni to‘g‘ri rejalashtira olish, vaqtni to‘g‘ri taqsimlay olish va jamoa faoliyatini to‘g‘ri tashkil eta olish qobiliyati.

7. Gnostik qobiliyat – pedagogik jarayonda o‘ziga xos tadqiqotlar o‘tkaza olish, o‘z faoliyatini to‘g‘ri tahlil qilish asosida faoliyatni qayta qurish qobiliyati.

Pedagogik texnika ham pedagogik qobiliyatning tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, peda-

gogning o‘z xatti-harakatlari, nutqi, psixologik holatini boshqarish asosida o‘quvchilarga shaxsan ta’sir ko‘rsatish mexanizmlari yig‘indisidan iboratdir.

Nutq texnikasi o‘qituvchining asosiy quroli bo‘lib, pedagog har bir ta’lim-tarbiya jarayonini nutq asosida rejalashtiradi, tashkil etadi, boshqaradi, amalga oshiradi. O‘z navbatida nutq texnikasining ham ritm, tembr, diapozon, temp kabi elementlari mavjuddir. Shuningdek, nutq texnikasini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishning bir qancha me’yorlari mavjud.

O‘z xulq-atvorini boshqarish texnikasi o‘qituvchiga gavdani tutishdan boshlab, toki sinf xonasidagi xatti-harakatlarini ham to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish asosida o‘quvchilarga ijobiy ta’sir etish jarayonlarini boshqarishni o‘z ichiga oladi.

O‘z psixologik holatini boshqarish texnikasi pedagogik faoliyatda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bu o‘quvchilarga bevosita ta’sir etish bilan birga, o‘qituvchiga o‘z psixologik holatini to‘g‘ri tashkil etish orqali salomatligini saqlashga ham yordam beradi.

Mimika – bu yuz muskullari orqali turli fikr-mulohazalarni noverbal yetkazish usuli hisoblanadi. Bunda o‘qituvchi ko‘z-qosh, yuz muskullari orqali o‘z fikr-mulohazalarini ifodalaydi. Shuningdek, mimika verbal ta’sir samaradorligini oshirishga ham xizmat qiladi.

Pantomimika – bu gavda, qo‘l, oyoq va bosh harakatlari orqali fikrlarni noverbal yetkazish usuli hisoblanadi. Bunda o‘qituvchi turli harakatlar orqali o‘z fikr-mulohazalarini o‘quvchilarga yetkazadi. Ko‘p hollarda ushbu noverbal ta’sir usullari verbal usullarga nisbatan samarador bo‘ladi.

Pedagogik jarayon ishtirokchilarning o‘zaro muloqotlari asosida tashkil etilishi sababli muloqot jarayonini boshqarish texnikasi o‘qituvchi mahoratida muhim o‘rin tutadi. Mahoratli pedagog nafaqat o‘qituvchi-o‘quvchi muloqotini, balki o‘qituvchi-o‘qituvchi, o‘qituvchi-ota-onalar, o‘quvchi-o‘quvchi muloqotlarini ham boshqara olishi lozim bo‘ladi.

Pedagogik mahoratning yuqoridagi tarkibiy qismlarining o‘qituvchi faoliyatida ifodalanishi, shakllanishi bosqichma-bosqich faoliyat jarayonida, tajribalar to‘plash natijasida amalga oshadigan jarayon bo‘lib, o‘qituvchiga innovatsion va kreativ faoliyatni yo‘lga qo‘yishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 2-jild. Tahrir hay’ati: –T. Mirzayev va boshq.: O‘zR FA Til va adabiyot instituti. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. 672-b.

2. Nurullayeva Sh. “Pedagogik mahorat” kursidan amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish texnologiyasi. –Qarshi: Nasaf, 2011. 96-b.

3. Nurullayeva Sh. Emotional stability as one of the professional qualities of teachers. Science and world. International scientific journal. № 7(47), 2017. Vol. II. Page 64-65.

4. S.N.Yuldashev “Boshlang‘ich ta’lim ixtisosligi talabalarini texnologik ta’limga kreativ yondoshuvga o‘rgatish metodikasi” / Pedagogika va psixologiyada innovatsiyalar 3-maxsus son –T.: 2020

Nodima ORIPOVA,
Qarshi davlat universiteti
“Maktabgacha ta’lim” kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

BO‘LAJAK MUTAXASSISLARDA KASBIY E’TIQODNI SHAKLLANTIRISH MEZONLARI

Annotatsiya

Maqolada bo‘lajak mutaxassislarda kasbiy e’tiqodni shakllantirishning zarurati va dolzarbligi hamda kasbiy e’tiqodni shakllantirish mezonlari haqida fikr bildirilgan.

Kalit so‘zlar. E’tiqod, kasbiy e’tiqod, kasbiy bilim, kasbiy sadoqat, kasbiy fidoiylik, kasbiy iroda, kasbiy vijdon va halollik.

В этой статье обсуждается необходимость и актуальность формирования профессиональных убеждений у будущих профессионалов и критерии формирования профессиональных убеждений.

Ключевые слова. Убеждения, профессиональное убеждение, профессиональные знания, профессиональная лояльность, профессиональная преданность, профессиональная воля, профессиональная совесть и честность.

This article discusses the necessity and relevance of the formation of professional beliefs in future professionals and the criteria for the formation of professional beliefs.

Key words. Beliefs, professional conviction, professional knowledge, professional loyalty, professional dedication, professional will, professional conscience and honesty.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmonida O‘zbekiston Respublikasida Oliy ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, Oliy ta’limni modernizatsiya qilish kabi masalalar ilgari surilgan.

Darhaqiqat, bugun davlatimizda zamonaviy bilim va kasbiy tayyorgarligi yuqori bo‘lgan kadrlarga ehtiyoj juda yuqori hisoblanadi. Negaki, mamlakatimizning har qachongidan ko‘ra rivojlangan davlatlar bilan integratsiyasi kuchayib bormoqda. Shu bois biz yetishtirayotgan kadrlar ham yuksak texnologiyalarni puxta o‘zlashtirgan, kasbiy bilimi yuqori, yangi-yangi g‘oyalarni yarata oladigan, jahon kadrlar bozorida inqirozga uchramaydigan kadr bo‘lmog‘i lozim. Bizga ma’lumki, bir kasbda samarali mehnat qilish uchun esa insonlarda kasbiy e’tiqod shakllangan bo‘lmog‘i talab etiladi. Zero, kasbiy e’tiqod shaxsni jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lishida, o‘z qobiliyat va imkoniyatlarini namoyon etishida muhim rol o‘ynaydi. Biroq turli sabablarga ko‘ra bugungi davr yoshlarida kasbiy qo‘nimsizlik holati kuzatilmoqda. Bizningcha, bu muammoning bir qancha sabablari mavjudki, ular:

1. Shaxs faoliyatining maqsadli yo‘naltirilmaganligi.
2. Bolalikdan yoshlarda ma’lum bir kasbga doir qiziqish va motiv hosil qilinmaganligi.
3. Bugungi davr yoshlarini ko‘proq moddiy manfaatdorlik qiziqtirayotgani.
4. Bo‘lajak mutaxassislarda kasbiy bilimlarning yetarli darajada shakllanmaganligi va boshqalar.

Demak, davlat va jamiyat taraqqiyotida yoshlarning kasbiy e'tiqodga egaligi hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi.

Shu bois biz kasbiy e'tiqodni shakllantirish mezonlari sifatida: kasbiy bilim, kasbiy sadoqat, kasbiy fidoiylik, kasbiy iroda, kasbiy vijdon va halollik kabilarni e'tirof etdik.

Kasbiy bilim – kishilarning tanlagan kasbiga oid to‘plagan ma'lumotlari; kasbga oid tushunchalarning tizimli ravishda ongimizda aks etishi. Kasbiy tushunchalar kasbiy bilim darajasiga ko‘tarilishi uchun quyidagi talablarga javob berishi lozim:

birinchidan, bu ma'lumotlarning real hayot va voqelikka mosligi;

ikkinchidan, kasbiy ma'lumotlarning yetarli darajada ishonarli bo‘lishi;

uchinchidan, bu ma'lumotlar dalillar bilan asoslangan bo‘lishi lozim.

Uchala shart birgalikda mavjud ma'lumotlarni kasbiy bilim darajasiga olib chiqadi. Inson ijtimoiy taraqqiyot jarayonida bilmaslikdan bilishga, mavhum bilimlardan mukammal va aniq bilimlar hosil qilish tomon boradi. Kishining moddiy dunyo to‘g‘risidagi bilimi nisbiydir, u doimo rivojlanib boradi. Xuddi shunday kasbiy bilim ham kundalik tajriba, kuzatish orqali to‘planadi. Darhaqiqat, kasbiy e'tiqodning o‘zagini kasbiy bilimlar tashkil etadi. Zero, bilimsiz biror bir kasbni egallab bo‘lmaydi. Qachonki shaxs o‘zi tanlangan kasb haqida to‘liq bilimga ega bo‘lsa, uning sir-asrorlarini puxta o‘rganib, amaliy tajribasida foydalana olsagina unda kasbiga nisbatan qiziqish paydo bo‘ladi.

Kasbiy sadoqat – o‘z kasbiga sodiqlik, uni qadrlash, vafodorlik. Har qanday qiyinchilik va to‘siqlarga qaramasdan kasbni tark etmaslik. Kasbiy sadoqat o‘z kasbini chin dildan sevish va uni qadrlash tuyg‘usi bilan bevosita bog‘liq hisoblanadi. Ba'zan kishilarda kasbiy qo‘nimsizlik uchrab turadi, albatta bu holatning o‘ziga xos obyektiv va subyektiv sabablari bo‘lishi mumkin. Biroq, ijtimoiy hayotda har qanday holatda o‘z kasbiga sodiq qolgan va shu kasbi orqali jamiyatda obro‘-e'tiborga ega bo‘lgan insonlar yo‘q emas. Zero, har bir kasbning o‘ziga xos mashaqqati va qiyinchiligi bor.

Kasbiy fidoiylik – kasbiy e'tiqodning mazmunini tashkil etuvchi asosiy mezonlardan biri. O‘zbek tilining izohli lug‘atida “fidoiylik” tushunchasi quyidagicha izohlanadi: “o‘z tanlangan yo‘li, maslagi, g‘oyasiga, kasb-koriga yoki biror kimsaga sodiqlik, o‘zini baxshida etish”.

Darhaqiqat, kishilar hayoti va faoliyatida fidoiylik muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, kishida har qanday faoliyatga nisbatan fidoiylik bo‘lmasa, mazkur faoliyatda o‘sish va rivojlanish bo‘lmaydi. Fidoiy kishilar mehnati tufayligina har qanday faoliyatda o‘sish va yuksalish ro‘y beradi. Xuddi shunday kasbiy faoliyat jarayonida ham fidoiy shaxslarni juda ko‘p uchratamiz. Ularning sermahsul mehnati tufayli jamoa yutuqlarga erishadi, eng muhimi, jamoaning boshqa a'zolari ham ularning ortidan boradi. Kasbga fidoiy insonlar hayotining mazmunini kasb bilan bog‘laydilar. Ular o‘zlariga berilgan vazifalarni sidqidildan, o‘z vaqtida va talab darajada bajarib boradilar hamda bu borada boshqalarga o‘rnak bo‘ladi.

Shuningdek, kasbiy faoliyatda tanlagan kasbiga nisbatan sadoqat yoki kasbiy iroda bo‘lmasa ham shaxs bunday kasbda uzoq va muvaffaqiyatli faoliyat yurita olmaydi. Modomiki, har bir kasbning o‘z qiyinchiligi va murakkabliklari mavjuddir. Ana shunday vaqtda shaxsdan iroda va sabr-matonat talab etiladi. Sabrsizlik, irodasizlik tufayli hayotda ko‘plab kishilar biror bir kasbda uzoq muddat faoliyat yurita olmay, kasbiy qo‘nimsizlikka uchraydi. Natijada, shaxsda o‘zidan qoniqmaslik, boshqalarga nisbatan norozilik, agressiya kuchayib boradi.

Kasbiy iroda – shaxs faoliyatining barcha turlari kabi kasbiy faoliyatda ham kishidan mustahkam iroda talab etadi. Shu bilan birga, kasbiy iroda kasbdagi qiyinchiliklarni

yengishda o‘zida kuch, sabr topa bilishdir. Kasbiy iroda kasbdagi xatti-harakatlar, voqea-hodisalar bilan bog‘liq bo‘lib, kishining shaxsiy ehtiyoj va istaklarni ongli ravishda rad etishdir. Kasbiy iroda kasbiy mehnat jarayonida paydo bo‘ladi va mustahkamlanib boradi. Kasbiy iroda shakllanish jarayonida shaxs ichki va tashqi qarshiliklarga duch keladi. Ichki qarshiliklar shaxsning o‘zi bilan bog‘liq hodisadir. Ya’ni bunda shaxs o‘z xohishlariga qarshi turadi. Shaxsning ichki istaklarini yenga olishi, o‘ziga talab qo‘yishi, o‘zini boshqarishi ichki iroda deb ataladi. Tashqi qarshiliklar esa tevarak-atrofdagi voqea-hodisalar jarayonida uchraydi. Shaxsning ana shunday tashqi qarshiliklarni yenga olish tashqi iroda deb ataladi.

Har qanday vaziyatlarda o‘zini tuta olishi, sabr, qat’iylik, chidam va toqat, prinsipiallik kabilar kasbiy irodaning sifatlariga kiradi. Shu bilan birga, kasbiy irodaning yuksalib borishi shaxsning oldiga qo‘ygan maqsadi bilan bog‘liq hisoblanadi. Chunki, kishi o‘z oldiga maqsad qo‘yar ekan, ana shu maqsad yo‘lidagi barcha qiyinchiliklarni yengishga harakat qiladi. Qiyinchiliklarni yengishda esa kishida iroda toblanib boradi.

Kasbiy vijdon va halollik – vijdon axloqiy kategoriya hisoblanadi. Shaxsning yaxshilik va yomonlik, salbiy va ijobiy kabi xatti-harakatlar, jarayonlarga adolatli yondashuvi, bahosi hamda shaxsning o‘z-o‘zini ichki nazorat qila olish, o‘z xatti-harakatlariga adolatli baho berishi, ko‘z ungida sodir bo‘layotgan voqea-hodilarni mustaqil tahlil qila olishi, jur’atidir. Kasbiy vijdon kasbiy faoliyat jarayonida namoyon bo‘ladi. Bunday shaxslar o‘ziga berilgan vazifalarni va o‘z ishini sidqidildan bajaradi. Ayniqsa, ularda faoliyat yuritayotgan kasbiga nisbatan burch va mas’uliyat yuqori darajada namoyon bo‘ladi. Ular o‘zlarida bor bilim va tajribalarni boshqalarga ulashishda chin dildan mehnat qiladilar va bunga o‘zlarining burchi deb qaraydilar. Shu bilan birga, kasbiy vijdonli kishi kasbdoshlari va boshqalarga yaxshilik qilishni, beg‘araz yordam ko‘rsatishni, birovni dilini og‘ritmaslikni o‘zining insoniy burchi deb biladi. Kasbiy vijdon shaxsning kasbiy faoliyatdagi aql va fikrining haqiqiy o‘lchovidir. Shu sababli vijdonli kishilar kasbiy faolyaitda obro‘ va e’tiborga ega bo‘ladilar. Kasbiy vijdon kasbiy halollik bilan bevosita bog‘liq hisoblanadi. Darhaqiqat, vijdonli kishi halol mehnat qiladi. Islom dinida ham mo‘min-musulmonlarga halol kasb orqali halol rizq topish, ro‘zg‘or tebratish, halol taom-ichimliklarni iste’mol qilish buyurilgan.

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash joizki, bo‘lajak mutaxassislarda kasbiy e’tiqodni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi, chunki, kasbiy e’tiqodga ega kishi o‘z kasbini qadrlaydi va halol mehnati orqali jamiyatda obro‘ va e’tiborga ega bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. –T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 342-b.

2. Ochilov M.O., Ochilova N.M. O‘qituvchi odobi. –T., 1997.-136 b.

3. Ochilov M. Muallim-qalb me’mori. Saylanma. –T.,: O‘qituvchi,2001.-430b

4. Oripova Nodima Khalilovna, Mirzaeva Manzura Axmatjanovna, Nazirov Usmon Kosimovich, Keldiyarova Vazira Botirovna. MAIN CORE AND MEANING OF SHAPING PROFESSIONAL FAITH. JCR. 2020; 7(2): 242-245.

Sodiq YULDASHEV,
Qarshi davlat universiteti “Boshlang‘ich ta’lim” kafedrasi o‘qituvchisi

BOSHLANG‘ICH TA’LIM IXTISOSLIGI TALABALARINI TEXNOLOGIK TA’LIMGA KREATIV YONDASHUVGA TAYYORLASHNING NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya

Maqolada boshlang‘ich ta’lim ixtisosligi talabalarini texnologik ta’limga kreativ yondashuvga tayyorlashning nazariy asoslari, texnologiya va uni o‘qitish metodikasi fanining boshqa fanlar bilan aloqasi yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar. Texnologik ta’limga kreativ yondashuvga tayyorlash, texnologik ta’limda kreativ g‘oya, texnologik ta’limda kreativ reja, texnologik ta’limda kreativ muhit, kreativ faoliyat.

В государственном описании теоретических основ подготовки начальных классов творческих классов к творческому подходу к технологическому образованию, взаимодействию технологий и методов обучения с лекарственными дисциплинами.

Ключевые слова. Подготовка к творческому подходу к технологическому образованию, творческая идея в технологическом образовании, творческий план в технологическом образовании, творческая среда в технологическом образовании, творческая деятельность.

In the state description of the theoretical foundations of the preparation of primary classes of creative classes for a creative approach to technology education, the interaction of technologies and teaching methods with medicinal disciplines.

Key words. Preparation for a creative approach to technology education, creative idea in technology education, creative plan in technology education, creative environment in technology education, creative activity.

Texnologiya va uni o‘qitish metodikasi fanini o‘rganish pedagogik nazariyasi va tarixi, pedagogik mahorat, psixologiya, demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti, falsafa, mantiq, etika, estetika, ma’naviyat, O‘zbekiston tarixi, maktab gigiyenasi va fiziologiyasi, ona tili, matematika hamda tabiat va o‘qitish metodikasi fanlari bilan o‘zaro bog‘liqlikda quriladi.

Texnologiya va uni o‘qitish metodikasi fan sifatida bir qancha asoslarga ega. Bulardan eng ahamiyatlilari ijtimoiy, falsafiy, metodologik, gigiyenik, mafkuraviy, huquqiy-me’yoriy, iqtisodiy, tarixiy, nazariy, amaliy va boshqa asoslar hisoblanadi. Ular bilan qisqacha tanishib chiqamiz.

Texnologiya va uni o‘qitish metodikasining ijtimoiy asosi har bir shaxs, jamiyat va davlatning ta’lim-tarbiya sohasidagi ehtiyojlaridan kelib chiqadi va shu ehtiyojlarni qondirishning maqsad va talablarini tashkiliy shakllari va usullarini belgilaydi. U shaxsning jamiyat va davlat rivojlanishida asosiy omillardan hisoblanadi. Texnologiya va uni o‘qitish metodikasining falsafiy asosi uning maqsadlari hamda tashkiliy shakl va usullarini falsafiy jihatdan to‘g‘ri yo‘nalishda bo‘lishini ta’minlashga xizmat qiladi. Falsafiy oqimlar va yo‘nalishlarning har biri ta’lim-tarbiya masalalariga o‘ziga xos yondashadi.

Shu sababli texnologiya va uni o‘qitish metodikasi fanining falsafiy yo‘nalishi uning to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini, jamiyatning ma’lum maqsadlariga muvofiq yoki zidligini ko‘rsatadi. Bu texnologiya va uni o‘qitish metodikasiga baho berishda asosiy ko‘rsatkichlardan hisoblanadi.

Texnologiya va uni o‘qitish metodikasi fanining metodologik asosi uni amalga oshirishda qanday metodlarga asoslanishini belgilaydi, insonlarning olamini hamda o‘zlarini bilishlari turli tarixiy davrlarda turlicha asoslarga ega bo‘lgan va ular o‘ziga xos metodlarni keltirib chiqargan. Hozir olam va uning xususiyatlari haqida xolis ma’lumotlar olish haqqoniy bilimlar hosil qilishninng ilmiy metodikasi texnologiya va uni o‘qitish metodikasining metodologik asosi hisoblanadi. Metodologik asosning ilmiy jihatdan to‘g‘ri bo‘lishi texnologiya va uni o‘qitish metodikasi uchun zaruriy shartdir. Texnologiya va uni o‘qitish metodikasining didaktik asosi uning ta’lim-tarbiya qoida va tamoyillariga muvofiqligini belgilaydi. Didaktik talablar ta’lim-tarbiyaviy vazifalarning nazariy jihatdan to‘g‘ri bajarilishini ta’minlaydi.

Texnologiya va uni o‘qitish metodikasi fanining didaktik jihatdan to‘g‘ri bo‘lishi uning yuqori samaradorligining zaruriy sharti hisoblanadi. Buning uchun zamonaviy didaktikaning ilmiy xulosalaridan ijodiy foydalanish talab qilinadi.

Texnologiya va uni o‘qitish metodikasi fanining pedagogik asosi. Zamonaviy pedagogika fanining ilmiy xulosalaridan kelib chiqadi. Bunda texnologiya va uni o‘qitish metodikasi fanining umumiy tarkibiy tuzilmasi, mazmuni, shakli, usullari, vositalari, pedagogik jarayonninng tashkil qilinishi, olib borilishi, uninng diagnostikasi, monitoringi, o‘quv-mavzu rejalar va shu kabilarninng ilmiy jihatdan to‘g‘ri bo‘lishi ta’minlanadi. Texnologiya va uni o‘qitish metodikasi fani hozirgi pedagogika faninng rivojlanishida katta o‘rin egallab bormoqda.

Texnologiya va uni o‘qitish metodikasi fanining psixologik asosi psixologiya fanining ilmiy xulosalari va tavsiyalari bilan belgilanadi. Ulardan ta’lim-tarbiya jarayonida to‘g‘ri foydalanish orqaligina kutilgan natijaga erishish mumkin. Shu sababli Texnologiya va uni o‘qitish metodikasi fanini o‘rganishda psixologiya qonunlarini to‘liq hisobga olishi talab etiladi.

Ta’limninng har bir bosqichida tegishli yosh psixologiyasi xususiyatlariga moslashtirilgan usullar qo‘llaniladi. Har bir bosqichda tegishli darajadagi bilim va tarbiya beriladi. Bu masalalarni o‘rganish bilan pedagogik psixologiya fani shug‘ullanadi.

Texnologiya va uni o‘qitish metodikasi faninining fiziologik asosi o‘quvchilarning turli yoshdagi fiziologik xususiyatlarini hisobga olishdan iborat. Bunda o‘g‘il va qiz bolalar fiziologiyasidagi farqlar alohida hisobga olinishi lozim. Texnologiya va uni o‘qitish metodikasi fanini o‘rganish jarayonida fiziologik talablarni hisobga olish sog‘lom avlodni voyaga yetkazishning zaruriy sharti hisoblanadi.

Texnologiya va uni o‘qitish metodikasi fanining gigiyenik asosi ta’lim-tarbiya jarayonida salomatlikni saqlash talablariga rioya qilishdan iborat. Bunda turli zararli va ortiqcha ta’sirlarni bartaraf qilish, o‘quv sharoiti: yoritilganlik, harorat, havoninng tozaligi, o‘quvchininng va o‘qituvchininng ish o‘rni, jihozlar, sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya qilinganligi, o‘quv yuklamalarining me’yorlari, didaktik vositalarninng qulayligi sifati va shu kabilar tibbiyot, fiziologiya, ekologiya talablariga, insonparvarlik va xalqparvarlik g‘oyalariga muvofiq bo‘lgan ilmiy asoslarda belgilab boriladi.

Texnologiya va uni o‘qitish metodikasi fanining mafkuraviy asosi uninng milliy istiqlol g‘oyasi va mafkurasi tamoyillarini o‘zida mujassam etishi va ularni amalga oshirishga yo‘naltirilgan bo‘lishidan iborat. Bunda barkamol insonni shakllantirishda

mafkuraviy tarbiyaning fidoyi, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan boshqalarga ibrat bo‘ladigan bilimli, ma’rifatli, ijtimoiy faol insonni voyaga yetkazishdan iborat asosiy vazifalarni amalga oshirib borishi har bir texnologiya va uni o‘qitish metodikasi fanida o‘rganiladigan mashg‘ulotlar uchun dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Texnologiya va uni o‘qitish metodikasi fanining huquqiy-me’yoriy asosi ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish va amalga oshirishga doir qonuniy va me’yoriy hujjatlar bilan belgilanadi. Bular O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, davlat ta’lim standartlari, o‘quv reja va dasturlar; O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’lim-tarbiya sohasiga tegishli Farmonlari, ular asosida tayyorlanib o‘rnatilgan tartibga tasdiqlangan nizomlar, ustavlar va boshqa me’yoriy hujjatlar hisoblanadi.

Texnologiya va uni o‘qitish metodikasi fanini o‘rganish jarayoni ishtirokchilari ushbu huquqiy-me’yoriy asoslarni tegishli darajada bilishlari va amalga oshirib borishlari lozim.

Texnologiya va uni o‘qitish metodikasi fanining iqtisodiy asosi ta’lim menejmenti xulosalari va marketing tadqiqotlari natijalariga muvofiq belgilanadi. Texnologiya va uni o‘qitish metodikasi fani ijtimoiy sohadagi faoliyat bo‘lgani sababli uning iqtisodiy samarasi o‘ziga xos tartiblarda aniqlanadi va ta’minot masalalari hal qilib boriladi. Texnologiya va uni o‘qitish metodikasi fani iqtisodiy asosini mustahkam bo‘lishi uni amaliyotda davom ettirish uchun zaruriy shart hisoblanadi.

Texnologiya va uni o‘qitish metodikasi fanining tarixiy asosi ta’lim-tarbiya masalalarini turli tarixiy davrlarda amalga oshirishning shakl va usullari, mehnat jarayoning mazmuni hamda turli pedagogik nazariyalar haqidagi ma’lumotlardan iborat bo‘lib ular zamonaviy ishlab chiqarish uchun zamin hisoblanadi. Hozirgi mehnat turlari turli davrlarda boshlangan ishlar, olib borilgan tahlillar, chiqarilgan xulosalar, mutafakkirlar bildirgan fikr-mulohazalarning rivojlantirilishi asosida paydo bo‘lib, takomillashib bormoqda. Texnologiya va uni o‘qitish metodikasi fanining tarixiy asosi uning o‘ziga xos ildizlarini tashkil qilishini hisobga olgan holda ularni bilish va chuqur o‘rganish kelgusi rivojlanish yo‘llarini belgilashda muhim ahamiyatga ega.

Yuqorida aytilgan va boshqa asoslar umumlashtirilsa, har bir texnologiya va uni o‘qitish metodikasi fanida o‘rganiladigan mashg‘ulotning o‘z nazariy va amaliy asoslari kelib chiqadi. Ular alohida maqsad, vazifalari, mazmuni, shakl, usul, vositalariga muvofiq belgilanadi.

Ma’lumki texnologiya ta’limi jamiyatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar asosida oliy ta’lim mazmuni va sifatiga qo‘yiladigan talablarni keskin ortib borishi bilan modifikatsiyalanadi. Shu sababdan texnologiya ta’limida quyidagilarga ahamiyat qaratiladi:

– ta’lim jarayoniga milliy, umuminsoniy va ma’naviy qadriyatlar asosida o‘quvchilarni tarbiyalashning samarali shakl, usul va vositalarini keng joriy etilishi;

– o‘quv-tarbiya jarayoniga pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etilishi;

– kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta’lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasi uzviyligini ta’minlashga katta e’tibor qaratilayotganligi;

– davlat ta’lim standartlari talablarining ta’lim sifati va kadrlar tayyorlashga qo‘yiladigan xalqaro talablarga muvofiqligini ta’minlanganligi;

– rivojlangan xorijiy davlatlarning ta’lim sohasida me’yorlarni belgilash tajribasidan milliy xususiyatlarni va mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarni hisobga olgan holda takomillashtirilib borilayotganligi;

– erkin bozor munosabatlariga va xususiy mulk ustuvorligiga asoslangan iqtisodiyotni rivojlanishi hamda tadbirkorlik faoliyatini keng joriy qilishda o‘quvchi shaxsi, uning intilishlari, qobiliyati va qiziqishlari ustuvorligi kabi masalalar.

Mazkur masalalarni hal etishda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kreativ yondashuvga o‘rgatish maqsadga muvofiq. Bu borada avvalo, mazkur muammoning o‘ziga xosligini anglab yetish lozim.

Texnologiya ta’limi ijodiy kamolotga yetaklovchi ta’lim sifatida e’tiborli va ahamiyatli hisoblanadi. Chunki, texnologik ta’lim jarayoni davomida o‘zlashtiriladigan nazariy ma’lumotlar yuzasidan olgan bilim, ko‘nikma va malakalarini mustaqil amaliy faoliyatida qo‘llash, kasb-hunar tanlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida ijtimoiy munosabatlarga kirisha olish kompetensiyalarini shakllantirishda yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Texnologik ta’limda kreativ g‘oya-texnologik bilimlar yuzasidan tizimlashtirilgan kreativ g‘oyalar, didaktik jarayonini bashorat etuvchi ma’lumotlar to‘plami.

Texnologik ta’limda kreativ reja – ijodiy-kreativ yaratilgan va ishlab chiqilgan, muayyan ta’lim muassasasi tomonidan tasdiqlangan o‘quv-tarbiyaviy loyiha.

Texnologik ta’limda kreativ muhit – texnologik ta’limda o‘quv-tarbiyaviy jarayonida shunday ijodiy, samimiy do‘stona sharoit tug‘iladiki, unda pedagog va talaba o‘zini ijodiy qobiliyatiga ishonch ruhida erkin his qilishi jarayonida ichki intilish, moddiy-ma’naviy qiziqish yuqori darajada bo‘ladi. Kreativ muhitda talaba kreativ fikr yuritish, yaratuvchanlikka tayyor bo‘ladi.

Kreativ faoliyat – texnologik ta’limga qo‘yilgan yangi ijtimoiy talablari bilan mavjud talab me’yorlarning mos kelmasligi natijasida vujudga kelgan kompleks muammalarni yechishiga qaratilgan kreativ faoliyat. Kreativ faoliyat texnologik ta’limda ijodiy-tadqiqotchilikni rivojlantirish bilan asoslanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, boshlang‘ich ta’lim ixtisosligi talabalarini texnologik ta’limga kreativ yondashuvga tayyorlashda davlat va jamiyat talablarini hisobga olish;

texnologiya va uni o‘qitish metodikasi fanidan olib boriladigan mashg‘ulotlarni tashkillashtirish va o‘tkazish jarayonida nazariy va amaliy asoslarini alohida e’tiborga olish;

texnologiya va uni o‘qitish metodikasi fanining boshqa fanlar (fan va ishlab chiqarish) bilan aloqasini inobatga olish;

kreativ g‘oya, reja, muhit va faoliyatni bir biri bilan izchilligi va uzviyligini ta’minlashga erishish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Baxriddinova D., Yuldashev S.N. 3-sinf texnologiya fanini o‘qitish metodikasi –Qarshi, Fan va ta’lim nashriyoti 2020.

2. S.N.Yuldashev “Boshlang‘ich ta’lim ixtisosligi talabalarini texnologik ta’limga kreativ yondashuvga o‘rgatish metodikasi” Pedagogika va psixologiyada innovatsiyalar 3-maxsus son –T., 2020.

Iftixor KAMOLOV,
Qarshi davlat universiteti “Tasviriy san’at” kafedrasi mudiri
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori

KASBIY FAOLIYAT JARAYONIDA TALABALAR IJODIY FIKRLASH QOBILIYATINIG SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

Annotatsiya

Ushbu maqolada, ta’lim berish jarayonini bir necha bosqichlarga ajratish orqali amalga oshirishi natijasida, ta’lim oluvchilarni ta’limning har bir bosqichidagi badiiy-ijodiy rivojlanishlarini o‘rganish, tahlil etish imkoniyati yaratiladi. Shuningdek, kasbiy ta’limda ta’lim oluvchilarning tasviriy san’at kompozitsiyalarini o‘rganish jarayonlaridagi ijodiy rivojlanishlari bilan bog‘liq bo‘lgan asosiy omillar sanab o‘tilgan.

Kalit so‘zlar. Badiiy ijod, jarayon, faoliyat, kasbiy, ta’lim, kompozitsiya.

Известно, что процесс обучения осуществляется путем деления на несколько уровней. В результате создается учащимся возможность изучения и анализа художественно-творческих достижений на каждом этапе. В статье рассмотрены психологические аспекты творческого развития учащихся профессионального обучения в изучении композиций изобразительное искусства.

Ключевые слова. Художественный творчество, процесс, деятельность, профессиональный, образование, композиция.

It is known that the learning process is carried out by dividing it into several levels. As a result, students have the opportunity to study and analyze artistic and creative achievements at every stage. The article deals with the psychological aspects of the creative development of vocational training students in the study of compositions of the visual arts.

Key words. Artistic creation, process, activity, professional, education, composition.

Ijodkorlikni tashkil qilishda, ikki o‘zaro bog‘liq vazifani e’tiborga olish lozim. Birinchidan, o‘quvchilarning ijodkorlik faoliyatida mustaqil fikrlashini rivojlantirish, bilimlarni egallashdagi intiluvchanligi, ilmiy dunyoqarashini shakllantirilishi bilan, ikkinchidan, o‘zlashtirilgan bilimlarni ta’limda va amaliy faoliyatda mustaqil qulay olishga o‘rgatish bilan belgilanadi.

Ijodkorlik o‘quvchilar egallayotgan bilimlarining mustahkamligi va mukammalligini ta’minlash, ularda faol va mustaqil fikrlovchi shaxs xislatlarini shakllantirish, aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi faoliyat turi hisoblanadi. Bu holat, ayniqsa, bo‘lajak mehnat va kasb ta’limi o‘qituvchilarining fan asoslarini o‘zlashtirishida, keyinchalik bu jarayonga bevosita rahbarlik qilishni oshirishda, ijodiy ish shakllarini ishlab chiqishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ijodkorlikka bo‘lgan ehtiyoj psixofiziologik jihatdan qaralganda, bir nechta bosqichlarda amalga oshadi. Bulardan birinchisi havas – ehtiyojning eng sodda shakli bo‘lib, inson tomonidan ongli boshqariladi. Ikkinchisi, nisbatan yuqoriroq rivojlanish bosqichi bo‘lgan xohish ham inson tomonidan ongli boshqarilib, u shaxsning ma’lum buyum yoki hodisaga nisbatan munosabatlari majmuasini ifodalaydi. Uchinchisi, eng

murakkab bosqich bo‘lgan qiziqish, xohish va u bilan bog‘liq bo‘lgan tushunchalar asosida yuzaga keladi. Qiziqish hayotdagi tashqi ta’sirlar, shaxs faoliyati hamda ta’lim-tarbiya jarayoni ta’sirida shakllanib boradi. Bu holatlar psixologik omillar – diqqat, idrok, tushuncha, xotira, fikrlash, sezgi va iroda xislatlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatib, shaxsning shakllanishida alohida muhim ahamiyat kasb etadi.

Shunday bo‘lsa-da, ko‘pgina ta’lim oluvchilar ijodkorlik metodlari bilan tanishish, ularni madaniyatning turli sohalarida muammolarni yechishda qo‘llashga o‘rganish imkoniga ega emas edilar. Nega? Chunki o‘quvchilar uchun ijodkorlik nazariyasining yuqorida ko‘rsatilgan bo‘limlarini, asosiy metodlarini o‘zida birlashtiradigan qo‘llanma mavjud emas edi.

Inson kim bo‘lib ishlashidan qat’i nazar: ovqat tayyorlashi, kiyimni modellashtirishi, o‘z farzandlarini tarbiyalashi, ko‘pgina uy ishlarini bajarishi va xo‘jalik muammolarini yechishiga to‘g‘ri keladi. Shuning uchun javob bir xil, ijodkorlik metodlarini har bir inson egallashi zarur. Qanday metodlarni va qaysi faoliyat uchun qo‘llash yoki qo‘llamaslik – bu uning tanlash huquqi.

Nima deb o‘ylaysiz, ijodkorlik qobiliyati nasldan naslga o‘tadimi? Uzoq yillar ko‘pgina olimlar va oddiy insonlar ijodkorlik qobiliyati – bu nasldan naslga o‘tuvchi xudo bergan ne’mat deb hisoblashar edi. Shuning uchun agar bola oddiy oilada tug‘ilgan bo‘lsa, undan qaysidir faoliyatda yuksak muvaffaqiyatlar kutishga o‘rin yo‘q. Yetuk kompozitorlar (Baxlar oilasi), rassomlar (Rerixlar oilasi), yozuvchilar yaratuvchi – xudoga nisbatan aytiladi (Dyuma oilasi), olimlar (Kyurilar oilasi) ning oilaviy dinastiya (sulola)si hammaga ma’lum. Biroq tarixda yetarli ma’lumot olmagan va o‘qimagan oilalardan chiqqan yetuk yaratuvchilar ham ma’lum. Shu bilan birga olimlarda ijodkorlik qobiliyatlari naslga hech ham aloqasi yo‘q va insonning hayoti davomida o‘zini rivojlantirish yo‘li bilan shakllanadi degan fikr yuzaga keldi. Unda haqiqat qayerda? Odatdagiday oraliqda... So‘zsiz, ijodkorlik faoliyatining ayrim nishonalari nasldan naslga o‘tadi va bunga oilaviy dinastiya(sulola)lar misol bo‘ladi. Shu bilan birga, shaxsning butun hayoti davomida o‘zini rivojlantirishi ijodkorlik faoliyatida yuksak natijalarga erishishning asosiy sharti hisoblanadi.

Eng murakkab savol yuzaga keladi – har birimizning qanday faoliyatga nasliy nishonalar mavjudligini qanday aniqlashimiz mumkin. M.Tvenning “Kapitan Sommerfildning samodagi sarguzashtlari” hikoyasida kapitan Sommerfild jannatga tushib, insoniyatga mashhur bo‘lgan hamma harbiylarning munozarasi o‘tkaziladigan xonaga kiradi. U qatnashuvchilarning yuzlariga qarab, ko‘pchiligini taniydi, lekin qanchalik tirishmasin, stolning boshida munozarani boshqarib o‘tirgan odam kimligini taniy olmaydi. Shunda u bu to‘g‘rida o‘zining qo‘shnisidan so‘raydi, munozarani boshqarib o‘tirgan inson hayotligida etikchi bo‘lgan va u harbiy bo‘lganida ham harbiy san’atning dahosi bo‘lar edi, degan javob oladi. O‘z qobiliyatlarini bolalikdanoq bilish, ularni maqsadli rivojlantirish va o‘z kasbi va foliyati sohasini izlashga yillarni va hatto o‘n yilliklarni yo‘qotmaslik imkonini beradi. Biroq tez-tez shunday bo‘ladiki, universitetni tugatib bir necha yil ishlagandan keyin inson bu uning ishi emasligini anglaydi.

Yana bir juda muhim savol – ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishning cheki bormi? Ma’lumki, reproduktiv qobiliyatlar ma’lum chegaragacha rivojlanadi. Biz ip bog‘lash, nonga yog‘ surishni qanchalik mashq qilmaylik, ertami-kech biz undan boshqa o‘zib keta olmaydigan oxirgi darajadagi tezlikka erishamiz. Ijodkorlik qobiliyatlari olimlarning isbotlashiga ko‘ra, chegaraga ega emas, insonda ularni rivojlantirish xohishi bor ekan,

ular rivojlanaveradi. Xulosa oddiy: ijodkorlik faoliyati o‘zimizga, to‘g‘rirog‘i, nasliy qobiliyatlar va ish qobiliyatlarimizga bog‘liq. Aynan ish qobiliyati insonning hayot faoliyati davomida erishilgan faoliyati natijalarini aniqlaydi. Ma’lum bo‘lishicha, inson yuksak ish qobiliyati va zarur genetik qobiliyatlarsiz erisha olmaydigan maqsadlar yo‘q.

Ma’lumki, faoliyat – natijasida inson aniq mahsulot yaratadigan jarayondir. Faoliyat reproduktiv va ijodiy bo‘lishi mumkin. Reproduktiv faoliyat – bu batafsil ishlab chiqilgan algoritm bo‘yicha bajariladigan jarayon va bu natijada faoliyat subyekti (subyektiv yangilik) uchun ham, boshqa kishilar uchun ham (obyektiv yangilik) yangilik bo‘lmagan mahsulot yaratiladi.

Siz nima deb o‘ylaysiz, hayotiy muvaffaqiyatga erishish borasida shaxs uchun nima aniqlovchi bo‘lib hisoblanadi: mablag‘, ota-onalar mavqei, aloqalar, ma’lumoti darajasi, tillarni bilishi yoki yana boshqa nimadir? Ana shu aynan nimadir shaxsning ijodkorlik faoliyati metodlari va texnologiyalarini egallash darajasini aniqlovchi bo‘lib xizmat qiladi. Yuqoridagi shartlarning insonda mavjud bo‘lishi kasbiy mavqeda ma’lum darajani egallash imkonini beradigan ajoyib bajaruvchi bo‘lish imkonini beradi. Biroq hayotiy muvaffaqiyat zinapoyasiga ko‘tarilish ijodkorlik faoliyatisiz mumkin emas.

Ijodkorlik faoliyati jarayonida insondagi ijodiy fikrlash qobiliyati shakllanadi va rivojlanadi. Nima deb o‘ylaysiz, ijodiy fikrlash nima? Agar shaxs quyidagi mantiqiy faoliyatlar: tizimlar va ularning elementlarini kombinatsiyalash, sabab-oqibat bog‘liqliklarini aniqlash, tadqiqot faoliyatlarini bajarishga qodir bo‘lsa, ijodiy fikrlay olishi psixologiyada isbotlangan. O‘quvchilarda ijodiy fikrlashning rivojlanishi ular yordamida har bir guruhda mantiqiy layoqatlar shakllanadigan va rivojlanadigan ijodkorlik masalalarini yechish usullariga o‘qitish jarayonida amalga oshiriladi. Biroq ijodkorlik masalalari nima? Ijodkorlik masalalari – bu bajarish uchun o‘rganilgan qoidalarni o‘zgartirish yoki mustaqil ravishda yangi qoidalar tuzish talab etiladigan va natijada subyektiv yoki obyektiv yangi tizimlar – ma’lumot, konstruksiyalar, moddalar, hodisalar, san’at asarlari yaratiladigan masala.

Shunday qilib, o‘quvchilarda ijodiy fikrlashni rivojlantirish uchun alohida ijodkorlik masalalari emas, balki bajarish jarayonida o‘quvchilarda yuqorida ko‘rsatilgan guruhlardagi mantiqiy faoliyatlar shakllanadigan va rivojlanadigan ijodkorlik masalalari tizimi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Razumovskiy V.G. O‘quvchilarning ijodiy kobiliyatlarini ustirish. –T.: O‘qituvchi, 1978. 285-b.

2. Andrianov P.N. Maktab o‘quvchilari texnik ijodkorligini rivojlantirish // O‘quvchilarning texnik ijodkorligi. Tuzuvchi P.N.Andrianov. –T.: O‘qituvchi, 1989.128-b.

3. Turakulov X.A., Sharipov Sh.S. Talabalar ixtirochilik ijodkorligini rivojlantirish. Metodiy tavsiyanoma. – Jizzax, 1998. 36-b.

4. Шодиев Р.Д., Камолов И.Б. Педагогическая модель профессионального образования в ювелирном искусстве: основные параметры концепции// Austrian Journal of Humanities and Social Sciences. –Vienna, 2014. №11-12.-С.137-141.

Ergash MAXMANOV,
Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti “Fizika” kafedrasi katta o‘qituvchisi

FIZIKADAN MASALALAR YECHISHDA MODELLASHTIRISH KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya

Mazkur maqolada texnika yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalarida fizikadan masalalar yechish jarayonida talabalarda modellashtirish kompetensiyalarini shakllantirish, qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan. Buning uchun model va modellashtirish jarayoniga ta’rif berilgan. Bunda fizikadan masalalar yechishdagi vaziyatni modellashtirish jarayonining tuzilishi, o‘quv mashg‘ulotining majburiy elementlari, modellashtirishda, ekstrapolyatsiya usuli haqida to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar. Model, modellashtirish, kompetensiya, abstraksiya, ekstrapolyatsiya, mantiqiy fikrlash.

В данной статье разработаны рекомендации по формированию и применению модельных компетенций у студентов в процессе решения задач по физике в высших учебных заведениях в технической направленности. Для этого определены модель и процесс моделирования. В нем рассматриваются структура процесса моделирования ситуации при решении задач по физике, обязательные элементы обучения, моделирование, метод экстраполяции.

Ключевые слова. Модель, моделирование, компетентность, абстракция, экстраполяция, логическое мышление.

This article develops recommendations for the formation and application of modeling competencies in students in the process of solving problems in physics in higher education institutions in the field of technology. To do this, the model and the modeling process are described. In this case, the structure of the process of modeling the situation in solving problems in physics, the mandatory elements of training, modeling, the method of extrapolation are discussed.

Key words. Model, modeling, competence, abstraction, extrapolation, logical thinking.

Zamonaviy oliy ta’lim bitiruvchisi mustaqil va maqsadga muvofiq yangi bilimlarni o‘zlashtirishga, hal qilinayotgan vazifalarga adekvat bo‘lgan muayyan faoliyat usullarini egallashga imkon beruvchi kompetensiyalarga ega bo‘lishi kerak. Zamonaviy bitiruvchining qiyofasi jamiyat, oliy ta’lim muassasasi (OTM) va butun O‘zbekiston ta’lim tizimi uchun ijtimoiy tartibini aks ettiradi. Aynan shuning uchun texnika OTMlar talabalarini modellashtirish kompetensiyasi asosida tadqiqotchilik va loyihalash kompetensiyalarini shakllantirish orqali tizimlarni modellashtirishning asosiy usullarini bilish hisoblanadi. Bu jarayonlarni hisoblash, va tahlil qilish uchun fizik va matematik modellarning asosiy turlarini, shuningdek, maketlar, chizmalar va sxemalar kabi elementlar va tizim osti tizimlarning optimal-fizik va matematik modellarini tanlash, tuzishni bilishni ko‘zda tutadi. Modellashtirish – muhim va murakkab ko‘nikmalardan biri hisoblanadi. Uning tuzilishiga ko‘p sonli

mantiqiy, evristik usullar va operatsiyalar kiradi. Turli ishlanmalarda modellashtirishni tadqiqot va loyihalashtirishning tarkibiy qismi deb qaraladi. Fizik masalalarni yechish bilan bog‘liq aksariyat muammolar vaziyatni modellashtirish bosqichida paydo bo‘ladi. Demak, talabalarni modellashtirishga o‘rgatishni loyihalash va tadqiqotchilikka yo‘naltirish maqsadga muvofiqdir.

Texnika yo‘nalishida muhandislarni tayyorlashda fizika kursidan talabalarni modellashtirishga o‘rgatish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Mazkur kompetensiyani masalalarni yechishga o‘rgatishda samarali shakllantirish mumkin. Chunki har qanday fizik masalani yechish jarayoni uning belgili, fizik va matematik modellari bilan ishlashga bog‘lanib boradi, modelni tuzish jarayonini (yoki ma’lum modellardan mazkur vaziyatga mos keladiganini tanlashni), qo‘lga kiritilgan model bilan ishlashni hamda undan kerakli ma’lumotlar olishni o‘z ichiga oladi.

“Model” atamasi fanda ko‘plab ma’nolarga ega, ularga quyidagilar kiradi: “tuzilish”, “tavsif”, “yo‘sin”, “nazariya”, “sxema”, “analog (o‘xshash narsa)”, “uslub”, “usul”, “abstraksiya”, “idealizatsiya”, “namuna”, “obraz”, “fizik obyekt” va hokazolar. Fanda keng ma’noda model deganda voqelikning bir analogi, o‘rnini bosuvchisi tushuniladi, u muayyan sharoitda tadqiqotchini qiziqtiruvchi original xossalarini ifodalaydi.

Fanda, odatda, modeldan ifodalanayotgan obyektni tadqiq qilishni soddalashtirish maqsadida foydalaniladi. Ayni shu holda ifodalanayotgan obyektni belgilovchi “model” atamasi ilmiy bilish usuli sifatidagi modellashtirishga bevosita aloqador. Bu holda model deganda – tadqiqot jarayonida voqelikning o‘rnini bosuvchi obyektga o‘xshash bo‘lgan ushbu obyektning xossalari, aloqalari va nisbatlari majmuasi tushuniladi.

Modellashtirish – murakkab, ko‘p bosqichli jarayon bo‘lib, muayyan operatsiyalarni ketma-ket amalga oshirilishini taqozo qiladi.

1-bosqich – modelni qurishda obyektning obrazi yaratiladi.

2-bosqich – modelni tadqiq qilishda model mustaqil, u haqidagi bizning subyektiv tasavvurlarimizdan mustaqil bo‘lgan kvazi obyekt sifatida gavdalanadi va u modelga asoslangan, sun’iy, “ikkinchi” voqelikni ifodalaydi, u orqali biz qiziqtirayotgan narsani tadqiq qilamiz.

3-bosqich – “ikkinchi modelga asoslangan voqelikni” o‘rganishdan olingan ma’lumotlarni “birinchi voqelikka” – o‘rganilayotgan obyektning o‘ziga ekstrapolyatsiya qilish.

4-bosqich – ekstrapolyatsiyani amalda tekshirish.

Ekstrapolyatsiya (lotin so‘zlaridan tashkil topgan: qo‘shimcha – ortiqcha, tashqarida va polio – tuzataman, o‘zgartiraman)degan so‘zlardan iborat. Ekstrapolyatsiya – obyektlar yoki hodisalarning har qanday qismiga nisbatan ushbu obyektlar yoki hodisalarning butun majmuasiga (ko‘p), shuningdek, ularning boshqa qismiga nisbatan chiqarilgan xulosalarni tarqatish (uzatish) mantiqiy-metodologik usuli; hodisaning hozirgi yoki o‘tgan sharoitlari yoki ularning kelajagi (taxmin qilingan) holati asosida tuzilgan xulosalarni tarqatish hisoblanadi. Matematika va statistika ma’lumotlariga ko‘ra, ekstrapolyatsiya ma’lum formulalar bo‘yicha dinamik ma’lumotlar ketma-ketligini davom ettirishni anglatadi. Shunday qilib, ekstrapolyatsiya sifatli va miqdoriy xususiyatlarga, shuningdek, ayrim tenglamalarga (bir mavzu uchun shakllangan, ular boshqa obyektlarga ko‘chiriladi) ta’sir qilishi mumkin. Ekstrapolyatsiya ostida matematik faraz usuli ham tushunilishi mumkin.

Umuman olganda, ekstrapolyatsiya – obyektlar yoki hodisalarning har qanday qismiga, ushbu obyektlar yoki hodisalarning butun majmuasiga, shuningdek, ularning boshqa qismiga nisbatan tuzilgan xulosalarni uzatish hisoblanadi.

Modelni yaratish ham, uni tadqiq qilish ham mantiqiy fikrlashning universal

usullaridan foydalanishni talab qiladi. Bunda modellashtirish jarayonining tuzilmaviy elementlari sifatida namoyon bo‘ladi. Ilmiy modellashtirish jarayonida abstraksiyalash usuli(mavhumlashtirish) nihoyatda muhim ekanligidan kelib chiqamiz. T.V.Svetenko aynanlashtirish abstraklashtirish va ideallashtirishga asoslanadi deb hisoblaydi. Aniqlashtirishga asoslangan abstraktlashtirish (bunda obyektning barcha xususiyatlari emas, balki uning boshqa obyektlar bilan bir xil bo‘lgan xususiyatlari tadqiq qilinadi) obyektda sof ko‘rinishdagi tadqiqot predmetini aniqlash, bir butunlikda obyektlar sinfiga xos bo‘lgan narsani ko‘rish imkon beradi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, fizikadan masalalar yechishdagi vaziyatni modellashtirish jarayonining tuzilishini quyidagicha tasavvur qilish mumkin:

a) masala shartini tahlil qilish;

b) masala obyektining (hodisalarining) muhim, ya’ni ayni vaqtda tadqiqotchini qiziqtirayotgan belgilari, xususiyatlari va aloqalarini aniqlash, tahlil qilish, qiyoslash mazkur vaziyatda muhim bo‘lmagan belgilardan (xususiyatlar va aloqalardan) diqqatni chetlashtirish, ularni ideallashtirishlarni o‘z ichiga oladi;

v) tadqiq qilinayotgan obyektning ajratilgan xususiyatlari va aloqalari hamda hosil bo‘lgan obrazining xususiyatlari va aloqalari o‘rtasida analogiyani topish (bunga tahlil, qiyoslash, mavhumlashtirish, sintez kiradi);

g) masalada tavsiflangan obyekt va hosil bo‘lgan fizik model o‘rtasidagi muvofiqlikni tekshirish hamda tadqiq qilinayotgan obyektni model bilan almashtirish;

d) hisoblash masalalari uchun hosil qilingan fizik modelni obyektning matematik modeli (berilgan vaziyatni tavsiflovchi tenglama yoki tenglamalar tizimi) bilan solishtirish (bunga tahlil, qiyoslash qiradi);

e) hosil qilingan fizik va matematik modellarni tadqiq qilish, ya’ni olingan tenglamalar tizimini yechish.

Modellashtirishning uchinchi va to‘rtinchi bosqichlari, ta’lim oluvchilar tomonidan fizikaviy vazifalarni bajarish davomida foydalanilayotgan formulalarni tajriba-sinovida tekshirishda amalga oshiriladi.

Masalalar yechishda modellashtirishni qo‘llashni ko‘rib chiqamiz. Masala yechimi ustida ishlashning asosiy bosqichlari

Bosqichlar	**Masala matnidagi aniq harakatlar mazmuni**	**Hosil qilinadigan ko‘nikmalar**
1. Matn va fizik hodisalar tahlili	- Masala matnini o‘qish - shartni yozib olish - atamalar bilan ishlash va boshqalar	Tasvirlangan hodisani tanlash (obyekt) – muammo holatini tahlil qilish
2. Modelni qurish	- vaziyatli model yaratish - ko‘rib chiqilayotgan hodisalarning qonunlarini aniqlash	Hodisaning modelini qurish (vaziyatli)
3. Matematik amallar	- tenglama va qonunlarni yozish - qo‘shimcha munosabatlarni topish	Modelni yaratish (matematik)
4. Yechim tahlili	- natijaning to‘g‘riligini tekshirish	Modeldan xulosa chiqarish

Fizika kursida fizik obyektlar modellarining bir qismi tayyor holda beriladi, yana bir qismini esa mustaqil yaratishni o‘rganish zarur. Ularning aksariyati tushuntiruvchi

xarakterga ega, ya'ni tadqiq qilinayotgan obyektni tushuntirish uchun xizmat qiladi. Ta'lim oluvchilarni yangi modellarni yaratishga o'rgatishdan avval ularda ishning soddaroq shakllarini shakllantirish, ishlatib ko'rish zarur. Ma'lum modellar ichidan zarurini tanlab olish. Bunda modellashtirish jarayonining bosqichlari aytib o'tiladi, ya'ni talabalar "model" tushunchasining asosiy elementlari va muhim belgilari hamda modellashtirish bo'yicha faoliyatning umumlashtirilgan tuzilishi bilan tanishadilar.

Bizning fikrimizga ko'ra, modelning asosiy elementlarini va uni qurish bo'yicha faoliyatni bilish keyinchalik talabalarga o'zining yangi modellarni muvaffaqiyatli yaratishga yordam beradi. Bundan tashqari, talabalarning aniq masalada foydalanilishi zarur bo'lgan modelni "qurish" ko'nikmasi, ko'plab ta'lim oluvchilar oldida gavdalanadigan muammoni, ya'ni "Modellashtirishni nimadan boshlash kerak?" savolga javob berishga yordam beradi. Chunki fizik modelni to'g'ri tanlash tegishli matematik modelni tanlashni, masalani yechish uchun zarur formulalarni oldindan belgilab beradi. Yechimni amalga oshirishdagi keyingi qiyinchiliklar asosan sof matematik xarakterga ega bo'ladi.

Fizikadan masalalar yechish jarayonida umumlashgan kompetensiyalar hosil bo'ladi: tasvirlangan fizik hodisani aniqlash, model tuzish, modeldan xulosa chiqarish, modelning qo'llanilish chegaralarini aniqlash.

Modellashtirish asosida fizik masalalarni yechish orqali talabalar amaliy kompetensiyaga ega bo'ladilar, o'qituvchi esa talabaga hamroh bo'lib, sifat jihatidan yangi o'quv natijasi – umumkasbiy harakatlarni shakllantirishga qaratilgan zamonaviy darsga xos maqsadlarni hal etadi.

Shunday qilib, modellashtirishdan foydalanganda tahlil, qiyoslash, muhim belgilarni ajratish, sintez, mavhumlashtirish, ideallashtirish, mantiqiy usullarini bilish va ulardan foydalana olish natijasida talabaning modellashtirish kompetensiyasi shakllanadi. Fizikadan amaliy mashg'ulotlar jarayonida fizik modellarni yaratish mantiqiy va evristik usullardan foydalanish talabaning kasbiy rivojlanishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ishmurodova G.I., Maxmanov E.B. Talabalarning fizikadan mantiqiy masalalar yechish ko'nikmalarini shakllantirish // "Zamonaviy ta'lim jurnali", 2020, 3-son 16-23-bet.

2. Tursunov K., Makhmanov E. (2020). Methodology Forming The Concepts Of Astronomy And Cosmonautics In Initial Classes. International Journal of Advanced Science and Technology, 29(9s), 6321 - 6325. Retrieved from http://sersc.org/journals/index.php/IJAST/article/view/20242

3. Тураев С.Ж. Формирование научно-практических навыков студентов с привлечением к научному проекту № 1/1-F и применением технологий программирования. //Преподаватель XXI век. №4. – Москва, 2018. С. 88-95.

4. Turayev S.J. (2019) "Methods of the using of software program Microsoft Excel in practical and laboratory occupation on physics" Scientific Bulletin of Namangan State University: Vol. 1 : Iss. 10 , Article 55. –P. 292-297.

Nazar YO‘LDOSHEV,
Qarshi davlat universiteti “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasi katta o‘qituvchisi
Ma’rifat XOLMAMATOVA,
Koson tumanidagi 75-umumiy o‘rta ta’lim maktabning boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

SAVOD O‘RGATISH DAVRI YOZUV DARSLARIDA CHIROYLI YOZUV DAQIQALARINI TASHKIL ETISH

Annotatsiya

Maqolada umumiy o‘rta ta’limning boshlang‘ich ta’limdan o‘quv dasturi asosida savod o‘rgatishning yozuv darslarini tashkil etish vazifalari belgilab berilgan.

Kalit so‘zlar. Nominal, savodxonlik, chiroyli yozuv, yozma nutq, harf, so‘z, gap, grafik malaka.

В статье изложены задачи организации занятий по обучению грамоте на основе учебной программы общего среднего образования от начального образования.

Ключевые слова. Именная, грамотность, красивое письмо, письменная речь, буквы, слова, предложения, графические навыки.

The article outlines the tasks of organizing literacy classes based on the curriculum of general secondary education from primary education.

Key words. Personal, literacy, beautiful writing, writing, letters, words, sentences, graphic skills.

Xalq ta’limi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning hozirgi bosqichida uning muhim bo‘g‘ini bo‘lgan boshlang‘ich ta’limga alohida e’tibor qaratilmoqda. Negaki, ta’limning bu bosqichi bolaning dunyoqarashi, didi, iqtidori shakllanishida hal qiluvchi o‘rin tutadi. Xuddi shu davrda dunyoga umid bilan qadam qo‘yib kelayotgan navnihol inson hayotda munosib o‘rnini topishiga, turmushidan, taqdiridan, vatanidan rozi bo‘lib yashashiga zamin yaratiladi. Shundagina u umr bo‘yi bunyodkorlik faoliyati bilan mashg‘ul bo‘ladi deyish mumkin.

Boshlang‘ich sinflardagi ta’lim jarayonida qanchalik mustahkam bilim berilsa, u poydevor bola umrining so‘nggi onlarigacha mustahkam bo‘lib qoladi. 1-sinfning savod o‘rgatish davrida o‘quvchilarda elementar o‘qish va yozuvga o‘rgatish ko‘nikmalari shakllantiriladi. Bu ish nechog‘lik murakkab bo‘lmasin boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi bu ishni o‘quvchilarda shakllantiradi. “Boshlang‘ich ta’limda – o‘quvchilarning savodxonligini ta’minlash, ularni og‘zaki va yozma nutqida adabiy nutq me’yorlariga rioya qilishga o‘rgatishdan iborat”.[1]

Savod o‘rgatish davrida chiroyli yozuvga o‘rgatishning asosiy vazifasi harf, so‘z, gap va matnni to‘g‘ri va chiroyli yozishni takomillashtirishdir. Yozuvni o‘rganish jarayonida o‘quvchi tovushning shakli bo‘lgan harfni, so‘z va gapni kitobdan va doskadan to‘g‘ri, husnixat qoidalariga rioya qilib ko‘chirib yozish, yozganlarini tekshira olish va yo‘l qo‘ygan grafik kamchilik hamda xatolarini o‘qituvchi rahbarligida o‘zi tuzata olishi kerak. Bu davrda eshitib yozish ko‘nikmalari ham rivojlantirib boriladi. Umumiy o‘rta

[1] Umumiy o‘rta ta’limning boshlang‘ich ta’limdan davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi. Respublika ta’lim markazi – T.: 2017. 18-bet.

ta’limning boshlang‘ich ta’limdan davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturida 1-sinfda o‘quv yilining 2-yarmidan boshlab husnixat malakalari takomillashtirib boriladi. Shuningdek, 2-4-sinflarda esa har bir ona tili darsining 5-8 daqiqasi “Husnixat daqiqasi”ga ajratishligi qayd etilgan.[2]

Savod o‘rgatish jarayonida o‘quvchilar o‘qishga o‘rganish bilan parallel ravishda yozuvdan ham unsurar malaka hosil qiladi. Tahlil-tarkib tovush metodi tamoyiliga muvofiq, o‘qish va yozuv birligi saqlanadi. Harflarni yozishda o‘qishga o‘rgatishdagi tarkib asos qilib olinadi, ya’ni o‘qish darsida o‘quvchilar harfni o‘zlashtiradilar, matnni o‘qiydilar, yozuv darsida esa shu harfli so‘zni yozadilar. Yozuvga o‘rgatishning bu tartibida genetik tamoyil buziladi, ya’ni oson harfni yozishdan asta-sekin qiyin harfni yozishga o‘tiladi.

Yozuvga o‘rgatish, birinchi navbatda, grafik malaka hosil qilishdir. Har bir malaka ham ta’lim berish, ko‘nikmani shakllantirish va shu asosda qator mashqlarni bajarish natijasida hosil qilinadi. Grafik malaka qo‘l-harakat malakasidir, bu harakat, birin-chidan, muskul kuchiga asoslanadi. Ikkinchidan, yozuv jarayonida nutq birligi bo‘lgan tovush grafik belgilarga, ya’ni harfga tarjima qilinadi. Bu yozuvga ongli faoliyat tusini beradi. Yozuvning ongliligi, birinchidan, tovush va harfning to‘g‘ri nisbatini, ikkinchidan, bir qancha grafik va imlo qoidalarga rioya qilishni, uchinchidan, o‘z fikrini, taassurotini, istaklarini ifodalashda yozuv malakasidan foydalanishni talab qiladi.

Yozishdan birdan-bir maqsad fikrni ifodalashda yozuv malakalaridan foydalanish hisoblanadi. Bu maqsadni bolalar tez anglab yetsalar, ularda yozma nutq malakasi shunchalik muvaffaqiyatli va to‘g‘ri shakllanadi. Savod o‘rgatish jarayonida bolalar juda sekin yozadilar. Yozuv malakasi o‘qish malakasi bilan uzviy bog‘liqdir. Bola yomon o‘qisa, yozuvni egallashi ham qiyin bo‘ladi, chunki bo‘g‘inlab o‘qish malakasidan so‘ng, bo‘g‘inlab yozish malakasi shakllanadi. Harf terish kartonida tuzilgan so‘zi ko‘chirish yoki yozishga tayyorlanishda bolalar uni bo‘g‘inlab o‘qiydi. Bu o‘qish uchun ham, bo‘g‘inlab aytib yozish uchun ham, imloga oid malakasining o‘sishi uchun ham muhimdir.

Yozish va o‘qish uchun bolaning umumiy nutqiy rivojlanishi katta ahamiyatga ega. Keyinroq, bolalarda o‘z fikrini yozma ifodalash malakasi bir oz barqarorlashganda, bu malaka nutqqa, fikrni ifodalash jarayoniga ham ijobiy ta’sir qiladi.

Grafik malakani shakllantirishda quyidagi bosqichlar mavjud:

1. Turli shakllar andozasi ustidan chizish. Erkin rasmlar chizish. Yozuv qurollarini to‘g‘ri tutish, turli qiya unsurlar chizish, uzunlikni, oraliq masofani chamalash va hokazo.

2. Harf unsurlarini yozish, baravar masofada qisqa va uzun unsurlar, osti va usti ilmoqli unsurlar chizish.

3. Bosh va kichik harflarni alohida yozish.

4. Harf birikmalarini, bo‘g‘inni yozish, harflarni to‘g‘ri qo‘shib yozish malakasini hosil qilish uchun so‘z yozish.

Grafik malakani hosil qilishdan asosiy maqsad, harflarni bosmasdan bir tekisda, unsurlarga ajratmay bog‘lab, tez, bir maromda yozish, so‘zlarni qatorga to‘g‘ri joylashtirishdir.

Shuni ta’kidlash lozimki, savod o‘rgatish davrida bola harflarni yozishdan oldin uni qanday shakllantirishni ko‘z oldiga keltirib, fikrlab oladi, ba’zan harf shaklini havoda “chizadi”, harf namunasini ko‘chiradi, tarkibini tahlil qiladi, uni qanday yozishni o‘zicha sekin gapiradi; o‘qituvchi o‘quvchi yoniga o‘tirib, ruchkani to‘g‘ri ushlatadi va uning qo‘li bilan harfni yozishni ko‘rsatadi yoki o‘zi yozib tushuntiradi. Bundan tashqari, bola

[2] Umumiy o‘rta ta’limning boshlang‘ich ta’limdan davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi. Respublika ta’lim markazi – T., 2017. 19-bet.

yozuvning texnik tomoniga katta jismoniy kuch sarflaydi.

1-sinfda yozuvga oid ko‘nikmalarni shakllantirishda o‘quvchilar yozuv chiziqlarini farqlash, harf unsurlari va harflarni yozuv chiziqlari orasida to‘g‘ri joylashtirish; harflarning qiyaligi, ulanishi hamda so‘zlar orasini bir xil masofada chamalab yozish, kichik va bosh harflarni to‘g‘ri va aniq yozish hamda husnixat qoidalariga rioya qilgan holda yozish o‘rgatiladi. Birinchi navbatda esa ayrim yozuv qoidalari shakllantiriladi. Birinchi darsdanoq gigiyena qoidalariga rioya qilishga o‘rgatish: yozuv vaqtida partada to‘g‘ri o‘tirish, daftarni belgilangan qiyalikda qo‘yish, yozuv qurollaridan to‘g‘ri foydalanish, daftarni toza tutish uzluksiz takrorlab o‘rgatib boriladi.

Yozishga o‘rgatishda bajarilishi lozim bo‘lgan qoidalar. O‘qituvchi bolani yozuvga o‘rgatishdan avval, yozuvning sodda qoidalarini tushuntirib o‘tishi lozim. Bu qoidalarni o‘quvchilar yodlarida tutishlari zarurdir. Bir necha darslardan so‘ng o‘qituvchining birgina “to‘g‘ri o‘tiring” so‘ziga talab qilinayotgan holatda o‘tirishlari kerak.

1. Yozish jarayonida yozayotgan o‘quvchining oyoqlari butun oyoq kaftlari bilan polni yoki stol (parta)ning oyoqlarini mahkam bosib o‘tirishlari lozim.

2. Gavdani iloji boricha to‘g‘ri tutgan holda: ko‘krakni stolga tekkizmasdan, gavda stoldan 5 sm uzoqlikda turishi shart.

3. Erkin holda o‘qish uchun bosh stolga ozgina egilgan bo‘lishi zarur.

Ruchkaning uchidan ko‘zgacha bo‘lgan masofa 25-30 smdan kam bo‘lmasligi lozim. Bundan tashqari, boshni to‘g‘ri ushlashga erishish kerak. Boshni yon tomonga (pastga) engashib o‘tirishga yo‘l qo‘ymaslik kerak va doimo eslatib o‘tirish lozim.

4. Ikkala qo‘l stol ustida to‘g‘ri burchak ostida bir-biriga qaratilgan holda turish, yozayotganda tirsak stolning ustida va birozgina stolning chetiga chiqib turishi lozim. Qo‘lning bunday holatda turishi gavdaning stol ustiga engashib olishga va yozayotganga o‘quvchi ko‘kragining stolga tegib turishini oldini oladi.

Yozishga o‘rgatishning ilk bosqichida ruchkani to‘g‘ri ushlashga diqqatni qaratish lozim, chunki bu yozuvga katta ta’sirini o‘tkazadi.

5. Ruchkani uchta barmoq bilan ushlash lozim: katta, ko‘rsatkich va o‘rta bilan. Uchta barmoqning barchasi ozgina bukilgan holda tinch holda tutiladi.

Ko‘rsatkich barmoq ruchkaning ustida, o‘rtachasi – uni o‘ng tomondan, katta barmoq esa – chap tomondan ushlab turadi; qolgan ikkita barmoq – nomsiz va jimjiloq kaftga suyanchiq bo‘lib qog‘ozga yengilgina tegib turib unda sirg‘anishi kerak. Ruchkaning uchi o‘ng yelkaga qarama-qarshi turishi kerak. Tezda charchab qolmaslik uchun ruchkani qattiq siqmaslik kerak.

6. Daftar o‘quvchining ko‘kragining to‘g‘risida o‘rtada, uning o‘ng burchagi chapidan yuqori bo‘lishi kerak. Boshning va gavdaning o‘rtacha u yoki bu tomonga burilishini oldini olishi uchun bir necha so‘z yozilganidan so‘ng chap qo‘l bilan chap tomonga suriladi, chunki yozayotgan qo‘l ko‘krakning o‘rtasidan unchalik uzoqlashib ketmasligi lozim.

Endigina maktab ostonasiga qadam qo‘ygan bolalar faoliyatini yangi turi bo‘lgan o‘quv ishlari barqaror diqqatni, kuchni talab qila boshlaydi. Aqliy mehnat va o‘z-o‘zini tekshirish ko‘nikmasini egallaydi. Faoliyatning yangi xarakteri bolalar uchun anchagina qiyinchilik tug‘diradi. Buni yengillashtirish uchun darsning har 8-10 minutida ish turini almashtirib turish lozim. Bu vaqtda quvnoq daqiqalar o‘tkazish maqsadga muvofiq.[3] Quvnoq daqiqalarni o‘tkazishda quyidagi mashq turlaridan foydalanish samarali natija berishi tajriba va kuzatishlar davomida aniqlangan. Bular: harakatlantiruvchi mashqlar, eslash va fikrlashga oid mashqlar, yodlash-kuylashga oid mashqlar, topishmoq va tez

[3] Yusupov M. O‘qish va yozuv darslari samadorligini oshirish. –T.: O‘qituvchi, 2007. – 113-b.

aytishlar, she’riy harakatli o‘yinlar. Biz quyida ayrimlarini keltirib o‘tamiz.

Chiroyli yoz yozsang xat, Tayoqchalar chizamiz,
Chunki bu ham zo‘r san’at. Chiziqchalar chizamiz.
Biz ham bo‘laylik albat, Jajji qo‘llarimizni,
Ustozlar kabi zo‘r hattot. Yozishga o‘rgatamiz.

Birinchi sinfda yozuv darslari husnixat malakasini o‘qitish orqali amalga oshiriladi. Chiroyli va toza yozilgan xat yozayotgan shaxsning madaniyatini va uni texnika taraqqiyotining o‘sishi orqali kundalik hayotimizda turli-tuman (qog‘ozlardan) hujjatlardan keng foydalanamiz, har xil ishlanmalar, ish qog‘ozlari, hisobotlar keng o‘rin olmoqda. Bularning hammasi faqat chiroyli va aniq yozish bilan birga, tezlikni ham talab etmoqda. Biz mana shu vazifalarni doimiy ravishda amalga oshirib borishimiz lozim.

O‘quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiya elementlari:

Nutqiy kompetensiya (tinglab tushunish, so‘zlash, o‘qish, yozish) elementlari: mavzu doirasida o‘qituvchi nutqini, sodda audio (multimedia ilovalari) matnlarni va topshiriqlarini tinglab tushuna oladi; rasmlar asosida va o‘qib eshittirilgan matn yuzasidan o‘qituvchi yordamida suhbatga kirisha oladi, nutq jarayonida o‘zlashtirgan yangi so‘zlarni og‘zaki nutqda qo‘llay oladi; O, N, A, I, M, T, L, B, K, R, O‘, D, U, Y, E, G, Ng, S, H, Sh, ‘, Q, Ch, J, G‘, Z, V, X, F harfini qo‘shib o‘qiy oladi, tuzilishi murakkab so‘zlarni bo‘g‘inlab, gap ohangiga rioya qilgan holda ravon va ifodali o‘qiy oladi hamda (’) tutuq belgisi qatnashgan so‘z va matnlarni ravon o‘qiy oladi;

kichik o, bosh O, kichik n, bosh N, kichik a, bosh A , kichik i, bosh I, kichik m, bosh M, kichik t, bosh T, kichik l, bosh L, kichik b, bosh B, kichik k, bosh K, kichik r, bosh R, kichik o‘, bosh O‘, kichik d, bosh D, kichik u, bosh U, kichik y, bosh Y, kichik e, bosh E, kichik g, bosh G, kichik ng, kichik s, bosh S, kichik h, bosh H, kichik sh, bosh Sh, kichik p, bosh P, kichik q, bosh Q, kichik ch, bosh Ch, kichik j, bosh J, kichik g‘, bosh G‘, kichik z, bosh Z, kichik v, bosh V, kichik x, bosh X, kichik f, bosh F harflarini va ular ishtirok etgan so‘zlarni, (’) tutuq belgisi qatnashgan so‘zlarni to‘g‘ri va aniq yoza oladi.

Alifboni yozma shaklda yoza oladi. Harflarni bir-biriga bog‘lab, ko‘chirib, namunaga qarab yoza oladi.

Bosma va yozma harflarni, ular ifodalaydigan tovushlarni to‘g‘ri talaffuz eta oladi.

Matnni gap ohangiga rioya qilgan holda aniq, ravon o‘qiy oladi.

Shuningdek, 3-4 ta so‘zni eshitib va 2-3 so‘zdan tuzilgan gapni namuna asosida yoza oladi.

Lingvistik kompetensiya elementi: o‘zbek tilida nutq tovushlarini to‘g‘ri qo‘llay oladi, bo‘g‘in ko‘chirish qoidasiga rioya qila oladi, mavzuga oid so‘zlarni og‘zaki nutqda qo‘llay oladi.

Yozish jarayoni quydagilardan tashkil topgan: harflarning shtrixi ruchkani ushlab turgan barmoqlarning bukilishi va ochilishi yordamida yoziladi, qator old yelkaning va kaftning yordamida, kaft jimjiloqqa va nomsiz barmoqlarga tayaninb chapdan va o‘ngga qarab harakatlanadi. Bu usullarning barchasi o‘z holicha oddiy va ularni bolaga tushuntirish, ko‘rsatib berish oson, lekin ularni o‘rganish va amalda qo‘lash birmuncha qiyinchiliklar tug‘diradi.

Savod o‘rgatish metodikasining ilmiy, psixologik va lingvistik asoslari. O‘qish va yozish – nutq faoliyatining turi. Maktabda o‘qitish elementar o‘qish va yozishga o‘rgatishdan boshlanadi. “Alifbe”ga asoslangan holda qisqa vaqt ichida o‘quvchilar

o‘qish va yozishga o‘rgatiladi, ya’ni o‘qish va yozish ko‘nikmasini egallaydilar. Savod o‘rgatish davrida o‘qish va yozish harakatini maqsadga muvofiq ravishda bajara olish o‘qish va yozish ko‘nikmasi deyiladi. Bu ko‘nikma bilimni talab qiladi, chunki har qanday ko‘nikma bilimsiz shakllanmaydi. Bilim ko‘nikmaga aylanmagan bo‘lishi mumkin. Masalan, bola v harfining elementlarini, yozuv chiziqlari orasiga qanday joylashtirilishini bilib, uni daftarda yoza olmasligi yoki o‘quvchi harflarni tanib, ularni o‘qiy olmasligi mumkin. Yozish ko‘nikmasini hosil qilish uchun boshqa faoliyat turlari, ya’ni yozish jarayonida partada to‘g‘ri o‘tirish, ruchkani barmoqlar orasida tutish, daftarni qiyalikda qo‘yish kabilar ham o‘rgatiladi. O‘qish va yozish ko‘nikmasi takomillashtirila borib, malakaga aylantiriladi. Malakaning shakllanishi uchun bir faoliyat bir necha bora takrorlanishi lozim. Yozish malakasida o‘quvchi ruchkani qanday ushlash, qanday yurgizish haqida o‘ylab o‘tirmay, so‘z va gaplarni yoza boshlaydi. Demak, o‘qish va yozish malakasi harakatning o‘ylab o‘tirmay amalga oshirilish jarayonidir.

O‘zbek tilining tovush tizimi va yozuvi, o‘zbek tili yozuvi fonematik yozuv hisoblanadi. 1993-yildan boshlab o‘zbek tili yozuvi uchun lotin grafikasi asos qilib olindi. Nutqning har bir tovushi uchun unga mos grafik shakl qabul qilindi. O‘qituvchi savod o‘rgatish jarayonida o‘quvchilarni tovush va harflar bilan tanishtirishda, ularni sintezlab o‘qishga o‘rgatishda o‘zbek tilining fonetik xususiyatlarini hisobga olishi zarur. Savod o‘rgatish analitik-sintetik tovush metodiga asosan olib boriladi. So‘z bo‘g‘inga bo‘linadi, bo‘g‘indan kerakli – o‘rganilayotgan tovush ajratilib olinadi, tahlil qilinadi, o‘rganiladigan harf bilan sintezlanadi, shu asosda harf va butun o‘qish jarayoni o‘zlashtiriladi. Bunda o‘zbek tili grafik tizimi, tovushlarni yozuvda belgilash xususiyatlari hisobga olinadi. Savod o‘rgatishda o‘zbek tili grafik tizimining quyidagi xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Tutuq belgisi (’) unli tovushdan so‘ng kelsa, uni cho‘zib talaffuz qilishga, undosh tovushdan so‘ng kelsa, undoshni unlidan ajratib talaffuz qilishga xizmat qilishi haqida ham tushunchalar berilib, asta-sekin uni qo‘llashga doir ko‘nikma va malakalar shakllantiriladi. O‘qishning dastlabki bosqichida orfografik o‘qishdan foydalaniladi, asta-sekin orfoepik o‘qish ko‘nikmalari shakllantiriladi. Talaffuzi yozilishiga mos kelmaydigan tovushlar ishtirok etgan so‘zlar oldin orfografik, so‘ngra orfoepik o‘qib beriladi va ularning o‘qilishi bilan yozilishi taqqoslanadi. O‘quvchilar muayyan darajada tushunchaga ega bo‘lganlaridan so‘ng orfoepik o‘qish mashq qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umumiy o‘rta ta’limning boshlang‘ich ta’limdan davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi. Respublika ta’lim markazi – T.: 2017. 19-bet.

2. Qosimova K., Matjonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. –T.: Noshir, 2009. – 163-b.

3. G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Mamatova G., Boqiyeva H. Husnixat va uni o‘qitish metodikasi. –T.: TDPU, 2009. – 70-b.

4. Safarova R. va boshqalar. Savod o‘rgatish darslari. –T.: Ma’naviyat, 2003.

Asadulloh SOATOV,
Qashqadaryo viloyati XTXQTMOHM “Pedagogika, psixologiya va ta’lim menejmenti” kafedrasi katta o‘qituvchisi

DIQQAT VA UNING TA’LIMIY AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada diqqat va uning ta’limiy ahamiyati hamda diqqat borasidagi ilmiy-amaliy tavsiyalar yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar. Ixtiyoriy diqqat, ixtiyorsiz diqqat, avtomatlashgan diqqat, tashqi diqqat, ichki diqqat.

В статье обсуждается внимание и его воспитательное и научное значение, а также даются научные и практические рекомендации по изучению термина “внимание”.

Ключевые слова. Произвольное внимание, непроизвольное внимание, автоматизированное внимание, внешнее внимание, внутреннее внимание.

The article discusses attention and its educational and scientific significance, and also provides scientific and practical recommendations for the study of the term “attention”.

Key words. Voluntary attention, involuntary attention, automated attention, external attention, internal attention.

Bugungi kunda o‘qituvchilarning darsda natijaga erishish imkoniyatlari o‘quvchilar diqqatini e’tiborga olgan holda darsni tashkil qilishlariga bog‘liq. Chunki har qanday aqliy faoliyat teran diqqat orqaligina samarali o‘zlashtiriladi. Shuning uchun ham pedagoglarning diqqat uning turlari va xususiyatlari haqida yetarli bilimga ega bo‘lishlari va buni dars jarayonida hisobga olishlari ta’limda natijaga erishishlari uchun muhim hisoblanadi.

Ilmiy jihatdan diqqat deb, ongni bir nuqtaga to‘plab, muayyan bir obyektga faol qaratilishini aytamiz. Diqqat – idrok, xotira, tafakkur nutq va xayol, singari alohida psixik jarayon bo‘lmay balki, aqliy jarayonlarning sifatini ta’minlovchi ichki faollikdir. Ya’ni diqqat barcha psixik jarayonlar samaradorligini ta’minlashda ko‘prik vazifasini o‘tovchi vositadir. Shuning uchun ham diqqat har qanday faoliyatning zaruriy sharti hisoblanadi.

Diqqat esda mustahkam saqlab qolishning zaruriy shartidir. Diqqat esga olish lozim bo‘lgan materialga qanchalik kuchli sur’atda qaratilgan bo‘lsa, u shunchalik tez va puxta esda qoladi. Ko‘pincha ayrim o‘quvchi va talabalar xotirasining zaifligi, tez va puxta esda saqlab qololmasligi to‘g‘risidagi shikoyatlari tahlil qilib ko‘rilganda, esda yaxshi saqlab qololmasliklarining sababi ular diqqatining bo‘shligida, tarqoqligida va zaifligida ekanligi ma’lum bo‘ladi.

O‘quvchi-talabalarning dars materiallarini muvaffaqiyat bilan o‘zlashtirishlari, ular diqqatining qanchalik darajada taraqqiy etganligiga bog‘liq. Akademik K.D. Ushinskiyning aytishicha: “Diqqat ruhiy hayotimizning shunday yagona bir eshigidirki, ongimizga kirib keladigan ma’lumotlarning barchasi shu eshik orqali o‘tib kiradi”.

Ta’lim olayotgan ko‘plab o‘quvchi-talabalarning fanlarni o‘zlashtira olmasligi bilan bog‘liq muammolar sababini, avvalo, ular diqqatining yetarli darajada taraqqiy etmaganligidan qidirish kerak. Psixik jarayonlarning passivligi xotiraning bo‘shligi, asosan,

diqqatning zaifligidan kelib chiqadi. Shuning uchun ham o‘qituvchilar darsda yuqori natijaga erishishlari uchun o‘quvchilar diqqatini, xususan, ko‘chuvchan, barqaror va kuchli diqqatni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratishlari lozim.

Quyida diqqat haqidagi nazariy va amaliy ma’lumotlar hamda bu boradagi pedagogik-psixologik tavsiyalarni berib o‘tamiz.

Diqqat asosan faolligiga ko‘ra uch turga: ixtiyoriy, ixtiyorsiz va ixtiyoriydan keyingi diqqat turlariga bo‘lib o‘rganiladi.

Ixtiyoriy diqqat diqqatimiz qaratilishi lozim bo‘lgan narsani oldindan belgilab olib, ongli ravishda qo‘yilgan maqsad asosida ishga solingan diqqatdir. O‘quvchi-talabalarning 45 yoki 80 daqiqa davom etadigan darsga diqqatini zo‘r berib jalb qilishlari bunga misol bo‘ladi.

Nazariy jihatdan ixtiyoriy diqqat kuch va zo‘r berishni talab qilgani uchun irodaviy diqqat deb ham ataladi. Ixtiyoriy diqqatning kuchi qiyinchiliklarni yengish bilan bog‘liq bo‘lgan irodaviy zo‘r berish darajasi bilan xarakterlanadi.

Ixtiyoriy yoki irodaviy diqqatning o‘quvchi-talabalarda shakllangan bo‘lishi ta’lim samarali bo‘lishi uchun juda muhim. Chunki shu diqqat turi orqali o‘quvchi-talabalar fanlarni o‘zlashtirish jarayonida irodaviy sifatlariga tayanib o‘z ustida soatlab ishlashadi, bilim olishadi va vazifalarni o‘zlashtirish uchun so‘z berib kuch sarflashadi. Bu diqqat turi rivojlanmagan o‘quvchi-talabalar fanlarni qunt qilib o‘zlashtirish ko‘nikmasi shakllanmaganligi sabab o‘zlashtirishda orqada qolib ketishadi.

Erinchoqlik sabab irodaviy diqqatini shakllantira olmagan o‘quvchi-talabalarga maslahat tariqasida Kel Nyuportning quyidagi fikrini keltiramiz: Erinchoq ong-iblisning ustaxonasi… Siz diqqatni yo‘qotganingizda, ongingiz to‘g‘ri yo‘ldan ketish o‘rniga xato yo‘nalishni tanlaydi.

Tavsiya. Bunday o‘quvchi-talabalar o‘zlarida irodaviy diqqatni shakllantirib borishlari uchun dars qilish vaqtini davriylikka tayangan holda oz-ozdan uzaytirib borishlari kerak. Bu jarayonda albatta o‘zlashtirilayotgan bilimlar ular diqqatini jalb qila oladigan mazmunga ega bo‘lishi muhimdir.

Ixtiyorsiz diqqat muayyan tashqi sabab bilan, bizga bog‘liq bo‘lmagan holda sodir bo‘ladigan diqqatdir. O‘quvchi-talabalarning darsda o‘qituvchini tinglayotganida to‘satdan eshik ochilib kimningdir kirib kelishi, telefon jiringlab qolishi, kutilmaganda eshitilgan shovqin yoki g‘ala-g‘ovur tovushlar bunga misol bo‘ladi. O‘quvchi-talabalar yaxshi bilim olishlari uchun diqqatini beixtiyor o‘ziga jalb qilishi mumkin bo‘lgan tashqi vositalarning ta’siridan maksimal darajada himoya qilinishlari kerak.

Tavsiya. Buning uchun birinchi navbatda o‘qituvchilar o‘zini tutishi, muomilasi va kiyinish madaniyatiga nihoyatda e’tiborli bo‘lishlari lozim. Bu omillar o‘quvchi-talabalar diqqatini to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘ziga jalb qiladi. Natijada, o‘quvchilar o‘qituvchining noo‘rin hatti-harakati, yoki o‘zi uchun g‘alati tuyulgan imidjiga beixtiyor diqqatini qaratib asosiy faoliyat turidan chalg‘ib ketadi.

Ikkinchidan o‘quvchi-talabalar darsni faol tinglashlari uchun ta’lim muassasasidagi tashkiliy ishlar, xususan, darsga kirib kelib davomat olinishi yoki qandaydir tadbirlarni o‘tkazish vaji bilan dars vaqtini o‘g‘irlash holatlari imkon darajasida cheklanishi kerak. Axborot asrida mas’ul shaxslar sinf xonalari va auditoriyalarni kameralashtirgan holatda o‘z xonasidan turib ham davomatni aniqlash imkoniyatini yo‘lga qo‘ysa bo‘ladi. Ma’naviy tadbirlarni yo‘lga qo‘yish uchun esa darsdan keyingi vaqtdan foydalanish maqsadga muvofiq. Chunki maktabda ta’limning asosi dars bo‘lib, boshqa har qanday faoliyat ta’lim sifatini oshirishga xizmat qilishi lozim.

Uchinchidan sinf xonalaridagi eshik va romlar tashqaridan eshitilishi mumkin bo‘lgan har xil shovqinli tovushlarni maksimal darajada kamaytirishga mo‘ljallab o‘rnatilgan bo‘lishi kerak. Serqatnov yo‘llarga yaqin joylashgan binolarda o‘qiyotgan o‘quvchi-talabalarga avtomobillarning ovozi va signal tovushlarining muntazam eshitilib turishi bunga misol bo‘ladi. Ayniqsa, katta tezlikda kelayotgan mashinaning favqulotda tormoz berishi natijasida eshitiladigan baland shovqin avtohalokat sodir bo‘lish xavfini yuzaga keltirganligi bois har qanday insonning diqqatini beixtiyor o‘ziga jalb qiladi. Serqatnov yo‘llardan uzoqda joylashgan ta’lim muassasalarida esa, muassasa hovlisida va bino yo‘laklarida darsga xalaqit qilmaslik uchun tartib intizomga rioya qilgan holda yurish madaniyati barcha pedagog xodimlar va o‘quvchi-talabalarda shakllangan bo‘lishi lozim.

Ixtiyoriydan keyingi diqqat – diqqatning muayyan obyektga dastavval ixtiyoriy ravishda qaratilib, so‘ngra uning ahamiyati tushunilgani sari o‘z-o‘zidan qaratilib boriladigan diqqatdir. Diqqatning bu turi avtomatlashgan yoki muvofiqlashgan diqqat deb ham ataladi. Ushbu tushuncha psixologiya faniga N. F. Dobrinin tomonidan kiritilgan. O‘quvchi-talabalarning dars boshida diqqatini majburan dars jarayoniga qaratib dars qiziqarli tashkil qilinganligi sabab endi zo‘r bermasdan ya’ni ortiqcha kuch sarflamasdan diqqatini jalb qilishlari bunga misol bo‘ladi. Bunday darsda o‘quvchi-talabalar tanaffus bo‘lgan paytida dars vaqti ular kutganidanda tez o‘tib ketganligini his qilishadi. Bu albatta o‘qituvchining pedagogik mahoratiga bog‘liq jarayondir.

Dars jarayonida o‘quvchi-talabalarining diqqatini avtomatlashgan formatga o‘tkaza olgan o‘qituvchi haqiqiy o‘qituvchidir. Buning uchun har bir fan o‘qituvchisi darsda o‘tishi kerak bo‘lgan mavzular mazmunini real hayotga bog‘lab, o‘quvchi-talabalarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda, ular tushunadigan tilda qiziqarli qilib o‘tishlari lozim. Fanlarni yaxshi o‘zlashtira olmaydigan yoki uyga vazifalarni bajarib kelganida ham talab darajasida tushuntirib bera olmayotgan o‘quvchilardagi muammolar ko‘p jihatdan o‘qituvchining dars o‘tish metodikasi talabga javob bermasligidan ham kelib chiqadi.

Tavsiya. Darsda natijaga erishishni maqsad qilgan o‘qituvchilar o‘tayotgan darsining qiziqarlilik darajasini o‘quvchilar ko‘rayotgan multfilm yoki kinoning qiziqlik darajasigacha olib chiqishlari kerak. Shundagina bolaning diqqatini tortayotgan tashqi ta’sir bilan o‘qituvchining darsi raqobatlasha olishi mumkin.

Bundan tashqari diqqat yo‘nalishiga ko‘ra, ichki va tashqi turlarga bo‘linadi. Manbai bizning ongimizdan tashqarida bo‘lgan diqqatga tashqi diqqat deyiladi. O‘quvchining o‘qituvchi bayonini tinglashdagi, kitob o‘qishdagi, suratlarni ko‘rishdagi va tabiat hodisalarini kuzatishdagi diqqat tashqi diqqatdir. Narsa va hodisalarni qaysi sezgi a’zolarimiz bilan idrok qilayotganimizga qarab, tashqi diqqatni ko‘rish, eshitish, tuyish, hid bilish va ta’m bilish turlariga ham ajratish mumkin.

Manbai bizning tasavvurlarimiz, fikrlarimiz, hissiyotlarimiz va mayllarimizdan iborat bo‘lgan diqqat ichki diqqat deb ataladi. Biz o‘z fikrlarimizni kuzatayotganizmizda, bu fikrlarimizni tekshirayotganimizda, pushaymon qilish hissini boshimizdan kechirayotganimizda, o‘z-o‘zimizni tanqid qilayotganimizda va o‘z istaklarimizni mulohaza qilayotganimizda ichki diqqat namoyon bo‘ladi. Ichki diqqat odamning o‘z-o‘zini tarbiyalashi bilan uzviy bog‘liqdir. Ichki diqqat o‘z-o‘zini tarbiyalashning tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib ko‘proq ixtiyoriy bo‘ladi.

Diqqat tushunchasiga sinonim sifatida e’tiborlilik va sinchkovlik sifatlarini ham muomilada ishlatamiz. Bu tushuncha nafaqat bajarayotgan vazifamizni diqqat bilan qilishimizda balki, biz uchun muhimligi ikkinchi darajali bo‘lgan narsa va hodisalarni ham nazardan chetda qoldirmay eslab qolishimiz yoki o‘zlashtirishimizda o‘z ifodasini

topadi. Chunki kezi kelganida ikkinchi darajali hisoblangan narsa va hodisalar zaruriyat sabab birinchi darajali ma’lumotga aylanishi mumkin. Shunday paytda sinchkovlik sifatiga ega bo‘lgan kishilar muammolariga osonlik bilan yechim topadi.

Ikkinchi darajali narsa va hodisalarga e’tiborli bo‘lishning ahamiyatini quyidagi misol ham bir muncha ochib beradi. Akademik Qori Niyoziy domla talabalarining qanchalik e’tiborli ekanligini sinash uchun sessiya imtihonlarini boshlashdan oldin ularga savol berishini va savolga kim to‘g‘ri javob bera olsa, unga a’lo bahoni to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘yishini aytadi. Bilet tortmasdan bitta savolga javob berish orqali a’lo bahoni olish imkoniyati barcha talabalarni qiziqtirib qo‘yadi. Shunda Qori Niyoziy talabalarga ko‘zini yumishini aytib ma’ruza zalida nechta deraza borligi va har bir derazaning nechtadan ko‘zi borligi hamda jami derazalardagi ko‘zlar soni nechtaligini so‘raydi. Ilgari bunga e’tibor bermagan talabalar savolga to‘g‘ri javob berisholmaydi. To‘g‘ri javob topilmagach Qori Niyoziy barcha talabalarga bilet tortib savollarga tayyorlanishini aytadi.

Shundan keyin imtihonga kechikib kelgan talabaga ham shunga o‘xshash imkoniyat beradi. Undan nechanchi qavatda imtixon topshirayotganligini so‘raydi. Talaba ikkinchi qavatda deb javob beradi. Ikkinchi qavatga nima orqali chiqib kelganligini so‘raganida talaba zina orqali chiqib kelganligini aytadi. Shunda Qori Niyoziy talabadan zinadagi pillapoyalar soni nechtaligini so‘raydi. Tabiiyki bunga ilgari e’tibor bermagan talaba to‘g‘ri javobni aytolmaydi. To‘g‘ri javob bo‘lmagach Qori Niyoziy domla bu talabaga ham bilet tortib savollarga tayyorlanishini aytadi.

Talabalarga berilgan savollar ularning fani va sohasiga daxldor emasligini aytib e’tiroz qilganida Qori Niyoziy domla hayotda e’tiborli bo‘lish har bir inson uchun muhim sifat ekanligini inson qanday vazifa bilan shug‘ullanishidan qat’i nazar bu sifat unga naf keltirishini aytib nasihat qilgan.

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, pedagoglar ta’lim sifati samarali bo‘lishi uchun diqqatning psixologik ahamiyati haqida yetarli bilimga ega bo‘lishlari, o‘quvchi-talabalarda irodaviy diqqatni rivojlantirishga e’tibor qaratishlari, o‘quvchi-talabalar diqqatini beixtiyor chalg‘itishi mumkin bo‘lgan tashqi ta’sirlarni bartaraf qilishlari, darsda o‘quvchilar diqqatini ixtiyoriydan keyingi ya’ni muvofiqlashgan diqqat formatiga o‘tkaza olishlari, o‘quvchilarda sinchkovlik sifatini rivojlantirish orqali ma’lumotlarning muhimlik darajasiga qarab ikkinchi darajali ma’lumotlarga ham e’tiborli bo‘lish ko‘nikmasini shakllantirishlari maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ivanov P.I., Zufarova M.Y. Umumiy psixologiya. –T.: O‘zbek faylasuflari milliy jamiyati. 2015.-257,58,63-betlar.

2. Kel Nyuport. Diqqat: chalg‘ituvchi dunyoda muvaffaqiyat sirlari. –T.: Ofset print. 2020 -75-b

3. Soatov A.J. Bo‘lajak pedagog-psixologlarda psixologik maslahat berish ko‘nikmalarini shakllantirish texnologiyasi. O‘quv-qo‘llanma. –T.: Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi. 2020 -85-b.

4. Soatov A.J. Pedagogik kasbiy faoliyatda xotiraga xos mnemonik usullardan samarali foydalanish omillari. “Ta’lim fan va innovatsiya” jurnali 1 son. 2020 -100-b.

5. G‘oziyev E.G‘. Umumiy psixologiya. –T.: O‘zbek faylasuflari milliy jamiyati. 2010 -412-b.

Asliddin AMANOV,
Qarshi davlat universiteti “Boshlang‘ich ta’lim” kafedrasi o‘qituvchisi
Dilnoza BERDIYEVA,
Qarshi tumani 45-umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘qituvchisi

IQTIDORLI O‘QUVCHILAR BILAN ISHLASH – IJTIMOIY-PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Annotatsiya

Maqolada iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlash – ijtimoiy-pedagogik muammo ekanligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar. Shaxs, individual, qobiliyat, tarbiya, yo‘naltirish, madaniyat, ijodiy fikrlash.

Статья основана на том, что работа со студентами является социально-педагогической проблемой.

Ключевые слова. Личность, индивидуальность, способность, воспитание, ориентация, культура, творческое мышление.

The article is based on the fact that working with talanted students is a socio-pedagogical problem.

Key words. Personality, individuality, abilities, education, orientation, culture, creative thinking.

Har bir shaxs o‘ziga xos qaytarilmas dunyo. Dunyoda bir-biriga aynan o‘xshash bo‘lgan ikki kishini topish juda mushkul. Odam tashqi qiyofasi, bo‘y-basti bilan boshqa biror kimsaga o‘xshashi mumkin, lekin fe’li, mijozi va shaxs sifatidagi xususiyatlari nuqtayi nazaridan aynan bir xil insonlar bo‘lmaydi. Hattoki, olimlar bitta tuxumda rivojlangan egizaklarda ham juda ko‘p jihatdan aynan o‘xshashlikni qayd qilishgan, shaxsiy sifatlaridagi korrelyasiyada esa ba’zi tafovutlar aniqlangan.

“Individuallik” – yuqoridagi ikkala tushunchaga nisbatan torroq tushuncha bo‘lib, u konkret odamni boshqa bir aniq odamdan farqlovchi barcha o‘ziga xos xususiyatlar majmuini o‘z ichiga oladi. Shu nuqtayi nazardan shaxs tizimini tahlil qiladigan bo‘lsak, shaxsning individualligiga uning qobiliyatlari, temperamenti, xarakteri, irodaviy sifatlari, emotsiyalari, xulqiga xos motivatsiya va ijtimoiy ustanovkalari kiradi. Aynan shu qayd etib o‘tilgan kategoriyalar shaxsdagi individuallilikni ta’minlovchi kategoriyalardir. Uning ma’nosi shundaki, bo‘yi, eni, yoshi, sochining rangi, ko‘z qarashlari, barmoq harakatlari va shunga o‘xshash sifatlari bir xil bo‘lgan insonlarni topish mumkin, lekin xarakteri, qobiliyatlari, temperamenti, faoliyat motivatsiyasi va boshqalarga aloqador sifatlari majmui bir xil bo‘lgan odamni topib bo‘lmaydi. Ular – individualdir.

Qobiliyatlar – shaxsdagi shunday individual, turg‘un sifatlarki, ular odamning turli xil faoliyatdagi ko‘rsatkichlari, yutuqlari va qiyinchiliklari sabablarini tushuntirib beradi.

“Iqtidor” so‘zi arab tilidan olingan bo‘lib kuch-quvvat, qudrat; qodirlik; qobiliyat; holat kabi ma’nolarni anglatadi. “Iqtidorli” tushunchasi ham arab tilidan olingan bo‘lib kuch-qudratga molik, qudratli, qodir ma’nolarini anglatadi.

Jumladan, “qobiliyat” tushunchasi mayl, qiziqish, moyillik, qobillik, qodirlik, iste’dod ma’nolarini anglatishi ta’kidlanadi.

Erkin va mustaqil fikrlovchi, dunyoqarashi keng, ijodkor, milliy mafkuramizga sadoqatli bo‘lgan qobiliyatli yoshlarni tarbiyalash fan-texnika va texnologiyalarining eng so‘nggi yutuqlaridan ta’lim-tarbiya sohasida keng foydalanishni taqozo etadi va bu bilan jahon andozalari talablariga to‘liq javob beradigan raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga erishiladi. Bunda axborotlashgan jamiyatning faol ishtirokchilarini tarbiyalash eng muhim dolzarb muammolardan biri bo‘lib, unda aqliy mehnatning rivojlanishini ta’minlovchi intellekt va bilimlar ro‘yobga chiqariladi hamda iste’molda ulardan foydalaniladi. Ushbu muammo yechimini hal etishda ajdodlarimiz merosini o‘rganish hamda ulardan pedagogik jarayonda rejalashtirilgan maqsadlarda samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ajdodlarimiz merosida komil inson tarbiyasi yetakchi g‘oyalardan biri hisoblanadi. Jumladan, qobiliyat tushunchasi ham komil insonning serqirra aqliy faoliyatlaridan biri sifatida talqin etiladi.

Masalan, Farobiy insonni mavjudotning eng buyuk va yetuk mahsuli deb ataydi. U o‘zining ongi, aqli, sezish organlari orqali olamni har tomonlama o‘rganish qobiliyatiga egadir. Inson aqli yordamida butun mavjudotning mohiyatini tushunadi. “Aql, – deydi u, – jismlarni bunday xislatlardan holi holda tekshirganda u faqat jismlarning mohiyati nimadan iborat ekanligini va sezgilardan nimalar mavhumlashtirganini aniqlashga qaratilgan bo‘ladi. Jismni u bilan bog‘liq bo‘lgan belgilardan ajratib oluvchi aql faoliyati shu jismning faqat mohiyatini tekshirish uchun amalga oshiriladi”.

Allomaning fikricha, insonning tanasi, miyasi, sezgi organlari tug‘ilishda mavjud, lekin aqliy bilimi, ma’naviyati, ruhi, intellektual va axloqiy xislatlari, xarakteri, urf-odatlari, ma’lumoti tashqi muhit va boshqalar bilan muloqotda vujudga keladi. Insonning aqli, fikri ruhiy yuksalishning eng yetuk mahsuli bo‘ladi.

Jaloliddin Davoniy insoniy fazilatlardan donolikni tahlil etar ekan, inson aqliy qobiliyati, iste’dodi shakllanishi uchun quyidagi sifatlar muhim ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlaydi:

birinchisi, zukkolik-zehn o‘tkirligi. Bu kishining har bir masalani tezda hal qila olish, unda o‘zi istagan natijani ola bilishida deb ko‘rsatadi;

ikkinchisi, fahmlilik. Bunda kishining keraksiz va ikkinchi darajali masalalarga ortiqcha to‘xtalmasdan, butun diqqatni muhim va zarur masalalarga tez qarata bilish qobiliyati;

uchinchisi, zehn ravshanligi deb ko‘rsatiladi. Bu biror masalani hech qanday qiyinchiliksiz, oson yo‘l bilan hal qilish iste’dodi;

to‘rtinchisi, bilimni tez egallash qobiliyati. Kishi ma’lum masalaga butun diqqat-e’tiborini qarata olish va uni hech qanday qarama-qarshiliksiz o‘zlashtirishi;

beshinchisi, qo‘yilgan muammoni tezda anglashi;

oltinchisi, yodlash qobiliyati. Insonning ilgari his etgani va tasavvur qilganlarini esda saqlash qobiliyati;

yettinchisi, xotira. Yod olingan, his qilingan narsalarni kerak bo‘lganda eslash qobiliyatini tezda ishga solishi lozim, deb ko‘rsatadi.

Demak, Jaloliddin Davoniy kishi yoshlikdan o‘z qobiliyatini o‘stirishi, rivojlantirishi lozimligi, agar u haqiqiy baxt-saodatga erishmoqchi bo‘lsa, yuqoridagi aqliy qobiliyatni rivojlantirishga yordam beruvchi fazilatlarni egallashga harakat qilmog‘i lozim, deydi.

Ma’rifatparvar olim Abdulla Avloniy o‘zining “Turkiy Guliston yoxud axloq” asarida badan tarbiyasi bilan bir qatorda fikr tarbiyasiga ham alohida ahamiyat beradi. Uning ta’kidlashicha, fikr tarbiyasi “muallimning yordamiga so‘ng darajada muhtojdir” va inson hayotida muhim ahamiyatga ega:

Fikr agar yaxshi tarbiyat topsa,
Xanjar olmosdan bo‘lur o‘tkur.
Fikrning oynasi olursa zang,
Ruhi ravshan zamir o‘lur benur.

Muammoga oid Sharq mutafakkirlari qarashlari tahlili inson qobiliyati va uni shakllantirish har qanday davrda ham dolzarb muammolardan biri bo‘lib kelganligini ko‘rsatadi. Zero, qobiliyatli insonlargina jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi muhim vazifalarni amalga oshirishga qodirdirlar.

Barbara Klarkning kitobida aqliy (intellektual), akademik, ijodiy, liderlik iqtidori va vizual hamda ijrochilik san’ati (musiqa, rangtasvir, raqs, drama) sohasida iste’dodini xarakterlaydigan beshta shunday ro‘yxat keltiriladi. Bizni umumiy iqtidorlilikka aloqador bo‘lgan, o‘quvchining aqliy (intellektual) iqtidorliligi yotadigan ko‘p sonli tavsiflardan nimani ajratish mumkinligi qiziqtiradi. Bunday tavsiflar tahlili quyidagi tobora umumiy tavsif (xarakteristika) larni ajratish imkonini beradi:

– keng qamrovli qiziquvchanlik va bilim olishga bo‘lgan katta ehtiyoj;

– aqliy yuklamaga bo‘lgan katta ehtiyoj;

– qandaydir mashg‘ulot yoki faoliyat sohalariga yaqqol ifodalangan qiziqish, nimagadir g‘ayriodatiy berilish;

– mustaqil qo‘yilgan maqsadga erishish yo‘lidagi qat’iyat;

– bilimlarni mustaqil ravishda yangi vaziyatda qo‘llash;

– muammoni hal qilishning original usullarini topa bilish malakalarini egallay olish shular jumlasidandir.

O‘quvchilarning tobora “umumiy xususiyatlarini” ajratayotib, biz uchun favqulodda muhim bo‘lgan yana bir fakt – bunday o‘quvchilar orasida individual tafovutlar spektrining kengligini hamma vaqt yodda tutish kerak. Bu ularning qiziqishlarining yo‘nalganligiga ham, intellektual o‘sish yoki ilgarilash sur’atlariga ham, nihoyat, iqtidorlilikning rivojlanganlik darajasiga ham taalluqli. O‘quvchilarda individual tafovutlar spektri shunchalik kengki, amalda o‘quvchilarning yoshga oid xususiyatlarini to‘lig‘icha yopa oladi.

Ta’limning markaziy vazifalari, aniqrog‘i maqsadlari – o‘quvchi individualligini kashf qilish yo‘llarini ta’minlash, tizimli tafakkurni, dunyoni yaxlit idrok qilishni va shaxsning ma’naviy-axloqiy asoslarini rivojlantirish sifatida belgilandi. Bu vazifalar iqtidorli o‘quvchilarni o‘qitishga nisbatan spetsifik (o‘ziga xos) sanalmay, balki barcha o‘quvchilar uchun dolzarbdir. Iqtidorli o‘quvchilarni o‘qitish uchun bu vazifalarning qo‘yilishi birinchi darajali ahamiyatga ega ekani boshqa gap. Bu ta’limning an’anaviy vazifalari – bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirish iqtidorli o‘quvchilar uchun maktabga salbiy munosabatning sababi bo‘lishi mumkinligi bilan birga ijtimoiy buyurtmaning o‘ziga xosligi bilan ham bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. J. II/ Tahrir hay’ati: T.Mirzayev va b.q. T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. –264-b.

2. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi. 1-jild. (–Tuzuvchi mualliflar: K.Hoshimov, S.Ochil). – T.: O‘qituvchi, 1995. – 139-b.

3. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: O‘zbekiston, 1992. –103-b.

4. Zunnunov A. Xayrullayev M., Hotamov N., Shodiyev D. O‘rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar. – T., 1996. –123-b.

Jahongir YO‘LDOSHEV,
Qarshi davlat universiteti, “Boshlang‘ich ta’lim” kafedrasi o‘qituvchisi

TA’LIM JARAYONIDA KONVERGENT VA DIVERGENT FIKRLASH

Annotatsiya

Maqolada ta’lim jarayonida konvergent va divergent tafakkularni ahamiyati, farqlanishi va xususiyatlari haqidagi fikrlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar. Divergent, konvergent, psixologik moslashuv, kasbiy harakatchanlik, intellektual jarayon, kombinatorlik, protsedura.

В статье представлены мнения о значении, дифференциации и особенностях конвергентного и дивергентного мышления в процессе обучения.

Ключевые слова. Дивергент, конвергент, психологическая адаптация, профессиональная мобильность, интеллектуальный процесс, комбинаторика, процедура.

The article presents ideas about the importance, differentiation and characteristics of convergent and divergent thinking in the educational process.

Key words. Divergent, convergent, psychological adaptation, professional mobility, intellectual process, combinatorial, procedure.

Jamiyatning ijtimoiy va ma’naviy hayotining barcha sohalaridagi sezilarli o‘zgarishlar zamonaviy ta’limning holatiga, ta’lim muassasalaridagi o‘quv jarayonining mazmuni, tashkil etilishi va natijalariga, ular bajaradigan ijtimoiy funksiyalarning ko‘rinishi va tabiatiga ta’sir qiladi. Jamiyatimiz uchun odatiy bo‘lmagan yangi, paydo bo‘ladigan iqtisodiy jarayonlar, ishlab chiqarishning raqobatbardosh asosiga o‘tish va ularni boshqarishning zamonaviy usullari, tezkor ijtimoiy va psixologik moslashuv, o‘qituvchilarning kasbiy harakatchanligi, talabalarning psixologik va amaliy tayyorgarligining yangi usullari va vositalarini izlash zarurligini belgilaydi.

Ta’lim jarayonida konvergent va divergent fikrlash birinchidan kuchli, chuqur bilimga ega bo‘lgan, yuzaga keladigan muammolarni mustaqil ravishda, noan’anaviy usullarda hal qila oladigan va talabalar shaxsiyatining ijodiy fazilatlarini, kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilmagan, mavjud ta’lim tizimi bilan jamiyatning o‘sib borayotgan ehtiyojlari o‘rtasidagi ziddiyat bilan belgilanadi. Zamonaviy jamiyat talab qiladigan shaxsiy tashabbus o‘rtasidagi ziddiyat yanada kuchaymoqda. Divergent va konvergent fikrlashni shakllantirish ushbu muammoli vaziyatdan chiqish yo‘llaridan biri hisoblanadi.

Ikkinchidan, markazlashtirilgan test shaklida yakuniy sertifikatlashtirishning zamonaviy shakli bir-biridan farq qiluvchi fikrlash(divergent)ni rivojlantirishni o‘z ichiga oladi, bu bir xil muammoni hal qilish variantlarini ko‘rib chiqish, har birining to‘g‘riligini tekshirish imkonini beradi, uning shakllanishisiz bitiruvchiga yuqori va yuqori darajadagi murakkab vazifalarni bajarish deyarli mumkin emasligini ko‘rsatib beradi.

O‘rta maktabda, aksariyat hollarda darslarda aniq konvergent tafakkur mavjud, u modelga muvofiq harakat, algoritmiklik bilan tavsiflanadi. Bu albatta zarur, ammo, intellektual jarayonlarning shakllanishidagi dastlabki qadam sifatida, konvergent kon-

sepsiyaning shakllanishidan ajralib chiquvchi tizimning shakllanishiga o‘tish majburiy ravishda amalga oshirilishi kerak. Ammo fikrlashning ushbu turlari o‘rtasidagi chiziq har doim ham ko‘pgina o‘qituvchilar uchun aniq emas.

Konsepsiyalarning mohiyati konvergent va farq qiluvchi (divergent) fikrlashdir. Biror kishi barcha muammolarni sensatsion aks ettirish bilan hal qila olmaydi, keyin barcha aqlli insonlarning asosiy vositasi – fikrlash, ishga kirishadi. Aynan shu narsa odamlarga atrofdagi olamda to‘g‘ri harakat qilish, mavjud bilimlarni yangi sharoitda qo‘llash imkonini beradi. Obyektiv voqelikning qonunlari va munosabatlarini bilish insonning ratsional faoliyatini belgilaydi. Fikrlash – bu javoblarni izlash va tushunish istagi, u aqliy faoliyatning ko‘plab turlarini, shu jumladan, kuzatish va e’tiborni, xotiralarni va qiziqishni, sharhlash va qadrlashni, tasavvur qilish va fikrlashni o‘z ichiga oladi.

Ta’sirchan ma’lumot yukining mavjudligi muammolarni muvaffaqiyatli hal etishning kafolati emas. “Yuradigan ensiklopediya” deb nomlanishi mumkin bo‘lgan odam muammolarga duch kelganda yo‘qolishi mumkin. Ushbu muammolarni hal qilish qobiliyati faktlarni bilish va fikrlash qobiliyatidan iborat.

Ilmda birinchi marta “divergent fikrlash” tushunchasi J. Gildford (1967) tomonidan kiritilgan. U ikkita aqliy operatsiyalar o‘rtasidagi tub farqni ta’kidladi: konvergensiya va tafovut.

Konvergent tafakkur (lot.Convergere – konvergatsiya) – muayyan muammoni hal qilish uchun ilgari o‘rganilgan algoritmlardan aniq foydalanish strategiyasiga asoslangan fikrlash shakli. Mavjud muammoni hal qilish uchun elementar operatsiyalarning ketma-ketligi va mazmuni bo‘yicha ko‘rsatmalar berilganda muammoni yechimini topish mumkinligi ko‘rsatib berildi.

Konvergent fikrlash qobiliyati ushbu faoliyat sharoitida intellekt qanday moslashishini (u yagona to‘g‘ri yechimni va qanday tezlikda topadi) tavsiflaydi.

Inson ongining uchta xususiyati konvergent fikrlash qobiliyatini ifodalaydi:

Darajasi: idrok tezligi, diqqatni jamlash, so‘z boyligi, hissiy kamsitish va boshqalar.

Kombinatorlik: mavjud bilimlarni vazifaning elementlari bilan birlashtirish, munosabatlarni aniqlash qobiliyati.

Protsedura: olingan ma’lumotlarni o‘zgartirish strategiyalari, intellektual faoliyat usullari va uning faoliyati.

Konvergent fikrlashning eng xarakterli shakli – bu aniq belgilangan mantiqiy muammoning mavjudligini taxmin qiladigan analitik mulohaza yoki probabilistik fikrlashdir. Biroq, har qanday tizimli va sinchkovlik bilan tahlil qilish usulini yechim topish uchun oddiy evristik metodlar ishlatilgan bo‘lsa ham, konvergent fikrlash deb tasniflash mumkin. [Evristik – nazariy tadqiqotlar va haqiqatni topish uchun mantiqiy metodlar va metodik qoidalar to‘plami: ko‘z bilan hisoblash usullari, zukkolik, ishbilarmonlik qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradigan o‘quv uslubi va boshqalar.

Divergent fikrlash “Turli yo‘nalishlarda ketadigan fikrlash turi” deb ta’riflanadi. Ushbu fikrlash muammoni har xil yechishga imkon beradi, bu esa kutilmagan xulosalar va natijalarga olib keladi. Aslida, ajralib turadigan fikrlash tartibga solinmagan muhitda turli xil original g‘oyalarni yaratishga imkon beradi. Gildfordning fikriga ko‘ra, tafovutli fikrlash tasavvurga tayanadi. Divergent fikrlash tasavvurga asoslanadi. Bitta savolga bir nechta javob bo‘lishi mumkin, deb taxmin qiladi, bu asl g‘oyalarni shakllantirish va shaxsning o‘zini namoyon qilishi uchun shartdir.

Farqli(divergent) fikrlash qobiliyati bir necha mezonlarga qarab baholanadi:

• Ravonligi: muayyan vaqtinchalik birlikda tug‘ilgan g‘oyalar soniga qarab belgila-

nadi.

• O‘ziga xoslik: odatiylardan farq qiladigan g‘oyalarni ilgari surib, algoritmik va odatiy yechimlardan uzoqlashish qobiliyati.

• Sezgirlik: g‘ayrioddiy lahzalarni batafsil idrok qilish, noaniqlik yoki qarama-qarshiliklarni ko‘rish, shuningdek, bir fikrdan boshqasiga tez o‘tish qobiliyati.

• Tasavvur: assotsiatsiya va ramzlar yordamida fikrlaringizni ifoda etish, xayoliy kontekstda ishlash, mutlaqo sodda ko‘rinadigan narsada murakkablik topish va hamma narsaning chalkash ko‘rinadigan soddaligini xayoliy ko‘ra olish.

Ajralib chiquvchi fikrlashning yorqin misollari miya hujumi yoki mashhur smart-kartalar bo‘lishi mumkin.

Idrok jarayonida odam kashfiyotlarni amalga oshiradi yoki unga allaqachon tanish bo‘lgan narsalarni o‘rganadi. Shu bilan birga, xotira allaqachon ma’lum bo‘lgan barcha narsalarni saqlab qoladi va fikrlashning ikki turi xotira xazinasidagi yangi ma’lumotlarni yaratadi. Ikkala divergent va konvergent fikrlash rivojlanishi mumkin. Har bir turning xususiyatlarini tushunish uni to‘g‘ri usullar va eng yaxshi natijalar bilan rag‘batlantirishga yordam beradi.

O‘z navbatida, assotsiativ, tafovutli fikrlash katta ichki erkinlik bilan ajralib turadi va ko‘pincha yoqimli natijalarga olib keladi. Psixologlar idrok ravonligi deb ataydigan narsalar moslashuvchanlik va o‘ziga xoslik (ya’ni yangi g‘oyalarni yaratish qobiliyati) bilan tavsiflanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ismailov A. va b. Xalqaro tadqiqotlarda o‘quvchilarning matematik savodxonligini baholash (uslubiy qo‘llanma). – T.: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati.112-bet

2. G‘afforova Tal’at. “Boshlang‘ich ta’lim samaradorligiga erishishning pedagogik shart-sharoitlari”. – T.: Mashhur-press. 2017.

3. internet-resurs [http://vikent.ru/enc/1802/]

Akmal OCHILOV,
Qarshi davlat universiteti “Boshlang‘ich ta’lim” kafedrasi o‘qituvchisi

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINI DIFFERENSIAL O‘QITISHGA TAYYORLASHNING TAMOYILLARI VA ULARNING XUSUSIYATLARI TAHLILI

Annotatsiya

Mazkur maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini differensial o‘qitish muammosiga bag‘ishlangan bo‘lib, tabaqalashtirib o‘qitishning yetakchi tamoyillari va ularning o‘ziga xosligi haqida fikr bildirilgan.

Kalit so‘zlar. Differensial ta’lim, individual ta’lim, individual yondashish, differensial o‘qitish tamoyillari.

Статья посвящена проблеме дифференцированного обучения будущих учителей начальных классов и дает мнение о руководящих принципах дифференцированного обучения и их специфике.

Ключевые слова. Дифференцированное обучение, индивидуальное обучение, индивидуальный подход, принципы дифференцированного обучения.

The article is devoted to the problem of differentiated teaching of future primary school teachers and gives an opinion on the guiding principles of differentiated teaching and their specificity.

Key words. Differentiated teaching, individual teaching, individual approach, principles of differentiated teaching.

Differensial o‘qitish xususiyatlarini tanlash va hisobga olish muammosi yangi emas ammo hozirgacha uning yechimiga yagona yondashuv ham mavjud emas. Tabaqalashtirilgan ta’limning mohiyatini, o‘quv jarayoniga tizimli differensial yondashuvni qo‘llash imkoniyatlarini, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy faoliyatini rivojlantirish muayyan prinsiplarga asoslanadi. Mazkur prinsip bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisini differensial o‘qitish uchun metodik tayyorgarligini ko‘rish va amalga oshirish jarayonini tartibga soladi.

Integrativlik prinsipi. Differensial o‘qitish mohiyatining xususiyatlari, uni amalga oshirish imkoniyatlari va ushbu jarayonga bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining metodik tayyorlash differensial o‘qitish uchun ilmiy-amaliy asoslarini ochib berishga imkon beradi. Bu esa quyidagi materiallardan iborat bo‘lishi lozim:

– o‘quv jarayonida talabalarga individual va differensial yondashishning mohiyati;

– “tabaqalashtirilgan ta’lim” tushunchasining mohiyati;

– insonning individual xususiyatlari, ularni diagnostika qilish, hisobga olish va shakllantirish imkoniyatlari;

– ta’lim faoliyati tarkibi va uning turli tarkibiy qismlarini amalga oshirish muvaffaqiyatiga ta’sir qiluvchi individual xususiyatlar;

– boshlang‘ich maktab matematikasi kursining tarkibiy qismlari va talabalarning individual xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ularni o‘rganish metodikasi;

– tabaqalashtirilgan ta’lim sharoitida o‘quv jarayonining turli qismlarini loyihalashtirish va h.k.

Ushbu ro‘yxatni tahlil qilish bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisini boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini differensial o‘qitish uchun uslubiy tayyorlash uchun nazariy asoslarning fanlararo, integral xususiyatini ko‘rsatadi. Differensial ta’limga metodik tayyorgarlik bo‘lajak o‘qituvchisining kasbiy tayyorgarligi bo‘lganligi sababli, uning maqsadlarini belgilashda bir necha omillarga amal qilish kerak

Shaxsiy xususiyatlar, ularning diagnostikasi, o‘quv jarayonida talabalarga individual yondashish, mashg‘ulotlar jarayonida talabalarning psixologik-pedagogik tayyorgarligi to‘g‘risida dastlabki ma’lumotlar o‘zlashtiriladi. Xuddi shu joyda, ular ta’lim mazmunini qurish bilan bog‘liq bo‘lmagan individual xususiyatlarni hisobga olish usullarini o‘rganadilar. Shu sababli, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisini differensial o‘qitishga metodik tayyorlash jarayonida ilgari olingan va yangilarini birlashtirish yuzasidan bilim va ko‘nikmalar, erishilgan natijalarga muvofiq uslubiy mashg‘ulotlarning maqsadlari va mazmunini aniqlashtirish, optimallashtirish, psixologik-pedagogik tayyorgarlikning maqsadlari va mazmunini o‘rganiladi. Bu esa o‘quv maqsadlarini shakllantirishga ta’sir qiluvchi uchinchi omil, talabalar pedagogika va psixologiya kurslarini o‘rganishda erishgan maqsadlarini hisobga olish hisoblanadi. Differensial o‘qitishni tashkil qilishdagi amaliy faoliyatining muvaffaqiyati, u kasbiy ta’limning har xil turlari jarayonida u olgan bilim va ko‘nikmalarni birlashtirish va ularni yangi vaziyatlarda qo‘llash bilan bog‘liq, mavzuning o‘ziga xos xususiyatlari (matematik), mashg‘ulot bosqichi, sinf talabalarini tanlash bilan tavsiflanadi. Bundan kelib chiqadiki, uslubiy mashg‘ulotning maqsadlari ushbu jarayonni aks ettirishi kerak. Ular nafaqat talabalar tomonidan tabaqalashtirilgan ta’lim to‘g‘risida bilimlarni egallashga, balki ularni standart va o‘zgartirilgan vaziyatlarda foydalanish qobiliyatlarini egallashga ham yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. Shunday qilib, bo‘lajak o‘qituvchini metodik tayyorlashning maqsadlari tabaqalashtirilgan ta’lim, talabalar turli darajadagi maqsadlarning birlashishini ifodalashlari kerak: idrok etish, anglash va yodlash bilan bog‘liq bo‘lgan bilimlar, bilimlarni tanish vaziyatda qo‘llash va faoliyat usullarini amalga oshirishda tajriba orttirish bilan bog‘liq maqsadlar-ko‘nikmalar va bilimlarni qo‘llash bilan bog‘liq ijodiy maqsadlar, yangi vaziyat va ijodiy tajriba orttirish va b... Demak, bo‘lajak o‘qituvchini differensial o‘qitish uchun metodik tayyorgarligini rivojlantirishda integrallik tamoyilini amalga oshirish talabalar majburiyati va zarurligini anglatadi.

Adaptivlik tamoyili. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisini differensial o‘qitishga tayyorlashda mazkur tamoyilning mazmuni bilan chuqurroq tanishtirish maqsadga muvofiq. Ma’lumki, talaba oliy o‘quv yurtiga kelgan dastlabki kundan boshlab uning faoliyat ko‘lami (o‘qish jarayonida o‘ziga ishonch, o‘z-o‘zini tartiblash, o‘qish, kun tartibiga amal qilish, dam olish) kengayadi. Bu kabi faoliyat ko‘nikmalarini egallashida moslashuvchanlik tamoyili muhimlik kasb etadi. Natijada, shaxs asta-sekin ijtimoiy ko‘nikmaga ega bo‘lib boradi. Shuning uchun ta’lim jarayonining samarali bo‘lishi, uni tabaqalashtirib o‘qitishda ta’lim mazmuni va boshqa faoliyat modellari hisobga olinishi, ularni talabalar kundalik hayot faoliyatida egallab borishi ta’minlanishi zarur. Ayni vaqtda tabaqalashtirib o‘qitish talaba shaxsini rivojlantirish va uni ijtimoiy hayotga moslashtirishda samarali ahamiyat kasb etadi. Tabaqalashtirib o‘qitishda moslashuvchanlik tamoyilining o‘ziga xosligi talaba shaxsining dinamik o‘zgaruvchan holati – bu yangi muhit normalari, qadriyatlari va munosabatlari, yangi hayot sharoitlari, yangi ijtimoiy aloqalar, o‘zaro ta’sirlar va ijtimoiy rollarni qabul qilishni qulaylashtiradi. Moslashtirish

tamoyili talabaning ichki pozitsiyasini o‘rganishga yo‘naltirilganligini, uning o‘qish joyiga bo‘lgan hissiy ijobiy munosabatini, “yaxshi talaba” modeliga mos kelishni xohlaydigan motivatsiya berishni nazarda tutadi. Chunki tabaqalashtirib o‘qitishda moslashtirish tamoyilidan foydalanmaslik talabaning pozitsiyasini aks ettiruvchi bolaning eng muhim ehtiyojlari qondirilmagan hollarda, u doimiy hissiy tanglikni boshdan kechirishi mumkin, bu o‘qishda doimiy muvaffaqiyatsizlikni kutish, o‘qituvchilar va do‘stlarining o‘ziga nisbatan yomon munosabati o‘qishni istamaslik kabi salbiy emotsiyalarni keltirib chiqaradi.

Differensial ta’limni tashkil etishda moslashtirish ko‘p jihatdan psixologik, emotsional, jismoniy rivojlanishga bog‘liq. Voyaga yetgan inson o‘zining his-tuyg‘ulari, qarashlariga tayanib, atrof-muhit sharoitlariga moslashish darajasini mustaqil ravishda boshqarishi mumkin. Yangi sharoitdagi qulaylik darajasi moslashuvchanlik ko‘nikmalarini rivojlantirishning asosiy omiliga aylanishi lozim. Masalan, talaba uchun kutilmagan sharoitda berilgan savol uning moslashuvida qiyinchilik tug‘diradi. Mazkur sharoitda talaba imkoniyatlari va bilim darajasini hisobga olib berilgan topshiriqlar va vazifalar esa ijtimoiy mavqei va tengdoshlari bilan o‘zaro aloqaga kirishuvida muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzu ustuvorligi va tarkibiy qismi prinsipi. Differensialli o‘qitishda talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olish imkoniyatlarini tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, o‘qituvchiga individual xususiyatlarni hisobga olish uchun fanning ta’lim mazmunini loyihalashtirish zarurati mezoniga ko‘ra, ikkinchisini shartli ravishda ikki guruhga bo‘lish mumkin.

Birinchi guruh individual xususiyatlarni o‘z ichiga oladi, hisobga olish imkoniyati, bu asosan mavzudagi ta’lim mazmunini qurish bilan bog‘liq emas.

Ikkinchi guruh individual xususiyatlarni o‘z ichiga oladi, ularni ko‘rib chiqish o‘qituvchidan ma’lum bir tarzda ta’limni tanlash va loyihalash imkoniyatiga ega bo‘lishni talab qiladi.

Birinchi va ikkinchi guruhlarga kiritilgan xususiyatlarni mohiyatini hisobga olgan holda, ularni mos ravishda ustuvor mavzu deb atash mumkin. Ushbu xulosa shuni ko‘rsatadiki, talabalarga ustuvor mavzular bo‘yicha individual xususiyatlarni o‘rgatish jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining tabaqalashtirib o‘qitish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini shakllantirish psixologik-pedagogik mashg‘ulotning, subyektning individual xususiyatlari esa – metodik tayyorgarlikning ustunligi bo‘lishi mumkin va bo‘lishi kerak.

Insonparvarlik tamoyili. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini differensial o‘qitishga tayyorlashda insonparvarlik tamoyilini ahamiyat kasb etishini anglashga o‘rgatish muhim zarurat hisoblanadi. Insonparvarlik tamoyili tabaqalashtirib o‘qitish muhitining talaba imkoniyatlariga moslashtirilishini nazarda tutadi. Unga ko‘ra ta’lim muhiti, pedagogik shart-sharoitlar, ta’lim hamda tarbiya jarayonini to‘laligicha talabaning shaxsiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, qobiliyatini rivojlantirishga e’tibor qaratadi.

Differensial o‘qitishda insonparvarlik tamoyili talabaning fikrlash va harakat strategiyasini inobatga olgan holda uning shaxsi, o‘ziga xos xususiyatlari, qobiliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan tamoyil hisoblanadi. Differensial ta’lim olishda insonparvarlik tamoyili talabalarda o‘z-o‘ziga ishonch, qobiliyatlarini namoyon qila olish, maqsadga intilish, qiziqish, mustaqil ishlash kabi sifatlar, shuningdek, tahliliy fikrlash, tafakkur qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Differensial ta’limni tashkil etishda

mazkur tamoyil pedagoglardan har bir talabaga imkon qadar individual yondashishni, uning shaxsini hurmat qilishni, unga ishonch bildirish taqozo etiladi. Qolaversa, tabaqalashtirilgan o‘qitish jarayonining ishtirokchilari pedagog-talaba tarzida o‘zaro hamkorlikda bilim olish, shaxs sifatida kamol toptirish uchun qulay pedagogik sharoitni yaratish zaruriyatini ifodalaydi.

Refleksivlik tamoyili. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarni differensial o‘qitishga tayyorlash jarayonida refleksivlik tamoyili bilan ishlash mexanizmlari haqida ko‘nikmaga ega bo‘lishini ta’minlashimiz shart. Differensial ta’limni amalga oshirishda refleksivlik tamoyiliga tayanishning zarurati shundaki, ijodiy salohiyatga, kommunikativ fazilatlarga ega, tahlil qilishga tayyor, o‘z faoliyatini baholashga qodir, o‘zini-o‘zi boshqarish, o‘zini-o‘zi qadrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan yoshlarga tobora ko‘proq talab ortib bormoqda. Mazkur tamoyil tabaqalashgan ta’lim jarayonida talabalarning faqat o‘z faoliyatining asoslarini aks ettirishi yetarli emas. Shuningdek, talabalar o‘quv materiallarini o‘zlashtirishlari natijasida yuzaga keladigan o‘zgarishlarni kuzatib borishlari va ushbu o‘zgarishlarga qanday vositalar bilan erishmoqchi ekanliklarini tushunishlari zarur. Shuning uchun o‘quv tizimida talabalarda ushbu qobiliyatni maqsadga muvofiq ravishda rivojlantirish vazifasi turibdi. Ma’lumki, talabalar o‘zini tutish va o‘zini-o‘zi qadrlashi ustuvor sanaladi. Shu bois o‘qitishda talaba pozitsiyasini – o‘zini-o‘zi bilishga, o‘zini-o‘zi boshqarishga, o‘zini-o‘zi qadrlashga tayyor shaxs sifatida shakllantirishga ahamiyat berish kerak. Ushbu fazilatlar refleksivlik tamoyilining o‘ziga xosligidir.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisini differensial o‘qitishga tayyorlashni tashkil etish hamda ushbu jarayonni amalga oshirishga imkon beradigan omil sifatida, turli tipologik guruh talabalari uchun taklif qilingan differensial o‘qitish tamoyillarining aniq qo‘llanilishi maqsadga erishishni kafolatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aslonova O.P. Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi, innovatsiyasi va integratsiyasi. Uslubiy-qo‘llanma. –Qarshi. 2020 –141-b

2. Колишев Н.С. Индивидуально-дифференцированный подход в процессе обучения старше классников. – Тула, 1993. С. –216

3. Сластенин В.А., Мажар Н.Е. Диагностика профессиональной пригодности молодежи к педагогической деятельности. – М.:Прометей, 1991, С.–141.

Gulzoda ESHBOYEVA,
Qarshi davlat universiteti “Boshlang‘ich ta’lim” kafedrasi 2-bosqich magistranti

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHISINING KASBIY KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH ZARURATI

Annotatsiya

Maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kasbiy kompetentlikni shakllantirishning ahamiyati, zarurati haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar. Kompetensiya, kasbiy kompetentlik, bilim, mahorat, kasbiy qobiliyat, nostandart masala.

В статье обсуждается важность формирования профессиональной компетентности у будущих учителей начальных классов.

Ключевые слова. Компетентность, профессиональная компетентность, знания, умение, профессиональная способность, нестандартный вопрос.

The article discusses the importance of building professional competence among future primary school teachers

Key words. Competence, professional competence, knowledge, skill, professional ability, non-standard question.

Oliy ta’lim muassasasi talabalarining, jumladan, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining shaxsiy rivojlanishi, ular ijtimoiy-shaxsiy qiziqishlarining kasbga yo‘nalganligi, mustaqil fikrlashlari, ijodkorliklari, faolliklari, dunyoqarashlarining turg‘unlashuvi va o‘z-o‘zini tarbiyalashga bo‘lgan ehtiyojlarini shakllanishi kabi holatlar bilan tavsiflanadi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun oliy ta’lim muassasasida ta’lim olish jarayoni – pedagogik faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishda kasbiy jihatdan ahamiyatli sanalgan sifat, bilim, ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish va o‘z-o‘zini takomillashtirishning maqbul davridir. Talaba ushbu jarayonda bilimlarni jamlash, saqlash, uzatish, ularning mantiqiy tuzilmasini yaratish va kelajakda o‘z faoliyatini tashkil etishda ularni samarali qo‘llash yo‘llarini o‘rganish kabi holatlarni o‘zida mujassam ettiradi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini faoliyatga tayyorgarligini oshirishda ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga erishmoq zaruratdir. Zero, olingan nazariy bilimlar amaliyotda takomillashadi va mutaxassislik malakasining shakllanishiga zamin yaratadi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining pedagogika, psixologiya va maxsus metodika fanlaridan olgan nazariy bilimlarini amaliyotga tatbiq etishlarida, ularda bilim, mahorat, kasbiy qobiliyat, salohiyat va odobining qay darajada shakllanganligini aniqlash va takomillashtirish, umuman ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish pedagogikaning bosh maqsadidir.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari bunda asosiy e’tiborni quyidagilarga qaratishlari lozim:

– mustaqillik mahsuli bo‘lgan xalq ta’limi tizimidagi boshlang‘ich ta’limning ta’lim-tarbiya jarayonining takomillashuv jarayonini o‘rganish;

– milliy g‘oya va milliy mafkurani, Konstitutsiya saboqlarini har bir pedagogik jarayoniga tatbiq etish metodlarini o‘rganish;

– ta’lim jarayonini yangi didaktik talablar asosida tashkil etishni dolzarb tadqiqotlarga tayangan holda, tajribalar misolida ko‘rsatish;

– tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish va ota-onalar bilan ishlash mahoratini kuzatish va tahlil qilishga o‘rgatish;

– o‘qituvchiga xos bo‘lgan kasbiy va shaxsiy sifatlarni shakllantirish;

– ta’limga oid huquqiy-me’yoriy hujjatlarini tartibli tayyorlash malakasini tarbiyalashga e’tibor berish.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kasbiy kompetentlikni rivojlantirish muammosi bugunning dolzarb masalasidir. Zero, tarbiyachini tayyorlamay, tarbiyalanuvchini kamolga yetkazish mushkul vazifadir. Pedagogik va psixologik adabiyotlarda “Kompetentlik” va “Kasbiy kompetentlik” tushunchalarining mohiyatiga izoh berib o‘tilgan. Ma’lumki, bozor munosabatlari sharoitida mehnat bozorida ustuvor o‘rin egallagan kuchli raqobatga bardoshli bo‘lish har bir bo‘lajak mutaxassisdan kasbiy kompetentlikka ega bo‘lish, uni izchil ravishda oshirib borishni taqozo etmoqda.

“Kompetentlik” (ingl. “competence” – “qobiliyat”) – faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish “Kompetentlik” tushunchasi ta’lim sohasiga psixologik ilmiy izlanishlar natijasida kirib kelgan. Psixologik nuqtayi nazardan kompetentlik “noan’anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o‘zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o‘zaro munosabatlarda yangi yo‘l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to‘la ma’lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik”ni anglatadi.

Demak, kompetensiya va kompetentlik tushunchalari bilim, malaka va ko‘nikma tushunchalaridan kengroq, chunki ular shaxsning yo‘naltirilganligi, muammolarni his qila olishi, sinchkovlikni namoyon qila olishi, egiluvchan fikrlashga ega bo‘lishi kabi sifatlarni o‘z ichiga oladi.

Y. Vaxromov kompetentlikni kundalik hayotdagi real vaziyatlarda vujudga keladigan tipik muammolar va masalalarni samarali hal etishga imkon beruvchi spetsifik (o‘ziga xos) qobiliyat sifatida qaragan.

Kompetentlik – deganda insonning kompetensiya va faoliyat predmetiga shaxsiy munosabatidan iborat mos kompetensiyaga egaligi ham tushuniladi.

N.A. Muslimov kompetentlikni quyidagicha ta’riflagan: “kompetentlik bu – talabaning shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega kasbiy faoliyatining amalga oshirilishi uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi hamda ularni kasbiy faoliyatda qo‘llay olishi bilan ifodalanadi”.

A.X. Mahmudov esa, kompetentlikka quyidagicha ta’rif bergan: “kompetentlik bu – doimo o‘zgarib borayotgan sharoitlarda yoki mutaxassisning kasbiy faoliyatini samarali olib borishga imkon beruvchi shaxsga xos integrallashgan sifatlardir”.

“Bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisining kasbiy kompetentligi” tushunchasiga berilgan ta’rif va tavsiflarni umumlashtirib, uni quyidagicha talqin etish mumkin: Bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisining kasbiy kompetentligi – kasb va kasbiy faoliyatni amalga oshirish bilan bog‘liq barcha ehtiyoj, qobiliyat, mahorat, bilish va qiziqishlarini ifodalaydi.

Buning uchun u: ijodiy izlanishlar jarayonini boshqarishga moyil bo‘lishi; ijodiy izlanishlarning samaradorligi bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisining pedagogik, psixologik va nazariy tayyorgarligiga bog‘liq bo‘lishini esda tutishi lozim.

Mutaxassisning kompetentlik modeli, bitiruvchi modeli emas, chunki kompetentlik, talaba ta'lim muassasasida ta'lim olishi davomida kerakli hajmda egallay olmaydigan muvaffaqiyatli faoliyat tajribasi bilan uzluksiz bog'liq. Darslarda talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishi, rolli, imitatsion o'yinlarni ijodiy mustaqil ishlarda, rejalarni ishlab chiqishda qo'llashni kengaytirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bo'lajak pedagog kompetentligining muhim qadriyatli-ma'noli komponentini shakllantirish zarur.

Talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning asosiy sharoitlari quyidagilardan iborat:

– tashkiliy-boshqaruvchanlilik (o'quv reja, o'quv jarayoni grafigi, dars jadvalini tuzish, kompetentlik darajasini aniqlash mezonini ishlab chiqish, ta'lim jarayonini moddiy-texnik ta'minlash);

– o'quv-uslubiy (mashg'ulotlar mazmunini tanlash, turli kurslarning integratsiyasi, yetakchi g'oyalarni ajratish);

– texnologik (nazorat-baholash, o'qitishning faol shakllarini tashkil etish, kompetentlikka kiruvchi bilimlar guruhlarini aniqlash, innovatsion texnologiyalarni qo'llash);

– psixologik-pedagogik (talabalarning rivojlanish tashxisini amalga oshirish, o'qitishga motivatsiyani rag'batlantirish, kompetentlikning mezonini aniqlash, talabalarni hamkorlikda ishlashga yo'llash).

Pedagogik faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun o'qituvchi quyidagi amaliy ko'nikmalar guruhlaridan biriga ega bo'lishi juda muhim hisoblanadi: badiiy (kuylash, rasm chizish, musiqa asboblaridan foydalanish va boshqalar); har kim ega bo'la oladigan tashkilotchilik (masalan, bir yoki bir necha sport turlari bo'yicha trener, turizm bo'yicha yo'riqchi, sayohatchi, to'garak rahbari).

Kasbiy kompetentlik tizimini shakllantirish holati, sifat va miqdoriy jihatidan o'zgarishlar haqida yaxlit tasavvurga ega bo'lish uchun axborot sharoitlarini yaratish sifatida pedagogik monitoring xizmat qilishi mumkin. Pedagogik monitoring talabaning shaxsi haqida to'liq tasavvurga ega bo'lish maqsadida sotsiologik, psixologik va bajaruvchilik monitoringini birlashtiradi. Talabaning shaxsini o'rganishga bunday majmuali yondashuv, avvalambor, mavjud real o'quv imkoniyatlarni, ya'ni ta'lim olganlik darajasi, o'qitilishi, bilish va shaxsiy qiziqishlar, o'qish ma'nosi va sust o'zlashtirishning didaktik sabablarini o'rganish, talabalar va pedagoglarning ta'lim jarayoni bilan qoniqish darajasi, ta'lim oluvchilarning emotsional holati, o'zaro munosabatlar xarakteri va boshqalarni amalga oshirishga yo'naltiriladi.

Kasbiy kompetentlikni shakllantirishda to'la kasbiy shakllanishga intilishi, pedagogik texnologik vaziyatlarni idrok etishi, shu jumladan, kasbiy qiziqishlari doirasi kengaytira olishi o'zini takomillashtirishida talab paydo bo'ladi. Kasbiy bilimlar, ko'nikmalar, malaka va qobiliyatlarga, ularni namoyon etishga ko'pchilik talabalarda chuqur va doimiy qiziqish paydo bo'ladi. Ushbu tadqiqotlarda doimiy pedagogik tajribaga ega bo'lgan alohida talabalar qobiliyatlarini hisobga olish kerak.

Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishi. Kasbiy kompetentlik bo'lajak mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish,

ularni qayta ishlash va o‘z faoliyatida qo‘llay olishni taqozo etadi. Kasbiy kompetentlik quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo‘ladi:

– nostandart masalani yechishda;

– murakkab jarayonlarda;

– noaniq vazifalarni bajarishda;

– bir-biriga zid ma’lumotlardan foydalanishda;

– kutilmagan vaziyatda harakat rejasiga ega bo‘la olishda.

Buni birgina misol bilan qarab chiqamiz. Ma’lumki, nostandart masala – kutilmaganda paydo bo‘ladigan yangi muammoli vaziyatni hamda maqsad va unga erishishning noma’lum usullari o‘rtasidagi nomuvofiqlikni anglanishidir. Har qanday ma’lum masala yoki muammo noaniq muammoli holatlarda nostandart bo‘lib qolishi mumkin. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi yechishi lozim bo‘lgan barcha kasbiy masalalarni ikkita katta sinflarga ajratilgan:

1. Jamiyat tomonidan aniqlanadigan va zaruriy yechimi talab etiladigan ijtimoiy masalalar.

2. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining amaliy faoliyati davomida paydo bo‘ladigan holatga bog‘liq masalalar.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi yechadigan nostandart masalalarni ifodalash va sinflarga ajratish murakkab muammolardan hisoblanadi. Uni loyihalashtirish uchun qator nostandart masalalar ifodalangan psixologik-pedagogik adabiyotlar tahlil qilindi. Buning uchun esa talabada kasbiy kompetentlikni muayyan tarmog‘i – metodik kompetensiya shakllangan bo‘lishi lozim.

Mazkur jarayonda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi pedagogik, psixologik, metodik bilimlardan o‘z o‘rnida kerakli manbalardan foydalana olmasa uning birinchidan o‘z-o‘ziga ishonchi pasayishi, obro‘sizlanishi, o‘z-o‘ziga past baho berishi, tavakkaldan qochishi, boshqalarga tobe bo‘lishi kabi noijobiy kayfiyatni yuzaga keltiradi.

Shunday ekan bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy kompetentligini shakllantirish ularni mustaqil faoliyatga tayyorlashga imkon beradi.

Kasbga oid kompetentlikning shakllanishi uzluksiz jarayon. Pedagogning kasbiy kompetentligining shakllanishi o‘z-o‘zini anglagan va o‘z kasbiy qobiliyatini rivojlantirish dasturiga ega bo‘lib, o‘z faoliyatini tahlil qila oladigan, kamchiliklarini tugatish ustida tinimsiz izlanadigan davridan boshlanadi. Chunki pedagogik faoliyat jarayonida tinimsiz o‘z kasbiy faoliyati ustida ishlash zarur bo‘lib, bu jarayonda bajargan ish turlari ba’zan takrorlanadi, lekin bu takrorlanish aynan bo‘lmay pedagogning o‘z ustida tinimsiz ishlashi natijasida yangicha shaklda o‘zgargan, sifat jihatidan yangilangan shaklda takrorlanadi. Pedagogning o‘zini rivojlantirishi, ongli ravishda o‘z hayotini tashkil qilishi kasbiga oid faoliyatining taraqqiyotiga sabab bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Вахромов Е. Психология новой эры: компетентность или беспомощность. - М., 2001.

2. Muslimov N.A. Kasb ta’limi o‘qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari. Ped. fan. dokt. ... diss. – T., 2007. - 349-b.

3. Mahmudov A.X. Uzluksiz ta’lim jarayoniga kompetentlik yondashuvini joriy qilishning didaktik asoslari // Uzluksiz ta’lim. – 2012. - № 4. 8-12-betlar.

Shaxodat RAHMATULLAYEVA,
Qarshi davlat universiteti
“Ona tili va adabiyot” kafedrasi dotsenti

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA IJODKORLIKNI SHAKLLANTIRISHDA DIDAKTIK O‘YINLARDAN FOYDALANISH METODIKASI

Annotatsiya

Maqolada ta’lim jarayonida didaktik o‘yinlarning ahamiyati hamda boshlang‘ich sinf darslari (o‘qish, matematika, tabiatshunoslik) da boshqotirma didaktik o‘yinining qo‘llanilishi yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Ta’lim, didaktik o‘yin, o‘qish, ona tili, matematika, tabiatshunoslik.

В статье обсуждается значение дидактических игр в учебном процессе и использование дидактических игр-головоломок в начальной школе (чтение, математика, естественные науки).

Ключевые слова. Образование, дидактическая игра, чтение, родной язык, математика, наука.

The article discusses the importance of didactic games in the educational process and the use of didactic puzzle games in primary school (reading, mathematics, science).

Key words. Education, didactic game, reading, native language, mathematics, science.

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng iqtisodiy hamda ijtimoiy-madaniy rivojlanishining o‘ziga xos yo‘liga o‘tdi. Bu esa ta’lim sohasiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazdi. Chunki har bir davlatning kelajagi yosh avlod tarbiyasiga bog‘liq hisoblanadi. Kelajak avlod oilada, ta’lim jarayonida shakllantiriladi. Ta’lim jarayoni jamiyatning ajralmas va hayotiy qismi hisoblanadi. Ta’lim o‘sib kelayotgan yosh avlodning ichki imkoniyatlarini, qobiliyatlarini yuzaga chiqarish bilan birga, kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirishda ham asosiy manba hisoblanadi.

Ta’lim jarayonidagi boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarning ichki imkoniyatlarini, qobiliyatlarini ro‘yobga chiqaruvchi jarayon hisoblanadi.

Boshlang‘ich ta’lim – o‘quvchilarga murakkab bo‘lmagan ilmiy bilimlarni berish asosida ularda o‘qish, yozish va hisoblashga oid dastlabki bilim, ko‘nikma hamda malakalarni shakllantirish asosida ularda shaxsiy gigiyena va sog‘lom turmush tarzi elementlarini hosil qilish bosqichi sanaladi.

Mazkur bosqichda o‘quvchilarning fanlar asoslari bo‘yicha muntazam bilim olishlari, asosiy o‘quv-ilmiy va umummadaniy bilimlarning o‘zlashtirishlari, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma’naviy-axloqiy fazilatlar, mehnat, ijodiy fikrlash, atrof-muhitga ongli munosabatda bo‘lish, shuningdek, kasb tanlash ko‘nikmalarining shakllanishi uchun pedagogik shart-sharoit yaratiladi. Davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi attestat o‘quvchilarning umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ma’lumotiga egaliklarini belgilaydi.

Boshlang‘ich ta’lim jarayoniga qo‘yilgan vazifalarni amalga oshirishda darsliklar, darslar muhim vosita hisoblanadi. Darsliklarda berilgan vazifalarni mavzularning maqsadlari orqali yoritiladi. Mavzularni yoritishda esa turli xil interfaol metodlar, didaktik o‘yinlardan

keng qo‘llaniladi.

Biz boshlang‘ich ta’lim jarayonida foydalaniladigan “Boshqotirma” didaktik o‘yinining qo‘llanilishi bilan tanishamiz.

Boshqotirma o‘yinini o‘tkazish uchun o‘quvchilar yoshiga mos holda juda sodda ko‘rinishda boshqotirmalar tuzib olinadi. O‘quvchilar mustaqil ravishda javoblarni topib yozadilar.


Dastlab boshqotirmalar o‘qituvchi boshchiligida hal etiladi. O‘quvchilarda boshqotirmalarni hal etish ko‘nikmalari paydo bo‘lgandan keyin o‘qituvchi nazorati ostida mustaqil hal qiladilar.

“Boshqotirma” o‘yini o‘quvchilar dunyoqarashini o‘stirish bilan birgalikda ularga so‘zlar imlosini yodda saqlab qolishlariga ham imkon beradi. Boshlang‘ich sinflarda krossvordlar suratlar asosida ham berilishi mumkin.[1]

Boshlang‘ich ta’lim jarayoni darslarida foydalaniladigan boshqotirmalarni tavsiya etamiz:

2-sinf “O‘qish” darsligidagi “Tanbeh” mavzusiga oid boshqotirma: (tanbeh so‘zi kelib chiqadi)


1.



2.


3.


1.						
2.						
3.						
4.						
5.						
6.						



4.


5.


3.

2. “Bulbuljonim” mavzusiga oid boshqotirma.
Berilgan rasmlarning bosh harflarini qo‘yib, boshqotirmani yeching.


1.


2.


3.


4.

[1] G‘afforova T. Boshlang‘ich ta’limda zamonaviy texnologiyalar. Qarshi Nasaf. 2008-y.


5.


6.


7.


8.

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11


5.


6.



7.

BOSHLANG‘ICH SINF MATEMATIKA DARSLARIDA FOYDALANILADIGAN BOSHQOTIRMALAR


1-boshqotirma.

RASM NOMLARINI TO‘G‘RI TOPSANGIZ, MATEMATIK FIGURANING nomi KELIB CHIQADI.

1.					
2.					
3.					
4.					
5.					
6.					
7.					
8.					
9.					
10.					



2-boshqotirma.




1.						
2.						
3.						
4.						
5.						
6.						

BOSHLANG‘ICH SINF TABIATSHUNOSLIK DARSLARIDA FOYDALANILADIGAN BOSHQOTIRMALAR

1- boshqotirma

Rasmlardagi bosh harflardan so‘zni o‘qing.



1	2	3	4	5	6

Didaktik o‘yin jarayonida o‘quvchilarning ish faoliyati kuchayadi, ixtiyory diqqati, xotirasi takomillashadi. O‘yinda bolalar o‘zlari sezmagan holda juda ko‘p harakatlarni bajaradi, masalalarni yechadi, birgalikda jamoa bo‘lib ishlaydi. O‘z fikrlarini mustaqil bayon etadi, do‘stlik, o‘rtoqlik, bir-birini hurmat qilish hissi uyg‘onadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Uzviylashtirilgan Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi. – T., 2010.

2. Pedagogika. /prof. To‘xtaxodjayevaning M.X. umumiy tahriri ostida. – T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010 400-b.

3. Mavlonova R. va boshqalar. Pedagogika –T.: O‘qituvchi, 2010-y. 254-26-betlar.

4. Bobomurodova A. Ona tili ta’limi jarayonida o‘yin-topishmoqlardan foydalanish. –T.: Musiqa, 2009. 91-b.

5. G‘afforova T. Boshlang‘ich ta’limda zamonaviy texnologiyalar. Qarshi. Nasaf. 2008.

Gavhar QOSIMOVA,
Qashqadaryo viloyati XTXQTMOHM “Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim” kafedrasi o‘qituvchisi

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA TABIATSHUNOSLIK FANLARINI O‘QITISHDA TASHXISLASH VA NAZORAT TESTLARNING AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada boshlang‘ich sinflarda tabiatshunoslik fanlarini o‘qitishda ularning diagnostik sifatini nazorat qilishda didaktik vositalardan biri bo‘lgan testlar va ularga qo‘yiladigan didaktik talablar haqida ma’lumot berilgan. Diagnostika natijalaridan olingan ma’lumotlar kichik yoshdagi o‘quvchilarning tabiatshunoslik fanlari bo‘yicha tushunchalarini tuzatish va shakllantirish bo‘yicha keyingi ishlar uchun zarur asos hisoblanadi.

Kalit so‘zlar. Ilmiy, olam, fan, test, tushuncha, diagnostika, tabiat, tabiiy, shaxs.

В статье представлена информация о тестах и их дидактических требованиях, которые являются одним из дидактических инструментов для мониторинга диагностического качества естественных наук в начальной школе. Информация, полученная по результатам диагностики, является необходимой базой для дальнейшей работы по коррекции и формированию у юных студентов естественных наук.

Ключевые слова. Наука, вселенная, наука, тест, концепция, диагностика, природа, естественное, человек.

The article provides information on tests and their didactic requirements, which are one of the didactic tools for monitoring the diagnostic quality of natural sciences in primary school. The information obtained from the results of diagnostics is a necessary basis for further work on the correction and formation of young students of natural sciences.

Key words. Science, universe, science, test, concept, diagnostics, nature, natural, man.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta’lim tizimini modernizatsiya qilish ustuvor vazifa sifatida ta’lim sifati va samaradorligini oshirish vazifasini qo‘ydi. Boshlang‘ich ta’lim samaradorligi asosan o‘qituvchida har bir o‘quvchining bilimlarni o‘zlashtirishi va uning shaxsiyatini rivojlantirish yo‘lidagi o‘sishi to‘g‘risida doimiy va tizimli ma’lumotlarning mavjudligi bilan belgilanadi. Bunday ma’lumotlar pedagogik diagnostika asosida amalga oshiriladigan maktab o‘quvchilarini o‘qitish va tarbiyalashning borishi va natijalarini muntazam ravishda kuzatib borish orqali ta’minlanadi.

Boshlang‘ich sinflarda tabiatshunoslik fanlarini o‘qitish diagnostikasi va sifatini nazorat qilishning asosiy didaktik vositalari bu testlar, tabiatshunoslik fanlari bo‘yicha tadqiqotlar yoki eksperimentlarni o‘tkazish bilan bog‘liq murakkab vazifalar (ekspeditsiya o‘yini), ma’lum bir sxema (sinkveyn) dan foydalangan holdagi diagnostik vazifalar, “Atrofimizdagi olam” (hakamlik sudi) mavzusi bo‘yicha nazorat ishi, bilim (kognitiv), amaliy-samarali va emotsional-qiymat tarkibiy qismlari yetishmovchiligini bartaraf qilishga yo‘naltirilgan modelli o‘quv vazifalari, masshtablash (baholash o‘lchovlari), reyting (reyting o‘lchovlari), “gapiradigan rasm”, raqamli diktantlar, kalitlar bilan ishlash, grafik test, dasturlashtirilgan vazifalar, tezis xususiyatiga ega bo‘lgan vazifalar va boshqalar.

Test ma’lum bir maqsadga yo‘naltirilgan, barcha mavzular uchun aniq, qat’iy nazorat ostida o‘tkaziladigan sinovdir. “Test” so‘zi ingliz tilidan kelib chiqqan va asl tilda “sinash”,

“tekshirish” degan ma’nolarni anglatadi. Didaktik vosita sifatida test topshiriqlari bir qator afzalliklari tufayli sinchkovlik bilan o‘rganishga va qo‘llanishga loyiqdir: bu o‘qituvchiga o‘rganilgan materialning katta qismini kichik qismlarda tekshirishga va o‘quvchilarning ko‘p sonli o‘quv materialini tezkor diagnostika qilishiga imkon beradi (shu bilan birga, o‘quvchilarning bilimlarini sinashning qat’iy tartibi amalda subyektivizmni istisno qiladi); u har bir o‘quvchining ishidagi to‘liq mustaqillikka maqbul darajada mos keladi va o‘quv jarayonida individualizatsiya vositalaridan biri hisoblanadi, chunki bu ularning muvaffaqiyatli faoliyatiga xalaqit beradigan o‘quvchilarning psixologik xususiyatlarini hisobga oladi; test nazoratidan tizimli foydalanish, qoida tariqasida o‘quvchilarning intizomini, dastur materialini o‘zlashtirishda raqobatbardoshlikni shakllantiradi.

Test sinovlari quyidagi didaktik talablarga javob berishi kerak: aniqlik (vazifani o‘qib bo‘lgach, har bir o‘quvchi unga qanday maqsadlar qo‘yilganligini, vaziyat qanday bo‘lganligi va qanday harakatlar qilinishi kerakligini tushunishi kerak); soddaligi (vazifalar va javoblarning so‘zlari aniq, qisqa bo‘lishi kerak; soddalik ko‘rsatkichi harakatlarni bajarish tezligi hisoblanadi); tenglik (bir nechta vazifalarning barcha savollari murakkablik darajasi bo‘yicha bir xil bo‘lishi kerak); qisqalik (qisqacha javoblarni talab qilish); barcha o‘quvchilarning yutuqlarini o‘lchashga (standart) imkon berishi kerak!

O‘quv testi bu – o‘quv jarayoni mazmunining ayrim tomonlarini (qismlarini) o‘zlashtirish darajasini (bosqichini) aniqlashga (o‘lchashga) qaratilgan vazifalar to‘plami hisoblanadi. Bundan tashqari, o‘quv testi shaxsni rivojlantirish va shakllantirishning turli jihatlarini diagnostika qiluvchi psixologik-pedagogik testlarning turlaridan biri hisoblanadi. Agar testlarni tasnifi insoniy fazilatlarni rivojlantirish va shakllantirishning turli jihatlariga asoslangan bo‘lsa, u holda u quyidagicha bo‘ladi:

1. Umumiy aqliy qobiliyat, aqliy rivojlanish testlari.
2. Faoliyatning turli sohalarida maxsus qobiliyat testlari.
3. O‘qish, o‘zlashtirish, akademik yutuqlar testlari.
4. Shaxsiyatning individual fazilatlarini (xususiyatlarini) (xotira, fikrlash; xarakter va boshqalar) aniqlovchi testlar.
5. Ta’lim darajasini aniqlash uchun testlar (umuminsoniy, axloqiy, ijtimoiy va boshqa fazilatlarni shakllantirish).

Muayyan testlardan foydalanish eng samarali hisoblanib, faqatgina boshqa barcha test guruhlari bilan to‘g‘ri birlashtirilgan taqdirda ishonchli xulosalar beradi. Shuning uchun test sinovlari har doim murakkab xarakterga ega.

Diagnostik testlarning mezonlari. Testlarni ishlab chiqishda ularning o‘quvchilarni o‘qitish, ta’lim berish va rivojlantirishning rejalashtirilgan maqsadlariga mos kelishi muhim ahamiyatga ega. O‘quv diagnostik testlarining eng muhim mezonlari samaradorlik (yaroqlilik, namunalilik), ishonchlilik (ehtimollik, to‘g‘rilik), differensiallik (farqlilik).

O‘quv testlarining ishonchliligi ularni bajarish qiyinligiga juda ham bog‘liq bo‘ladi. Murakkablik darajasi test savollariga to‘g‘ri va noto‘g‘ri javoblarning nisbati bilan belgilanadi. Bunday vazifalarni barcha o‘quvchilar to‘g‘ri yoki aksincha, noto‘g‘ri javob beradigan testlarga kiritish, umuman testning ishonchliligini keskin pasaytiradi.

Testning samaradorligi. Yuqorida ko‘rib chiqilgan mezonlarga qo‘shimcha ravishda test samaradorligi ko‘rsatkichi ham qo‘llaniladi. Boshqa narsalar teng bo‘lganda, vaqt birligiga javoblarning ko‘proq sonini ta’minlaydigan test yanada samarali hisoblanadi.

Test nazorati uchun materiallarni tayyorlashda quyidagi asosiy qoidalarga rioya qilish kerak: javoblar kiritilmasligi kerak, ularning noto‘g‘riligini test paytida o‘quvchi asoslay olmaydi; noto‘g‘ri javoblar odatdagi xatolar asosida tuzilishi va ishonchli bo‘lishi kerak;

taklif qilingan barcha javoblar orasida to‘g‘ri javoblar tasodifiy tartibda joylashtirilishi kerak; savollar darslik matnini takrorlamasligi kerak; ba’zi savollarga javoblar boshqa savollarning javobiga ishora qilmasligi kerak; savollarda aldov bo‘lmasligi kerak.

O‘quv testlari didaktik jarayonning barcha bosqichlarida qo‘llaniladi. Ularning yordami bilan bilimlar, ko‘nikmalar, yutuqlarni hisobga olish, akademik yutuqlarning dastlabki, joriy, tematik va yakuniy nazorati samarali amalga oshiriladi.

Testlarni tashkil etish va o‘tkazishga qo‘yiladigan didaktik talablar. Diagnostik test topshiriqlari o‘qituvchi tomonidan har bir kontent-yo‘nalish bo‘yicha boshlang‘ich umumiy ta’limning majburiy minimal mazmuni va o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarga muvofiq tuziladi va test to‘ldiriladi: joy va vaqtni darsdagi har bir aniq test uchun o‘qituvchi mustaqil ravishda belgilaydi; testlar oldindan muxrlab tayyorlangan varaqlarda amalga oshiriladi; o‘qituvchi testlar yozilgan varaqalarni oldindan tayyorlaydi (o‘quvchining familiyasi; o‘quvchining ismi, sanasi, topshiriq raqamlari va boshqalar); testlar boshlanishidan oldin o‘qituvchi topshiriqlarning xususiyatlarini tushuntirib beradigan qisqa va aniq ko‘rsatma beradi; test topshiriqlarini bajarish bo‘yicha ko‘rsatma berishda, agar o‘quvchi topshiriqni bajara olmasa, uni o‘tkazib yuborishi va quyidagilarni bajarishi kerakligini ta’kidlash kerak.

To‘rtinchi sinf o‘quvchilarining natijalariga ko‘ra, kurs davomida har bir darsning mazmuni bo‘yicha test topshiriqlarini tuzgan holda diagnostika o‘tkazish kerak.

Shunday qilib, muvaffaqiyat testlari ishonchli diagnostika vositasidir.

Bu yerda “Atrofimizdagi olam” mavzusidagi yakuniy testdan olingan test namunasi: Shimoldan janubgacha tabiat zonalarining o‘zgarishini tartib bo‘yicha raqamlang.

I variant: tundra zonasi; cho‘l zonasi; dasht zonasi; muz zonasi; o‘rmon zonasi.

II variant: cho‘l zonasi; o‘rmon zonasi; muz zonasi; dasht zonasi; tundra zonasi.

Test natijalariga ko‘ra reproduksiyaning to‘liqligi, bilimlarning samaradorligi va izchilligini aniqlash uchun testga kiritilgan vazifalarni quyidagi guruhlarga bo‘lish foydalidir: 1) o‘rganilayotgan materialni xuddi o‘zidek aks ettirishni talab qiladigan vazifalar (...toshlarning qanday yemirilishini yozing); 2) Sababiy-tekshirish aloqalarini o‘rnatish (...qishda tundrada kiyiklar ko‘proq janubiy viloyatlarga siljiydi. Bo‘rilar kiyikni, tulkilar bo‘rilarni ta’qib qilishadi. Sababini tushuntiring?); 3) Bilimlardan amaliy foydalanish (... piktogramma bilan o‘rmonda o‘zini tutish qoidalarini tasvirlang); 4) nostandart, ijodiy xususiyatga ega vazifalar (...alpinistlarga baland tog‘ning etagi issiq bo‘lib, ammo ular tog‘ cho‘qqisiga chiqqach, issiq kiyinishlari kerak bo‘ladi. Buning sababi nima?).

Har bir test, qoida tariqasida, o‘quvchilarning ayrim sifatlarini tekshirish uchun mo‘ljallangan juda ko‘p miqdordagi vazifalardan iborat. Test o‘tkazish amaliyotida to‘rtta turdagi test topshiriqlari keng tarqalgan: yopiq (ko‘p variantli), ochiq (tugallanmagan), muvofiqlik vazifalari, to‘g‘ri ketma-ketlikni o‘rnatish uchun topshiriqlar.

Ko‘p variantli turdagi vazifalarni bajarishda o‘quvchidan bir nechta taklif qilingan mumkin bo‘lgan variantlardan (javoblardan) bittasini yoki ba’zan bir nechtasini to‘g‘ri tanlash talab qilinadi. Bu taxmin qilish imkoniyatini keltirib chiqaradi. Biroq 10 ta testdan iborat test uchun to‘g‘ri javoblarni taxmin qilish ehtimoli deyarli nolga teng. Shuning uchun tegishli dastur materialini bilmagan o‘quvchidan ijobiy baho kutish shart emas. Bunday vazifalar ifodali shaklga ega bo‘lishi kerak, ya’ni tanlangan javobga qarab ham to‘g‘ri, ham yolg‘onga aylanishi mumkin bo‘lgan gap bo‘lishi kerak. Vazifalar so‘z jihatidan imkon qadar qisqa bo‘lishi kerak.

TIMSS tadqiqotida, javoblar tanlanishi ko‘zda tutilgan vazifalar asosan egallangan bilimlarni baholash uchun ishlatiladi, bunda erkin qisqa va batafsil javobga ega bo‘lgan

vazifalar esa yuqori darajadagi o‘quv-bilish faoliyatni baholash uchun ishlatiladi.

TIMSS testlarida yangi element bu – tabiatshunoslik fanlari bo‘yicha tadqiqotlar yoki tajribalarni o‘tkazish bilan bog‘liq murakkab vazifalar hisoblanadi. Bu dunyoning ko‘plab mamlakatlarida tabiatshunoslik fanlarini o‘qitishning asosiy tendensiyalaridan biri ilmiy bilish metodologiyasi masalalariga e’tiborni kuchaytiradi.

TIMSS tadqiqotida ishlatiladigan topshiriqlarga misol keltiramiz.

1. Malika xonadonida ipak qurtini parvarishlamoqchi bo‘ldi va tuxumlarini olib keldi. U bir necha kun kutdi, lekin ipak qurti tuxumlaridan qurtlar chiqmadi. Ipak qurti tuxumlaridan chiqishi uchun Malika quyidagilarning qaysilariga amal qilishi lozim deb o‘ylaysiz?

a) Qurt boqilayotgan xona harorati +35 C dan +40C gacha bo‘lishi kerak. Xona derazalariga yaqin olib borishi, havo almashtirilib turilishi lozim.

b) Qurt boqilayotgan xona harorati muntazam +28 C dan +30 C gacha bo‘lishi kerak. Xona namligi bir me’yorda saqlanishi, havosi almashtirilib turilishi kerak.

v) Xona namligi bir me’yorda saqlanishi, deraza doim ochiq turishi zarur. Xona haroratining ahamiyati yo‘q.

Qurt boqilayotgan xona harorati +35 C dan +40C gacha bo‘lishi kerak. Havo almashtirilib turilishi lozim. Xona namligi yuqori bo‘lishi lozim.

2. Yer shari Quyosh atrofida bir tomonga og‘gan holatda aylanadi. Qaysi holat qish fasliga to‘g‘ri keladi?

1-holat. Quyosh nurlari Yer ekvatorining pastki qismini ko‘proq yoritadi. Quyosh nurlari Yer sharining ekvatoridan yuqori qismiga kam tushadi.

2-holar. Quyosh nurlari ekvatorning yuqori va past qismini birday yoritadi.

3-holat. Quyosh nurlari ekvatorning yuqori qismini ko‘proq yoritadi.

Boshlang‘ich ta’limda tabiatshunoslik fanlarini o‘rganish asosan kuzatishga asoslanganligi sababli, 4-sinf o‘quvchilari “Ilmiy izlanishlar” kompleks vazifalarni bajarishda savollarni tuzishlari mumkin, bu savollarga o‘zlarining kuzatishlari yoki o‘zlarining kuzatuvlari asosida javob berish mumkin. atrofdagi olam haqida ma’lumot. Bundan tashqari, ular oddiy asbob-uskunalar, yoki protseduralar yordamida muntazam ravishda kuzatish yoki o‘lchashga asoslangan tadqiqotlarni tasvirlashlari mumkin. Shuningdek, ular o‘zlarining natijalarini oddiy jadvallar yoki shakllar shaklida taqdim etishlari, miqdorlarni o‘lchash uchun matematik hisob-kitoblarni qo‘llashlari yoki o‘z tadqiqotlari natijalarini qisqacha tavsiflashlari mumkin. Xulosa sifatida, ulardan berilgan savolga javob berishlari talab qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Новолодская Е.Г. “Методика преподавания предмета Окружаюший мир” в началной школе. Учебно-методическое пособие 2016 г.

2. Суровикина С.А. Теоретико-методологические основы развития естественно научного мышления учашихся в процессе обучения физике // диссертация ... доктора педагогических наук: Челябинск, 2006.

3. Шодиев Р.Д., Мухаммадиева М.М. Изучение окружающего мира учашимися начальных классов на основе гуманистической концепции развития личности.// Актуалные проблемы гуманитарных и естественных наук. №2-3.2015.

4. Bahromov A., Sharipov Sh., Nabiyeva M. Tabiatshunoslik. 4-sinf darsligi. Sharq nashriyotiб –T.:

Lobar BERDIYEVA,
Qashqadaryo viloyati XTXQTMOHM
“Pedagogika, psixologiya va ta’lim menejmenti” kafedrasi o‘qituvchisi

BOSHLANG‘ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA O‘QUVCHILAR IJODKORLIGINI RIVOJLANTIRISHDA DIDAKTIK O‘YINLARNING IMKONIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘quvchilar ijodkorligini rivojlantirishda didaktik o‘yinlarning imkoniyatlari yoritib berilgan. O‘quvchilarda ijodkorlikni shakllantirishda qo‘llaniladigan didaktik o‘yinlardan namunalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar. Ijodiy yo‘nalganlik, eruditsiya (bilag‘onlik), ijodiy ta’sirchanlik va tashabbuskorlik, refleksiya qobiliyati, mantiqiy fikrlay olish, boy tasavvur, o‘z ijodkorligini to‘la-to‘kis namoyish etish, hissiyotga boylik.

В данной статье исследуются возможности дидактических игр в развитии творческих способностей учащихся на уроках родного языка в начальной школе. Вот несколько примеров дидактических игр, которые используются для развития творческих способностей учащихся.

Ключевые слова. Творческая направленность, эрудиция, творческое мышление и инициативность, способность к рефлексии, логическое мышление, богатое воображение, полная демонстрация творческих способностей, эмоциональная насыщенность.

This article explores the potential of didactic games in the development of creative abilities of students in the lessons of their native language in primary school. Here are some examples of didactic games, used to develop students’ creativity.

Key words. Creative orientation, erudition, creative thinking and initiative, the ability to reflect, logical thinking, rich imagination, full demonstration of creative abilities, emotional saturation.

Boshlang‘ich ta’lim jarayoni bolaning mantiqiy tafakkur qila olish salohiyati, aqliy rivojlanishi, dunyoqarashi, kommunikativ savodxonligi va o‘z-o‘zini anglash salohiyatini shakllantirishga, jismonan sog‘lom bo‘lishga moddiy borliq go‘zalliklarini his eta olishga, go‘zallik va nafosatdan zavqlana olish, milliy urf-odatlarni o‘zida singdirish va ardoqlash, ularga rioya qilishga o‘rgatadi. Bundan tashqari ona tili darslarida o‘quvchilarning ijodkorligimi rivojlantirish muhim hisoblanadi.

Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o‘tkirlikni belgilab beradi. Kreativlik (lot., ing. “create ” – yaratish, “creative” – yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyat darajasini aniqlab boradi.

Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Shuningdek, kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o‘tkirlikni belgilab beradi.

Kreativlik sifatlari quyidagilar sanaladi:

• ijodiy yo‘nalganlik;

• eruditsiya (bilag‘onlik);
• ijodiy ta’sirchanlik va tashabbuskorlik;
• refleksiya qobiliyati;
• mantiqiy fikrlay olish;
• boy tasavvur;
• o‘z ijodkorligini to‘la-to‘kis namoyish etish;
• hissiyotga boylik.

O‘quvchilarda kreativlikni rivojlantirish uchun quyidagilarga e’tibor berish lozim:

1. Ko‘p savollar berilishini rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlash;
2. Bolalarning mustaqilligini rag‘batlantirish va javobgarligini kuchaytirish;
3. Bolalar tomonidan mustaqil faoliyatni tashkil etilishi uchun imkoniyat yaratish.

O‘yin texnologiyalari-ijtimoiy tajribalarni o‘zlashtirishning barcha ko‘rinishlari: bilim, ko‘nikma, malaka hamda hissiy baholovchi faoliyat jarayonini hosil qilishga yo‘naltirilgan shartli o‘quv vaziyatlarini ifodalovchi shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim turlaridan biri.[1]

Har qanday o‘yin pedagogik jarayonda foydalanilganda o‘zining aniq maqsadi va natijasiga ega bo‘ladi. Pedagogik o‘yinlar yangi o‘quv materialini o‘zlashtirish, mustahkamlash, o‘quvchining ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, umumiy kasbiy tayyorgarlik ko‘nikma, malakalarini shakllantirish kabi masalalarni yechishga qaratiladi. Ular yordamida o‘quvchining turli holatlarda o‘quv materialini tushunishi va o‘zlashtirishi imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Pedagogik o‘yinlar metodikasiga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘linadi: didaktik, syujetli, rolli, ishbilarmon, imitatsion, dramatik. Bugungi kunda o‘quvchilarning qiziqishlarini oshirishning bir qator usullari mavjud. Bunday usullarning eng samaralisi didaktik o‘yinlardir.

Didaktik o‘yinlar – o‘rganilayotgan obyekt, hodisa, jarayonlarni modellashtirish asosida o‘quvchilarning bilishga bo‘lgan qiziqishlari, faolliklarini oshiradigan o‘quv faoliyati hisoblanadi. Bu kabi o‘yinlar o‘quvchilar tomonidan ijtimoiy – foydali mehnat va o‘qish ko‘nikmalarini faol o‘zlashtirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ularning ahamiyati natijalar bilan emas, balki jarayonning mazmuni va kechishi bilan belgilanadi.

Didaktik o‘yinlar o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma, malakalarini rivojlantirishga qaratilgan maxsus ta’limiy o‘yinlar. Didaktik o‘yinlar o‘quv mashg‘ulotining turi bo‘lib, o‘quv o‘yinlari shaklida ifoda etiladi. Didaktik o‘yinlar faol o‘qitish prinsiplariga asoslanadi. Didaktik o‘yinlar mohiyatiga ko‘ra murakkab va ko‘p qirrali hodisadir. U o‘qitish metodi sifatida namoyon bo‘ladi. Didaktik o‘yinlar bir qator pedagogik vazifalarni bajaradi.

Ta’limiy vazifa – bunda didaktik o‘yinlar o‘quvchilar dunyoqarashini shakllantirish, nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalarni hosil qilish, ularning bilim doirasini kengaytirish, mustaqil bilim olish layoqatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tarbiyalovchi vazifa – o‘quvchilarni jamoa bilan ishlash, do‘stlariga nisbatan hurmat, bag‘rikenglikni shakllantiradi.

Rivojlantiruvchi vazifasi – o‘quvchilar tafakkurini rivojlantirish, faollikka undash, o‘z fikrini erkin bayon eta olish, bilimga nisbatan bo‘lgan qiziqishlarini shakllantirishdan iborat.

Yo‘naltiruvchi vazifasi – o‘zlashtirgan bilimlarini amaliyotda qo‘llay olish, jamoa bilan hamkorlikda ishlash, mustaqillikni shakllantirishdan iborat.[2]

Dars jarayonida amalga oshirilayotgan o‘yinlar jarayonida o‘quvchilar yo‘l qo‘ygan xatolari uchun ma’naviy jihatdan mas’uliyatni his qilishadi. O‘zaro ishonch, bir-birini


[1] Muslimov N. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. Toshkent. 2015. 159-bet.
[2] Pedagogika ensiklopediya. Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. 2015. 277-bet.

tushunish, hamkorlik muhiti paydo bo‘ladi. Bu esa o‘quvchilar xulq-atvorini tuzatish va yaxshilashga olib keladi.

Boshlang‘ich sinf ona tili darslari o‘quvchilarning yozma savodxonligini oshirishga va og‘zaki nutqini o‘stirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan fan hisoblanadi. Ona tili darslarida quyidagi didaktik o‘yinlardan keng foydalanishimiz mumkin.

1. “Harflarni topamiz” didaktik o‘yini.

Berilgan rasmlardan “A” harfi qatnashmagan so‘zlarni yozing.



“Tezda o‘yla” didaktik o‘yini

Mavzu tanlanadi. O‘qituvchi o‘yinning shartini o‘quvchilarga tushuntiradi. Har bir guruhga so‘z yozib beriladi. O‘quvchilar bittadan so‘z yozib gaplar tuzadilar. So‘zlarni yozguncha har bir guruhdan o‘quvchilar navbat bilan chiqadilar. Bu didaktik o‘yin o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini o‘stiradi, tezkorlikka undaydi.

Mavzu: Daryoda

1-o‘quvchi. Daryoda

2-o‘quvchi. Daryoda baliq

3-o‘quvchi. Daryoda baliq, suvo‘tlari

4-o‘quvchi. Daryoda baliq, suvo‘tlari

5-o‘quvchi. Daryoda baliq, suvo‘tlari va suv jonivorlari yashaydi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ta’lim jarayonida didaktik o‘yinlardan foydalanish o‘quvchilarda o‘z fikrlarini jamlash, mustaqil fikrlash, diqqatni rivojlantirish, bilimlarni o‘zlashtirishlariga olib keladi. O‘quvchilar qo‘llanilayotgan o‘yinga qiziqib bilimlarni yanada tezroq o‘zlashtirishadi. Shuning uchun ta’lim jarayonida didaktik o‘yinlardan foydalanish ijobiy natijalarni beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muslimov N. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. – T.: 2015. 207-bet.

2. Pedagogika: ensiklopediya. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. 2015. 318-b.

3. Boshlang‘ich sinf ona tili darsliklari.

Diljahon SHAXMURODOVA,
Qashqadaryo viloyati XTXQTMOHM “Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim” kafedrasi o‘qituvchisi

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QISH DARSLARI ORQALI O‘QUVCHILARNING O‘QISH SAVODXONLIGINI OSHIRISH

Annotatsiya

Maqola o‘qish darslarida matn ustida ishlash xususida bo‘lib, unda matn ustida ishlashning mazmun-mohiyati va o‘qish darslari oldiga qo‘yiladigan didaktik vazifalar haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar. O‘qish, matn, didaktik, savodxonlik, kitobxonlik, ta’lim, hikoya, asar, tushunish, anglash, baholash, izohli o‘qish, reproduktivlik.

Статья посвящена работе над текстом на уроках чтения, в которой представлена информация о содержании работы над текстом и дидактических задачах уроков чтения.

Ключевые слова. Чтение, текст, дидактика, грамотность, чтение, образование, рассказ, работа, понимание, понимание, оценка, интерпретирующее чтение, репродуктивное.

The article is devoted to the work on the text in the reading lessons, which provides information on the content of the work on the text and the didactic tasks of the reading lessons.

Key words. Reading, text, didactics, literacy, reading, education, storytelling, work, comprehension, understanding, appreciation, interpretive reading, reproductive.

Uzluksiz ta’limning boshqa bosqichlaridan farqli o‘laroq, boshlang‘ich sinflarning o‘qish darslarida o‘quvchilarning o‘qish malakalarini shakllantirish, asar matni ustida ishlash ta’limning didaktik maqsadi hisoblanadi. U turli mavzudagi matnlar ustida ishlash orqali ma’naviy-axloqiy, adabiy-estetik tarbiya bilan chambarchas bog‘lab olib boriladi.

Shunga ko‘ra o‘qish darslarining yetakchi xususiyati o‘quvchilarning savodxonligini ta’minlash bilan birga badiiy adabiyotning sehrli olamiga olib kirish, milliy mafkura asosida yuksak axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga qaratiladi.

O‘qish ta’limi bo‘yicha o‘quvchilarni faqat matn bilan tanishtirish yordamida dastur talablariga javob berib bo‘lmaydi. Negaki matn tag zamiridagi tarbiyaviy g‘oya uni tushunish, idrok qilish natijasidagina ochiladi. Boshqacha aytganda, har qanday asardagi sehr-joziba matn zaminidagi yashirin mazmun-mohiyatni anglab yetilganda o‘quvchi diqqatini o‘ziga jalb etishi mumkin. Bunga adabiy-nazariy tushunchalarni o‘zlashtirish, adabiy tahlil malakalarini shakllantirish orqali erishiladi.

Asar tahlili jarayonida o‘qituvchi savollariga o‘quvchilarning o‘z so‘zlari bilan javob berishi ham matnda tasvirlangan voqea-hodisalar yuzasidan mantiqiy fikrlashga, qahramonlarning xatti-harakatlarini to‘g‘ri baholashga yaqindan yordam beradi. Savollar uzuq-yuluq va mantiqsiz bo‘lmasdan, qat’iy maqsad asosida izchil berilishi o‘quvchilarning o‘qilgan matn mohiyatini chuqur anglab yetishlariga imkon yaratadi. Negaki, har qanday javob mustaqil fikr yuritishni taqozo etadi.

Ta’kidlash joizki, o‘quvchilarning o‘zlarini ham savol tuzishga o‘rgatish lozim. K. D. Ushinskiy qayd etganidek, to‘g‘ri qo‘yilgan masalaning o‘zi yarim javobdir. Matn yuzasidan savol tuzishda o‘quvchining dars mavzusi bilan bog‘liq jihatlarga e’tibor berishi

asarda tasvirlangan voqea-hodisalar o‘rtasidagi sababiy bog‘lanishlarni bilib olishga, hayotiy xulosalar chiqarishga yo‘l ochadi. Shuning uchun ham matn yuzasidan savol tuzish o‘quvchini ongli va tushunib o‘qishga yo‘llaydi. Uning o‘ziga xos xususiyatini o‘quvchilarni badiiy adabiyotning sehrli olamiga olib kirish orqali dunyoqarashlarini milliy istiqlol mafkurasi asosida to‘g‘ri shakllantirishga qaratilishi bilan belgilanadi.

O‘qish darslari uchun tanlangan mavzular o‘quvchilarga kundalik hayot, mustaqillikni mustahkamlash va insoniy munosabatlar bo‘yicha ham bilim va tarbiya berishni ko‘zda tutadi. Bular ichida istiqlol, vatan, ma’naviyat va tabiat haqidagi mavzular alohida ajralib turadi. Ulardan ko‘zlangan asosiy maqsad o‘zlikni anglash, istiqlol, Vatan va tabiat bilan bog‘liq tuyg‘ularini uyg‘otishdir.

Tabiatga oid mavzular yordamida o‘quvchilar tabiatdagi o‘zgarishlar, yil fasllarining almashinuvi, hayvonot olamiga doir bilimlarni egallaydi. Ular o‘quvchilarni kuzatuvchanlikka, tabiatni sevishga, unga nisbatan to‘g‘ri munosabatda bo‘lishga o‘rgatadi.

“O‘qish kitobi” darsliklaridagi materiallar sinfdan-sinfga o‘tgan sari mavzu jihatidan ham, mazmun jihatidan ham kengaya borishi hisobga olingan.

Darsliklardagi har bir mavzu uchun tanlangan matnlarning janriy rang-barangligiga, poetik mukammalligiga, o‘quvchilarning bilim darajasi va yosh xususiyatlariga mos kelishiga alohida e’tibor qaratiladi.

Ijtimoiy-tarixiy mazmundagi mavzular Vatanimiz o‘tmishi, xalqimiz hayoti, mardonavor kurashi, ulug‘ siymolar tomonidan amalga oshirilgan ishlar, tarixiy sanalar to‘g‘risida muayyan tasavvur beradi. Beruniy, Amir Temur, Alisher Navoiy, Bobur va boshqa ajdodlarimiz haqidagi matnlar shular jumlasidandir. Bu xildagi asarlar o‘quvchilarni faqat o‘tmishimiz bilan tanishtirib qolmasdan, Vatan oldidagi farzandlik burchi va mas’uliyatini teran anglashga ham yordam beradi. Ularda Vatanga muhabbat tuyg‘usi shu tariqa shakllanadi.

Badiiy asarlar matni ustida ishlash jarayonida ularning janriy xususiyatlaridan tashqari, mavzusi ham nazarda tutiladi. Masalan, tabiat tasviriga oid matnlar ustida ishlashda tabiat bag‘riga sayohat uyushtirilib, bolalar kuzatuvchanlikka o‘rgatilsa, vatanparvarlikka oid asarlar tahlili vatanning dongdor kishilari bilan uchrashuvlar yoki mavzuga dahldor kinofilmlar namoyishi vositasida amalga oshirilsa, dars samaradorligi yanada ortadi.

Umuman “O‘qish kitobi” darsliklaridagi barcha mavzular o‘quvchilarga ta’lim-tarbiya berish bilan birga, ularning lug‘atini boyitishga, og‘zaki va yozma nutqini to‘g‘ri shakllantirish, nutq madaniyatini o‘stirishga ham qaratiladi.

O‘quvchilar darsliklar yordamida o‘zlashtiriladigan bilim, ko‘nikma va malakalarining kelajak hayotda zarur bo‘lishini tushunib yetishlariga erishish o‘qituvchilar oldidagi muhim vazifalardandir.

O‘qish darslari oldiga qo‘yiladigan didaktik vazifalar quyidagilardan iborat:

1. O‘quvchilarda yaxshi o‘qish sifatlari: to‘g‘ri, tez, ongli, ifodali o‘qish malakalarini shakllantirish.

2. O‘quvchilarni kitobdan foydalanishga, undan kerakli bilimlarni olishga o‘rganish, kitobga muhabbat uyg‘otish; ularni oddiy kitobxondan chuqur mulohaza yurituvchi, ijodkor kitobxon darajasiga ko‘tarish.

3. O‘quvchilarning atrof-muhit haqidagi bilimlarini kengaytirish va boyitish hamda ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirish.

4. O‘quvchilarni axloqiy, estetik jihatdan yetuk va mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalash.

5. O‘quvchilarning bog‘lanishli nutqini va adabiy estetik tafakkurini o‘stirish.

6. O‘quvchilarning xayolot olamini boyitish.

7. Adabiy tasavvur elementlarini shakllantirish.

Shuni unutmaslik kerakki, har bir ta’limiy vazifani bajarishning aniq va ilmiy metodik usullari mavjud bo‘lib, ular zamonaviy o‘qitish usullari bilan boyitib borilmoqda. Bu vazifalar boshqalari bilan o‘zaro bog‘liq holda va sinfdan tashqari o‘qish mashg‘ulotlari jarayonida hal qilinadi.

Inson hayotida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan o‘qish faoliyati barcha predmet darslarida amalga oshiriladi. Lekin o‘qishga o‘rgatish yo‘l-yo‘riqlarini o‘qish metodikasi ishlab chiqadi. O‘qish metodikasi kichik yoshdagi o‘quvchilarning umumiy rivojlanishi, psixologiya, xususiy metodika sohasidagi yutuqlar asosida takomillashtirilib boriladi.

O‘qish darslarining samaradorligi ko‘p jihatdan ta’lim metodlarining to‘g‘ri tanlanishiga bog‘liq.

“Metod” atamasi yunon tilidan olingan bo‘lib, muayyan maqsadga erishish, borliqni amaliy va nazariy o‘zlashtirish usullari majmuidir. Binobarin, fanning o‘zi kabi o‘qitish metodlari ham doimiy rivojlanishda bo‘ladi. Masalan, eski maktablarda o‘qish quruq yod olish metodi asosida o‘rgatilgan bo‘lsa, hozir izohli o‘qish asosida olib boriladi. Yod olish metodida matndagi so‘zlarga izoh berishga, ma’nosini tushuntirishga, o‘qilganni qayta hikoyalashga umuman olganda, o‘qishning ongli bo‘lishiga mutlaqo e’tibor berilmagan. Ularda ko‘proq to‘g‘ri talaffuz, qiroat bilan o‘qish, ifodali o‘qish nazarda tutilgan.

Hozir maktablarda o‘qish izohli o‘qish metodi asosida olib borilayotgan ekan, quyidagicha savol tug‘iladi: Izohli o‘qish nima?

Izohli o‘qishga XX asrning 60-70-yillarida rus pedagogi K.D.Ushinskiy asos solgan, u o‘qishda o‘quvchilarni “ongli, tushunib, o‘ylab o‘qishga” o‘rgatishni alohida ta’kidlaydi va uni “Izohli o‘qish” deb nomlaydi.

Izohli o‘qish metodiga K.D.Ushinskiy ishining davomchilari yangiliklar kiritdilar. Korf va Vaxterev izohli o‘qish o‘quvchilarga real bilim berish vositasi desa, Vodovozov va Bunakov o‘quvchilarga o‘qish jarayonida bilim badiiy asar tahlili va asarning tarbiyaviy xarakteri bilan bog‘liq holda beriladi, degan fikrni ilgari suradilar.

Professor Asqar Zunnunov o‘qitishning mazmuni va usullari haqida fikr yuritib, o‘quvchilarning oldin bilimlarni o‘zlashtirishiga, so‘ng yod olishlariga e’tibor berilishi ta’lim jarayonida izohli o‘qish deb nomlanganini ta’kidlaydi.

Demak, izohli o‘qish deb o‘ylashga, his qilishga, asarni to‘liq idrok qilishga, o‘qilganning mazmunini o‘zlashtirishga olib keladigan o‘qishga aytiladi. Izohli o‘qish asar mazmunini tushunishni, asardagi muhim fikrni, yozuvchi ilgari surayotgan g‘oyani anglashni ta’minlaydi.

Izohli o‘qish quyidagi tamoyillarga to‘liq amal qilingandagina muvaffaqiyatli bo‘ladi.

1. O‘qishni hayot bilan bog‘liq holda tashkil etish.

2. O‘qishning ongli va ta’sirchan bo‘lishi uchun o‘quvchilarning hayotiy tajribalariga, taassurotlariga asoslanish.

3. O‘qishni ko‘rgazmali tashkil qilish, tabiatga, tarixiy joylarga ekskursiyalar uyushtirish, hayvonot olami va o‘simliklar dunyosini kuzatish, rasmlar, jadvallar, predmetlar bilan tanishtirish hamda matnni o‘quvchining ifodali o‘qishi tarzida olib borish.

Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida asosan she’rlar, masallar, ertaklar, hikoyalar, afsonalar, maqol va topishmoqlar, ilmiy-ommabop asarlar o‘qib o‘rganiladi. Tabiiyki, ularning har biri o‘ziga xos shakl, uslub va mazmunda yaratiladi. Shuning uchun ham har bir janrga mansub asarlarni o‘ziga xos usulda o‘qib o‘rganish taqozo qilinadi.

Badiiy asarni izohli o‘qishga yaqin bo‘lgan metodlardan biri ijodiy o‘qishdir. Atoqli metodist olim N.I.Kudryashov ijodiy o‘qish metodi tarkibiga quyidagi ish usullarini kiritadi:

a) o‘qituvchilarning badiiy matnni sharhlab o‘qishi hamda o‘quvchilarning asarni to‘g‘ri va imkon qadar yanada chuqurroq, emotsional idrok etishlarini ta’minlash maqsadini ko‘zda tutuvchi so‘zi;

b) o‘qilgan asardan o‘quvchilarning bevosita olgan taassurotlarini chuqurlashtirish maqsadiga ega bo‘lgan va ularning diqqatini matnning muhim g‘oyaviy va badiiy xususiyatlari sari yo‘naltiradigan suhbat uyushtirish yoki o‘qilgan asardan kelib chiqadigan badiiy, axloqiy, ijtimoiy-siyosiy muammoning qo‘yilishi;

v) o‘qituvchining asar o‘qilganidan keyin o‘quvchilarning asarni tadqiq etish jarayonida to‘yingan badiiy kechinmalarini faollashtirish maqsadini ko‘zda tutuvchi so‘zi.

Ko‘rinadiki, ijodiy o‘qish izohli o‘qishdan farqli o‘laroq, to‘g‘ridan-to‘g‘ri matn mohiyatini ochishga ijodiy yondashishni taqozo etadi.

Ifodali o‘qish. Boshlang‘ich ta’lim tizimida mantiqiy o‘qish (matnni to‘g‘ri, tushunib, tez (me’yorida) o‘qish) va adabiy o‘qish mukammal o‘zlashtirilganidan so‘ng ifodali o‘qishga o‘tiladi. U yod olingan she’riy asarlarni ifodali o‘qishni ham o‘z ichiga oladi. Ifodali o‘qishning muvaffaqiyati o‘quvchilarning asar mazmuni, g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari haqida muayyan tushunchaga ega bo‘lishi bilan bog‘liq.

Ohang va intonatsiya she’riy asarlarni ifodali o‘qishda qay darajada muhim bo‘lsa, nasriy asarlarni o‘qishda ham muhim talablardan biridir.

Badiiy o‘qish. Badiiy o‘qish ifodali o‘qishning yuksak bosqichi hisoblanadi. Unda so‘z san’atining barcha komponentlari ishtirok etadi. U o‘quvchidan asar ruhiga batamom kirishni, san’atkorona o‘qishni talab etadi. Badiiy o‘qishda asar qahramonlarining ruhiy holati, kechinmalari to‘la anglab olingandagina ta’sirchanlikka erishish mumkin. Badiiy o‘qishga tayyorgarlik ko‘rishda aktyorlarning audio-video tasmalarga yozilgan ijrolaridan foydalanish yaxshi samara beradi.

Izlanish metodi. Bu metod asardagi voqea va tafsilotlar asosida o‘quvchilarga savol-topshiriqlar tuzishda, qahramonlarga baho berishda keng qo‘llaniladigan usuldir.

Yuqorida ta’kidlangan metodlardan tashqari, boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida ilg‘or pedagogik texnologiya usullaridan “Aqliy hujum”, “Tarmoqlar”, “Guruhlar bilan ishlash” kabilardan ham foydalanish yaxshi samara beradi.

Shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, har bir darsda qanday metoddan foydalanish, darsda qanday usullarni qo‘llash o‘qituvchi tomonidan oldindan belgilab olinishi va puxta ishlab chiqilishi va shu asosda o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini oshirish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kompetensiyaviy yondashuv asosidagi Davlat ta’lim standarti. 2017-yil 6-aprel. 187-sonli qaror.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.

3. Ismailov D. va boshqalar. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini aniqlash. –T.: Sharq, 2019.

4. Shaxmurodova D.A. “Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida matn ustida ishlashga innovatsion yondashuv”. “Муғаллим ҳем узликсиз билимлендириў” 2020-yil №4-2.

Manzura MUHAMMADIYEVA,
Qarshi davlat universiteti “Maktabgacha ta’lim” kafedrasi o‘qituvchisi

MAS’ULIYAT HISSINING INSON HAYOTIDAGI AHAMIYATI

Annotatsiya

Mazkur maqolada shaxs sifatlaridan biri hisoblangan mas’uliyat, javobgarlik hissini tarbiyalashning ahamiyati va zarurati haqida fikr bildirib o‘tilgan. Shuningdek, mazkur muammoning dolzarbligi sharq uyg‘onish davri allomalarining o‘ziga xos ibratlari, hikoyatlari misolida yoritib berishga harakat qilingan.

Kalit so‘zlar. Mas’uliyat, burch, javobgarlik, shaxs sifatlari, ibratli hikoyatlar.

В этой статье обсуждается важность и необходимость воспитания чувства ответственности, которое является одним из качеств человека. Также были сделаны попытки осветить актуальность этой проблемы на примерах и рассказах ученых Восточного Возрождения.

Ключевые слова. Ответственность, долг, ответственность, личностные качества, образцовые истории.

This article discusses the importance and necessity of fostering a sense of responsibility, which is one of the qualities of a person. Attempts were also made to highlight the relevance of this problem using examples and stories of scientists of the Eastern Renaissance.

Key words. Responsibility, duty, responsibility, personal qualities, exemplary stories.

Mas’uliyat tarbiyasi o‘zbek millatining qadim-qadimdan ardoqlanib kelayotgan ta’limotdir. Mas’uliyat tarbiyasi insonlarni qadrlash, o‘z-o‘ziga ishonch qobiliyatlarini namoyon qila olish, maqsadga intilish, qiziqish, mustaqil ishlash kabi sifatlar, shuningdek, tahliliy fikrlash, tafakkur qilish qobiliyatlarini rivojlantirish bilan bir qatorda tabiatdagi jonli-jonsiz mavjudotlarga e’tibor ko‘rsata olish, ularga javobgarlik qilish, inson tabiatning bir qismi ekanligini, aloqadorligi va muvozanatini nazarda tutadi. mas’uliyatli munosabatni shakllantirish javobgarlik hissini tarbiyalashda namoyon bo‘ladi. Mas’uliyat deganda insonning o‘zi va boshqalarga-mikro, mizo, makro olamga nisbatan mas’uliyatli munosabatini tushunamiz. Bunday munosabat bola shaxsining o‘ziga xos sifati bo‘lib, mazkur sifat integrativ tarbiya jarayonida shakllanadi.

Globallashuv jarayonida Mas’uliyat, javobgarlik kabi shaxs sifatlarini rivojlantirishga zaruriyat yanada ortib borayotganini ko‘rsatdi. Chunki, har qanday shaxsning o‘zi va atrofiga nisbatan loqaydligi natijasida qanchalik noxushliklar kelib chiqmoqda. Bular insonlarning ma’naviyatiga, moddiy-iqtisodiy ravnaqiga, kerak bo‘lsa hayotiga jiddiy xavf solmoqda. Mas’uliyat hissi dunyoqarash bilan bog‘liq bo‘lib, u falsafiy tushunchalardan biri sanaladi. Aslida mas’uliyat har bir shaxsning o‘zi tomonidan amalga oshirilgan har qanday xatti-harakati uchun javobgarlik majburiyati, burchi, intizomiy hamda ma’muriy-huquqiy javobgarligi hisoblanadi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da mas’uliyat so‘ziga shunday tushuntirish berilgan: “Biror ish, xatti-harakat oqibati, natijasi uchun bo‘lgan javobgarlik”.

Mas’uliyat hissi, insonning irodasi bilan bog‘liq bo‘ladi. “Odamning irodasi bir qancha sifatlarga egadir. Masalan, irodaning ijobiy sifatlari – qat’iyatlik, dadillik, mustaqillik, prinsipiallik va o‘zini tuta bilish kabilardan iborat, irodaning salbiy sifatlari esa –

qat'iyatsizlik, ikkilanishlik, mustaqilsizlik, o'zini tuta olmaslik kabilardan iboratdir. Agarda odamning o'z oldiga qo'ygan maqsadi jamiyatning axloqiy qoidalariga, talablariga to'la mos kelsa, iroda axloqiy bo'ladi. Xususan, bolalarda irodani tarbiyalash jarayoni tadqiqot mavzusi sifatida qarab chiqiladi. Irodaviy xatti-harakatlarda doimo tartib, intizom, qat'iyatlilik, mas'uliyatlilikni anglash va burch hissi mavjud".

Iroda rivojlanishida katta o'zgarish nutqning shakllanishi bilan bog'liq bo'lib, kattalar bolaning xatti-harakatlarini so'zlar tartibga solish imkoniyatiga ega bo'lganlarida bola atrof-olam hodisalarini tushunish va fikrlashga harakat qilayotganini anglaydi.

Ixtiyoriy xatti-harakatni rivojlantirishning asosiy sharti – qoidalarni bolalarga ularda mavjud bo'lgan talablarning mantiqiyligini tushunadigan tarzda yetkazishdir. Shuningdek, guruhda tartibni saqlash juda muhim bo'lib, bolalarning ongli intizomini hamda ularni faol ishlarga jalb qilishda, "g'oyaviy mazmunga ega bo'lgan" qiziqarli tadbirlarni tashkil qilishni ta'minlash kerak.

Shuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalarda irodaviy xatti-harakatni rivojlantirish masalalari ham o'rganib chiqilgan. U irodani ongli va maqsadli xatti-harakat sifatida tushunishga asoslangan bo'lib, uni genetik o'rganish bolada ixtiyoriy xatti-harakatlarning paydo bo'lishi bilan boshlanishi kerak. Shu bilan birga, ixtiyoriy boshqaruvdan irodaviyga o'tish bolaning tobora murakkab harakatlarni amalga oshirish, maqsadga erishish, mustaqillik, mas'uliyat, qat'iyatlilik, faollik va boshqa shu kabi shaxsiy xususiyatlarini namoyon qilish qobiliyatini oshirishda namoyon bo'ladi. Shu o'rinda bolada axloqiy sifat fazilatlarini shakllantirishga ham e'tibor qaratish mumkin, bunda tarbiyaning tarixiy ildizlariga ham e'tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Shunga ko'ra, sharq uyg'onish davri allomalari o'z asarlarida, hikmatlarida aynan insoniy sifatlardan irodani, mehnatsevarlikni, mas'uliyat bilan harakat qilishning ahamiyatini ko'rsatib o'tadi. Mutafakkir Yusuf Xos Xojib "Qutadg'u bilig" asarida shunday yozadi: "Xizmat ahli o'z mehnati natijasidan umidvor turadi. Umidini topmagan xodim ko'ngli sinadi. Ammo, xizmat qiluvchilarni hammasi ham bir xil emas. (insonlar mehnatga bir xil mas'uliyat, javobgarlik bilan yondoshmaydi). Ular turli-tuman toifalarga bo'linadi. Xodimlarning naf keltiruvchilari bor, shuningdek, nafi yo'g'i ham ancha. Naf keltiruvchi kishiga xizmatiga loyiq ravishda tortiqlar berish kerak. Xizmatiga loyiq taqdir ko'rgan xodimning boshi ko'kka yetadi. Inson degani, axir, hayvon tengi emas. Ana shuni bilib unga amal qilinsa, barcha ish ko'ngildagidek bo'ladi...". Ko'rinib turibdiki, alloma taqsimot ishlariga mas'uliyatli bo'lishni uqtirib, barchani bir xil ta'minlash tizimini tanqid qilmoqda. Har bir xodim o'z mehnatiga, harakatiga, mas'uliyat bilan keltirgan nafiga qarab taqdirlansa, hamma ish ko'ngildagidek bo'ladi. Shu bilan birga har bir sohibkor, ish beruvchi unga yollangan xodimning mehnatini to'g'ri qadrlashga chaqiriladi. Bu, bir tomondan ishning samarali bo'lishiga olib kelsa, ikkinchi tomondan "Boshqalar mehnatining qadriga yetish insoniylikning eng yirik alomatidir". U davlat rahbarini xalqini mas'uliyat bilan boshqarishi va to'q va farovon qilishga undaydi. Demakki, mehnat qilish zamirida iroda, burch, mas'uliyat, javobgarlik kabi insoniy sifatlar yotadi. Shu sababli davlat boshliqlari har bir kishini ana shu sifatlariga qarab rag'batlantirib borishi maqsadga muvofiq.

Uyg'onish davri allomalaridan biri – Abu Ali ibn Tusiy – Nizomul-mulk o'zining "Siyosatnoma" kitobining dastlabki sahifalaridayoq davlatni idora etish va mamlakatda iqtisodiy xotirjamlikni ta'minlash uchun amalga oshirilishi lozim bo'lgan iqtisodiy tadbirlarga mas'uliyat bilan e'tibor qaratish haqida mulohaza yuritadi. Buning uchun "chetdan kanal qazib suv keltirish, qishlog'u dalalar obodonchiligi uchun katta ariqlar qazish, qal'alar qurish, shaharlar barpo etish, zebo binolar-u keng ko'chalar, rabotlar qurdirish" lozim

deb hisoblaydi. Darhaqiqat, inson hayotini o‘zgartirish asosini mas’uliyatli boshqaruv, yaratuvchilik, ishlab chiqarish tashkil etadi. Zero, Nizomul-mulkda yozilganidek, bunday mas’uliyat bilan yaratuvchanlik ishlari “tarixda qoladi va oldingi malik hayotlarini bezaydi, xaloyiqqa... saodatni hadya qiladi”. Shuningdek, “Siyosatnoma” asarida mas’uliyat bilan davlat boshqaruvi haqida bir qator hikoyalar keltiradi.

Eshitishimcha, podshohlardan birini eshitishi qiyin edi. Va u qayta gapirib beradigan odamlardan unga murojaat qiluvchilarning nutqlarini to‘g‘ri yetkazmagan deb gumon qildi, chunki u mohiyatini tushunmay, noo‘rin ishlarni buyurdi. Shuning uchun u arizachilarga qizil kiyim kiyishni buyurdi, men ularni tanib olishim uchun boshqa hech kim kiymasligi kerak! “Bu shoh fil ustiga o‘tirdi va dalada to‘xtadi: qizil kiyinganlarni ko‘rgach, ularni atrofga to‘plashni buyurdi, keyin u tanho joyda o‘tirdi, ularni birma-bir chaqirib, o‘zlarining ishlarini baland ovozda aytib berishdi va ularga xolisona hukm qilishdi. U bu choralarning barchasini mas’uliyat hissi va javobgarlik qo‘rquvidan qildi!

“Siyosatnoma”da “Xato va qabih holatlarda yuqori lavozimli amaldorlarga xayfsan berilishi haqida”gi bobida shunday deydi: Yuksak o‘rinlarga musharraf bo‘lganlar, amaldorlar hozirgi kunda ko‘p mashaqqatlarga duch keladilar. Ochiqchasiga aytganda, mas’uliyatsizlik qilib agar ular biror bir xatoga yo‘l qo‘ysalar ular sharmandalikka erishadilar va buni juda ko‘p g‘amxo‘rlik va ne’matlar bilan ham qoplab bo‘lmaydi. Shunday holatda, agar kimdir xato qilganda, avvaliga e’tibor bermaganday, uni chaqirib yotig‘i bilan tushuntiriladi: “Siz shunday qilibsiz. Biz o‘zimizning rahbarimizni kamsitmaymiz va undan voz kechmaymiz. Biz sizni kechiramiz. Lekin bundan keyin ehtiyotkor bo‘ling, qayta xato qilmang, aks holda obro‘-e’tiboringizga putur yetadi. Bu o‘zingizga bog‘liq, bizdan o‘pkalanmang”.

Bu kabi asarlar tahlilidan anglaniladiki, mas’uliyatlilik, burch, javobgarlik hissi barcha davrlar uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan mas’uliyat hissini tarbiyalashda bolaning boshqalar uchun ahamiyatli bo‘lgan topshiriqni albatta bajarishi zarurligi va muhimligini anglatishi usullarini topish va samarali foydalanish;

– berilgan vazifani muvaffaqiyatli bajarishga qaratilgan harakatlar tavsifi (o‘z vaqtida kirishadi, qiyinchiliklarni yengishga harakat qiladi, ishni oxirigacha yetkazadi va hokazo);

– topshiriq uchun hissiy qayg‘urish, uning tavsifi, natijasiga (unga jiddiy topshiriq berilganligidan mamnun, muvaffaqiyat uchun tashvishlanadi; muvaffaqiyatli bajarilishini anglaganligidan qoniqish hosil qiladi, boshqalarning bahosidan xavotirlanadi va hokazo).

Mas’uliyat hissini tarbiyalashda milliy merosimiz namunalaridan, hikmat va rivoyatlardan samarali foydalanishga jiddiy e’tibor qaratish maqsadga erishishni kafolatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati 2 jild –T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. –672-b.

2. Aslonova O. Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi, innovatsiyasi va integratsiyasi. Uslubiy qo‘llanma. Qarshi. Fan va texnologiyalar 2020, -141-b

3. Muhammadiyeva M. Sharq ma’naviy merosida mas’uliyat muammosini yoritilishi. Mug‘allim hem uzliksiz bilimlendiriu. Ilmiy-metodik jurnal. № 4-2, 2020, 61-63-betlar

Sirojiddin TURAYEV,
Toshkent axborot texnologiyalar universiteti Qarshi filiali dotsenti

BO‘LAJAK MUHANDISLARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI FIZIKA O‘QITISH ASOSIDA SHAKLLANTIRISH MODELI

Annotatsiya

Ushbu maqolada bo‘lajak muhandislarning kasbiy kompetensiyalarni fizika o‘qitish asosida shakllantirishning tizimli metodik modeli keltirib o‘tilgan. Talabalarga fizika o‘qitishning mazmuniy tuzilishi, metodik tizim komponentlarining o‘zaro ta’siri, shu bilan birga, fizika o‘qitishning maqsadli va mazmunli modellari ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar. Kasbiy kompetensiya, konsepsiya, metodik model, komponent, mafkuraviy, metodologik, fundamentallik, didaktik.

В данной статье рассматривается системно-методологическая модель формирования будущих профессиональных компетенций инженеров на основе преподавания физики. Разработана содержательная структура обучения физике студентов, взаимодействие компонентов методической системы, а также целевые и содержательные модели обучения физике.

Ключевые слова. Профессиональная компетентность, концепция, методический модель, компонент, идейная, методологический, фундаментальная, дидактическая.

This article considers a system-methodological model for the formation of future professional competencies of engineers based on the teaching of physics. The content structure of teaching physics to students, the interaction of the components of the methodological system, as well as the target and content models of teaching physics are developed.

Key words. Professional competence, concept, methodological model, component, ideological, methodological, fundamental, didactic.

Texnika oliy ta’lim muassasalarida fizika o‘qitish jarayonini kuzatish va tahlil qilish jarayonini empirik tarzda tashkil etish, maqsadni qo‘yish, fizikada oliy ta’limning muayyan standartlari rolini o‘ynaydigan oliy muhandislik ta’limi: ta’limga yangi yondashuvlarni ishlab chiqish zarurati; fizika o‘qitish; bo‘lajak muhandisning kasbiy faoliyatga tayyorgarligini loyihalashni amalga oshirishdir.

Ushbu konsepsiyaning nazariy asoslariga quyidagilar kiradi:

– metodologik yondashuvlar: tizimli, kompetentli, faoliyatli;

– tushunchalar (bazaviy): kasbiy kompetensiya, muhandislik kompetensiyasi, fundamentallik, “umumiy fizika” fani;

– o‘quv predmetining didaktik nazariyasi;

– didaktik tamoyillar (ilmiy, tizimli, fanlararo bog‘lanishli, tushunarlilik, nazariyaning amaliyot bilan bog‘liqligi, individuallashtirish va differensiallash, fundamental, kasbga yo‘naltirilgan).

Konsepsiyaning yadrosi konsepsiyaning mohiyatini ifodalovchi qoidalar tizimidan hamda texnika oliy o‘quv yurtlari talabalariga umumiy fizikani differensial o‘qitishning metodik modelidan iborat bo‘lishi, ilmiy-nazariy asoslarga va umumiy fizika kursining mazmuniy modeliga va uning alohida bo‘limlariga hamda o‘qitish texnologiyalari konsepsiyasiga muvofiq ishlab chiqilishi lozim.

Konsepsiyaning asosiy qoidalariga quyidagilar kiradi: Bo‘lajak muhandislarga fizika o‘qitish orqali kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish; bo‘lajak muhandisning kasbiy kompetensiyasi predmetli, mafkuraviy, metodik va axborot-matematik kabi maxsus kompetensiyalarni o‘z ichiga oladi; kasbiy kompetentlikni shakllantirishning zaruriy shart-sharoitlari quyidagilar:

– fizikaning mazmun mohiyatini tushuntirish;

– fizika o‘qitishning konseptual modelini ishlab chiqish va amalga oshirishda fundamental va kasbiy yo‘naltirilganlik tamoyillari o‘rtasidagi munosabatlarni shakllantirish;

– fizika kursi mazmunini umumkasbiy va ixtisoslik fanlar bilan uzviyligini ta’minlash.

Fizika fanining asosiy qonunlari, nazariy va amaliy faoliyat shakllari, o‘qitish usullari va o‘qitishning tashkiliy shakllaridan iborat jarayonli blokdan tashkil topadi. Fizikada fundamental o‘qitish tamoyilini amalga oshirishning sharti umumiy fizika kursining mavzularini tanlash va uni fundamental fizikaning mazmuniga muvofiq tuzishdir.

Bilimning yetakchi shakli uning zamonaviy talqinida fizik nazariya bo‘lishi kerak. Fizika kursining mazmuni talabaning nazariy tafakkurini rivojlantirish va uning kasbiy rivojlanishiga asos bo‘lishi kerak. Fundamentallik prinsipiga muvofiq evolyutsion fizika (sinergetika) ning o‘rni, dinamik masalalari, tizimlarning o‘z-o‘zini tashkil etish, ularning evolyutsiyasi va boshqalardan iborat.

Umumiy fizika kursining mazmuniy tuzishni quyidagilarni o‘z ichiga olishi kerak:

– invariant yadroni ajratish;

– yadrodagi to‘rtta mazmunni chiziqli tanlash, uning atrofida o‘quv materialini birlashtirish;

– predmetli – fundamental fizik bilim-invariant yadroni rivojlantirish;


– mafkuraviy – zamon haqidagi fizik g‘oyalar olamning tuzilishini ketma-ketlik orqali tasvirlanishi; mexanik; elektrodinamik, kvant-maydoni, olamni anglash; evolyutsiya;

– metodologik-ilmiy tadqiqot metodologiyasini anglash: bilish; fizik nazariyaning asosiy bosqichlariga muvofiq rivojlanish: klassik, klassik bo‘lmagan (kvanto-mexanik), (evolyutsion-sinergetik);

– axborot va matematik-umumiy fizika kursida zamonaviy matematik usullar va kompyuterli modellashtirish usullarini o‘zlashtirish;

– o‘rganilayotgan materialdan fizik nazariyani shakllantirish jarayoniga mos keladigan va shunga mos ravishda yuqorida qayd etilgan mazmundagi yo‘nalishlarni hisobga olishning tabiiy usuli sifatida ilmiy bilish mantiqiga muvofiq taqdim etish.

Metodik model bir necha kichik tizimlarni o‘z ichiga oladi. Birinchisi “o‘qituvchi-talaba” kichik tizimi bo‘lib, ushbu kichik tizimdagi o‘zaro aloqalar mavzu mazmuni va ta’lim texnologiyalari orqali amalga oshiriladi (1-rasm).



1-rasm. Fizika o‘qitishda “O‘qituvchi-talaba” metodik tizim modeli

Metodologik komponentlarning o‘zaro ta’sirining ikkinchi kichik tizimi metodik tizimdir. U har qanday metodik tizim uchun an’anaviy tarkibiy qismlarni: maqsadli, mazmunli, texnologik (“o‘rganish” usullari, shakllari va vositalari) va o‘quv natijalarini diagnostika qilishni o‘z ichiga oladi.

Metodik tizimning maqsadli bunda talabalarga fizika o‘qitishning asosiy maqsadlarini o‘z ichiga oladi: bilimlarni predmetli va noan’anaviy (dunyoqarashli, metodologik) egallash, mavzu nazariy tadqiqotlar turli xil muammolarni hal qilish va hokazo (tajriba va tajriba ishlarini bajarish) va umumiy ta’lim (axborot, aloqa, tashkiliy va boshqalar), shuningdek, bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish, ya’ni ularni muhandislik kasbiy faoliyatda yuzaga keladigan turli muammolarni hal etishda qo‘llay olishi, boshqacha qilib aytganda, maxsus kompetensiyalarni shakllantirish; yuqorida asoslab berilganidek, bunday maxsus kompetensiyalarga subyekt, metodologik, mafkuraviy axborot va matematik kompetensiyalar kiradi.

Mazmunli chiziqlarini ajratish umumiy fizika kursining mazmunli blokining ikkinchi qismini tashkil etib, talabalarning umumkasbiy va ixtisoslik fanlar bo‘yicha mavzu bilimlarini shakllantirish vazifasiga mos keladi.

Ta’lim maqsadlariga muvofiq, kichik metodik tizim tarkibiy komponentining va jarayoniy komponentini o‘z ichiga oladi. Maqsadli komponent mavzu bilimlarini, ya’ni umumiy fizikani bilish va mavzu bilimlarni o‘z ichiga oladi.

Bo‘lajak muhandislarga fizika o‘qitishning metodik tizimi konsepsiyasining asosiy qoidalariga muvofiq mazmunni tanlash va taqdim etishdir.

Xulosa qilib aytganda, fizika o‘qitishdan maqsad predmetli, metodologik, mafkuraviy, matematik-axborotli kabi kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish, fizika kursi mazmuni rivojlanish bosqichlarini ajratish, fizika ta’lim fundamentalligi tamoyili asosida mazmun va mantiq qurilishini amalga oshirish, fizika evolyutsiyasi haqida talabalarning fikrlarini o‘rganish, kurs materialini fundamental fizik nazariyalar atrofida guruhlash va kurs tuzilishida fizik nazariyalar tuzilishini aks ettirishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Павлуцкая Н.М. Дифференциация обучения физике бакалавров технических направлений подготовки как условие формирования их общекультурных и общепрофессиональных компетенций. Дисс. д.п.н. –М.: –2016 г. – С. 248.

2. Turayev S.J. (2019) “Methods of the using of software program Microsoft Excel in practical and laboratory occupation on physics” Scientific Bulletin of Namangan State University: Vol. 1 : Iss. 10 , Article 55. –P. 292-297.

3. Turayev S.J. Ximmataliyev D.O., Beknazarova Z.F. Fizika (Elektrodinamika. Elektromagnetizm. Tebranishlar va to‘lqinlar). //O‘quv-qo‘llanma. – T.: Iqtisod-moliya, 2020. – 143-b.

4. Hamidov J.A. Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlashda o‘qitishning zamonaviy didaktik vositalarini yaratish va qo‘llash texnologiyasi. Diss. ... p.f.d. DSc. – T., 2017. – 335-b.

5. Xudoyberdiyev A.T., Jumayev N.A., Turayev S.J. Umumiy fizikadan masalalar va ularni yechishda dasturiy vositalardan foydalanish namunalari. //O‘quv-qo‘llanma. – Qarshi: Nasaf, 2019. 246-b.

6. Ximmataliyev D.O. “Kasbiy faoliyatga tayyorgarlikni diagnostika qilishda pedagogik va texnik bilimlar integratsiyasi (Texnika oliy ta’lim muassasalarining “Kasb ta’limi” yo‘nalishlari misolida)”. Dissertatsiya (DSc): 13.00.05. –T.:-2018. – 348-b.

Obidjon IMOMOV,
Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti “Umumiy fizika” kafedrasi o‘qituvchisi

BO‘LAJAK MUHANDISLARGA FIZIKA FANIDAN DIFFERENSIAL TA’LIM BERISHNING KONSEPTUAL METODIK TIZIM MODELI

Annotatsiya

Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak muhandislarga fizikadan differensial ta’lim berish, nochiziqli ta’lim trayektoriyalarini qurishning konseptual metodik tizim modeli ishlab chiqilgan. Bo‘lajak muhandislarga differensial yondashuv asosida fizikadan ma’ruza, amaliy, laboratoriya va to‘garak mashg‘ulotlarida loyihaviy modellarni ishlab chiqish orqali ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish tamoyillari keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar. Paradigma, didaktik tamoyil, sinergetik tamoyil, metodologiya, konsepsiya, nochiziqli ta’lim trayektoriyalari, differensial ta’lim, innovatsion ta’lim.

В данной статье разработана модель методической системы построения нелинейных образовательных тренингов, обеспечивающих дифференцированное обучение будущих инженеров-физиков в высших учебных заведениях. Принципы развития их профессиональных компетенций были приняты путем разработки проектных моделей на лекционных, практических, лабораторных и кружковых занятиях по физике на основе дифференцированного подхода к будущим инженерам.

Ключевые слова. Парадигма, дидактический принцип, синергетический принцип, методология, концепция, нелинейное обучение, дифференциальное образование, инновационное образование.

In this article, a model of a methodological system for constructing nonlinear educational trainings that provide differentiated training for future physics engineers in higher educational institutions is developed. Developing project models in lectures, practical, laboratory and circle classes in physics based on a differentiated approach to future engineers adopted the principles of developing their professional competencies.

Key words. Paradigm, didactic principle, synergetic principle, methodology, concept, nonlinear learning, differential education, innovative education.

Ta’lim paradigmasining o‘zgaruvchan talablari bilan bog‘liq holda paydo bo‘ladigan yangi ta’lim metodlari aniq tushunchalar yordamida ularning nazariy asoslanishini talab qiladi.

Konsepsiya (lotincha “conception” – tushunish, tizim) – bu ta’rif, ensiklopediyalar, lug‘atlar va ma’lumotnomalar, muayyan nuqtayi nazarsiz narsalarni tushunish, idrok qilishning muayyan usuli, qarashlar tizimi, har qanday hodisa yoki jarayonlarni sharhlash, g‘oya, reja va hokazolarni o‘z ichiga olgan bir necha qismdan iborat murakkab nazariy tuzilmadir.

Turli mualliflar o‘z konsepsiyalarini turlicha talqin qiladilar, ular muayyan yondashuvdan va o‘rganilayotgan muammoni o‘z tushunchasidan kelib chiqadi, bu esa g‘oyalarni nazariy asoslash, konseptual asoslarni amaliy qo‘llash uchun qo‘llanma sifatida aks ettirish har bir yangi konsepsiyaning asl ko‘rinishiga olib keladi.

Pedagogikada konsepsiya bu – jarayonlarning mohiyatini yaxlit tushunish asosida ta’lim va tarbiya vositalarini qurishning muayyan usulini ko‘rsatuvchi pedagogik

nazariya g‘oyasi bo‘lib, tegishli nazariyalarni ishlab chiqishni belgilovchi pedagogik faoliyat strategiyasini ifodalaydi.

N.S. Purisheva fizikani o‘qitishga differensiallashgan yondashuv orqali maqsad va vazifalarni ta’riflaydi, fizika kursining mazmunini tanlash va uni tuzish uchun manbalar, omillar, tamoyillar va mezonlarni ochib beradi, turli yo‘nalishlar uchun fizika kursining bir qator modellarini taklif qiladi. N.S.Purisheva konsepsiya nafaqat nazariy asos, balki taklif qilingan konsepsiyani muayyan amaliy muammolarni hal qilish uchun ham qo‘llashdir deb ta’kidlaydi.

L.A. Proyanenkova tomonidan fizikada shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonini tashkil etish bo‘yicha uslubiy tayyorgarlik tushunchasi bir qator talablar shaklida shakl lantirilgan konseptual qoidalar bilan belgilanadi:

◄ bo‘lajak muhandisning kasbiy tayyorgarligi maqsadlarini shakllantirish;

◄ bo‘lajak muhandisning kasbiy tayyorgarligi mazmuni va tuzilishini takomillashtirish;

◄ muhandislarning o‘quv faoliyati metodikasini tashkil etish.

Didaktik tizim elementlari talabalarni metodik tayyorlash maqsadlari, mazmuni va tuzilishi hamda o‘quv faoliyatini tashkil etish usullari ko‘rinishida taqdim etadi. Bundan tashqari, ushbu modelni ishlab chiqish usulini belgilovchi qoidalar yoritib beriladi; fizika fanidan ta’lim jarayonini tashkil etish bo‘yicha metodik tayyorgarlikning maqsadi shakllantiriladi, o‘qituvchi uchun vazifalar va ularni amalga oshirish bosqichlari belgilab olinadi.

Talaba tomonidan tipik kasbiy vazifalarni o‘zlashtirish darajalari (yetarli, o‘rtacha va yuqori) va bu darajalarni shakllantirish mezonlari aniqlanadi va ta’riflanadi.

Fizikada shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishga metodik tayyorgarlik mazmuni va tuzilishi; kasbiy vazifalarni hal qilishda faoliyatni shakllanish bosqichlari, didaktik materiallar mazmuni va nazorat turlarini tashkil qiladi.

Konsepsiya tarkibiga 2 ta model kiradi. Bular:

1. Fizika o‘qitishning shaxsga yo‘naltirilgan modeli talabalar kasbiy faoliyatining mazmunini tashkil etuvchi turli ilmiy sohalardagi bilimlar ketma-ketligi ko‘rinishidagi umumlashgan tavsifi va ularni yaratish va qo‘llash bo‘yicha harakatlarni amalga oshirishga imkon beradi.

2. Bo‘lajak muhandislarni fizika fanidan shaxsiy-yo‘nalganlikni hamda o‘quv jarayonini loyihalashni amalga oshirish, maqsadlarni shakllantirishning metodik modelida kasbiy vazifalar bilan ishlashning maqsadi, mazmuni va tuzilishi tavsifi bayon etiladi. Modelning tuzilishi kasbiy vazifani shakllantirish uchun modullar ketma-ketligi bo‘lib ularni shakllantirish olti bosqichli, mustaqil ishlarni tashkil etish uchun didaktik materiallar ro‘yxati va nazorat tizimini o‘z ichiga oladi.

Keltirilgan tushunchalar tahlili ularning tavsifi va tuzilishiga yagona yondashuv mavjud emas, yechilayotgan muammoning mualliflik nuqtayi nazari va muallifning turli metodik tizim yoki metodikani amalga oshirishga imkon beruvchi muayyan g‘oyalarni taqdim etishi mumkin degan xulosaga kelish imkonini beradi.


Texnika oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak muhandislarga fizika fanini differensial o‘qitishning konseptual metodik tizimi modelining tuzilishini nochiziqli ta’lim trayektoriyalari asosida aniqlash uchun L.A. Bordonskaya tomonidan ishlab chiqilgan “Zamonaviy fizika ta’limida fan va madaniyat o‘rtasidagi munosabatlarni aks ettirish konsepsiyasi” asos sifatida tanlab olindi.

Nochiziqli ta’lim trayektoriyalari asosida texnika oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak muhandislarga fizikani differensial yondashuv asosida o‘qitishning konseptual metodik tizimi modelini ishlab chiqish uchun uning tuzilishini quyidagicha taqdim etish maqsadga

muvofiqdir:

◄ Konsepsiyaning me’yoriy asoslari;
◄ Tamoyillar:
◄ Didaktik;
◄ Umummetodologik;
◄ Xususiy metodik;
◄ Konsepsiyaning asosiy qoidalari.

Nochiziqli ta’lim trayektoriyalari asosida bo‘lajak muhandislarga fizika fanini differensial o‘qitishning metodik tizimi modeli amaliy blokdan tashkil topadi.



1-rasm. Metodik tizimning konseptual modeli

1-rasmda nochiziqli ta’lim trayektoriyalari asosida bo‘lajak muhandislarga fizika fanini differensial o‘qitishning konseptual metodik tizimi modelining tuzilishi keltirilgan. Bunda nochiziqli ta’lim trayektoriyalarini qurish asosida bo‘lajak muhandislarga fizikani differensial o‘qitishning konseptual metodik tizimining tuzilishi va asosiy g‘oyalarini amalga oshirishga imkon beruvchi o‘ziga xos mazmun bilan to‘ldirilishi lozim.

Konsepsiyaning me’yoriy asoslari:

– muhandislik ta’limining asosi sifatida fizika fanining roli muhandislik xodimlariga bo‘lgan ehtiyojning ortishi bilan umuman jamiyatdagi jarayonlarning murakkab dinamik xarakteri sharoitida ortadi.

– yangi davlat ta’lim standartlarini qabul qilish alohida qobiliyatlarni hisobga olish va oliy ta’lim muassasasida o‘qish jarayonida nafaqat fakultativ kurslar yordamida, balki fizika kabi majburiy fundamental fanlar doirasida ham nochiziqli ta’lim trayektoriyalarini qurish zarurligini taqozo etadi.

– davlat ta’lim standartining yangi avlodi va o‘zgartirilgan o‘quv dasturlari har qanday o‘quv fanini, shu jumladan, umumiy fizika kursini bo‘lajak muhandislarga o‘rganishda faol va interaktiv o‘qitish metodlaridan foydalanish zarurligini belgilaydi.

Fizika o‘qitishning didaktik tamoyillari quyidagilar:

◄ xabardorlik va faollik;
◄ ijobiy motivatsiya;
◄ oshkoralik;
◄ muntazamlik va izchillik;
◄ ta’lim olishning hayot bilan aloqasi;
◄ ilmiylik;

◄ tabiiylik;

◄ individual va differensial yondashuv.

Mohiyatan olib qaralganda klassik ma'noda keltirib o'tilgan didaktik tamoyillarning mazmuni alohida ochib berilmaydi, chunki ularga yangi ma'no kiritilishi shart emas.

Tizimlilik tamoyili tizimning barcha elementlari munosabatlarini izga solish imkonini beradi. Bundan tashqari, bunday tizim, uning elementlarining oddiy to'plami emas, balki ular orasidagi keng qamrovli aloqalarga ega bo'lgan zarur va yetarli miqdordagi elementlar va quyi tizimlardan iborat tartibli tuzilgan bir butunlikdir.

Sinergetik tamoyil talabalarning bilish faoliyati nochiziqli xarakterga ega ekanligini va talabalarning akademik guruhlari ochiq, atrof-muhit bilan energiya va ma'lumot almashish va o'quv jarayoniga ochiq ijodiy xarakter beradigan juda ko'p ekzogen omillar ta'sir ko'rsatadi deb taxmin qilish imkonini beradi. Agar u dunyoning ochiqligidan, bilish va ta'lim jarayonlaridan kelib chiqilsa, ta'lim tizimi ochiq bo'ladi, bu atrofdagi haqiqatni ochiqlik, dinamizm, noaniqlik, qaytarilmaslik natijasida belgilanadi.

Ta'lim trayektoriyalarining o'zgaruvchanligi, nochiziqliligi tamoyili talabalarni bunday trayektoriyani yetarli va mazmunli tanlash sharti bilan yetarlicha katta, to'liq, sifat jihatidan o'ziga xos va jozibali variantlar bilan ta'minlash imkoniyatini aks ettiradi. Bu tamoyil ta'limni individuallashtirishning eng yuqori darajasini ta'minlaydi. Ushbu tamoyilni amalga oshirish nafaqat o'quv dasturining o'zgaruvchan qismida fakultativ kurslar orqali, balki innovatsion ta'lim texnologiyalari yordamida alohida modul yoki fan doirasida o'zgaruvchanlik va nochiziqlilikni ta'minlash orqali turli xil ta'lim dasturlarini yaratish orqali amalga oshirilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Смолкин А.М. Методы активного обучения: [Метод. пособие для преподавателей и организаторов проф. и экон. обучения кадров] / А. М. Смолкин. – М.: Высш. шк.,1991. – С.175

2. Пурышева, Н.С. Методические основы дифференцированного обучения физике в средней школе[Текст]: дис...д-ра пед.наук: 13.00.02. – М., 1995. – С. 518.

3. Прояненкова, Л. А. Методическая подготовка будущего учителя к организации личностно ориентированного учебно-воспитательного процесса по физике [Текст]: дис... д-ра пед. наук: 13.00.02. – М., 2010. – С. 357.

4. Бордонская Л.А. Теория и практика отражения взаимосвязи науки и культуры в школьном физическом образовании и в подготовке учителя физики[Текст]: дис. ...д-ра пед.наук: 13.00.02.- Чита, 2002 . – С. 500.

5. Психология и педагогика /Под ред. Абульхамовой К.А., Васиной Н.В., Лаптева Л.Г., Сластенина В.А. – М.: Совершенство, 1998.

6. Tursunov Q.Sh., Toshpo'latov Ch.X. Fizika ta'limi texnologiyasi. Metodik-qo'llanma. – Qarshi, Nasaf, 2012.

7. Turayev S.J. Methods of the using of software program Microsoft Excel in practical and laboratory occupation on physics, Scientific Bulletin of Namangan State University: 2019.

8. Тураев С.Ж. Формирование научно-практических навыков студентов с привлечением к научному проекту №1/1-Ф и применением технологий программирования. Преподаватель XXI век. –М.: 2018. – С. 88-92.

Rustam YO‘LDOSHEV,
Qarshi davlat universiteti “Boshlang‘ich ta’lim” kafedrasi o‘qituvchisi

MAKTABDA MATEMATIKANI AMALIYOTGA YO‘NALTIRIB O‘QITISHDA O‘QITUVCHINING METODIK TAYYORGARLIGINING O‘ZIGA XOS ASPEKTLARI

Annotatsiya

Matematikani o‘qitishda umumiy matematik tushuncha va metodlarni o‘zlashtirishga alohida e’tibor qaratish lozim, ular orasida matematik model va matematik modellashtirish metodiga e’tibor qaratilishi majburiyligi haqida fikr-mulohazalar yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Matematika, modellashtirish, metod, tayyorgarlik, tushuncha, amaliyot, yondashuv.

При обучении математике особое внимание следует уделять овладению общими математическими понятиями и методами, среди которых в обязательном порядке следует обратить внимание на математическую модель и метод математического моделирования.

Ключевые слова. Математика, моделирование, метод, подготовка, понятия, практика, подход.

In the teaching of mathematics, special attention should be paid to the mastery of general mathematical concepts and methods, among which it is mandatory to pay attention to the mathematical model and the method of mathematical modeling.

Key words. Mathematics, modeling, method, preparation, concept, practice, approach.

Matematikani amaliyotga yo‘naltirib o‘qitish o‘qituvchining metodik tayyorgarligining hozirgi holatini baholash uchun mazkur paragraf maktab matematika ta’limining ushbu yo‘nalishdagi dolzarb ehtiyojlarini aniqlaydi.

Pedagogika fanida amaliyotga yo‘naltirilgan ta’lim tushunchasi an’anaviy ravishda o‘rta maxsus yoki oliy o‘quv yurtida mutaxassisni kasbiy tayyorlash bilan bog‘liq. Shuning uchun tegishli tadqiqotlarda u kasbiy yo‘naltirilgan deb atashadi.

Pedagogikada, asosan o‘rta maktablar, kasb-hunar va oliy ta’limda amaliy yo‘naltirilgan yondashuvning didaktik kategoriyasi ham o‘rganilgan. Shu nuqtayi nazardan, amaliyotga yo‘naltirilgan yondashuv ta’lim jarayonini ta’limning yakuniy mahsulotiga yo‘naltirilganligi sifatida tushuniladi. Bunday mahsulot ham kasbiy kompetentlikning yig‘indisi, ham ma’lum bir mutaxassislik doirasidagi amaliy harakatlar tajribasi bo‘lishi mumkin.

Matematik sikl fanlari yordamida hisob-kitob va iqtisodiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan kasbiy kompetentlikning juda keng ro‘yxati shakllantiriladi.

Shunday qilib, o‘rta-maxsus kasbiy ta’lim tizimida matematikani o‘qitish mazmunini tanlash o‘quvchilar uchun kasbiy ahamiyatga ega. Ta’limning amaliyotga yo‘naltirilganligi o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarni egallashga yo‘naltirilganligida o‘z ifodasini topadi.

Oliy kasbiy ta’limda amaliyotga yo‘naltirilgan ta’limning asosini, kasb-hunar ta’limi mazmuni bilan sanoat va ijtimoiy sohaning real ehtiyojlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni ta’minlash uchun fundamental ta’lim hamda kasb-hunar ta’limi kombinatsiyasi mavjudligi bilan ifodalanadi.

Maktabda matematikani amaliyotga yo‘naltirib o‘qitish uchun o‘qituvchilarni tay-

yorlashning nazariy-metodik asoslarini izlash hamda mazkur yo‘nalishda ikkita muhim ijtimoiy soha – ta’lim va fanning o‘zaro aloqasi va ta’sirini aniqlash kerak. Ushbu muammoni hal qilish jarayonida umumta’lim maktablarida matematikani amaliyotga yo‘naltirib o‘qitishni amalga oshirish masalasini o‘rganib chiqdik.

Umumiy o‘rta ta’lim sharoitida kasbni egallash ta’minlanmasdan faqatgina unga yo‘naltirishgina amalga oshiriladi. Shu bilan birga, o‘quvchilarni kelajakdagi kasbiy faoliyat sohasini tanlashga, zamonaviy bilim darajasiga mos keladigan olam xaritasini shakllantirishda tayyorlashga ehtiyoj bor. Ilgari olib borilgan tarixiy tahlil maktab matematik ta’limi rivojlanishining oldingi davrlarida amaliyotga yo‘naltirilgan o‘qitish asoslari yaratilganligini tasdiqlaydi. Xususan, mehnat maktablari va politexnik ta’lim davrida matematikani o‘qitish aniq kasbiy yo‘naltirilganlik xarakterga ega bo‘lgan. Keyinchalik, o‘qitishning amaliy yo‘nalishini amalga oshirishga o‘tib, ushbu yondashuvlardan voz kechildi.

Shunday qilib, maktab matematik ta’limining rivojlanish tarixini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, amaliyotga yo‘naltirilgan ta’limni shakllantirish ta’lim va hayot, politexnik, fanlararo aloqalar, kasbiy va amaliy yo‘nalish o‘rtasidagi bog‘liqlikning didaktik tamoyillari bilan chambarchas bog‘liq ekan.

O‘quvchilarga matematikaning amaliy qo‘llanmalarini o‘rgatish bilan bog‘liq turli davrlarda ishlatilgan bir qator atamalarni sanab o‘tamiz: amaliy geometriya, dunyoni tushunish, dunyoqarash,real masalalar; monotexnika, politexnika, eksperimental geometriya; matematikani o‘qitishning amaliy yo‘nalishi, matematikaning amaliy qo‘llanilishi, amaliy masalalar shular jumlasidandir. Bir qarashda ushbu atamalarni kim birinchi qo‘llaganligini, ya’ni aniq bir olim, metodist, matematikni ko‘rsatish qiyin. Shu sababli, ushbu atamalarni qo‘llagan mualliflarni qavsda ko‘rsatilgan.

Hozirgi vaqtda ham maktablarda matematikani amaliyotga yo‘naltirib o‘qitish yana talabga aylanib bormoqda. Buning asosiy dalillaridan biri – umumiy ma’lumotni profillashtirish bunga dalildir. Amaliy topshiriqlarning yakuniy attestatsiyaga kiritilishi ham bundan dalolat beradi. Shubhasiz, amaliyotga yo‘naltirilganlikni endi boshqacha tushunish kerak bo‘ladi.

Maktab matematik ta’limi rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari tahlili shuni ko‘rsatadiki, bugungi kunda maktabda matematikani o‘qitish mazmuni asosan o‘quvchilar uchun umumiy madaniy ahamiyatga ega. Agar ilgari maktab o‘quvchilari, masalan, bir qator geodeziya qurilmalarining ishlash tamoyillarini batafsil o‘rgangan bo‘lsa, o‘lchovlar va yerdagi konstruksiyalar bilan bog‘liq amaliy ishlarni bajargan bo‘lsa, unda hozirgi o‘quvchilar har doim ham eng oddiy o‘lchov asboblarining nomlarini bilishmaydi. Zamonaviy maktab o‘quvchilari o‘zlarining hayotiy tajribalarini bunday bilim va ko‘nikmalar bilan boyitishga hojat yo‘q, ularni o‘rganish kasbni o‘zlashtiruvchilar toifasiga kiritilgan. Amaliy yo‘naltirilgan o‘qitishda o‘quvchilarni insonning amaliy faoliyatida tez-tez yuzaga keladigan muammolarni hal qilishga tayyorlash mumkin. Biroq, matematikani o‘qitish jarayonida ular nafaqat bir qator dalillar va harakat usullarini o‘zlashtiribgina qolmay, balki ushbu dalillar yordamida voqyelikning turli hodisalarini tushuntirish, real dunyo obyektlari o‘rtasida o‘zaro aloqalarni o‘rnatish qobiliyatini egallashi kerak. Aynan atrofimizdagi olam haqidagi ma’lumotlarni matematikaga bog‘lash va shu asosda yangi ma’lumotlarni olish qobiliyati – mustaqil fikrlaydigan, intellektual rivojlangan kishining xususiyatlaridan biridir. Aynan shu narsa maktabda matematikani o‘qitishning amaliy yo‘nalishini tashkil etadi.

Umumiy ta’limning davlat ta’lim standartiga binoan matematikaning tirik tabiatdagi

matematik qonuniyatlarini ochib berish, matematikaning san’at, amaliy faoliyat sohalari bilan o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatuvchi maktabda matematikani amaliy yo‘naltirilgan o‘qitishning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Maktab o‘quvchilari uchun me’yoriy hujjatlar, dasturlar, geometriya darsliklari, maktab matematik ta’limining xalqaro tadqiqotlari natijalari tahlili quyidagilarni: o‘quvchilarga matematikaning amaliy qo‘llanilishini o‘rgatish zarur, shuning uchun bu sohada o‘qituvchilarni metodik tayyorlash zarurligini ko‘rsatadi.

Ta’lim muammolarini tasniflash, ehtimollar nazariyasi elementlarini o‘rganish va hokazolarga oid savollarning taqdim etilishi bilan bog‘liq hollarda ayrim amaliy aspektlar ko‘rib chiqiladi. Maktab kursi amaliy komponentining matematik ta’lim maqsadlarini muhokama qilishdagi o‘rni ham an’anaviy ravishda ta’kidlanadi xolos.

“Matematikani o‘qitish metodikasi va texnologiyasi” darsligida amaliy mazmundagi yondashuv vazifalari o‘quv faoliyatini rag‘batlantirish vositasi sifatida foydalanish uchun taklif etiladi. Buning uchun o‘qituvchi turli xil hayotiy vaziyatlar bilan bog‘liq bo‘lgan “motivatsion vazifalarni” ishlab chiqishi kerak. An’anaga ko‘ra, fizikada hosilani qo‘llanilishini o‘rganish masalasi ko‘rib chiqiladi. Xuddi shu darslikda matematikani o‘qitishda muammolarning rolini ko‘rib chiqayotganda, syujetli masalalar misolida haqiqiy vaziyatlarni qanday modellashtirishni o‘rganish mumkinligi ta’kidlangan. Bu holda syujet vazifasi “ma’lum bir hayotiy syujet tasvirlangan ... ma’lum miqdoriy xususiyatlarni yoki ma’nolarni topish uchun” vazifa sifatida tushuniladi. Matematikaning amaliy qo‘llanilishi bilan bog‘liq muammolar sinfi alohida ko‘rib chiqilmaydi.

O‘quvchilar uchun yana bir darsligini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, u matematikani o‘qitish metodikasi davomida ma’ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar va laboratoriya ishlarini, test sinovlari va imtihonlarni ishlab chiqishni o‘z ichiga olgan pedagogik oliy o‘quv yurtlari o‘quvchilari uchun praktikumdir. Ushbu qo‘llanmada to‘liq va batafsil ravishda, ko‘plab misollar bilan, maktab matematika kursining turli bo‘limlarini, har xil matematika darslarini o‘rganish uchun umumiy metodika va metodikaning masalalari ko‘rib chiqilgan.

Shunday qilib, maktabda matematikani amaliyotga yo‘naltirib o‘qitish o‘qituvchining metodik tayyorgarligi holatini ushbu sohadagi umumiy ta’limning zamonaviy ehtiyojlarini qondiradi deb qarab bo‘lmaydi. Maktabda matematikaning amaliy tarkibiy qismini rivojlantirish ushbu sohada malakali mutaxassislarni tayyorlamasdan amalga oshirib bo‘lmaydi. Ushbu xulosa PISA va TEDS-M xalqaro tadqiqotlar natijalari bilan o‘z tasdig‘ini topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Вахрушева, Н.В. Использование цепочек взаимосвязанных задач в реализации профессиональной направленности обучения математике в экономическом вузе: дисс. ... канд. пед. наук: – Арзамас, 2006. –С.156.

2. Виленский, М.Я., Образцов, П.И., Уман, А.И. Технологии профессионально-ориентированного обучения в высшей школе: учеб. пособие. / М.Я. Виленский; под ред. В.А. Сластенина. – М.: Педагогическое общество России, 2004. – 192 с.

3. Гусев, В.А. Психолого-педагогические основы обучения математике. – М. : ООО Издательство Вербум-М, 2003. –С. 432.

4. Методика и технология обучения математике. Курс лекций: пособие для вузов /Под научн. ред. Стефановой Н.Л., Подходовой Н.С. – М.: Дрофа, 2005. –С. 416.

Umar G‘OYIMOV,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Shahrisabz filiali
“Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MUASSASALARI BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA MEHR-SAXOVATNI SHAKLLANTIRISH YO‘LLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada umumiy o‘rta ta’lim muassasalari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mehr-saxovatni shakllantirish yo‘llari haqida fikr-mulohazalar yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Umumiy o‘rta ta’lim, mehr-saxovat, o‘rta ta’lim, boshlang‘ich sinf, meros, shaxs, ma’naviy-axloqiy sifatlar.

В этой статье обсуждаются способы воспитания сострадания у учащихся начальной школы в системе общего среднего образования.

Ключевые слова. Общее среднее образование, щедрость, среднее образование, начальная школа, наследие, личность, духовно-нравственные качества.

This article discusses ways to nurture compassion in elementary school students in general secondary education.

Key words. General secondary education, generosity. Secondary education, primary school, heritage, personality, spiritual and moral qualities.

Bolani shaxs sifatida shakllanishida ma’naviy-axloqiy tarbiyaning o‘rni nihoyatda katta ekanligi ma’naviy merosimiz durdonalarida ham markaziy o‘rinni egallaydi. Bunda biz mutafakkirlarimizdan Kaykovus, Abu Nasr Farobiy, Yusuf Xos Hojib, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad Yassaviy, Amir Temur, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy va boshqalar merosini misol qilib olishimiz mumkin. Ular bolani to‘g‘ri tarbiyalash, unda ma’naviy – axloqiy sifatlarni tarbiyalashning ahamiyati, uning mas’uliyati masalasida qimmatli fikrlar qoldirganlar.

Abdulla Avloniy o‘zining “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida ana shunday insonlar haqida bunday deydi: “Yaxshi fazilatlarni o‘ziga kasb qilib olgan insonlar yaxshi insonlar deyilur”. Avloniy yaxshi insonlar deganda odamlarga yaxshilik qila oladigan, kamtar, saxiy, mehnatkash, mehr-shafqatli bilimdon, o‘zgalar uchun qayg‘uradigan, mard insonlarni ko‘zda, tutsa, “Yomon insonlar deb, yomonlik fazilatlari yaxshi fazilatlaridan ustun turadigan insonlarga aytiladi”, deydi. Muallif yomon insonlar deganda xasis, baxil, birovlarni yutug‘ini ko‘ra olmaydigan hasadgo‘y, faqat o‘zim deydigan xudbin kishilarni nazarda tutadi. Avloniy kishilarni o‘zida yaxshi fazilatlarni to‘plagan, el nazariga tushgan, yaxshilikka intiluvchi, o‘zini tarbiyalab borishga o‘rgangan insonlar bo‘lishiga undaydi.

Tarbiyaviy ishlarning mazmunida bir butun yondashishdan bosh maqsad, “Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoiyllari dasturi”dagi g‘oyalarni bolalarning ongida o‘ziga xos va mos ravishda singdiradi.

– Xalqimizning boy ma’naviy, an’ana, udum, urf-odatlar va ajdodlarimiz merosidan foydalanish;

– O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, adolat, haqiqat va erkinlikni, ishonch-

e’tiqodni tarbiyalash;

– Yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi mohiyatini izohlash;
– Mehrli-muruvvatli va bag‘rikenglik.

Ayniqsa, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning ta’limiy-tarbiyaviy faoliyatlari o‘ziga xos xususiyatga ega: o‘quvchilarda hayotiy tajribalarning kamligi, o‘quv-tarbiya jarayonida hodisalarga qiziqish, “yaxshi”, “yomon” harakatlarga chuqur munosabat bildira olmasligi kabilar shular jumlasidandir.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining dars va darsdan tashqari tarbiyaviy faoliyatini rejalashtirish o‘ziga xos qoidalarga egadir:

1. Har bir sinf jamoasining tarbiyalangan darajasini o‘rganish;
2. O‘quvchilarning oilaviy hayoti, ota-onaning farzand tarbiyalashdagi burchi va vazifasini qanday his etishi;
3. Kundalik o‘zgarishlarga o‘quvchilarning munosabati.
4. O‘quvchilarning sharqona milliy urf-odat, an’analar haqidagi bilim darajasi.
5. Qomusiy ma’rifatparvar, mutafakkirlar hamda hozirgi zamon shoir, yozuvchilarning ijodiyotidan namuna bilishlari lozim.

Mazkur qoidalar boshlang‘ich sinflarda sodda holda qo'llaniladi. Yuqoridagilarni aniqlashda suhbat, anketa usullaridan foydalanish o‘rinlidir. Shundagina har bir o‘qituvchilarning betakror, bir-biriga o‘xshamagan tarbiyaviy tadbir rejalari bunyodga keladi. Bunday rejalar tarbiyaviy ta’sirga ega bo‘lib maqsadga erisha oladi.

Tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishning asosiy omillari:

1. Vatanga muhabbat va insonparvarlik.
2. Milliy istiqlol mafkurasini shakllantirish.
3. Ma’naviy tarbiya (axloq va odob).
4. Iqtisodiy tarbiya.
5. Ekologik tarbiya.
6. Go‘zallik tarbiyasi.
7. Jismoniy barkamollik (sog‘lom avlod uchun).
8. Ota-onalar bilan ishlash.

Yuqoridagi omillarni rejalashtirishda tanlanadigan mavzular quyidagi talablarga javob berishi kerak.

1. Tarbiyaviy tadbirlar rejasi va undagi mavzular davr talabiga javob berishi.
2. Tanlangan mavzular milliy va umuminsoniy qadriyatlar qamrovida bo‘lishi.
3. Tarbiyaviy tadbirlar uzviylik qoidasiga amal qilgan bo‘lishi.
4. Mavzular o‘quvchilarning yoshi va bilim saviyasiga mos bo‘lishi.

O‘quvchilarni har tomonlama yetuk, barkamol qilib tarbiyalash masalalarini muvaffaqiyatli hal etish, ularda faol hayotiy mavqeni shakllantirish, o‘zlashtirish va bilim sifatini oshirish ko‘p jihatdan kuni uzaytirilgan guruhlarining samarali ishlashiga bog‘liq. Sinfdan va maktabdan tashqari tashkil qilingan ishlar o‘quvchilar hayotidagi tarbiyaviy faoliyatini to‘ldiradi. Ularning dunyoqarashi, to‘g‘ri shakllanishiga, axloqiy kamol topishiga ko‘maklashadi. Nazariy bilimlarni amaliyot ishlab chiqarish bilan bog‘lanishiga zamin yaratadi. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarga rahbarlik qiluvchi tashkilotchilarning vazifalari ham ko‘p qirralidir.

O‘quvchilarning sinfdan tashqari ishlari o‘z mazmuniga ko‘ra tafakkur faoliyati va munosabat vositasi hisoblanadi. Chunki sinfdan tashqari ishlarda olingan axborot idrok etiladi, qayta ishlanadi. Shu asosda yangi bilimlar hosil qilinadi. O‘quvchilar maktabdan tashqari ishlarda qatnashib turli kishilar bilan muayyan munosabatga kirishadilar. Turli

vaziyatga duch keladilar. Shuning uchun ham o‘quvchilarning maktabdan tashqari faoliyatlari qanchalik xilma-xil bo‘lsa, ularning munosabatlari shunchalik munosabat doirasi keng va ma’naviy o‘sishi samarali bo‘ladi.

Maktabdan tashqaridagi tarbiyaviy ishlarda o‘quvchilar jamoadagi ishlarni o‘rganadilar. Ijtimoiy mehnat quvonchini his qiladilar. Ishlab chiqarish mehnatiga qo‘shiladilar. Jamoatchilik fikriga bo'ysunishga, jamoa sharafi uchun kurashishga otlanadilar. Maktabdan tashqari faoliyatga quyidagilar kiradi:

1. Og‘zaki ish usullari: majlislar, yig‘inlar, ma‘ruzalar, kutubxonalar, konferensiyalar, munozaralar, uchrashuvlar, gazetalar, radio va jurnallar.

2. Amaliy ish olib borish usullari turli joylarga sayohatlarga, sport musobaqalari, tabiatshunoslar to‘garaklari, shanbaliklar, yangi kitoblar ko‘rgazmalari.

Tarbiyaviy ish pedagogikadan butun qobiliyatlarni ishga solishga taqozo etadi. Sinf rahbarligi kursi bilan maktabdan va sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar metodikasi kursi bir-biriga bog‘liq va uning davomiyligidir. Yuqorida qayd etilgan topshiriqlarni bajarish jarayonida o‘quvchilar turli qo‘llanmalar, asboblar, apparatlar, didaktik materiallardan foydalanishni o‘rganadilar, o‘z-o‘zini tekshirish uchun turli ma’lumot va tayanch materiallarini jalb etish ko‘nikmalarini egallaydilar.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishni rejalashtirish bolalarning yosh xususiyatlariga, maktabning joylashgan shart-sharoitlariga, ijodiy birlashmalariga, ilmiy markazlar bilan o‘zaro aloqasi kabi ishlarni inobatga oladi. Direktor o‘rinbosarining faoliyati, o‘z ifodasini topgan hujjatlar ro‘yxati, xalq ta’limi tomonidan doimiy ravishda berilib boriladi.

O‘quvchi atrofini o‘rab turgan vositalar, yaxshi-yomon odatlar, o‘qituvchilar, maktabning muhiti, o‘quvchilar tarbiyasini to‘g‘ri, ongli ravishda o‘rganish va qabul qilish. Sinfdan tashqari ishlarni to‘la qamrab olgan to‘garaklar bir necha xil bo‘lishi mumkin.

To‘g‘arak turlari:

1. Fan to‘garaklari.
2. Mohir qo‘llar.
3. Duradgorlik.
4. Sport musobaqalari.
5. Badiiy havaskorlik.

So‘nggi so‘z. Ko‘rib chiqilishi, asosiy e’tibor bola shaxsiga qaratilishi, yillar davomida to‘plangan ijobiy tajribadan unumli foydalanish zarurligini taqozo etadi. Tarbiyaning bosh maqsadi yosh avlodni ma’naviy, axloqiy tarbiyalashda xalqning boy, milliy ma’naviy an’analarga, urf-odatlari hamda qadriyatlariga asoslangan samarali tashkiliy ishlarni amalda ishlab chiqishdir. Tarbiyaning asosiy vazifasi-shaxsning aqliy-axloqiy tarbiyalashda erkin fikrlovchi va jismoniy rivojlanishi, uning qobiliyatlarini har tomonlama ochish uchun imkoniyat yaratishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qo‘ziyev Z. Sinf rahbari ishini tashkil etish va rejalashtirish. – T., I997.

2. Imomova M. Oilada bolalarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasi – T., I999.

3. Yo‘ldoshev J. O‘quvchi ma’naviyatini shakllantirish. – T., Sharq, 2000.

4. Mavlonova R., To‘rayeva O., Xoliqberdiyev K.. Pedagogika. – T., O‘qituvchi, 2002.

Mirjalol NIYOZQULOV,
Qarshi davlat universiteti "Boshlang'ich ta'lim" kafedrasi dekan o'rinbosari

BOSHLANG'ICH SINFLAR UCHUN MO'LJALLANGAN ELEKTRON TA'LIM RESURSLARIDAN FOYDALANISHDAGI METODIK YONDASHUV TAHLILI

Annotatsiya

Maqolada o'tkazilgan tadqiqotlar asosida boshlang'ich sinflarda elektron o'quv resurslaridan foydalanish o'quvchilarning yoshiga va tayyorgarligiga qarab har xil ish rejimida tashkil etilishi mumkinligi to'g'risida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar. Elektron o'quv manbalari, boshlang'ich sinflar, metodik jihatlar, pedagogik jarayon, aloqa texnologiyalari.

В статье на основе анализа исследований сформулированы что применение электронных образовательных ресурсов в начальных классах может быть организовано в различных режимах работы как в зависимости от возраста, так и по мере готовности обучающихся.

Ключевые слова. Электронные образовательные ресурсы, начальные классы, методические аспекты, педагогический процесс, коммуникационные технологии.

In the article, based on the analysis of research, it is formulated that the use of electronic educational resources in primary grades can be organized in different modes of operation, both depending on age and as students are ready.

Key words. Electronic educational resources, primary classes, methodological aspects, pedagogical process, communication technologies.

Ta'limni axborotlashtirish bo'yicha zamonaviy ilmiy-pedagogik adabiyotda elektron ta'lim resursi deganda elektron ko'rinishda taqdim qilingan o'quv-metodik materiallarning keng ro'yxati tushuniladi. Ularga quyidagilar kiradi: mashg'ulotda qo'llanadigan elektron nashri yoki elektron vositalar. Bunda: foydalanuvchi bilan aks aloqa; tahsil natijalari nazorati; o'quv faoliyatini boshqarish, o'quv muassasasini tashkiliy boshqarish ta'minlanadi. Elektron metodik qo'llanma dars o'tish tajribasi yoki ta'lim faoliyati modellarini axborot kommunikatsion texnologiyalar (AKT) vositalaridan foydalangan holda umumlashtiradi.

"Elektron o'quv qo'llanmasi – bu qisman yoki to'lig'icha darslik va rasman tasdiqdan o'tgan nashr o'rnini bosuvchi yoki to'ldiruvchi elektron nashr". Elektron testlar tahsil oluvchilar tomonidan qog'ozdagi blankalarni to'ldirishni ko'zda tutuvchi, keyinchalik ularni kompyuterda ishlash maqsad qilingan. Elektron lug'at – elektron ko'rinishda taqdim etilgan, "qog'oz" lug'atga to'laqonli mos keluvchi lug'at, biroq elektron lug'at yordamida ekranga har qanday terminni chiqarish va lug'atning kerakli fragmentini vizuallashtirish (matnli, grafik, video-, audio-, animatsion va boshqalar) mumkin. Eng yaxshi foydalaniladigan elektron darslik – o'quv masalasini qo'yganda, o'quv materialini taqdim etganda, o'quv faoliyatini, aks aloqani tashkil etishda o'qitish jarayoni didaktik siklining barcha bo'g'inlarida AKT vositalarining didaktik imkoniyatlarini ro'yobga chiqa-

rish yagona dasturi vositasida tahsil oluvchilar faoliyati ustidan nazoratni; informatsion-izlanish faoliyatini, kompyuter vizualizatsiyasi bilan modellashtirishni va keng doiradagi xizmat funksiyalarini ta'minlovchi informatsion tizim.

Elektron va raqamli ta'lim resursi tushunchalari sinonimlar sifatida qo'llanadi, negaki, birinchi vaziyatda uning elektron-hisoblash mashinasi bazasida ishlab turishiga urg'u beriladi, ikkinchi vaziyatda esa axborotni raqamlashtirish paytida dasturlashtirilgan bazada ishlab turishiga ahamiyat qaratiladi. Biz esa ancha urf bo'lgan so'z birikmasi – elektron ta'lim resursiga to'xtalamiz. Elektron ta'lim resursi ta'rifi va undan foydalanish xususiyatlariga oid adabiyotni o'rganarkanmiz, ta'lim jarayonini tashkil etish uchun uning ko'p murojaat qilinadigan qo'llanish sohalarini ajratamiz: darsga tayyorlanish, elektron lug'atlar, didaktik materiallar, interfaol ensiklopediyalar yaratish uchun o'quv adabiyotini taqdim etish; zarur axborotni, shu jumladan, audio-, video-, grafik axborotni izlashni bajarish, unga daxl qilish ochiq bo'lishini ta'minlash va axborotni turli shakllarda majmuaviy taqdim etish; o'rganilayotgan obyektlar yoki hodisalar va jarayonlarning vizuallashtirilishi; ma'lumotni mustaqil chiqarib olish va taqdim etish bo'yicha tahsil oluvchilarning rang-barang faoliyat turlarini tashkil etish; tahsil oluvchilar olgan bilimlarni nazorat qilish va tekshirish, test jarayonini avtomatlashtirish; ta'lim jarayonini idora qilish. Ba'zi bir tadqiqotchilar taqdimotlar tayyorlash va ulardan amalda foydalanish elektron ta'lim resursining yangi materialni tushuntirish, o'rganilgan mavzuni umumlashtirishda, geometrik materialni o'rganayotganda makoniy fikrlashni rivojlantirish uchun boshlang'ich sinflarda qo'llanadigan eng keng tarqalgan ko'rinishi deb hisoblaydi.

Bundan tashqari, boshlang'ich sinflar o'qituvchilari matnli, shu jumladan, didaktik materiallarni tayyorlash uchun "Microsoft Word" dasturidan, tahsilni boshqarish, tahsil natijalarini nazorat qilish va hisobga olishi jarayonlarini avtomatlashtirish elementlarini ro'yobga chiqarish, shuningdek, ta'lim faoliyati yakunlarini jamlash uchun "Microsoft Excel" dasturidan foydalanadi. Elektron ko'rinishda taqdim etilgan didaktik materiallarning ommabop komplektlari: "nazorat-baholash materiallari, turli krossvordlar, jadvallar, topshiriqlarni bajarishga oid instruksiyalar, lug'atlar, trenajyorlar, kuzatuv kundaliklari, qo'shimcha mutolaa uchun nashrlar, referatlar, ishchi daftarlar va boshqalarni" o'z ichiga oladi. Multimedia texnologiyasidan foydalanish tahlili shuni ko'rsatdiki, ta'lim jarayonida gipermedia AKTning didaktik imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga sharoit yaratadi: interfaollik, ekrandagi "voqealarni" boshqarish uchun aks aloqa, bu esa o'quv jarayonini passivdan faollikka o'tkazadi; o'rganilayotgan ob'ektlar, jarayonlarni vizuallashtirish va modellashtirish; o'qitish va ta'lim jarayonini boshqarish natijalarini nazorat qilishni avtomatlashtirish; o'quv materialini izlashni avtomatlashtirish va boshqalar.

Qayd etish joiz, o'quvchining elektron ta'lim resursi bilan individual tarzda ishlashi – qulay zaylda va mos keladigan yuklama bilan ishlashida ancha murakkab topshiriq yoki savollarga bir necha bor murojaat qilishi uchun maqbul sharoitlar yaratadi. Masalan, elektron ta'lim resursi bilan interfaol ishlash imkoniyatlarini ekranlashgan obyektlarni manipulyatsiya qilish; ekran doirasida "skrin shot" qilish (oynada holatni suratga aylantirish) yoki bir slayddan boshqasiga o'tish; "menyu" yordamida mavzu va tagmavzularni tanlash; interfaol ma'lumotlarni chorlash sifatida sharhlangan. Bu tahsil oluvchini nafaqat o'quv faoliyatiga, balki bilim beruvchi va qiziqtiruvchi faoliyatga jalb qilish imkonini beradi.

Aks aloqani muallif ekranda javoblarni taqdim etishda topshiriqlar to'g'ri bajarilganini baholash; tahsil oluvchining ta'lim trayektoriyasini tahrirlash, tuzatish; ekranli

obyektlarni yaratish va korreksiyalash hamda ularni boshqarish paytida o‘zaro muloqot qilish; o‘quv materialini o‘zlashtirishning eng maqbul izchilligini ishlab chiqish uchun ko‘rib chiqadi. Ekrandagi obyektlarni imitatsion modellashtirishni muallif ularning bir biri bilan aloqasini namoyish qilish va real texnik, ijtimoiy jarayonlarni imitatsiya qilish uchun o‘zaro munosabatga kirishish maqsadida qo‘llaydi. Zamonaviy tadqiqot ishlarida aks aloqa paytida informatsion o‘zaro muloqotga muayyan o‘rin ajratilgan: “tahsil beruvchi interfaol elektronta’lim resursi – tahsil oluvchi” informatsion muloqot paradigmasi o‘zgarishi sharoitida, qachonki uning barcha uch ishtirokchisi o‘zaro aloqa vaqtida faol bo‘la boradi. Bunday informatsion o‘zaro hamkorlik sharoitida elektron ta’lim resursidan tahsil oluvchiga borayotgan axborot “topshiriqlarni bajarish paytidagi uning xatti-harakatlariga javoban” tahsil beruvchiga o‘quv faoliyati natijasi haqida xulosa yasash imkonini beradi, bu esa bosqichma bosqich baholashni ta’minlaydi, agar zarur bo‘lsa, o‘quv faoliyati natijalarini korreksiya qiladi. Shu bilan birga elektron ta’lim resursi tasdiqlovchi, namoyish qiluvchi, o‘qituvchi, nazorat qiluvchi, konsultatsiya beruvchi funksiyani bajarish va yordam, tushuntirish, aytib turish, topshiriq bajarilishining borishi, o‘quv masalasi natijasini yoki boshqa yechish yo‘lini namoyish qilishga yo‘l beradi.

Elektron ta’lim resursini qo‘llashning metodik aspektalari tahsil oluvchilarning individual tarzda mustaqil ishlashi, masalan, elektron ensiklopediyalar, darslarni qoldirgani sabab yuzaga kelgan bo‘shliqni bartaraf etish, diqqatni, xotirani rivojlanitirish uchun ma’lumotnomalardan foydalanish chog‘ida mustaqil ishlashiga qaratilgan. Elektron ta’lim resursidan foydalanishning boshqa metodik yo‘nalishi quyidagilar hisoblanadi: o‘quvchilarning o‘z o‘zini nazorat, idora qilishi, shu jumladan, uyga vazifani bajarish uchun tahsil oluvchilar tomonidan chiqishlar, ma’ruzalar, referatlar, taqdimotlar, o‘quv loyihalari tayyorlanishi. Biroq elektron ta’lim resursidan foydalanishning afzalligidan tashqari, ba’zi-bir fikrlarga ko‘ra, “o‘quv jarayonida elektron ta’lim resursini qo‘llashning samaradorligi pasayishiga olib keluvchi sabablar ham mavjud: o‘qituvchining yetarli darajada metodik tayyorgarlik ko‘rmaganligi; qo‘llashning rejasizligi, tasodifiyligi; mashg‘ulotning demonstarsiyaga ko‘milganligi; o‘quv jarayonida elektron ta’lim resursi o‘rni va roli noto‘g‘ri aniqlanishi”. Shu sababli, umumta’lim o‘quv muassasalarida raqamli ta’lim resurslarini qo‘llashga tayyor va AKT asosida zamonaviy o‘quv materiallarini yaratishga, rivojlantirishga qodir malakali mutaxassislar yetarlicha miqdorda mavjud bo‘lishi zarur. Gipermatnli illyustratsion o‘quv modullari, lug‘atlar va ensiklopediyalar, har qanday trenajyorlar va didaktik o‘yinlar o‘quvchilarning darsda mustaqil ishlashi spektrini kengaytirish uchun mo‘ljallangan. Egallangan bilimlarni nazorat qilish uchun interfaol testlash tizimlaridan foydalaniladi.

O‘qituvchi o‘z ixtiyoricha dars uchun zarur materialni tanlab olishi, o‘quv jarayonini tashkil izchilligini belgilashiga qaramasdan, bu tufayli o‘quv jarayonini maqbullashtirish imkoniyati mavjud, mavjud elektron ta’lim resurslari o‘quv jarayoni talablariga to‘laqonli javob bermaydi. Bu shu bilan izohlanadiki, boshlang‘ich sinflarda eletkron ta’lim resursidan foydalanayotganda kichik yoshli maktab o‘quvchilarining yosh xususiyatlari bilan bog‘liq muayyan qiyinchiliklar paydo bo‘ladi. O‘qituvchi o‘quvchilarning kompyuter oldida bo‘lish vaqtining sanitar-gigiyenik me’yorlariga qat’iy amal qilishi va ularning oshib ketishiga yo‘l qo‘ymasligi zarur. O‘quvchilarning elektron topshiriqlarni bajarish tezligi turlicha ekani darsda boshqa faoliyat turlarini tashkil etishni qiyinlashtiradi. Elektron ta’lim resursini va o‘qitishning an’anaviy vositalarini qo‘llashni integratsiyalash; elektron ta’lim resursi bilan ishlashni tashkil etishning guruhli normalaridan foydalanish; darsda va darsdan tashqari vaqtda kichik yoshli maktab o‘quvchilari mustaqil o‘quv faoliyati

yuritishi uchun elektron ta'lim resursini qo'llashni tashkil etish; elektron ta'lim resursi bilan ishlashda o'quvchilarning zarur cheklovlarni tushunib yetishi va rioya qilishi vositasida ko'rsatib o'tilgan muammolarni hal etish imkoni mavjud.

Ko'rib chiqilayotgan muammoga doir adabiyot va ilmiy tadqiqot ishlari kuzatuvidan, o'quv jarayonida elektron ta'lim resursidan kompetentli foydalanish masalasi boshlang'ich sinflar o'qituvchisi uchun ancha dolzarblik kasb etadi. Imkoniyatlari va tipiga ko'ra turfa xil bo'lgan mavjud elektron ta'lim resurslarining rang-barangligi ularni o'quv jarayonida samarali qo'llash masalasini aniqlab beradi, dastlab ularni qo'llashning metodik maqsadga muvofiqligi aniqlanadi va pedagogik vazifasi ajratib ko'rsatiladi. Ushbu vazifani hal etish uchun ham ulardan foydalaniladi. Pedagogik jarayonga raqamli ta'lim resursini joriy etish ko'rgazmalilik tamoyilini ancha yuqori darajada amalga oshiradi, ijobiy motivatsiyani shakllantiradi, tahsil oluvchilarning bilim olishga ishtiyoqi va mustaqilligini rag'batlantiradi.

Shunday qilib, yuqorida bayon qilinganlarni jamlarkanmiz, xulosa quyidagicha:

1. Tadqiqotlar tahlili asosida boshlang'ich sinflarda elektron ta'lim resursining eng keng tarqalgan qo'llanish tarzlari ifodalab berildi – boshlang'ich sinflarda elektron ta'lim resursining qo'llanishi so'rov o'tkazish; suhbat, masala yechilishi borishini muhokama qilish; yangi materialni tushuntirish, ko'rgazmali namoyish qilish, topshiriqlar va mashqlarni yechish, dars yakunini jamlash; mustaqil o'quv faoliyatini yuritish (individual, juft-juft, guruhli ishlash); o'qitish natijalarini nazorat qilish, testdan o'tkazish, individual trayektoriyani tahrirlashda; proyektli ishlash paytida, muammoli masalalarni hal etish jarayonida, amaliy yoki laborator ishni bajarish chog'ida tahsil oluvchilarning ham yoshidan kelib chiqib, ham tayyorgarlik darajasiga ko'ra turli ish rejimlarida tashkil etilishi mumkin;

2. Boshlang'ich sinflar uchun elektron ta'lim resursining pedagogik-ergonomik sifatini ishlab turishining texnologik ishonchliligi; informatsion o'zaro ma'lumot almashinuvining interfaolligi; davlat ta'lim standarti mazmuniga mosligi; ekranda namoyish qilingan o'rganilayotgn obyektlar yoki jarayonlarning vizuallashtirilishi; o'qitish natijalarini nazorat qilishning avtomatlashtirilishini aniqlash predmetiga ekspertizadan o'tkazish zarurligi haqidagi xulosalarga kelindi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бакланова, Г.А. Формирование готовности будущего учителя начальных классов к использованию цифровых образовательных ресурсов: дис. ... канд. пед. наук: 13.00.08 / Бакланова Галина Александрона. – Барнаул, 2013. –С. 229.

2. Босова, Л.Л. Развитие методической системы обучения информатике и информационным технологиям младших школьников: дис. ... д-ра пед. наук : 13.00.02 / Босова Людмила Леониловна. – М., 2010. –С. 351.

3. Лапёнок, М.В. Научно-педагогические основания создания и использования электронных образовательных ресурсов информационной среды дистанционного обучения : автореф. дис. ... д-ра пед. наук : 13.00.02 / Лапёнок Марина Вадимовна. – М., 2014. –С.43.

4. Насс, О.В. Теоретико-методические основания формирования компетентности преподавателей в области создания электронных образовательных ресурсов (на базе адаптивных инструментальных комплексов): автореф. дис. ... доктора педагогических наук: 13.00.02 / Насс Оксана Викторовна. - М., 2013. –С. 42.

Asadulloh SOATOV,
Qashqadaryo viloyati XTXQTUMOSHM
“Pedagogika, psixologiya va ta’lim menejmenti” kafedrasi katta o’qituvchisi

“MOJOR” SISTEMASINI IKKI SOATLIK DARS MASHG‘ULOTIDA QO‘LLASH TEXNOLOGIYASI

Annotatsiya

Maqolada “Mojor” sistemasini ikki soatlik dars mashg‘ulotida qo‘llash bosqichlari va texnologiyani ilmiy-amaliy ahamiyati yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar. Mojor, xotira, sistema, texnologiya, metod, axborot, ko’nikma.

В статье описаны этапы применения системы “Мажор” на двухчасовом занятии и научная значимость технологии.

Ключевые слова. Мажор, память, система, технология, метод, информация, умение.

The article describes the stages of applying the “Major” system in a two-hour lesson and the scientific significance of the technology.

Key words. Major, memory, system, technology, method, information, skill.

Metod haqida. “Mojor” sistemasi ta’limda samarali qo‘llash mumkin bo‘lgan murakkab metodlardan biri bo‘lib, ushbu metodni qo‘llash jarayonida bajaruvchining barcha psixik jarayonlari (diqqat, sezgi, idrok, xotira, tafakkur, xayol, nutq) faol qatnashadi. Metodni darsda qo‘llash uchun o‘rtacha 40 daqiqadan 60 daqiqagacha vaqt sarflanishi mumkin. Qancha vaqt sarflanishi asosan darsning to‘g‘ri tashkil qilinishi va talabalarning faolligiga bog‘liq.

Metodni tarqatmali material shaklida yoki axborot texnologiyalaridan foydalangan holda qo‘llash mumkin. Metodni qo‘llash jarayonidagi o‘ziga xoslik shundaki, boshqa metodlarni o‘qituvchi talaba va tinglovchilarga topshiriq bergan holda individual yoki guruhiy shaklda qo‘llaydi. Ular topshiriqni berilgan yo‘riqnomaga rioya qilgan holda bajarishadi. Faolligi va natijasiga ko‘ra baholanadi yoki taqdirlanishadi.

Mojor sistemasini esa murakkab metod bo‘lganligi sabab dastlab o‘qituvchi o‘zida qo‘llab ko‘rsatishi kerak. Bu jarayonda talabalar berilgan vaqt davomida metod bilan tanishib chiqishadi va uning ahamiyati haqida ma’lumotga ega bo‘lishadi. Metod samarali qo‘llanishi uchun o‘qituvchi tomonidan to‘liq va puxta o‘zlashtirilishi kerak. Metodni to‘rt bosqichga bo‘lib darsda qo‘llash maqsadga muvofiq.

Birinchi bosqich. Birinchi bosqichda o‘qituvchi talabalarga xotira tushunchasi, uning ahamiyati va imkoniyatlari haqida ma’lumot berib o‘tadi va talabalardan qanday ma’lumotlarni xotirada saqlab qolish qiyinligini so‘raydi. Talabalar shaxsiy tajriba va kuzatuvlariga asoslangan holda saqlab qolish qiyin bo‘lgan omillarni sanashadi. Bunday payda xotirada eng saqlab qolinishi qiyin bo‘lgan omillar sifatida raqamlar ko‘proq tilga olinadi.

Shunda o‘qituvchi ko‘pchilikka eslab qolishda qiyinchilik tug‘dirishi mumkin bo‘lgan raqamlarni xotirada mustahkam saqlab qolishga xizmat qiluvchi murakkab metodni darsda qo‘llamoqchi ekanligini aytadi. Bu albatta, ko‘pchilik talabalarda qiziqish uyg‘otadi. Chunki talabalar bilim olish jarayonida raqamlarni esda saqlab qolish bilan bog‘liq

muammolarga ko‘p bora to‘qnash kelishadi. Shu bois ma’no ifodalamaydigan ko‘pxonali sonlarni qo‘llanilishi kutilayotgan metod orqali qiyinchiliksiz eslab qolish mumkinligini bilgan talabalarda uni bilishga bo‘lgan ishtiyoq yanada ortadi.

Metodni qo‘llash uchun o‘qituvchi tomonidan xohishiga ko‘ra ixtiyoriy ikkita talaba ekspert qilib tanlab olinadi. Ekspert talabalar oldingi qatordagi partaga birga o‘tirshi kerak. O‘qituvchi ularga mojor sistemasiga kiritilgan yuzta ikki xonali sonlarning har biriga bittadan berkitilgan yuzta so‘z tushirilgan varaqni beradi. Varaqda avval har bir o‘nlik sistema uchun tanlangan undosh tovushlar qanday o‘xshashligiga ko‘ra tanlangani jadval shaklida ko‘rsatib o‘tilgan.

Ekspertlar raqamlarga berkitilgan so‘zlarni ko‘zdan kechirib chiqishadi. O‘qituvchi esa qolgan talabalarga ikki xonali raqamlarni ixtiyoriy ravishda aralashtirib aytishlarini o‘zi esa aytilgan raqamga berkitilgan so‘zlarni yoddan aytib berishini aytadi.

Shu yerda ekspertlarning vazifasi namunadagi qog‘ozga qarab talabalar aralashtirib aytayotgan ikki xonali sonlarga berkitilgan so‘zlarni o‘qituvchining yoddan to‘g‘ri aytayotganligini kuzatib, tekshirib borish. Masalan, B ismli talaba 11 desa, o‘qituvchi “terak”, S ismli talaba 35 desa o‘qituvchi zanjir, D ismli talaba 64 desa o‘qituvchi bakalavr deyishi kerak. Chunki namunadagi qog‘ozda 11 soniga terak, 35 soniga zanjir, 64 soniga esa bakalavr so‘zi berkitilgan. Ekspertlar talabalar tomonidan to‘xtovsiz aralashtirib aytilayotgan ikki xonali sonlarni o‘qituvchi eshitgan zahoti yotdan to‘g‘ri aytayotganligini tekshirib borishi kerak. Ekspertlar bu paytda talabalar tomonida ketma-ketlik bilan to‘xtovsiz aytilayotgan so‘zlarni o‘qituvchining qaysi sonlarga berkitilganini to‘g‘ri aytsa to‘g‘riligini tasdiqlashi, noto‘g‘ri aytsa to‘g‘ri so‘zni aytishi yoki eslolmay qolsa eslatib yuborishi lozim bo‘ladi.

Shundan so‘ng o‘qituvchi talabalardan metoddagi sonlar bilan unga berkitilgan so‘zlar o‘rtasida qanday bog‘liqlik borligini so‘raydi. Ekspertlar esa qo‘llarida tayyor namuna bo‘lganligi bois jarayonni faqatgina kuzatib turishlari kerak. Metoddagi uchta mantiqning ikkitasini talabalar og‘zaki savol-javob orqali topishlari kerak. Uchinchi mantiqni esa o‘qituvchining o‘zi tushuntirishi kerak.

Birinchi mantiq yuzta ikki xonali sonlar ikkinchi jadvalda keltirilganidek o‘nta o‘nlik sistemadan iborat ekanligi, o‘nta o‘nlik sistemaning har biriga bittadan jami o‘nta undosh tovush berkitilgani va har o‘nlik sistemadagi so‘zlarning bosh harfi o‘ziga berkitilgan bitta undosh tovush yoki harfdan boshlanayotganidir. Masalan, 00 dan 09 gacha bo‘lgan ikki xonali sonlarga berkitilgan tushunchalarning bosh harfi faqat S harfidan boshlanadi. Chunki ushbu o‘nlik sistemaga S undosh tovushi berkitilgan. 10 dan 19 gacha bo‘lgan o‘nlik sistemadagi ikki xonali sonlarga berkitilgan tushunchalarning bosh harfi esa T harfidan, 20 dan 29 gacha bo‘lgan o‘nlik sistemadagi ikki xonali sonlarga berkitilgan tushunchalarning bosh harfi esa N harfidan va va hokazo. Shu tariqa barcha o‘nlik sistemadagi sonlarga berkitilgan so‘zlarning bosh harfi faqat bitta undosh tovushdan boshlanayotganligini qaysidir sinchkov talaba payqaydi va ushbu mantiqni aytadi.

Ikkinchi mantiq ikki xonali sonlar bilan unga berkitilgan so‘zlar o‘rtasida mantiqiy bog‘liqlik ya’ni, ma’no yoki o‘xshashlik borligidir. Masalan, metodda 04 soniga stul so‘zi (to‘rtta oyog‘i borligi uchun), 12 soniga titanik so‘zi (1912-yilda suvga g‘arq bo‘lganligi uchun), 63 soniga bobo so‘zi (63 yosh payg‘ambar yoshi bo‘lganligi uchun), 77 soniga kamalak (kamalakda 7 xil rang borligi uchun) so‘zlari berkitilgan. Talabalar og‘zaki savol-javob shaklida ana shu sonlar va so‘zlar o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liqlikni topishlari kerak. Chunki mojor sistemasidagi ikki xonali sonlarga berkitilgan so‘zlarning aksariyati o‘zining ma’nosiga ko‘ra sonlarga o‘xshash yoki mantiqan bog‘langan.

Uchunchi mantiq har o‘nlik sistemaga berkitilgan undosh tovushlar o‘ziga biriktirilgan harfga shaklan o‘xshashligidir.

Shu tariqa talabalarda metod haqida dastlabki tushucha hosil bo‘lganidan keyin o‘qituvchi mojor sistemasining elektron shaklini slayd yoki monitordan ko‘rsatadi. Talabalarning barchasi monitorda ko‘rinib turgan metodning to‘liq shakliga qarab uning mazmunini yanada aniqroq tushunish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Metodning to‘liq shaklini talabalar uning ikki xil mantig‘ini fikrlab topganlaridan keyingina slayd yoki monitor orqali ko‘rsatgan ma’qulroq. Chunki metod boshida ko‘rsatilsa talabalar tayyor ishlab chiqilgan sistemani ko‘rishadi. Natijada fikrlashi, izlanishlariga hojat qolmaydi va metodning mantig‘ini yetarlicha tushuna olishmaydi.

Ikkinchi bosqich. Shundan keyin o‘qituvchi metodni qo‘llashni boshlaydi. Buning uchun talabalar ixtiyoriy ravishda ikki xonali sonlarni xotirasiga kelganini og‘zaki shaklda aytishlari o‘qituvchi esa doskaga sonlarni yozib ketaverishi kerak bo‘ladi. Bunda o‘qituvchi nechta ikki xonali sonlarni metodga bog‘lab eslab qololsa shuncha ikki xonali sonlarni talabalar tomonidan aytilgunicha doskaga yozib borishi kerak. Ish faoliyatimda men ko‘proq dars jarayonida yettitagacha bo‘lgan ikki xonali sonlarni yozib metodga bog‘lab belgilangan vaqtdan keyin yoddan aytib beraman. Metodni qo‘llayotgan o‘qituvchi ham o‘z imkoniyatini hisobga olgan holda ikki xonali sonlarni yozishi kerak. Shundagina belgilangan vaqtdan keyin sistemaga solib chiqilgan ikki xonali sonlarni qiynalmasdan aytib bera oladi. Agar o‘qituvchi oltita ikki xonali sonlarni sistemaga joylab eslab qololsa oltinchi ikki xonali son aytilgandan keyin sonlarni yozishni to‘xtashishi kerak. Masalan, A ismli talaba 26, N ismli talaba 93, G ismli talaba 47, S ismli talaba 78, B ismli talaba 40, K ismli talaba 84 deganida talabalarni to‘xtatishi kerak va matematik tahlilga tayangan holda doskada nechchi soni yozilganini so‘rashi kerak. Talabalar hosil bo‘lgan sonlarni to‘lig‘icha og‘zaki aytishlari kerak. Natijada, 269 milliard 347 million 784 ming 084 soni hosil bo‘ladi.

O‘qituvchi hosil bo‘lgan ikki xonali sonlarning tagiga sistemadagi unga berkitilgan so‘zlarni vertikal shaklda yozadi va hosil bo‘lgan oltita so‘zdan noodatiy voqeani tuzish kerakligini aytadi. Chunki to‘g‘ridan-to‘g‘ri eslab qolish qiyin bo‘lganligi uchun uni sistemaga solib oltita ikki xonali sonlar ketma-ketligida noodatiy voqea tuzish orqali osonlik bilan eslab qolish mumkinligini qo‘llab ko‘rsatishi kerak. Voqeani qanday tuzish kerakligini yuqorida keltirib o‘tgan edik. Faqat o‘qituvchi ikki xonali sonlardan iborat bo‘lgan voqea noodatiy tarzda tuzilishi kerakligini alohida ta’kidlashi zarur.

Ilmiy jihatdan olganda xotiramizda minglab odatiy voqealar mavjudligi uchun voqealarni odatiy holda tuzishimiz xotiramizdagi unga o‘xshashi mumkin bo‘lgan ko‘plab shunday voqealarga chalg‘ib asosiy voqeani eslashga qiynalib qolishimizga sabab bo‘ladi. Noodatiy voqealar esa hayotda juda kam uchraydi. Mantiqsiz, g‘alati yoki fantastik hodisalarni o‘zida aks ettirgan bunday noodatiy voqealar xotiramizda alohida saqlanadi hamda eslash kerak bo‘lgan paytda qiyinchiliksiz xotirada tiklanadi.

Uchinchi bosqich. Keyingi bosqichda o‘qituvchi talabalarga doskada yozilgan sonlarni sistemaga solgan holda eslab qolish uchun tuzilishi lozim bo‘lgan noodatiy voqeani kim tuzishi kerakligini taklif qiladi. O‘qituvchi tuzadimi, talabalar bilan birgalikda tuzadimi yoki talabalarning o‘zi tuzadimi kelishib qaror qabul qilishi kerak bo‘ladi. Bunday paytda noodatiy voqeani o‘qituvchi va talabalar birgalikda tuzgani ma’qulroq.

Noodatiy voqea tuzib bo‘lingandan keyin talabalar doskada yozilgan sonlar va so‘zlarni daftarlariga yozib olishlari kerak. O‘qituvchi esa yozib olingan sonlar va so‘zlarni doskadan o‘chirib talabalardan qancha vaqtdan keyin sistemaga solib saqlab

qolingan sonlarni (269347784084) so‘rashligini aytadi. Darsning boshlanishidan to shu qismgacha o‘rtacha 30 daqiqa vaqt sarflanishi mumkin. Talabalar esa qolgan 50 daqiqaning xoxlagan paytida o‘rganilgan sonlarni o‘qituvchidan so‘rashi mumkin. Masalan, talabalar 40 daqiqadan so‘ng so‘raymiz deyishdi. Demak dars yakunlanishiga o‘n daqiqa qolganida o‘qituvchi sonlarni yoddan aytib berishi kerak bo‘ladi.

Bungacha esa o‘qituvchi talabalarga xotira va uning imkoniyatlari haqida ma’lumotlar berishi, xotiraga oid qiziqarli kichik mnemonik usullarni ham qo‘llab ko‘rsatishi maqsadga muvofiq.

To‘rtinchi bosqich. So‘ngi bosqichda o‘qituvchi belgilangan vaqt yetib kelganida avval noodatiy voqealarni eslash orqali so‘zlarni, unda qatnashgan so‘zlar orqali sonlarni eslab og‘zaki aytadi yoki doskaga yozib ko‘rsatadi. Shu bilan murakkab metodni qo‘llash jarayoni yakuniga yetadi. Talabalar darsdan olgan ta’surotlari haqida fikr-mulohazalarini bildirishadi. O‘qituvchi barcha bildirilgan fikr-mulohazalarni xulosalagan holda darsni yakunlaydi.

Xulosa qilib aytganda, informatsiyalar ko‘lami nihoyatda kengayib borayotgan bugungi axborot asrida kompetentli pedagogning kasbiy faoliyat jarayonida xotira imkoniyatlariga oid ilmiy bilimlardan xabardor bo‘lishi o‘quvchi va talabalarda fanga oid kerakli ma’lumotlarni saralab olish va ularni oqilona yo‘l bilan xotirada saqlab qolish ko‘nikmasini shakllantirishga xizmat qiladi. O‘quvchi va talabalarning xotira imkoniyatlariga oid bunday ko‘nikmalarga ega bo‘lishi ta’lim sifatini oshirish bilan birgalikda kelajakda shug‘ullanishlari mumkin bo‘lgan kasbiy faoliyat jarayonida ham foyda beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ivanov P.I., Zufarova M.Y. Umumiy psixologiya. –T.: O‘zbek faylasuflari milliy jamiyati. 2015. –126-b.

2. Soatov A.J. Bo‘lajak pedagog-psixologlarda psixologik maslahat berish ko‘nikmalarini shakllantirish texnologiyasi. O‘quv-qo‘llanma. –T.: Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi. 2020. –97, 103-b.

3. Soatov A.J. Pedagogik kasbiy faoliyatda xotiraga xos mnemonik usullardan samarali foydalanish omillari. Ta’lim fan va innovatsiya jurnali 1 son. 2020. –100-b.

4. G‘oziyev E.G‘. Umumiy psixologiya. –T.: O‘zbek faylasuflari milliy jamiyati. 2010. –316-b.

Usmon NAZIROV,
Qarshi davlat universiteti "Maktabgacha ta'lim" o'qituvchisi

O'QUVCHILARNI INTELLEKTUAL QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH YO'LLARI VA USULLARI

Annotatsiya

Maqolada o'quvchilarni intellektual qobiliyatini rivojlantirishda axborot texnologiyalaridan foydalanish yo'llari ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar. Intellektual qobiliyat, milliy dastur, axborot texnologiyalari, ta'lim, test, statistik model.

В статье показаны пути использования информационных технологий в развитии познавательных способностей студентов.

Ключевые слова. Интеллектуальные способности, национальная программа, информационные технологии, образование, тестирование, статистическая модель.

The article shows the ways of using information technology in the development of students' cognitive abilities.

Key words. Intellectual abilities, national program, information technology, education, testing, statistical model.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishishi bilan hayotimizning barcha jabhalarida chuqur o'zgarishlar sodir bo'la boshladi. Bu o'zgarishlar butun ta'lim sohasini qayta qurishni maqsad, vazifa, ta'lim muassasalarining faoliyati mazmunini o'zgartirishni talab etdi. Milliy kadrlarni tayyorlash bo'yicha davlatimiz olib borayotgan islohotlarni amalga oshirish uchun jamiyat barqarorligi va davlat xavfsizligi talab etiladi.

Birinchi yondashuv doirasida intellktual rivojlanishdagi tafovut intellekt rivojlanishining umumiy modeli bilan bog'liq. Ko'pincha bu tafovutlar "umumiy aqliy qobiliyat" tushunchasi bilan sharhlanadi. "Insonning bilish qobiliyati" kitobi muallifi D.B. Kerrolln-ing ta'kidlashicha, qobiliyatni o'rganishdagi asosiy muammo, qobiliyatning rivojlanish darajasini ko'rsatuvchi psixologik sifatlarni aniqlashdan iboratdir.

Tabiiyki test tizimlarini yaratish va ulardan olingan natijalarni sharhlash ham intellekt rivojining u yoki bu konsepsiyasiga asoslanadi. Bu yo'nalishda birinchi qadam L.Termen modifikatsiyalarida keng tarqalgan Bine testi hisoblanadi. Intellekt rivojida individual farqlanish uning miqdori bilan aniqlanadi va u IQ bilan o'lchanadi. IQ da farqlanish o'quvchilarni aqliy qoloqlikdan toki aqliy ista'dodlilikkacha bo'lgan intellektual qobiliyatlarini farqlash imkonini beradi. Bu farqlanishlarga mos tavishda hozirgi kunda o'quvchilar bilan ishovchi, va turli aqliy qobiliyat darajalariga mos keladigan ta'lim dasturlari va tizimlari ishlab chiqilmoqda.

D. Veksler intellekt rivojida jiddiy burilish yasagan. U intellektni strukturali ta'lim sifatida qaragan. D. Veksler intellektni markazlashgan holda faoliyat ko'rsatish, ratsional fikrlash va atrof-muhit voqyeligi bilan effektiv aloqa qilish qobiliyati sifatida tushungan.

Intellektni bunday umumiy ta'riflashda D. Veksler aqliy qobiliyatni verbal va noverbal (tasavvur qilish qobiliyati) turlarga bo'lgan va har bir o'quvchida u yoki bu qobiliyatlar guruhi baland turishini ko'rsatgan. 1949-yil o'quvchilarning aqliy rivojlanishlarini aniqlash uchun verbal va noverbal shkalali testlar nashr qilingan.

Verbal shkalada quyidagi testlar mavjud bo'lgan:

◄ informatsiya (o'quvchining atrof-muhit voqeligi haqidagi bilimi),

◄ zehinlilik (bilimlarni qabul qilish va tashkil etish),

◄ o'xshashlik (obyektlarni bir necha prinsplari bo'yicha o'xshashligini aniqlash),

◄ arifmetika (arifmetik amallarni o'zlashtirish darajasi, shuningdek, diqqatni jamlash va qisqa muddatli xotira rivoji darajasi),

◄ lug'at (so'zlarni aniqlash),

◄ sonli qatorlar (qisqa muddatli xotira va diqqat rivojini aniqlash uchun sonli qatorlarni takrorlash),

◄ gap (gapni takrorlash – qisqa muddatli xotira va diqqatni rivojlantirish).

Noverbal shkalada esa masalalar qo'yilgan:

◄ rasmni to'ldirish (rasmni yetishmaydigan qismini to'ldirish),

◄ rasmlar ketma-ketligi (aniqlangan syujetga mos rasmni topish),

◄ qirqilgan rasmlar (rasm qismlaridan uni to'la holga keltirish),

◄ kodlash (berilgan koddan foydalanish),

◄ labirintlar (labirintdan yo'lni topish),

◄ geometrik shakllar (geometrik shakllarni ko'chirish),

◄ hayvonlar uchun qoziqlar (rangli silindrlar yordamida hayvonlar rasmlari ketma-ketligini kodlash),

◄ simvolni izlash (simvollar orasidan talab etilganini topish).

Intellektual qobiliyat rivojining eng differensiallashgan (tabaqalarga ajratilgan) modelini Dj. Gilford ishlab chiqqan. U aqliy qobiliyatni amallar birligi sifatida qaragan. Uning modelida intellektni quyidagilarga ajratilgan:

1. Beshta turli amallar (operatsiya):

◄ dunyoni anglash – axborotni topish va tushunish;

◄ xotira – axborotni saqlab turish va tasvirlash;

◄ divergent produksiyalash – axborotni umumlashtirish orqali yechimning turli variantlarini ishlab chiqish;

◄ baholash – yechimning qanoatlantiruvchanligini aniqlash;

2. To'rt turdagi mazmun (soderjaniya):

◄ obrazli – axborot obrazlar ko'rinishida taqdim etiladi;

◄ simvolli – axborot shartli belgilar ko'rinishida beriladi;

◄ semantik – axborot so'zlar orqali beriladi;

◄ povedenik (xulq-atvorli) – asosan, noverbal axborotning insonlar bilan o'zaro aloqasi.

3. Olti ko'rinishdagi mahsulot (produkt):

◄ o'lchov – axborotning alohida o'lchovi;

◄ sinflar – o'lchovlarni ularning umumiy xususiyatlari bo'yicha birlashtirish;

◄ aloqa – sinflar va o'lchovlar aro aloqa prinsiplari;

◄ tizimlar – sinflar, o'lchovlar va aloqalarni tashkiliy va strukturali birlashtirish;

◄ trasformatsiya – mavjud axborotni modifikatsiyalash (tuslash);

◄ implikatsiya – axborotni ekstrapolyatsiyalash.

Ushbu strukturalashgan modelga muvofiq intellektning 120 aqliy qobiliyat variant-

larini ajratish va ularni uch turga: aniq, abstrakt va ijtimoiy guruhlash mumkin. Shunday qilib bu model o‘quvchilarni ularning intellektual rivojlanish xususiyatlari bo‘yicha guruhlarga ajratish imkonini beradi.

Hozirgi kunda 120 xil turli qobiliyat borligiga shubhalar bildirilmoqda. Lekin Dj. Gilford modeli: bir tomondan umumiy aqliy rivojlanishda o‘quvchilarning alohida qobiliyatlari rivojlanishi va ular bilan mavjud ta’lim ishlarini tashkil etish uchun, boshqa tomondan konvergant va divergent qobiliyatlarni ajratish uchun ta’kidlanadi.

Ushbu model asosida bajarilgan tadqiqot ishlari o‘quvchilarda konvergent va divergent qobiliyatlar rivojlanishi mos kelmasligini ko‘rsatdi va bu ikki qobiliyat turlarini aniqlash uchun boshqa diagnostik tizimlardan foydalanish kerakligi ma’lum bo‘ladi.

Sal keyinroq R. Kettell intellektni ikki turga ajratdi, bular:

1. Flyuid.
2. Kristallashgan.

Flyuid intellekning rivojlanish darajasi genetik aniqlanadi va aynan u intellektual qobiliyatning yuqori chegaralarini aniqlaydi. Kristallashgan intellekt rivoji atrof-muhit ta’sirlariga va o‘quvchini o‘qitish xususiyatlariga asoslanadi. R. Kettell intellektning bu ikki turini turli o‘quvchilarda turli bo‘lishini ko‘rsatib bergan. “Sonli qatorlar” va “Arifmetika” subtestlari flyuid intellektni, “Axborot” va “Lug‘at” subtestlari esa kristallashgan intellektni xarakteristikalash uchun ishlatilgan.

Shunday qilib, bu guruhda o‘quvchining aqliy rivojida individual tafovut xarakteristikani o‘rganish strukturalashgan komponentlar ifodasi orqali amalga oshiriladi.

Psixologik tadqiqotning statistik dizaynini qurish prinsiplarini ishlab chiqish va undan foydalanish ushbu yondashuvning eng katta yutug‘i hisoblanadi.

Ushbu yondashuvda mavjud bo‘lgan test tizimlari nazariy va amaliy psixologiyada keng tarqaldi. Bu yondashuv ustida ishlovchi psixologlar o‘quvchilarga qo‘yiladigan masalalar ichidan aniq bilimlardan foydalanish imkoniyati bo‘lganlarini olib tashlashga intilishmoqda, ya’ni ular o‘quvchining haqiqiy intellektual imkoniyatlarini (uning aniq imkoniyatidan tashqari) aniqlash maqsadini ilgari surishmoqda.

Bu kabi intilish (tamoyil) larni amalga oshirish jiddiy kelishmovchilikka olib keldi: bir tomondan o‘quvchining intellektual qobiliyati “sof holda” aniqlandi, boshqa tomondan bu qobiliyatlar o‘quvchi intellektining paydo bo‘lishida, ayniqsa o‘quv jarayonida qanday munosabatda bo‘lishi umuman tushunarsizligicha qoldi. Bunday kelishmovchiliklarga ikkinchi yondashuv asosida sezilarli darajada barham berildi.

Ikkinchi yondashuvni o‘quvchi intellktual rivojida tafovutni tahlil qilishda psixo-ta’lim sifatida tavsiflash mumkin. Bu yondashuvda o‘quvchining aqliy rivojlanishini ta’lim kontekstida ko‘rib o‘tiladi.

Bir tomondan, maxsus ishlab chiqiladigan testlar yordamida o‘quvchilarni ta’lim, ayniqsa matematika va o‘qishning turli sohalariga erishishlari tahlil qilinadi. Ushbu testlardan olingan natija asosida o‘quvchilar bilan ularning turli bilim sohalaridagi harakatlariga qarab individual ishlash rejalashtiriladi. Boshqa tomondan o‘quvchilar aqliy qobiliyatining rivojlanish xususiyatlari ularning ta’lim sohalaridagi yutuqlari bilan, ularning akademik muvaffaqiyatlari bilan muhokama qilinadi.

Bunday holda pedagoglar oldida o‘quvchilar bilan ularning aqliy qobiliyatlari rivojlanishi xususiyatlaridan kelib chiqib individual ishlash strategiyasi ma’lum bo‘ladi.

Demak, “tadrijiy” o‘quvchilar uchun axborotni kichik bo‘laklarga ajratib qayta ishlashni tashkil etish maqsadga muvofiq. Bunday o‘quvchilar harflar va so‘zlar guruhini yodlashga, yongi yozuvni o‘zlashtirishga, tafsilotlarni yodlashga, grammatika qoidalarini

o‘zlashtirishga, ketma-ket yo‘riqnoma (instruksiya) larni bajarish kabi ishlarga qobiliyatli bo‘lishadi. Lekin ular o‘qilgan, ishlatilagan aniq materiallar, sxemalar, xarita va boshqalarning ma’nosini “anglash”da qiyinchilikka duch kelishadi. Shunday qilib, bunday o‘quvchilar bilan ishlashda pedagoglarga axborotni ma’lum qismlarga ajratgan holda taqdim etishni tashkil etish tavsiya etiladi. Bu ularni o‘qiganlarini gapirish; tanishgan materiallarini va boshqa narsalarni qayta tahlil qilishlari imkonini beradi.

“Simultan” o‘quvchilar uchun ayni bir vaqtda keluvchi axborot qismlarini sintezlash va birlashtirish tavsiya etiladi. Bunday o‘quvchilar harflarni tez farqlashadi; rasm mazmunini oson tushunishadi; matematik yoki ilmiy prinsiplarni o‘zlashtirishadi. Shu bilan birgalikda ularga mantiqiy instruksiyalarni, o‘yinlar qoidalarini tushunish, detallar tavsifini bilish va yodlash qiyin bo‘ladi. “Simultan” o‘quvchilar bilan ishlaganda ularga muammo yoki savolning to‘liq tavsilotini berish kerak. Ularga yod olinishi kerak bo‘lgan axborotni vizuallashtirishga (tasvirlashga) ruxsat berish, belgili va ko‘rgazmali materiallar bilan ishlashlariga imkon berish tavsiya etiladi.

Uchinchi yondashuvda aqliy rivojlanishda individual xususiyatlarni aniqlash tamoyillari batafsil ko‘rib chiqiladi. Bu yondashuvda kognitiv usullarni tahlil qilinadi.

G. Uitkin va J. Kaganlarning kognitiv usullari klassifikatsiyalari (tasnifi) keng tarqalgan. G. Uitkin qabul qilinadigan axborotni tashkil etish va anglashdagi farqlar asosida ikki: jinsga bog‘liq va jinsga bog‘liq bo‘lmagan kognitiv usullarni ta’kidlagan. Jinsga bog‘liq bo‘lmagan subyektlar uchun atrof-muhit voqea-hodisalarini qayta strukturalash va sharhlash xosdir. Jinsga bog‘liq subyektlar, aksincha, vaziyatni boricha qabul qilishlari bilan xarakterlanadi.

G. Uitkinning ta’kidlashicha, kognitiv usullar inson hayoti davomida yetarlicha turg‘un xarakteristika hisoblanadi va akademik saviyani hamda ijtimoiy xulq-atvorni aniqlaydi. U yoki bu usulni ustun ko‘rish tarbiya bilan bog‘liqdir.

Shunday qilib, o‘quvchining intellektual rivojlanishida individual tafovutni tahlil qiluvchi asosiy yondashuvlar uch muhim muammo yuzasidan guruhlarga ajratiladi. Bulardan birinchisi – intellektual qobiliyat strukturasi va rivojlanishda bu strukturadagi u yoki bu komponentning ustunligi. Ikkinchi muammo turli usullarni qo‘llash nuqtayi nazaridan olganda kognitiv strukturani aytish mumkin (turli kognitiv usullarning mavjudligi). Va nihoyat, uchinchisi bu – o‘quvchining aqliy rivojlanishi sharoitlarini tashkil etishda individual yechimlarni aniqlash va ularni aniq bir ta’lim jarayonlarida ta’minlash.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar (O‘quv-qo‘llanmasi). –Qarshi. Nasaf nashriyoti, 2000.

2. Yuldashev U.Y. va boshq. Informatika kasb-hunar kollejlari uchun darslik (mualliflar :Yuldashev U.Y., Bokiyev R.R., Zokirova F.M.) –T, G‘. G‘ulom nomidagi nashriyot–matbaa ijodiy uyi, 2000.

3. Sattarov A. Informatika va axborot texnologiyalari –T.: O‘qituvchi, 2002.

4. Abduqodirov A.A. va boshqalar Axborot texnologiyalari: Akademik litsey va kasb-hunar kollejlar uchun darslik. Abduqodirov A.A., Xayitov A.Y., Shodiyev R.R. –T.: O‘qituvchi, 2002.

Dilnoza BEKMURADOVA,
Qashqadaryo viloyati XTXQTMOHM o'qituvchisi

TA'LIM-TARBIYA JARAYONINI TASHKIL ETISHDA MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI RAHBARINING O'RNI

Annotatsiya

Maqolada ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining o'rni nazariy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar. Temperament, pedagogik faoliyat, xulq tarbiyasi, mahorat, tajriba.

В статье дано теоретическое обоснование роли руководителя дошкольной организации в организации образовательного процесса.

Ключевые слова. Темперамент, педагогическая деятельность, нравственное воспитание, умения, опыт.

The article provides a theoretical basis for the role of the head of the preschool organization in the organization of the educational process.

Key words. Temperament, pedagogical activity, moral education, skills, experience.

Hozirgi kunda Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlarning taqdiri yosh rahbarlarning ma'naviy qiyofasiga, shaxsiy barkamolligiga bog'liq. Bu vazifalarni amalga oshirish insoniy o'zaro munosabatlarda demokratik tamoyillarni ongga to'la singdirishni taqozo etadi. Insonlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar Sharqda o'ziga xos va har bir millat psixologiyasiga mos holda shakllantirishdir.

Boshqaruv faoliyatida ta'lim-tarbiya samaradorligi MTT rahbarining muayyan shaxsiy sifatlari bilan amalga oshadi. Ta'lim-tarbiya samaradorligini ta'minlash esa har bir rahbardan pedagogik mahoratni talab etadi. Pedagogik mahorat yuksak darajada pedagogik faoliyatning taraqqiy etishini, pedagogik texnikani egallashni, shuningdek, pedagog shaxsi, uning tajribasi, fuqarolik va kasbiy mavqeini ifodalaydi.

MTT rahbari vazifasini bajaruvchi har bir shaxs o'zaro munosabat va muomala, intizom, madaniy xulq tarbiyasini jamiyat talablari darajasigacha rivojlantirishga faol harakat qiladi. Bu esa shaxsning o'z intizomi, muomala madaniyati, xulq ko'nikmasi ustida doimiy ravishda ishlashga olib keladi. MTT rahbarining pedagog mahorati uning faoliyatida ko'rinadi. MTT rahbari, avvalo, pedagogik jarayonning qonuniyat va mexanizmlarini yaxshi egallagan bo'lishi lozim. Shu ma'noda rahbarning umumlashgan malakalari uning pedagogik texnikasi katta ahamiyatga molik bo'ladi. Har qanday faoliyat odamlarning bir-birlari bilan til topishishni, bir-birlariga turli xil ma'lumotlar uzatishni, fikrlar almashinuvi kabi murakkab hamkorlikni talab kiladi. Shuning uchun ham har bir shaxsning jamiyatda tutgan o'rni, ishlarining muvaffaqiyati, obro'si uning muloqotga kirish qobiliyati bilan bevosita bog'liq.

Har bir rahbar o'z kasbining bilimdoni bo'lish uchun nafaqat pedagogikani, balki shaxslarning ruhiy holati va kechinmalarini, muloqotning ruhiy ta'siri va munosabat-

larning psixologik tomonlarini ham yaxshi bilishi kerak bo‘ladi. Bu esa har bir pedagog xodimdan psixologiya ilmining sir-asrorlaridan xabardor bo‘lish va shu asosda qonuniy xatti-harakatlarni amalga oshirishni taqozo etadi. Shuning uchun ham bu haqida O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov: “Psixologiya fani biz uchun eng zarur sohalardan biri. Psixologiyani o‘rganish – hayotni, insonni o‘rganish degani. Kerak bo‘lsa, rahbarlik qilmoqchi ekansiz, yetakchi bo‘lib, odamlarga ko‘rsatma bermoqchi ekansiz, oldin ularning psixologiyasini har tomonlama o‘rganish kerak”[1], – degan edi.

MTT rahbari ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirish jarayonida o‘z oldiga inson-ruhiy xususiyatlari shakllanishi va rivojlanishini o‘rganishi, uning qiziqish va qobiliyati, temperament va fe’lini bilish vazifasini qo‘yishi kerak.

Rahbar juda yuksak darajada umumiy madaniyatga ega bo`lgan shaxs bo`lishi kerak. U juda ko‘p narsani bilishi kerak, hozirgi zamonda o‘zi o‘qigan boshqaruv sohasidagi yutuqlardan, yangiliklardan xabardor bo‘lishi kerak.

Pedagogik mahorat asosan rahbarning faoliyatida pedagogik mahoratga erishish uchun maxsus umumlashtira olish qobiliyati, yuqori bilim, yetarli malaka va ko‘nikmalar bo‘lishini talab qiladi.

Rahbarning pedagogik mahorati uning faoliyatida ko‘rinadi. MTT rahbari, avvalo, pedagogik jarayonning qonuniyat va mexanizmlarini yaxshi egallagan bo‘lishi lozim. Shu ma’noda pedagogning umumlashgan malakalari uning pedagogik texnikasi katta ahamiyatga molik bo‘ladi.

Insonparvarlik g‘oyalariga asoslangan pedagogikada har bir rahbar pedagog quyidagi tamoyillarga amal qilishi lozim:

Tarbiyachilar hamda muassasaning boshqa ishchi xodimlariga mehrli bo‘lish, mehrini ko‘rsata olishi;

Tarbiyachilar xatti-harakatlarining ichki dunyosini ko‘ra olishi;

Vaziyatni to‘g‘ri baholay olishi;

Maqsadga muvofiq ta’sir usulini tanlashi;

Tarbiyachilar bilan samarali muloqot qura olish.

Har qanday faoliyat odamlarning bir-birlari bilan til topishishni, bir-birlariga turli xil ma’lumotlar uzatishni, fikrlar almashinuvi kabi murakkab xamkorlikni talab qiladi. Shuning uchun ham har bir shaxsning jamiyatda tutgan o‘rni, ishlarining muvaffaqiyati, obro‘si uning muloqotga kirish qobiliyati bilan bevosita bog‘liq.

Inson tafakkuri va uning aql-idrokiga xos bo‘lgan muhim xususiyatlardan biri shuki, uning taraqqiyoti eng avvalo, kishilik jamiyatidagi o`zaro munosabatlarni qay darajada mukammalligiga hamda insoniyligiga bog‘liq. Demokratik munosabatlar ijtimoiy munosabatlarning muhim bir shakli sifatida har bir mo‘tadil taraqqiy etayotgan insonning ma’naviy barkamolligi negizini tashkil etadi.

Mohir rahbar pedagog deb ta’lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil eta oladigan, buning uchun talaba psixologiyasini yaxshi bilgan, o‘zida pedagog uchun zarur bo‘lgan kasbiy fazilatlarni mujassam etgan, ta’lim jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalar qonuniyatlari asosida samarali tashkil eta oladigan va olib boradigan rahbar pedagogga ayta olamiz.

Rahbarning pedagogik mahorat asoslariga quyidagilar kiradi:

• Umumiy madaniyatning yuqori darajasi, bilimdonlik va aql-zakovatning yuksak

[1] Karimov I.A. O‘zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo‘lmaydi. ─T., 2005. ─189-b.

ko‘rsatkichi;

• Pedagogika, umumiy va pedagogik psixologiya kabi fanlar sohasidagi bilimlar bilan qurollanganlik, ularda o‘qitish va tarbiyalash ishlari tajribasida erkin va ustalik bilan foydalana bilish;

• Ta’lim-tarbiya ishlari metodikasini mukammal egallaganlik;

• Faoliyat ko‘rsatayotgan kasbiga doir keng va chuqur bilim sohibi bo‘lishi;

MTT rahbarining kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan shaxs fazilatlari:

• Dunyoqarashi, e’tiqod va ideallari, madaniyatliligi (rahbar o‘z xodimlarida shakllantirishi lozim bo‘lgan axloqiy sifatlar).

• Pedagogik faoliyatga ijobiy munosabat, shaxsning pedagogik yo‘nalganligi – o‘qituvchining o‘zini pedagogik faoliyatga bag‘ishlashga bo‘lgan intilishi.

• Kasbiy-pedagogik bilim, ko‘nikma, malakalarni egallagan bo‘lishi;

• Pedagogik qobiliyatlari – ta’lim-tarbiyaviy maqsadlari va tarbiyachilar xususiyatlarini inobatga olgan holda zaruriy usul, vositalarni samarali qo‘llay olishi.

Uzluksiz ta’lim tizimini amalga oshirish jarayonida MTT rahbarining ta’lim-tarbiya samaradorligini ta’minlashda boshqaruv faoliyati haqida gap borar ekan, bu g‘oyat murakkab va ko‘p qirrali vazifani faqat malakali pedagogik mahoratga ega bo‘lgan rahbar kadrlar bilan amalga oshirish mumkin. Shuning uchun rahbar pedagoglik (boshqaruvchilik) kasbi katta san’at sanaladi. Bu san’atga u yoki bu rahbar osongina, o‘z-o‘zidan erisha olmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Djurayev R.X., Turg‘unov S.T., Ahmedova N.Q. Ta’lim boshqaruvi (nazariya va amaliyot masalalari) –T.: 2013. 140-b.

2. Djurayev R.X., Turg‘unov S.T. Ta’lim menejmenti. –T.: Voris-nashriyot 2006, 257-b.

Aziza SATTOROVA,
Qarshi davlat universiteti "San'atshunoslik" fakulteti
"Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" kafedrasi o'qituvchisi

TASVIRIY VA AMALIY SAN'AT YO'NALISHIDA KADRLAR TAYYORLASH ZARURATINING O'ZIGA XOSLIGI

Annotatsiya

Ushbu maqola bugungi "Yangilanayotgan O'zbekiston"ning san'at va madaniyat sohasiga qaratayotgan katta e'tibori, kadrlar tayyorlashdagi mavjud muammolarni bartaraf etish chora-tadbirlari va shuning barobarida xalq rassomlari, yosh ijodkorlar, xalq amaliy san'ati ustalaridan tortib san'at ixlosmandlariga cheksiz ishonch va imkoniyatlar berilganligi haqida batafsil yozilgan.

Kalit so'zlar. Tasviriy va amaliy san'at, ustoz-shogird, badiiy ta'lim, grafika, miniatyura, haykaltaroshlik.

В данной статье подробно рассказывается о том большом внимании, которое сегодня "Обновляем Узбекистан" уделяется сфере искусства и культуры, мерам по решению существующих проблем в образовании, а также безграничное доверие и возможности, предоставляемые художникам, ценителям искусства, любителям народного творчества. молодые художники, мастера народного творчества.

Ключевые слова. Изобразительное и прикладное искусство, педагог, художественное образование, графика, миниатюры, скульптура.

This article describes in detail the great attention, which today "Renovating Uzbekistan" devotes to the sphere of art and culture, measures to solve existing problems in education, as well as the boundless trust and opportunities provided to painters, art lovers, folk lovers, young artists, folk art masters.

Key words. Fine and applied arts, teacher, art education, graphics, miniatures, sculpture.

Barchamizga ma'lumki, har bir davlatning, jamiyatning va mamlakatning nechog'lik buyukligi farovon va mustahkamligini, xalqining tinch-totuvligini dunyoga tanituvchi sohalardan biri bu – san'atdir. San'at faqat Vatanni dunyoga tanitibgina qolmay, balki har bir tomoshabin ongu shuurida, tafakkurida shu yurt haqida eng go'zal tasavvur va qiziqishlarni uyg'otuvchi katta kuchdir.

O'zbekiston tasviriy san'ati ham o'zining daho ijodkorlariga egaligi bilan ahamiyatlidir. Yurt jamolini, xalqining vatanparvar va mehnatkashligini ranglarda aks etgan va o'zidan katta maktab qoldirgan buyuk rassomlarimiz akademik Ro'zi Choriyev, Malik Nabiyev, Abdulxaq Abdullayev, Pavel Benkov, Chingiz Ahmarov kabi qator rassomlar yaratgan asarlar bugungi kungacha o'zining ulug'vorligi, xalqchilligi, milliyligi va o'ziga xosligini yo'qotmay kelmoqda. Iste'dodli ijodkorlar mehnatkash xalq ommasining orzu-istaklarini, ularning go'zallik va xudbinlik, oliyjanoblik va insonparvarlik haqidagi tushunchalarini ifoda etuvchi asarlar yaratdilar. Xalqning turmushi, xulq va odatlari, yutuq va mag'lubiyatlari ularning asarlarida o'z ifodasini topdi. Har bir davrda mavjud

bo‘lgan ana shunday san’at hayot go‘zalliklarini tasvirlab, odamlarda yuksak xislat va fazilatlarni kamol toptirdi, ularni tenglik, ozodlik, birdamlik, yorqin kelajakka intilishga da’vat etdi.

Haqiqatan ham, mo‘yqalam ustalarining yaratib qoldirgan oltinga teng asarlari oddiy boyliklar bo‘lib qolmay, balki o‘zida inson aql-zakovati, vatanga bo‘lgan muhabbati, fidokorligi va ko‘hna tarixni aks ettiruvchi ko‘zgusi hamdir. Akademik rassom Ro‘zi Choriyev yaratgan asarlarni kuzatsak, ular hayotdan olingan shunchaki lavhalarga o‘xshab ko‘rinadi. Ammo aslini olganda, hayot falsafasiga boy, navqiron asarni ko‘rasiz. Rassom hayot lahzalaridan hech kimda takrorlanmas kuylar, qo‘shiqlar izlaydi, sizga ham ular haqida so‘zlab bermoqchi bo‘ladi. Bu qo‘shiqlar ba’zan ichki, kuchli tug‘yon bilan taraladi, ba’zan ranglar oqimi fikr ifodasini bosib qo‘yadi. Rassom qanday asar yaratmasin, u hamisha atrofga, odamlarga, tabiatga o‘z munosabatini bildirib keldi. “Surxondaryo madonnasi”, “Ona va bola”, “Qo‘shiq”, “Qumqo‘rg‘on olmalari” kabi qator asarlari fikrimiz dalilidir.

Abdulhaq Abdullayev mo‘yqalamiga mansub har bir portret kishilarning chuqur ma’naviy dunyoqarashini aks ettiruvchi, rassom bilan qahramoni va o‘z o‘rnida portret va tomoshabin o‘rtasidagi haqiqiy, ochiq munosabatni, o‘zaro muloqotni anglatuvchi asarlar yaratgan. Kishilarning holat va kayfiyati, ma’naviy, yorqin qiyofalarini, xarakterlarini mohirona tasvirlagan portretlari bilan mashhur. “Abror Hidoyatov Otello rolida”, “Mannon Uyg‘ur”, “Oybek”(1949), “Nazarali Niyozov”, “Komil Yashin”, “Navoiy” portretlari bilan bir qatorda avtoportretlar ham yaratgan rassom ijodi yuksak baholandi.

1999-yilda Abdulhaq Abdullayev 1984-yilda yaratgan mashhur avtoportretini turli davr va xalqlarga mansub buyuk rassomlarning avtoportretlari saqlanayotgan dunyoning yirik to‘plami Italiya davlatining Uffitsi kartina galereyasiga olinishi O‘zbekiston san’ati uchun olamshumul voqea bo‘ldi. Boshqacha qilib aytganda, O‘zbekiston portret janriga berilgan yuqori baho edi.

Raxim Axmedov mo‘yqalamiga mansub “Tong Onalik”, “Surxondaryolik ayol”, “Ona o‘ylari”, “Hovuz oldida” kabi o‘lmas asarlar xalqimizni, milliy madaniyatimizni dunyoga tanitib, ko‘plab qalblarga kirib borgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Chingiz Axmarov o‘z asarlarida sharq miniatyurasi an’analarini davom ettirib, milliy musavvirlik maktabini yaratgan musavvirdir.

Bugungi kunda tasviriy san’at mana shunday shox asarlar qatorini yanada kengaytirib, O‘zbekiston san’atini vatanparvarlik, fidokorlik ruhiga yo‘g‘rilgan asarlar bilan boyita oladigan chinakam rassomlarni kutmoqda.

Tasviriy san’atimiz fidoiy va serqirra rassom kadrlarga muhtojligi bois san’at sohasini rivojlantirish va ajdodlarga munosib avlodlarni tarbiyalash, jamiyatga kerakli kadrlarni etkazib berish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tasviriy va amaliy san’at sohasi samaradorligini yanada oshirishga doir chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 21-apreldagi PQ-4688-son qarori qabul qilindi.

Mazkur qaror bilan quyidagi ustuvor maqsadlar belgilab qo‘yildi:

– tasviriy va amaliy san’at sohalarida milliy merosimizni tiklash;

– Kamoliddin Behzodning boy ijodiy merosini xalqimizga to‘la yetkazish;

– soha rivojiga katta hissa qo‘shgan atoqli rassom va xalq ustalari xotirasini abadiylashtirish;

– ijodiy yo‘nalishda oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limni tashkil etish, kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish;

– mamlakatimizda tasviriy va amaliy san’at hamda dizayn sohasi samaradorligini

yanada oshirish.

Shu o‘rinda tasviriy va amaliy san’at sohasi yo‘nalishida biroz ilmiy yondashadigan bo‘lsak, bunda ushbu san’atning boshqa san’at turlari bilan o‘xshashlik jihati bu – uning jozibadorligi bo‘lsa, uning asosiy farqi esa borliq falsafasini idrok etib, har gal yangidan yangi tafakkur mahsullariga ega bo‘lishga majburlashidir.

Albatta, mana shunday noyob iste’dodni talab etadigan san’at izlanuvchi-rassomdan katta matonat talab qiladi va bu, o‘z navbatida, shu sohadagi ta’lim muassasalariga mas’uliyat yuklaydi.

Har bir talaba o‘z dunyoqarashi va o‘z orzulariga ega. Talabalikning ilk kunidayoq yuraklarida ulkan orzu va istaklar ila ilm olishga chog‘lanisharkan, ular har bir sohaning o‘ziga xos mashaqqati va mas’uliyatini emas, balki faqatgina talabalik majburiyatlarini his qilishlari bugungi kun zamonaviy va badiiy jarayonida o‘zlarini namoyish eta olmasliklariga sabab bo‘lmoqda. Biroq davlatimiz rahbari tomonidan qabul qilingan ushbu qaror, o‘z o‘rnida, yosh talaba rassomlarga ham keng imkoniyatlar eshigini ochib berdi.

Ayniqsa, qarorda “Kamoliddin Behzod izdoshlari” miniatyura va xalq amaliy san’ati asarlari ijodiy tanlovi o‘tkazilishi va Kamoliddin Behzod nomidagi davlat stipendiyasini ta’sis etilishi yosh iste’dodlarning o‘zlarini namoyish qilishlari bilan bir qatorda ijod muhitiga chuqurroq sho‘ng‘ishlariga, talaba yoshlarning bugungi kundagi ijodiy o‘sishlari, ularning parvoz cho‘qqilariga ko‘tarilishlariga turtki bo‘lib, ularda ajdodlarga munosib bo‘lishlik mas’uliyatini ham oshirishi tabiiydir.

Tabiiyki, bu jarayon mavjud “ustoz-shogird” va badiiy ta’lim an’analarini saqlash barobarida o‘qitishning ilg‘or usullarini ishlab chiqishni va o‘quv jarayoniga ijodiy ustaxonalar faoliyatini tatbiq etishni, tasviriy san’at yo‘nalishlarida (amaliy san’at, mahobatli, dastgohli, grafika, miniatyura, haykaltaroshlik) faoliyat olib borayotgan iste’dodli ijodkorlarni saralab olishni, ularning estetik saviyasi va mahoratini yuksaltirishni, avvalo, maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarda ranglarga havas uyg‘otishni, ularda ranglar bilan ishlash ko‘nikmasini shakllantirishni, shuningdek, havaskor yosh rassomlarni tarbiyalab borishni, chet ellardagi ko‘rgazma va muzeylarda saqlanayotgan noyob asarlar bilan yaqindan tanishib, nusxa ko‘chirish hamda tajriba almashish maqsadida xorijiy mamlakatlarga oliy rassomlik kursi yosh ijodkorlarining ijodiy safarlarini tashkil etishni, yurtimiz muzeylari fondlarini yuksak badiiy qiymatga ega bo‘lgan tasviriy san’at asarlari bilan muntazam boyitib borishni, ushbu maskanlarga o‘quvchi yoshlarning keng miqyosda sayyohatlarini tashkil etishni talab etadi.

Aynan qarorda mana shu jihatlarga alohida to‘xtalib o‘tilganligi bu boradagi ishlarning yangi bosqichga ko‘tarilishiga zamin yaratadi.

O‘ylaymizki, talaba yoshlar bu imkoniyatlardan unumli foydalanib, erkin ijod qilib, o‘z dunyoqarashlaridagi, o‘qigan badiiy adabiyotlaridagi g‘oya va falsafani tasvirlashda uslubiy yondashadilar. Rangtasvirdagi badiiy va ramziy ifodalarni o‘z tushunchalari bilan boyitib, zamonaviy va badiiy jarayonda o‘zlarining betakror asarlari bilan o‘rin oladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ijodimiz haqida gapirsak. O‘zBA nashri. –T., 2007

2. Umarov A., Chingiz Ahmarov. –T., 1974.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4688-son qarori.

Umida YOZIYEVA,
Qarshi davlat universiteti "Pedagogika" fakulteti dekani o'rinbosari,
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
Luiza TURDIQULOVA,
Qarshi davlat universiteti "Maktabgacha ta'lim" magistranti

BO'LAJAK MAKTABGACHA TA'LIM TARBIYACHILARIDA MILLIY IFTIXOR TUYG'USINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada bo'lajak maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachilarida milliy iftixor tuyg'usini shakllantirish, milliy g'urur, milliy ongni tarkib toptirish omillari xususida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar. Milliy ong, milliy iftixor, milliy g'urur, faxr, quvonch tuyg'usi, milliy qadriyatlar, tafakkur.

В этой статье обсуждаются факторы, формирующие чувство национальной гордости, национальной гордости и национального самосознания у будущих дошкольных воспитателей.

Ключевые слова. Национальное сознание, национальная гордость, национальная гордость, чувство радости, национальные ценности, мышление.

This article discusses the factors that shape the sense of national pride, national pride and national identity in future preschool educators.

Key words. National consciousness, national pride, national pride, sense of joy, national values, thinking.

Har bir millatning jahon hamjamiyatida o'ziga xos mavqe va o'ringa ega bo'lishi uning aholisi soniga bog'liq emas. Balki, o'zida milliy xususiyatlarni namoyon eta olishi, millat vakillarining o'z Vatani, tarixi, moddiy-ma'naviy yodgorliklarini yaxshi bilishi va jahonga ko'rsata olishi xalqaro maydondagi maqomini belgilab beradi.

Bugungi kunda bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarida milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash va ushbu sohada ilmiy tadqiqotlarni olib borish davr talabidir. Darhaqiqat, maktabgacha ta'lim tarbiyachisida milliy iftixor tuyg'usi shakllangan bo'lsa, shundagina u maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilarida milliy iftixor tuyg'usini to'g'ri va tizimli tashkil eta oladi.

"O'zbek tilining izohli lug'ati" da "Iftixor – arabcha faxrlanish, maqtanish degan ma'noni anglatadi. U ham ikki ma'noda qo'llaniladi: 1. Shon-sharaf hissi, faxr. 2. Shon-sharaf keltiruvchi, faxrlansa arziydigan ish, kimsa yoki narsa" – deb izohlanadi.

Biz ushbu tahlilda milliy g'urur, iftixor, faxr so'zlarining ma'nosiga to'xtaldik. Negaki, har uchala so'zni tilimizda sinonim sifatida qo'llaymiz. Ba'zan bir ushbu so'zlarni bir varakayiga ketma-ket ishlatamiz. Aslida milliy g'urur millatga xos tushuncha bo'lib, har bir millatning dunyoda mavjudlik belgisi, milliy ifodasidir.

Ulfat Mahkamovning "Axloq-odob saboqlari" nomli kitobida "Milliy iftixor" tarbiyasini quyidagicha ifodalaydi: "Iftixor xalqning qudratini orzu-intilishlarini mujassamlashtiradigan

ulug‘ kuchdir. Milliy iftixor – xalqning, el-yurtning ulug‘vorligi, hayotiyligi va haqqoniyligi bilan ajralib turadi. Milliy iftixor xalqni xalq, millatni millat qilib ko‘rsatadi”.

Professor Komiljon Yusupov esa milliy iftixor haqida quyidagi fikrni bildirganlar: “Bugun bizning milliy g‘urur va iftixorimiz faqat xom ashyo, aytaylik paxtagina emasligini idrok etmoqdamiz. Bizning tilimiz, mumtoz madaniyatimiz, Kolumbni dog‘da qoldirgan fanimiz, saxovatli zaminimiz, jannatmisol yurtimiz qalbimizga so‘ngsiz g‘urur va iftixor tuyg‘ularini soladi. Milliy iftixor hissi istiqlolimizning qudratli himoyachisidir”.

Demak, milliy iftixor – bu, o‘z xalqi, Vataniga nisbatan hurmat va ehtiromini namoyon etishdir. Bu tuyg‘u insonga betakror zavq va shavq bag‘ishlaydi. Har bir millat o‘z an’analari, tili, moddiy va ma’naviy madaniyatini ardoqlashi va qadrlashi bilan birga undan doimo g‘ururlanib ham keladi.

Insonning o‘zi tug‘ilib-o‘sgan zamini, ajdodlari, tili, madaniyati, an’ana, urf-odatlariga sadoqatida namoyon bo‘luvchi iftixor tuyg‘usining shakllanishi qadim zamonlarga borib taqaladi. Millat, milliy davlatlar shakllanishi shart-sharoitida milliy iftixor tuyg‘usi butun jamiyat ijtimoiy ongining muhim xususiyatini ifodalaydi. Har bir inson milliy iftixor to‘g‘risida o‘ziga xos tasavvurga ega, chunki har qanday jamiyatda mazkur tasavvurlarni tarkib toptirish yosh avlod, ijtimoiy tarbiya jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Buyuk mutafakkirlarimiz ma’naviy merosida, yozuvchi va shoirlarimiz asarlarida ham burch, qadr-qimmat, milliy g‘urur, milliy iftixor singari yuksak hissiyotlar bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy his-tuyg‘ular chuqur aks etgan.

Albatta, milliy iftixor bo‘lajak maktabgacha ta’lim tarbiyachilarining Vatani tarixini bilishi, mamlakatining jahon tamadduni rivojiga qo‘shgan hissasidan boxabarligi ham muhimdir. Faxr bilan aytishimiz mumkinki, yer sayyorasidagi eng qadimiy va betakror o‘lkalardan biri bo‘lgan O‘zbekiston zaminida yetishib chiqqan allomalarning fundamental tadqiqotlari bilan jahon ilm-rivojiga qo‘shgan ulkan hissasi butun dunyo olimlari tomonidan e’tirof etilgan. Vatandoshlarimiz xizmati bo‘lmaganida falsafa, tibbiyot, matematika, kibernetika, astronomiya, arxitektura, geodeziya, geologiya, mineralogiya kabi fanlar hozirgi darajadagi taraqqiyot bosqichiga erishmasdi. Buni biz ishonch bilan ayta olamiz. Musulmon olamida tan olingan ulug‘ muhaddislar Imom Buxoriy, Imom Termiziy va Imom Nasafiy zaminimiz farzandlari ekani, buyuk sarkarda Amir Temur faoliyati, lashkarni boshqarish mahoratining jahondagi deyarli barcha harbiy akademiyalarida o‘rganilishi esa vatandoshlarimiz nafaqat tabiiy va aniq fanlar, balki ijtimoiy va ilohiyot yo‘nalishidagi ilmlar, harbiy ta’limot borasida ham peshqadam bo‘lganliklaridan dalolatdir.

Davlatimiz madaniy tarixining qadim asrlarga borib taqalishi, Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent, Qarshi, Termiz, Shahrisabz, Marg‘ilon, Qo‘qon kabi qadimiy shaharlarimizdagi betakror ma’naviyatimiz ko‘zgusi hisoblangan noyob obidalarning YUNESKO ro‘yxatiga kiritilgani bizga katta iftixor baxsh etadi.

Albatta, qadimiy tarixi, xalqi, ajdodlarining o‘tmishdagi muvaffaqiyatlari bilan faxrlanish har bir ongli fuqaroga xos ijobiy xususiyat ekanligini e’tibordan chetda qoldirmagan holda mustaqillik davrida erishilgan yutuqlarning o‘zi tom-tom kitoblarga mavzu bo‘lishini ham ta’kidlash joiz. Mamlakatimiz iqtisodiy salohiyati, qudratining tobora oshib borayotgani, xalqimiz manfaati yo‘lida xizmat qilayotgan o‘nlab yirik sanoat korxonalarining faoliyat yuritayotganligi, respublikamizning avtomobilsozlik sanoatiga ega bo‘lgan dunyodagi 28 davlat qatoriga qo‘shilgani, sport, san’at, ilm-fan sohasida olamshumul muvaffaqiyatlarga erishayotganimiz barchamizning qalbimizni iftixor tuyg‘ulariga to‘ldiradi, Bu esa yoshlarimizda ona–Vatanga muhabbat, uning tarixi va

bugunidan faxrlanish, kelajagiga ishonch tuyg‘ularini mustahkamlaydi.

Barchamizga ma’lumki, yurtimiz mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardanoq, hayotimizning barcha jabhalarida “qadriyatlar”, “milliy g‘oya”, “o‘zlikni anglash”, “milliy tiklanish”, “ijtimoiy adolat”, “milliy ong”, “milliy g‘urur”, “milliy iftixor”, “Vatanparvarlik” kabi atamalar paydo bo‘ldi. Bu atamalar, bir maqsad sari: “Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot” barpo etishda xalqimizni birdam va hamjihatlikda xarakat qilishga undab kelmoqda. Zero, istiqlol ayni paytda milliy o‘zlikni anglash demakdir. Yurtimizda inson va uning hayoti eng oliy qadriyat hisoblanadi. Insoniyat paydo bo‘libdiki, uning qadr-qimmati, sha’ni, ezgu qarashlari ulug‘lanib kelinadi. Shu boisdan inson sha’ni va qadr-qimmatini e’zozlash, uning turmush sharoitini, bilimi va madaniy-ma’rifiy saviyasini rivojlantirish, salomatligini yaxshilash, hayotini himoya qilish davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, “Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qilishi” bosh qomusimizda ham belgilab qo‘yilgan. Hozirgi kundagi yurtimizda bo‘layotgan o‘zgarishlar, islohotlar, qabul qilinayotgan qonun va nizomlarning mazmun-mohiyati ham aynan shundadir. Milliy qadriyatlarimiz umuminsoniy qadriyatlar bilan ham chambarchas bog‘liq. Umuminsoniy qadriyatlar ko‘lami va mazmuni jihatidan chuqur va keng qamrovli bo‘lib, barcha millatlar, elatlar va xalqlarning maqsad intilishini o‘zida mujassamlashtirgan. Milliy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar bilan qanchalik ko‘p uyg‘unlashgan bo‘lsa, ularning rivojlanishiga, ommalashishiga keng imkoniyat yaratadi. Umuminsoniy qadriyatlar tizimi insoniyat tamaddunining taraqqiyoti bilan bog‘liqligi va umumbashariy ahamiyatga egaligi bilan ajralib turadi. Bular: inson va uning qadr-qimmati ardoqlanishini, barcha millat va elatlar tinch-totuvlik asosida o‘zaro hamkorlikda yashash, moddiy va ma’naviy boyliklarni asrab-avaylash, ilm-fan rivojiga hissa qo‘shish, tinchlikni saqlash, genotsidga nisbatan nafrat, qirg‘in qurollarini to‘xtatish, tabiatni muhofaza qilish kabalarni o‘zida namoyon etadi.

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak maktabgacha ta’lim tarbiyachilarida milliy iftixor tuyg‘usini shakllantirishning pedagogik asoslarini ishlab chiqish hamda izchil va uzluksiz ish olib borish zarurligini ko‘rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 2-jild. –T., 2004, – 671-b.
2. Mahkamov U.I. Axloq-odob saboqlari. – T.: Fan, 1994. – 134-b.
3. Yusupov K. Falsafa. – T.: Sharq, 1999. – 494-b.
4. Zokirov K. Falsafa. – T.: Sharq, 1999. – 494-b.
5. Usmonov K. Milliy iftixor. –T.: Sharq, 1992. – 98-b.

Mohichehra ALIMARDONOVA,
Qarshi davlat universiteti “Maktabgacha ta’lim” kafedrasi o‘qituvchisi

MAKTABGACHA TA’LIM YOSHIDAGI BOLALARNING KOGNITIV KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA INTEGRATSIYA JARAYONINING AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv ko‘nikmalarini rivojlantirish integratsiyalashgan faoliyat asosida hal qilinishi mumkinligi haqidagi fikrlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar, kognitiv, ko‘nikma, integratsiya, integratsiya bosqichlari, integratsiyalashgan.

В статье рассматривается идея о том, что развитие познавательных способностей дошкольников можно решить на основе комплексных мероприятий.

Ключевые слова. Дошкольники, познавательные, способности, интеграция, этапы интеграции, интегрированные.

The article discusses the idea that the development of cognitive skills of preschool children can be solved on the basis of integrated activities.

Key words. Preschool children, cognitive, ability, integration, integration stages, integrated.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv ko‘nikmalarini rivojlantirishning maqsadi – ularda olamning yaxlit manzarasi tasavvurlarini shakllantirish uchun mo‘ljallangan. Maktabgacha ta’lim tashkilotida mujassamlashtirilgan ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish orqali buni amalga oshirish mumkin. Hozirgi vaqtda mazkur holatni “Ilk qadam” o‘quv dasturida keltirilgan ta’limiy o‘yin faoliyati orqali mujassamlashtirish tamoyilining mohiyati asosida – yagona jarayonga birlashtirish, ular o‘rtasidagi munosabatlarni rivojlantirishdir. Ushbu tamoyil maqsadlarni belgilashda, maktabgacha ta’limning mazmunini aniqlashda, MTTda o‘quv jarayonini tashkil etish shakllari va usullarini tanlashda yetakchi hisoblanadi. Shu bilan birga 2019-yil 16-dekabrda qabul qilingan “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risidagi” Qonunda mazkur dasturdagi asosiy g‘oyalar o‘z aksini topgan.

Maktabgacha ta’limda ta’lim jarayonini tashkil etishda “Ilk qadam” o‘quv dasturida jami 5 ta ta’limiy sohalar ajratib ko‘rsatilgan: jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi, ijtimoiy-hissiy rivojlanish, nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari, bilish jarayonining rivojlanishi, ijodiy rivojlanish bularni barchasini ta’limiy o‘yin faoliyatiga birlashtirilishi yangi ta’limiy mahsulotni paydo bo‘lishiga zamin yaratadi.

Mujassamlashtirish yoki integratsiyalash tushunchasi murakkab fanlararo ilmiy kategoriya sifatida ko‘plab gumanitar fanlarning predmeti hisoblanadi: falsafa, sotsiologiya, psixologiya, pedagogika va boshqalar. Pedagogikadagi mujassamlashtirish yoki integratsiyalash muammolari ustida ko‘pgina tadqiqotchilar izlanishlar olib borgan. Xususan, V.V. Kraevskiy, A.B. Petrovskiy, N.F. Talizina pedagogikaning boshqa fanlar bilan integratsiyasini muhokama qiladi. G.D. Glazer va B.S. Lednev ta’lim mazmuniga integratsiyalashuv yo‘llarini aniqlashga e’tibor qaratishgan.

“Integratsiya” – tushunchasi umumiy ilmiy tushunchalar sirasiga kiradi. Pedagogika

faniga mazkur tushuncha falsafadan kirib kelgan.

Integratsiya – natijasi yaxlitlik bo‘ladigan jarayon yoki harakatdir. U birlashtirish, qo‘shish va birlikni tiklashni nazarda tutadi”.

Boshqa bir ensiklopedik lug‘at integratsiyani (lotincha integratio – birlashtirish, qayta tiklash) – o‘zaro bog‘liqligi va bir-biriga muvofiqligi asosida bo‘lingan qismlar va tizim elementlarining yaxlitlikka birlashishi sifatida ko‘rib chiqadi.

Analitik psixologiya lug‘atida integratsiya bu jarayon bo‘lib, u qismlarni bir butunga birlashishidir (V. Zelenskiy. Analitik psixologiya lug‘ati).

Ta’limda integratsiyalashuv – ta’lim dasturlari tarkibidagi turli fanlar yoki ularning elementlarini ta’lim sohasidagi birlashmasi, organik uyg‘unlashuvidir.

O‘tgan asr pedagogika tarixidagi integratsiya muammosining retrospektiv tahliliga ko‘ra, integratsiya pedagogik hodisa sifatida, uni ta’lim jarayonida amalga oshirish jarayonida juda katta yutuqlarga erishdi va maktabgacha ta’lim sohasida sezilarli darajada rivojlandi degan xulosaga kelishimizga imkon berdi. Hozirgi vaqtda integratsiya haqida “integratsiya – jarayon va ajralmas bog‘liq, yaxlit, butunlikni yaratish natijasidir”. Integratsiya – integrallashgan bilimlarni olishning metodologik prinsipi (integratsion yondashuv) va bilimlarni metodologik va metodik darajalarda integratsiyalashning imkoniyatlaridan biri bo‘lib, bu turli fanlar tomonidan qo‘llaniladigan yondashuv va usullarning umumiyligini aniqlashdir.

Jarayon sifatida integratsiya – “obyektlar o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqalarni o‘rnatish va ko‘zda tutilgan natijaga muvofiq yangi yaxlit tizimni yaratish”. Bu “obyektlarni birlashtirish tartibi”ning bir turi bo‘lib, “ularning ko‘rinishlari va turlarining yig‘indisidan kerakli va mos keladigan ulanishlarni tanlash, bu aloqalarni o‘rnatish usullari”ni anglatadi.

A.S. Bezrukova integratsiya jarayonining bosqichma-bosqich loyihalashtirishni taklif etadi.

1. Integratsiyaning birinchi bosqichi – integratsiyaga tayyorgarlik (maqsadlarni belgilash, obyektlarni tanlash, shaklni tanlash va boshqalar).

2. Integratsiyaning ikkinchi bosqichi – tanlangan integratsiyalashgan shaklning bevosita rivojlanishi (“tizimni tashkil etuvchi omilni tanlash”, integratsiya tarkibiy qismlarining o‘zaro aloqa va bog‘liqligini o‘rnatish, integratsiya usullarini qo‘llash va boshqalar).

3. Integratsiyaning uchinchi (yakuniy) bosqichi – natijada olingan integrativ mahsulotni tekshirish (ekspert bahosi, loyihani tuzatish va boshqalar).

Integrallashgan ta’lim bu – o‘qitishning vositalari, mazmuni, metodlari va ko‘rinishlarining yig‘indisidir.

Integratsiya muammosini o‘rganish zamonaviy maktabgacha ta’lim pedagogikasida keng tarqalgan holat bo‘lib, tadqiqotchilarning S.B. Pronyayeva, O.A. Skorolupova, B. Trubaychuk, N.V. Fedina va boshqalarning izlanishlarida yetakchi o‘rinni egallaydi.

“Maktabgacha ta’limda integratsiya yaxlit hodisa bo‘lib, ta’lim sohalarini taqvim-tematik rejalashtirish asosida yagona jarayonga birlashtiradi. Ta’lim sohalarining yaxlitligi ularning birlashishi bilan emas, balki bitta (yoki bir nechtasini) boshqasiga kirib borishi bilan ta’minlanadi. Bundan tashqari, ushbu jarayon maktabgacha yoshdagi bolalar o‘rtasida dunyoning yaxlit manzarasini va ularda shaxs integrativ xususiyatlarini shakllantirishga qaratilgan”.

Integratsiya tamoyili maktabgacha ta’lim uchun innovatsion bo‘lib, maktabgacha ta’lim tashkilotlari, ta’lim sohalarini birlashtirgan holda tubdan qayta tashkil etish majburiyatini oladi, bu maktabgacha yoshdagi bola shaxsining ajralmas fazilatlarini

shakllantirishni va uning jamiyatga uyg‘un kirishini ta’minlaydigan yagona yaxlit ta’lim mahsulotini nazarda tutadi.

“Integratsiya” tushunchasining yuqoridagi talqinlarini tahlil qilib, u bir butunga birlashuv sifatida taqdim etilgan degan xulosaga keldik.

Ushbu muammoga pedagogikada birinchi marta Y.A. Komenskiy qiziqqanligini ko‘rishimiz mumkin, u: “hamma narsa, eng kattasi va eng kichigi – bir-biriga bog‘langan va ajralmas bir butunni tashkil qilish kerak” deb ta’kidlagan.

Integratsiya hodisasi prinsipial jihatdan maktabgacha ta’lim tashkilotining ta’lim jarayonida va natijasida amalga oshiriladigan murakkab pedagogik hodisa bo‘lib, maktabgacha ta’limni integratsiyalash prinsipi – ta’lim sohalarini yagona ajralmas o‘quv jarayoniga uyg‘un ravishda birlashtirishni aks ettiruvchi va yuqori natijalarga erishishni kafolatlaydigan yetakchi g‘oyadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Гершунский, Б.С. Философия образования для 21 века / Б.С. Гершунский. – М.: АПО, 1998. С.– 543.

2. Кравцов, Г.Г. Принцип единства аффекта и интеллекта как личностного подхода / Г.Г. Кравцов // Вопросы психологии. - 1996. - № 6. - С. 53-62.

3. Педагогическая диагностика как инструмент познания и понимания ребенка дошкольного возраста: Научно-методическое пособие: В 3 ч. Ч. 3 Педагогическая диагностика практического и продуктивного опыта ребенка дошкольного возраста. - СПб.: Изд-во РГПУ им. А.И. Герцена, –2008. С.– 219.

4. Савенков, А.И. Учим детей выдвигать гипотезы и задавать вопросы / А.И. Савенков // Одаренный ребенок. –2003. –№ 2. С.– 76-86.

5. Alimardonova. M. B. Model of cognitive development preschool children in integrated educational process of preschool educational organization. European Journal of Research and Reflection in Educational SciencesVol. 7 No. 2, 2019 ISSN 2056-5852

To‘lg‘anoy ASHUROVA,
Qarshi davlat universiteti “Maktabgacha ta’lim” kafedrasi katta o‘qituvchisi

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA IJODKORLIKNI SHAKLLANTIRISHDA PREDMETLAR BILAN TANISHTIRISHNING AHAMIYATI

Annotatsiya

Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni predmetlar dunyosi bilan tanishtirish orqali ularda ijodkorlikni shakllantirish muammosi yoritilgan. Bundan tashqari, maktabgacha yoshdagi bolalar predmetlarni tasvirlashda mustaqil yoki katta yoshli inson ko‘magiga murojaat qilishi, ayniqsa, kichik maktabgacha yoshdagi, katta yoshli insonlarning islohiy (o‘zgartirish qilish) faoliyati borasida o‘z fikrini bayon qilishga intilmasligi haqidagi fikrlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar. Katta yoshli inson – predmet, bola – katta yoshli inson, bola – predmet, eksperimental, modellovchi, algoritmik.

В статье рассматривается проблема формирования творческих способностей дошкольников путем приобщения их к предметному миру. Есть также предложения, что дошкольникам следует обращаться за помощью к самостоятельному или взрослому человеку при описании предметов, особенно младшим дошкольникам, которые не стремятся выразить свое мнение о реформировании (модификации) деятельности взрослых.

Ключевые слова. Взрослый – объект, ребенок – взрослый, ребенок – объект экспериментальный, моделирующий, алгоритмический.

This article addresses the problem of shaping the creativity of preschool children by introducing them to the world of subjects. There are also suggestions that preschoolers should seek the help of an independent or adult person in describing objects, especially younger preschoolers, who do not seek to express their views on the reform (modification) activities of adults.

Key words. Adult – object, child – adult, child – object, experimental, modeling, algorithmic.

Maktabgacha yoshdagi bolalar ijodkorligini rivojlantirish pedagogika fani uchun muhim va ahamiyatlidir. Bolalar hayotida ijodkorlik o‘z-o‘zidan shakllanib qolmaydi, ularning paydo bo‘lishi va rivojlanishi uchun yetakchi rol pedagog-tarbiyachiga tegishli bo‘lib, u maxsus ilmiy asoslangan konsepsiyalar va ijtimoiy-pedagogik amaliyotlarni talab etadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodkorlik xislati shakllanishi tizimi samaradorligi mezonlarini ishlab chiqishda biz “katta yoshli inson – predmet”, “bola – katta yoshli inson”, “bola – predmet” tizimlarida “ijodkorlik” tushunchasi qay tariqa talqin etilishiga tayandik. Tizim samaradorligining konkret ifodasi bo‘lib maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodkorlik xislati namoyon bo‘lishi mezonlari xizmat qildi:

1. Predmetni katta yoshli inson faoliyati natijasi, ijodiy fikr mahsuli o‘laroq emotsional-baholovchi idrok etish va anglash.
2. Ijodkorlik tajribasini o‘zlashtirish uchun xatti-harakatlar (amallar) usullarini egallash.
3. Predmet olamini ijodiy isloh etishga (o‘zgartirishga) intilish.

Har bir mezon modelning bloklari (informatsion, ta’sirli-fikriy, o‘zgartirish bloki)ning

maqsadlari va vazifalariga mos keladi. Mezonlar mazmun-maqsadi turli ko‘rsatkichlar majmui orqali ochib beriladi.

Birinchi mezon. Predmetni katta yoshli inson faoliyati natijasi, ijodiy fikr mahsuli o‘laroq emotsional-baholovchi idrok etish va anglash quyidagi ko‘rsatkichlarni ochib beradi:

– katta yoshli insonlar qo‘li bilan tayyorlangan predmetlarni nomma-nom ayta olish;

– “katta yoshli insonlar qo‘li bilan tayyorlangan predmetlar” iboralarni bolalar tushunishi;

– predmetlarning ularni inson mehnati natijasi, uning fikr-o‘yi ijodi o‘laroq tavsiflovchi belgilarini qismlarga ajrata olish va farqlash;

– katta yoshli insonlar tomonidan keng turdagi predmetlar yaratilishi va isloh etilishi maqsadga muvofiqligini, ularning odamlar ehtiyojlarini qondirishdek vazifasi borligini tushunish;

– predmetning kelajagini bashorat qila olish;

– taklif etilgan narsa-buyumlarga qarab ularning yaratuvchisi haqida aytib bera olish;

– katta yoshli inson mehnati natijalari va uning mehnatga ijodiy munosabati o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rnatish;

– katta yoshli insonlar bilan aloqa bog‘lashga istakni namoyon bo‘lishi;

– katta yoshli inson mehnati natijalariga ehtiyotkorona munosabatni namoyon qilish.

Ikkinchi mezon. Ijodkorlik tajribasini o‘zlashtirish uchun xatti-harakatlar (amallar) usullarini egallash quyidagi ko‘rsatkichlarni aniqlab beradi:

– predmetlar bilan muomala qila bilishi va xatti-harakatlar (amallar)ga asoslanib xulosalar yasash;

– namoyon bo‘luvchi xatti-harakatlar (amallar) tavsifi (taftishchilik, eksperimental, modellovchi, algoritmik va boshqalar);

– predmetni o‘rin almashuvchi (o‘rinbosar) sifatida qo‘llay olish va o‘rin almashish xatti-harakatlarini bajarish.

Uchinchi mezon. Predmet olamini ijodiy isloh etishga (o‘zgartirishga) intilish quyidagi ko‘rsatkichlarni ochib beradi:

– predmetni takomillashtirish va tusini o‘zgartirish istagi namoyon bo‘lishi;

– qo‘yilgan vazifadan kelib chiqib islohotchilik (o‘zgartirish) faoliyatiga intilishni o‘sishi;

– loyiha muddaosini tuzish va uni ro‘yobga chiqarish paytida bolalarning mustaqilligi miqyosi;

– predmetni o‘zgartirish, takomillashtirishning ehtimoliy usullarini ko‘ra bilish va ularni ro‘yobga chiqara olish;

– islohotchilik faoliyatini tanlash chog‘ida individual layoqatlarni namoyon qilish;

– o‘zgartirish (isloh etish) turiga afzallik berish, yaxshi deb bilish.

Quyida ushbu ko‘rsatkichlarni batafsilroq ko‘rib chiqamiz.

Katta yoshli insonlar qo‘li bilan tayyorlangan predmetlarni nomlay bilish, aytib bera olish.

Bolalar qo‘l bilan yaratilgan olamning atrof-muhitda mavjud bo‘lgan (stul, stol, karavot, kitobcha, shkaf, o‘yinchoqlar, idish va boshqalar) va muomala kam uchraydigan (robot, kompyuter, dastgohlar, elektr go‘sht qiymalagich va shunga o‘xshash) turli predmetlarni aytib bera oladi. Shuningdek, aniq insonlar tomonidan yasalgan narsa-buyumlarni ham nomini keltira oladi (“uni tarbiyachimiz o‘z qo‘li bilan yasadi”). Inson qo‘llari bilan tayyorlangan predmetlarni nomma-nom sanarkan, bolalar (ayniqsa,

katta maktabgacha yoshdagilari) o‘zlarini narsalarning yaratuvchisi yoki islohotchisi deb ayta oladi (koptoklar, qutilar, robotlar va boshqalar). Bu shundan dalolat qiladiki, bolalar inson qo‘li bilan yaratilgan olam haqida ongli tasavvur bor. Bundan tashqari, ular o‘zlarini “narsalarning” yaratuvchisi va o‘zgartiruvchisi deb tushunishadi. Bolalar narsalarni mustaqil yoki katta yoshli inson yordamida aytib bera oladi.

“Inson qo‘li bilan tayyorlangan predmetlar” iborasining bolalar tomonidan tushunilishi.

Bolalar bildirgan fikrlarni tahlil etib, ular barcha taqdim etilgan narsalardan qo‘l bilan yaratilgan olamga mansub predmetlarni qanchalik ongli tarzda tanlab olayapti, ularni qanchalik to‘g‘ri aytib berayotganligini aniqlash mumkin. Bolalar kattalarning narsalarni yasashiga asqotadigan ish qurollarini nomini keltiradi (“Arra bilan yasadi”, “Inson bolg‘ani qo‘liga oldi va predmet yasadi”, “Mixlar va bolg‘a bilan bajardi” va boshqalar). Bolalar katta yoshli insonlar buyumlarni yasashda qo‘llagan ish qurollarini nafaqat shunchaki sanab o‘tadi, balki professional va shaxsiy sifatlar bilan bog‘lay oladi (“Mohir qo‘llari bilan stol yasadi, unga bolg‘a, mixlar, arra yordam berdi; stol odamlarga yoqishiga harakat qildi, shuni astoydil xohladi”; “Inson qo‘li bilan qilingan – bundan chiqdi, u shunday o‘yladi, so‘ngra instrumentni qo‘lga oldi va shunaqangi go‘zal narsalarni yaratdi. U mohir, ijodkor inson, qo‘llari esa mehnatsevar. Buyumlar chiroyli chiqdi” va boshqalar). Bolalar mustaqil yoki katta yoshli inson ko‘magida javob beradi.

Bundan tashqari, bolalar qo‘l mehnati bilan yaratilgan olamning predmetlarini faqat sanash bilan cheklanadi, “inson qo‘li bilan qilingan predmetlar” iborasining mag‘zini chaqa olmaydi.

Bolalar predmet nimadan yasalgani, uning qanday qismlari borligi, inson uni nima maqsadda yasagani va predmetni qayerda ishlatish mumkinligini ifodalab bera oladi (“Bu narsa plastmassadan qilingan, u mo‘jizakor shnur yordamida ishlaydi, buning uchun tayoqcha bor, uning ustida parrak, u tez aylanadi muzqaymoq va boshqa mahsulotlarni ko‘pirtiradi, faqat ular yumshoq bo‘lishi kerak, qo‘l mehnatiga qaraganda barchasi tez bajarilishini ko‘rdim”; “Bu narsa metall va plastmassadan qilingan, tok yordamida ishlaydi, qutisi bor, unga suv quyiladi, unda kiyimni ishqalaydigan va kirni ketkizadigan qism bor; inson boshqalarga oson bo‘lishi uchun mashinani yaratdi”).

Javoblarni tahlil etib, bolalar buyumlar bajaradigan yumush va ularni qo‘llash usulini (“Inson og‘ir mehnatni yengillatish uchun yaratdi”, “Shkaf turli narsalarni taxlab qo‘yish va ularni bu yerda saqlash uchun kerak” va hokazo) qay darajada to‘g‘ri tushunishini aniqlash mumkin bo‘ladi. Tadqiqotchilar (V.I.Loginova, L.A.Misharina, O.V.Дыбина) bolalar ko‘plab predmetlarning funksiyalari va bajaradigan yumushini farqlay olmasligini qayd etadi. Bolalar turli predmetlar bir xil funksiyalarni bajaradi degan o‘yga boradi, ko‘pincha esa funksiyalarning vazifasini almashtirib qo‘yadi, ya’ni predmetlardan ko‘zlangan maqsad (inson ehtiyojlarini qondirish)ni ularni tasarruf etish usullaridan farqlash bolalarga mushkullik tug‘diradi. Bu holat shu bilan izohlanadiki, maktabgacha yoshdagi bola predmetga, uning funksiyalari va yumushiga mavhum tarzda, mavhum nazar tashlay olmaydi, negaki mazkur belgilar tez-tez kesishadi, o‘zaro to‘qnashadi va ba’zan ularni ajratib yuborish qiyin.

Bolalar bir xil funksiya bajaruvchi predmetlarni aytib bera oladi (“Xonani sham, fonar, mash’ala, zajigalka bilan yoritish mumkin”); predmetlarni yaratish maqsadga muvofiq ish ekanini tushunishadi (“Buvijon tabassum qila boshladi, chunki changyutgich yordamida ishni tezroq bajaradi va dam oladi”, “changyutgich o‘ylab topilgani yaxshi, sholcha toza bo‘ladi” va boshqa); predmet olami rango-rang ekaniga qiziqish izhor etishadi va katta yoshli kishilar tomonidan insonlar ehtiyoji uchun narsalarni yaratish

zarur ekanini tushunishga intilishadi. Predmetlarni yaratish va ularga o‘zgartirish kiritish maqbul ish ekanini mustaqil so‘zlab bera oladi yoki katta yoshli inson yordamida foydalanishni eplaydi.

Predmetlarning kelajagini bashorat qilish maktabgacha yoshdagi bolalarda qiziqish uyg‘otadi. Ular fantaziyani ishga solish va avvaldan payqash mahoratini namoyon qilib, yangi shakllar va funksiyalar (“Vaqtni o‘zi aytuvchi soat”, “O‘zi ovqatlanadigan qo‘g‘irchoq”, “Haydovchisiz harakatlanuvchi mashina”)ni ishlatishadi. Ular predmetga o‘zgartirish kiritishga doir xatti-harakatlarni mustaqil ravishda yoki katta yoshli kishi ko‘magida bashorat eta oladi.

Bolalar ko‘plab turfa kasb-korlarni va ushbu kasb egalari tayyorlaydigan predmetlarni aytib bera oladi. Biroq ular ba’zi bir kasb-korlarni noto‘g‘ri ataydi.

Mehnat natijalari va katta yoshli kishining mehnatga ijodiy munosabati o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rnata bilish.

Maktabgacha yoshdagi bolalar ko‘rsatib o‘tilgan aloqalarni (“Usta hojatbaror, u boshqalar foydalanishi uchun narsa yasadi”, “Ezgu qo‘llar shunday idishni yasadi, shuning uchun bu idishdan hammaga manfaat yetadi” va boshqalar) o‘rnata oladi. Katta yoshli kishining mehnatga munosabati tavsifida bolalar boshqa sifatlar bilan bir qatorda ijodkorlik xislati, o‘ylab topish qobiliyatini farqlay oladi, ajratadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar katta yoshli insonlar mehnati natijalarini avaylab, ehtiyotkorona yondasha oladi: predmetlarni muayyan joyda saqlash, shikastlarni bartaraf qilish (yelimlash, ta’mirlash, tozalash va yuvishni bajara oladi. Bolalar bu ishlarni faqat katta yoshli inson yordami bilan bajara oladi. Ular predmetlarni avaylash, ularni tartibga keltirish, yaxshi saqlash haqida qayg‘urish istagini namoyon qilmasligi mumkin.

Predmetlar belgilarini ajrata olish bolalarga kattalar dunyosini, ularni hayotida predmetlarning ahamiyati ochib beradi. Predmet orqali hayotning turli jabhalari: ish, hayot, san’at, kattalar iste’dodlari, ularning xususiyatlari va hayotiy tajribasi, ijodkorlik ochib beriladi (O.V.Dybina, S.A. Kozlova). Shunday qilib, predmetlar dunyosi haqidagi inson bilimi – dunyoning transformatsiyasi o‘rtasidagi bog‘liqlikda kuzatiladi. Predmetlarni insonda ijodiy bilish manbai sifatida ko‘rib chiqish o‘rinlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Венгер Л.А Восприятие и обучение: Дошколный возвраст. – М.: Просвешение, 1969. С.–365.

2. Виноградова Н.Ф, Козлова С.А Наша родина пособие для воспитателя детского сада. М.:Просвешение, 1984. С.–304.

3. Запарожец А.В. Психология дейтсвия. –М.: Московский психология социалный институт, Воронеж: Издательство НПО “МОДЭК”, 2000. С.–736.

4. Козлова С.А Теория и методика ознакомления дошколников с социалной действительностью. – М.: Издательский центр Академия, 1998. С.–160.

5. Лернер И.Я Внимание технология обучения // Советский педагогика. 1990. №3.С. 139-141.

6. Люлинская А.А. Очерки психического развития ребенка. – 2-е изд., перераб.-М.: Просовещение, 1965. С.–363.

Yolqin TO‘RAYEV,
Qarshi davlat universiteti “Maktabgacha ta’lim” kafedrasi tadqiqotchisi

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI TO‘G‘RI OVQATLANTIRISH PRINSIPLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning ovqat hazm qilish a’zolarining o‘ziga xos jihatlari, maktabgacha yoshdagi bolalarni to‘g‘ri ovqatlantirishning bir qancha asosiy qonun-qoidalari haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar. Maktabgacha yoshdagi bolalar, aqliy yuklamalar, fermentlar, hazm qilish, ovqatlanish rejimi.

В данной статье рассматриваются особенности работы органов пищеварения дошкольников, ряд основных принципов правильного питания дошкольников.

Ключевые слова. Дети дошкольного возраста, умственные нагрузки, ферменты, пищеварение, диета.

This article discusses the specifics of the digestive organs of preschool children, a number of basic principles of proper nutrition of preschool children.

Key words. Preschool children, mental stress, enzymes, digestion, diet.

Maktabgacha yosh (3-7 yosh) jismoniy salomatlikning mustahkam poydevori qo‘yiladigan eng muhim davr hisoblanadi. Bola organizmida muhim oziq moddalarning yetishmasligi, jiddiy jismoniy va aqliy yuklamalar bolalarda turli kasalliklarga sabab bo‘lishi mumkin, shuning uchun muvozanatli ovqatlanish maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishida eng muhim tamoyillardan biri bo‘lib qolmoqda.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ozuqa tarkibi haqida so‘z yuritishdan avval, bu yoshdagi bolalarning ovqat hazm qilish tizimiga qisqacha to‘xtalib o‘tish lozim.

Bolalarning ovqat hazm qilish tizimining o‘ziga xos xususiyati bu oshqozon-ichak trakti shilliq pardalari nozikligi, ko‘p miqdorda qon ta’minoti va ularning elastikligining rivojlanmaganligidir. Bolalarning ichak va oshqozon shilliq qavatidagi bezlari maktab yoshigacha to‘liq rivojlanmagan holatda, soni kam miqdorda bo‘ladi. Shuning uchun bolaning me’da shirasi xlorid kislota konsentratsiyasining pastligiga ega va bu oshqozonning bakteritsid xususiyatlarini pasaytiradi, bu esa, albatta, bolalarning oshqozon-ichak infeksiyalariga sezgirligini oshiradi. Oshqozon shilliq qavatidagi bezlar soni 10 yoshgacha tez ko‘payadi va 14-15 yoshda bu deyarli kattalar darajasiga to‘g‘ri keladi.

Me’da shirasidagi fermentlarning tarkibi hayotning birinchi yillarida o‘zgaradi. Oshqozon shirasi fermentlarining faolligi 15-16 yoshga qadar ortadi va bu yoshda u allaqachon kattalar darajasiga yetadi. Bolaning ovqat hazm qilish tizimining yoshga bog‘liq xususiyati shundaki, 10 yoshgacha oshqozonda so‘rilish jarayonlari juda faol sodir bo‘ladi. Kattalarda bu jarayonlar faqat ingichka ichakda bo‘ladi.

Ovqat hazm qilish tizimining ishi asab tizimi tomonidan boshqariladi. Bolalarda ovqat hazm qilish tizimining shakllanishi jarayonida reflekslar ovqatlanish vaqtida, uning tarkibi va miqdoriga qarab osonlikcha rivojlanadi. Qorin bo‘shlig‘ining uchdan bir qismini egallab olgan, ovqat hazm qilish tizimining eng katta organi bu jigar. 11 oy ichida uning massasi ikki baravar ko‘payadi, 2-3 yilga qadar esa uch baravar ko‘payadi.

Maktabgacha yoshda bolalar o‘sishda davom etadilar va ovqat hazm qilish tizimini rivojlantiradilar. Ammo 3 yoshgacha bo‘lgan umumiy o‘sish va rivojlanishning turli xil sur’atlari tufayli jigar qirrasi o‘ng hipokondriyum zonasini tark etadi.

Bolaning oshqozon osti bezi 1 yilgacha juda faol rivojlanadi, so‘ngra uning rivojlanishidagi sakrash 5-7 yilda sodir bo‘ladi. Parametrlari bo‘yicha bu organ kattalar darajasiga faqat 16 yoshga yetadi. Xuddi shu rivojlanish darajasi bolaning jigari va ichakning barcha qismlariga xosdir.

Shuni ta’kidlash kerakki, maktabgacha yoshdagi bolalarda ovqat hazm qilishning o‘tkir buzilishi juda keng tarqalgan. Maktabgacha yoshdagi bolalarda tishlarning rivojlanishi, ovqatlanish rejimi va muvozanatini hisobga olgan holda to‘g’ri ovqatlantirish, bu yoshdagi bolalarning ota-onalari e’tibor qaratishi lozim bo‘lgan muhim jihatdir. 3-7 yoshdagi bolalar uchun ovqatlanish bola tanasining normal o‘sishi va rivojlanishini ta’minlaydigan, mushaklarni, suyaklarni, hamda miyani aqliy va jismoniy rivojlanishning keskin o‘sishiga, shuningdek maktab boshlanishi bilan bog‘liq rejim o‘zgarishiga tayyorlaydigan tarzda tashkil qilinishi kerak. Buning uchun ovqatlanishning bir necha asosiy tamoyillariga rioya qilish muhimdir:

• Bolaning energiya sarfiga mos keladigan yetarli energiya qiymatiga ega ovqat ratsioni.

• Ovqat ratsionidagi maksimal xilma-xillik, bu uning muvozanatini ta’minlashning asosiy shartidir.

• Ovqatlanishning optimal rejimi.

• Mahsulotlar va idish-tovoqlarni yetarli darajada texnologik qayta ishlash, ularning yuqori ta’mini va asl ozuqaviy qiymatini saqlashni ta’minlash.

• Bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olish.

• Oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizligini ta’minlash, shu jumladan, umumiy ovqatlanish birligining holati, yetkazib beriladigan oziq-ovqat mahsulotlari, ularni tashish, saqlash, tayyorlash va tarqatish holati bo‘yicha barcha sanitariya talablariga rioya qilish.

O‘sib borayotgan bola organizmi uchun turli oziq moddalar, ayniqsa, oqsillarning ahamiyati juda muhim. Oqsil manbalariga go‘sht, baliq, sut va sut mahsulotlari, tuxum (hayvon oqsillari), shuningdek, non, don mahsulotlari, sabzavotlar (o‘simlik oqsillari) kiradi. Bolaning ovqatlanishida oqsil yetishmasligi nafaqat normal o‘sish va rivojlanishni sekinlashtiradi, balki infeksiyalarga va boshqa salbiy tashqi omillarga qarshilikni kamaytiradi. Shuning uchun oqsillarni doimiy ravishda maktabgacha yoshdagi bolalar ratsioniga kiritish kerak.

Oqsillarni yaxshi so‘rilishi, tanadagi hujayralar va to‘qimalar tomonidan to‘liq ishlatilishi uchun bu moddalarni nafaqat yetarli miqdorda bo‘lishi, balki ularning uglevodlar va yog‘lar miqdori bilan to‘g‘ri nisbati ham zarur. Eng qulay kombinatsiya – bu har bir gramm yog‘ uchun 1 g oqsil va 4 g uglevod.

Yog‘ manbalari sariyog‘ va o‘simlik moyi, qaymoq, sut mahsulotlari (smetana, tvorog, pishloq), shuningdek go‘sht, baliq va boshqalar.

Uglevodlarning manbalari – shakar, shu jumladan, mevalar, qandolat mahsulotlari, sabzavotlar, non, yormalar, sut tarkibidagi sut qandidir. Uglevodlarning o‘rni bolalarning yuqori harakatchanligi va jismoniy faolligi tufayli muhim. Mushaklarning faol ishlashi ko‘p energiya, uglevodlarga boy ovqatni talab qiladi.

Bola ovqat ratsionida oqsil, uglevod va yog‘lar bilan bir qatorda mineral tuzlar va vitaminlar ham juda muhim ahamiyatga ega.

Mineral tuzlar va mikroelementlar organlar, to‘qimalar, hujayralar va ularning

tarkibiy qismlari uchun qurilish materialidir. Ularning tanaga kirishini ta’minlash, ayniqsa, bolaning faol o‘sishi va rivojlanishi davrida muhimdir. Mineral tuzlar organizmdagi suv almashinuvida, ko‘plab fermentlarning faoliyatini tartibga solishda muhim rol o‘ynaydi. Mineral moddalar organizmdagi tarkibiga qarab ikki guruhga bo‘linadi: makroelementlar yoki mineral tuzlar (natriy, kaliy, kalsiy, fosfor, magniy, xloridlar, sulfatlar va boshqalar) va mikroelementlar (temir, mis, rux, xrom, marganets, yod, ftor, selen va boshqalar). Tanadagi makroelementlarning tarkibi 1 kg gacha bo‘lishi mumkin. Mikroelementlar o‘n yoki yuz milligrammdan oshmaydi.

To‘g‘ri o‘sishi va rivojlanishi uchun bola vitaminlarga boy ovqatga muhtoj. Vitaminlar yuqori biologik faollikka ega bo‘lgan organik moddalardir, ular inson tanasi tomonidan sintez qilinmaydi yoki yetarli bo‘lmagan miqdorda sintezlanadi, shuning uchun ularni oziq-ovqat bilan iste’mol qilish kerak. Vitaminlar ajralmas oziqaviy omillardir. Oziq-ovqat tarkibidagi vitaminlarning tarkibi oqsillar, yog‘lar va uglevodlarga qaraganda ancha past, shuning uchun bolaning kunlik ovqatlanishida har bir vitaminning yetarli miqdorini doimiy nazorat qilish zarur.

Vitaminlar oqsillar, yog‘lar va uglevodlardan farqli o‘laroq, inson tanasi to‘qimalari va organlarining yangilanishi va shakllanishi uchun qurilish materiali yoki energiya manbai bo‘lib xizmat qila olmaydi. Ammo, ular fiziologik va biokimyoviy jarayonlarning samarali tabiiy regulyatorlari bo‘lib, ular organizmning aksariyat hayotiy funksiyalarini, uning a’zolari va tizimlarining ishini ta’minlaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning aksariyati bolalar bog‘chasiga qatnaydilar, u yerda ular kuniga to‘rt marta yoshiga mos ovqatlanishadi. Shu sababli, uydagi ovqat ratsioni bolalar bog‘chasidagi ovqat ratsionini almashtirmasdan, to‘ldirishi kerak. Shu maqsadda har bir guruhda tarbiyachilar har kuni ota-onalar bilan tanishishlari uchun menyu joylashtiradilar. Shuning uchun, uyda, bolaga aynan u kun davomida olmagan mahsulotlarni berish muhimdir.

Uyda bolalar uchun ovqatlanishni tashkil qilish bo‘yicha ota-onalar uchun maslahatlar:

• Birinchidan, oziq ratsioni har xil bo‘lishi kerak.

• Ikkinchidan, oziq-ovqat xavfsiz bo‘lishi kerak.

• Uchinchidan, tayyorlangan ovqatlarning ta’m jihatdan yuqori sifatli bo‘lishini ta’minlash kerak. Shu bilan birga, bola uchun oziq-ovqat haddan tashqari sho‘r, shirin bo‘lmasligi lozim.

• To‘rtinchidan, muvozanatli va to‘yimli ovqatlanish uchun har kuni bolalar ratsioniga sut mahsulotlari, meva va sabzavotlarni kiritish darkor.

• Beshinchidan, ovqatlanish rejimini kuzatish kerak. Ovqatlanish orasidagi tanaffus 3-4 soatdan oshmasligi, kamida bir yarim soat bo‘lishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Innovatsion fan-ta’lim tizimini rivojlantirishning barkamol avlodni voyaga yetkazishdagi roli va ahamiyati ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. 1-kitob 30 may 2014-yil. – T., 2014

Dildora KENJAYEVA,
Qarshi davlat universiteti “Maktabgacha ta’lim” kafedrasi o‘qituvchisi, p.f.n.
Gavhar ABDULLAYEVA,
Qarshi davlat universiteti “Maktabgacha ta’lim” kafedrasi 2-bosqich magistranti

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING KREATIVLIGINI TASVIRIY FAOLIYAT VOSITALARI ASOSIDA SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

Annotatsiya

Mualliflar ushbu maqolada maktabgacha yoshidagi bolalarda tasviriy san’atga bo‘lgan qiziqishni uyg‘otish, tarbiyalash va rivojlantirishga oid fikr-mulohazalarini bayon etgan. Shuningdek, bolalardagi iqtidorni yuzaga chiqaruvchi tavsiyalar va ko‘rsatmalar berilgan.

Kalit so‘zlar. Ijodkorlik, applikatsiya, akvarel, tasvir, rang.

В этой статье автор обсуждает свои идеи о том, как пробудить, воспитать и развить интерес к изобразительному искусству у детей дошкольного возраста. Также есть советы и рекомендации по развитию детских талантов.

Ключевые слова. Творчество, аппликация, акварель, изображение, цвет.

In this article, the author discusses his ideas on how to awaken, nurture and develop an interest in the visual arts in preschool children. There are also tips and tricks for developing children's talents.

Key words. Creativity, applique, watercolor, image, color.

Maktabgacha yoshdagi bolalik – bu ijodiy rivojlanishning birinchi asosiy bosqichidir. Har qanday yangi taassurotni maktabgacha yoshdagi bola o‘zining noyob ichki dunyosi orqali singdiradi. Ijodkorlik maktabgacha yoshdagi bolalarning fikrlarini, ularning his-tuyg‘ulari va atrof-muhitga bo‘lgan munosabatini aks ettiradi, bola shaxsiyatining barcha jihatlariga ta’sir qiladi va shu bilan uni rivojlantiradi. Bundan tashqari, ijodkorlik atrofdagi voqelikni bilish bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ularning subyektiv namoyon bo‘lishini rivojlantirish uchun katta salohiyatli imkoniyatlarga ega, chunki ijodkorlik tanlov qilishga asoslanadi (bola o‘zi qilishni xohlagan faoliyatni tanlashdan tortib, o‘z rejasini amalga oshirish uchun mavzu yoki material tanlashgacha va boshqalar).

Ijodkorlik muammosi asrlar davomida olimlar va mutafakkirlarning diqqatini jalb qilib kelmoqda (F. Akvinskiy, Bergson, N.A. Berdyayev, V.M. Bexterev, S. Lombrozo, Platon, A.A. Potebnya, Suqrot, V.S. Solovyov, Shelling va boshqalar) va zamonaviy jamiyatda dolzarb bo‘lib qolmoqda (D.B. Bogoyavlenskaya, A.V. Brushlinskiy, N.A. Vetlugina, L.S.Vigodskiy, J. Gilford, V.N.Drujinin, N.N. Podyakov, Y.A. Ponomaryov, E. Torrens va boshqalar).

Tasviriy faoliyat vositalari orqali maktabgacha yoshdagi bolalarni ijodiy rivojlantirish va badiiy ijodi muammolari bilan N.A. Vetlugina, T.G. Kazakova, T.S. Komarova, V.B. Kosminskaya, N.P. Sakulina va boshqalar shug‘ullanganlar.

T.S. Komarova maktabgacha yoshdagi bolalarni ijodiy rivojlantirish, ularning to‘laqonli estetik va intellektual rivojlanishi uchun quyidagi shartlarni ta’riflaydi:

• rasm chizish, buyum yasash, applikatsiya yig‘ish, teatr va musiqiy faoliyatga ustuvor e’tibor berilishi kerak, chunki bu nafaqat bolalar shaxsini har tomonlama rivojlantirishga yordam beradi, balki hissiy farovonlik muhitini yaratishga imkon beradi va bolalar hayotini qiziqarli mazmun bilan to‘ldiradi;

• ta’limning tarkibiy qismi bolalar uchun qiziq bo‘lishi, badiiy-ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishi, san’at turlarini birlashtirish asosida qurilishi, bolalar bilan ishlashning turli uslub va usullaridan foydalanishi kerak;

• guruh xonalarida badiiy va estetik rivojlanish muhitini yaratish kerak (xonani bolalar bilan birgalikda bezash va ularning rasmlari, yasagan buyumlari, applikatsiyalaridan foydalanish tavsiya etiladi).

• o‘qitish shakllari, vositalari va usullarini, bolalarga beriladigan ish uchun materiallarni turkumlashtirish zarur.

Biz maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsining estetik sohasiga chuqurroq ta’sir ko‘rsatish maqsadida she’riyat, musiqa, qo‘shiq yozishning ifodali imkoniyatlaridan foydalangan holda quvonch, ajablanish va zavqlanish hissini uyg‘otadigan yorqin, rang-barang badiiy asarlarning tasviriy faoliyatining mashg‘ulotlardagi namoyishini ushbu shartlarga qo‘shish haqqoniy bo‘ladi deb hisoblaymiz.

Tasviriy faoliyat mashg‘ulotlarida bolalar bilan ishlashning xilma-xilligi, chiroyli va xilma-xil materiallar, takrorlanmaydigan vazifalar bolalar e’tiborini tortadi, ularning ijodiy tasavvurlarini va o‘zini-o‘zi ifoda etish istagini faollashtiradi.

Tasvirga ega bo‘lish uchun bola g‘ijimlangan qog‘ozni bo‘yoqli yostiqchaga bosadi va qog‘ozga bosib iz qoldiradi. Boshqa rangni olish uchun likopcha ham, g‘ijimlangan qog‘oz ham o‘zgartiriladi. Ifoda vositasi bo‘lib dog‘, faktura va rang xizmat qiladi. Materiallar: guash bilan singdirilgan yupqa yostiqcha to‘shalgan likopcha yoki plastik quticha, har qanday rang va o‘lchamdagi qalin qog‘oz, g‘ijimlangan qog‘oz bo‘lakchalari:

– bola oq qog‘ozga mumli qalamchalar bilan rasm chizadi. Keyin varaqni bir yoki bir nechta rangda akvarel bilan bo‘yaydi. Bo‘rchalar bilan chizilgan rasm bo‘yalmaydi. Ifoda vositasi bo‘lib rang, chiziq, dog‘ va faktura xizmat qiladi. Materiallar: mumli bo‘rchalar, qalin oq qog‘oz, akvarel, mo‘yqalamlar.

– keyin varaqni bir yoki bir nechta rangda akvarel bilan bo‘yaydi. Sham bilan chizilgan rasm oqligicha qoladi. Ifoda vositasi bo‘lib rang, chiziq, dog‘ va faktura xizmat qiladi. Materiallar: sham, qalin qog‘oz, akvarel, mo‘yqalamlar.

– tasvirga ega bo‘lish uchun bola porolonli tamponni siyohli yostiqcha ustiga bosadi va trafaret yordamida qog‘ozga iz qoldiradi. Rangni o‘zgartirish uchun boshqa tampon va trafaretni olinadi. Ifoda vositasi bo‘lib rang, dog‘ va faktura xizmat qiladi. Materiallar: guash bilan singdirilgan ingichka porolondan yasalgan shtamp yostiqchasi, har qanday rangdagi qalin qog‘oz, porolonli tampon (kvadratning o‘rtasiga mato yoki porolonli sharik qo‘yiladi va kvadratning burchaklari ip bilan bog‘lanadi), shaffof plyonkadan tayyorlangan trafaretlar.

Bola bo‘yoqni plastik qoshiq bilan yig‘ib, varaqga quyib, mayda dog‘ (tomchi) hosil qiladi. Keyin naychadan shunday puflaydiki, bunda uning uchi dog‘ga ham qog‘ozga ham tegmasin. Agar kerak bo‘lsa, taomil takrorlanadi. yetishmayotgan kamchiliklari chiziladi. Ifoda vositalari dog‘ hisoblanadi. Materiallar: qog‘oz, siyoh yoki likopchada suyultirilgan guash, plastik qoshiqcha, naycha (ichimliklar uchun naycha).

Keyin uning bir uchini bo‘sh qoldirib, qog‘ozga ipdan tasvir tushiradi. Shundan so‘ng, u yana bir varaqni qoplaydi, bosadi, uni qo‘l bilan ushlab turadi va ipni uchidan tortib oladi. Yetishmayotgan kamchiliklari chiziladi. Ifoda vositalari dog‘ hisoblanadi.

Materiallar: qog‘oz, tush yoki idishda suyultirilgan guash, plastik qoshiq, o‘rtacha qalinlikdagi ip.

Bola tish cho‘tkasini bo‘yoqqa botiradi va tuklarni qog‘oz varag‘iga yo‘naltirib, barmog‘ini pastdan yuqoriga qarab keskin yuritadi. Qog‘ozga bo‘yoq sachraydi. Ifoda vositalari nuqta va faktura hisoblanadi. Materiallar: qog‘oz, likopchada suyultirilgan guash, tish cho‘tkasi.

Tasvirga ega bo‘lish uchun bola daraxt bargini har xil rangdagi bo‘yoqlar bilan qoplaydi, so‘ngra uning izini olish uchun uni bo‘yalgan tomoni bilan qog‘ozga bosadi. Har safar yangi barg olinadi. Barglarning poyalarini mo‘yqalam bilan bo‘yash mumkin. Ifoda vositalari rang va faktura hisoblanadi. Materiallar: qog‘oz, turli xil daraxtlarning tushgan barglari, guash, mo‘yqalamlar.

Tasvirga ega bo‘lish uchun bola qalamning to‘mtoq uchini kvadrat qog‘oz o‘rtasiga qo‘yadi va kvadrat qirralarini aylanma harakat bilan qalamga o‘rab oladi. Kvadrat chetini qalamdan siljimasligi uchun barmog‘i bilan ushlab turib, bola uni yelimga botiradi. Keyin u kvadratchani qalam bilan bosib, asosga yopishtiradi. Shundan keyingina u qalamni chiqarib oladi, o‘ralgan kvadrat esa qog‘ozda qoladi. Qog‘ozning kerakli miqdordagi maydoni o‘ralgan kvadratchalar bilan to‘ldirilguncha taomil ko‘p marta takrorlanadi. Ifoda vositalari faktura va hajmdir. Materiallar: ikki tomonlama rangli to‘rtburchaklar qog‘ozlar (2x2 sm), jurnal va gazeta qog‘ozi (masalan, tipratikan ignalari uchun), qalam, likopchada PVA yelim, asos uchun qattiq qog‘oz yoki rangli karton.

Tasvirga ega bo‘lish uchun bola butun qog‘oz varag‘ini rangli qalam yoki mumli bo‘rchalar bilan bo‘yaydi, so‘ngra uni mum qatlami bilan qoplaydi va unga suyuq sovunli tush suradi. Quriganidan so‘ng, rasmni tayoqcha bilan qiradi. Ifoda vositalari shtrix, rang va chiziqdir.

Tasvirga ega bo‘lish uchun bola varaqni ikki katlaydi. Varaqning yarmiga manzara chizadi, ikkinchisiga uning ko‘ldagi yoki daryodagi aksi (izi) olinadi. Ranglar qurib qolmasligi uchun manzara tezda bajariladi. Tamg‘a uchun mo‘ljallangan varaqning yarmi nam shimgich bilan artib olinadi. Dastlabki rasm, undan bosma nusxa olingandan so‘ng, tamg‘a izidan ajralib turishi uchun bo‘yoqlar bilan jonlantiriladi. Monotip uchun, shuningdek, rasm bo‘yoq bilan tushiriladigan qog‘oz varag‘i va kafel plitkasidan foydalanish mumkin, keyin u nam qog‘oz varag‘i bilan qoplanadi. Manzara xira chiqadi. Ifoda vositalari – bu dog‘, tus, vertikal simmetriya va bo‘shliqning kompozitsiyadagi tasviri. Materiallar: qog‘oz, mo‘yqalamlar, akvarel, nam shimgich, kafel plitkasi.

Yuqorida aytib o‘tilganlar tasviriy faoliyat bolalarning badiiy-ijodiy faoliyatining samarali turi, tabiat va jamiyatning turli xil hodisalari haqida bola taassurotlarining obrazli tatbiq etilishi, shuningdek, ularga nisbatan munosabatni ifodalashi haqida xulosa qilishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ветлугина Н. А. Художественное творчество и ребенок. – М.: Педагогика, 1972. С.– 287.

2. Давыдова Г. Н. Нетрадиционные техники рисования в детском саду. Часть 2. – М.: Издательство скрипторий 2003, 2008. С.–72.

3. Казакова Р. Г. Рисование с детьми дошкольного возраста: нетрадиционные техники, планирование, конспекты занятий / Т. И.

Ra’no RASHIDOVA,
Qarshi davlat universiteti “Maktabgacha ta’lim” kafedrasi o‘qituvchisi

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARI TARBIYALANUVCHILARIDA MILLIY TUYG‘ULARNI SHAKLLANTIRISHNING MUHIM AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarida kichik yoshdagi bolalar ma’naviy sifatlari rivojida milliy-ma’naviy qadriyatlaridan unumli foydalanish yaxshi natija beradi. Milliy qadriyatlarga taalluqli bilim tufayli bolalar avlodi o‘tmishini ota-onasi, bobo-buvisining ajdodlari bilan tanishtiradi, Vatan o‘tmishini tasavvur etish imkoniyatini beradi, vatanparvarlik tuyg‘usini o‘stirishi haqida fikr-mulohazalar yuritilgan.

Kalit so‘zlar. Bilim, milliy qadriyat, maktabgacha ta’lim tashkiloti, kichik yoshdagi bolalar, vatanparvarlik.

Статья показывает, что эффективное использование национально-духовных ценностей в развитии духовных качеств детей младшего возраста у воспитанников дошкольной образовательной организации дает хороший результат. Высказывались мнения о том, что благодаря знаниям, касающимся национальных ценностей, поколение детей знакомит свое прошлое с родителями, предками бабушек и дедушек, дает возможность представить себе прошлое родины, воспитывает чувство патриотизма.

Ключевые слова. Знания, национальная ценность, дошкольная организация, дети младшего возраста, патриотизм.

The article shows that the effective use of national and spiritual values in the development of the spiritual qualities of young children in preschool education gives good results. Thanks to the knowledge of national values, children are introduced to the past of their parents, grandparents, give an opportunity to imagine the past of the homeland, to cultivate a sense of patriotism.

Key words. Knowledge, national value, preschool organization, young children, patriotism.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardan boshlab xalqimizning qadriyatlari, azaliy an’analari, udumlari, tili, dunyoqarashi va tafakkuriga asoslanib ish ko‘rayotganimiz o‘z samarasini bermoqda. Darhaqiqat, yosh avlod tarbiyasiga bizning davlatimizdek qayg‘uradigan va uning kelajagi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qiladigan biror mamlakat bo‘lmasa kerak. Mustaqillik milliy g‘urur, vatanga yurtga muhabbat, fidoiylik, mehr-shafqat, oqibat, ota-onaga hurmat tuyg‘ularini kamol toptirishda cheksiz imkoniyatlar yaratdi. Mehr-shafqat, oqibat, o‘zbekona xislat hayot mazmuni.

Dunyodagi xalqlar orasida aynan shu millatning borligi, mavjudligi, betakrorligi sifatida zohirligi har qanday kishi uchun ahamiyatga ega bo‘lishi tabiiy. Millat har qanday milliy qadriyatning obyekti, milliy qadriyatlar tizimi tayanadigan ijtimoiy asosdir.

Maqsadimiz buyuk davlat qurish bo‘lgan jamiyatda yoshlarga nisbatan shunday siyosat olib borish tabiiy. Axir, mustaqil davlatimizning ertangi kuni hozirgi yosh avlod qo‘liga o‘tadi. Ular O‘zbekiston o‘z Vatani mustaqilligining muqaddas bo‘lishi, uning rivojlangan va gullab-yashnagan o‘lkaga aylanishi uchun bor kuch va aql-zakovatini

safarbar qilishini barchamiz istaymiz.

Bu borada muayyan ishlar qilingan. Umuman yosh avlod tarbiyasida maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachi va murabbiylarning mas'uliyati haqida ham unutmaslik kerak.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da maktabgacha ta'lim davlatimizning uzluksiz ta'lim tizimida ilk pog'ona ekanligini ko'rsatib berilgan bo'lib, uning asosiy vazifasi yosh avlod shaxsiyati asoslarini shakllantirishdan iboratdir.

Maktabgacha ta'lim bola shaxsini sog'lom va yetuk, shu bilan birga maktabga tayyorlagan holda shakllantirish maqsadini ko'zlaydi. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning 11-moddasida: "Bu ta'lim 6-7 yoshgacha oilada, bolalar bog'chasida va mulk shaklidan qat'i nazar, boshqa ta'lim muassasalarida olib boriladi" – deb ta'kidlangan. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiya berishning bosh maqsadlaridan yana biri, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarida milliy g'ururni shakllantirishdir.

Milliy tuyg'uni maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari qalbiga singdirishdan asosiy maqsad: bolalar qalbiga sevish va faxrlanish, g'ururlanish tuyg'usini uyg'otish. Negaki, milliy g'urur xalqimizning milliy qadriyatlari, urf-odatlari, o'z ona tiliga asoslangan. Shu bois, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarida milliy tuyg'uni shakllantirishning mavjud holati o'rganilishi lozim.

Darhaqiqat, ta'lim-tarbiya qanchalik erta boshlansa, uning samarasi shunchalik erta namoyon bo'ladi va insonning butun hayoti tarziga ijobiy ta'sir qiladi.

Maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayonini tarbiyachilar tomonidan to'g'ri tashkil etilishi, mas'ul shaxslar tomonidan uni nazorat qilinishining afzalligini ta'minlash, maktabgacha yoshdagi bolalar ota-onalarining oilada bola tarbiyasi bilan shug'ullanishi uchun qulaylik yaratish maqsadida "Bolajon" tayanch dasturi, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, maktabgacha ta'lim Konsepsiyasi hamda maktabgacha ta'limga qo'yiladigan davlat talablari asosida ishlab chiqildi. "Bolajon" tayanch dasturi maktabgacha ta'lim tizimidagi barcha muassasalar uchun bajarilishi zarur bo'lgan dastur hisoblanadi.

Dasturda bolalarni jismoniy, aqliy hamda ijtimoiy-hissiy jihatdan kamol toptirish, bolalarni erkin fikrlash, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, axloqiy va milliy g'ururli va ma'naviy jihatdan barkamol, shuningdek, kelajakda mustaqil va ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish uchun shart-sharoitlardan iborat.

Maktabgacha ta'limga qo'yiladigan davlat talablarining bajarilishiga erishishdan, ya'ni maktabga jismonan sog'lom, aqlan va ma'nan yetuk, jamiyatning turli a'zolari bilan muloqotda bo'la oladigan, borliqni aniq idrok etadigan, hayotga ijtimoiy jihatdan moslashuvchi, umummilliy qadriyatlarimizni qadrlaydigan, shuningdek, mustaqil va ongli yashaydigan bolani tayyorlashdan iborat.

Ta'lim jarayonida tarbiya – uzluksiz jarayon bo'lib, u pand-nasihatlar berish bilan cheklanmaydi, balki maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bu ikki yo'l bilan kattalarning bevosita ta'siri, ya'ni o'rgatishi, donolar fikrlari, o'gitlari va asarlarini o'qib berishi va rivojlantiruvchi muhitni yaratib, bolaning mustaqil fikrlashi, atrofdagi odamlar xatti-harakatlarini kuzatishi natijasida, to'g'ri xulosalar chiqarib olishga yordam berish orqali tarbiyalanadi.

Bolalar qalbida o'z xalqiga muhabbat va hurmat tuyg'ularini tarkib toptirish, milliy g'ururni tarbiyalash, ularga o'zbek xalqining mehr-oqibatli, mehmondo'st, mehnatsevar va kamtarin ekanligini singdirish, O'zbekistonning mustaqilligi, madhiyasi, gerbi va

bayrog‘i haqidagi bilimlarni shakllantirib borish maqsadga muvofiqdir.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarida milliy tuyg‘uni shakllantirish maqsadida o‘tilayotgan mashg‘ulotlar mavzulari bolaning har tomonlama rivojlanishiga, yuksak odob-axloqli, milliy g‘ururli komil inson bo‘lib tarbiyalashiga yordam bermog‘i lozim.

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda milliy g‘ururni shakllantirishda nafaqat maktabgacha ta’lim tashkilotlari, balki oilaning ham mavjud holatini o‘rganish muhim ahamiyatni kasb etadi. Chunki, bolalarning bo‘sh vaqti, asosan, uyda, oilada davrasida o‘tadi. Buni hisobga olmaslik, yosh avlod tarbiyasida ota-onaning burchi va vazifalari haqida yanada chuqurroq o‘ylamasak xato bo‘ladi.

Milliy tuyg‘uning bir jihati Vatanga, millatga, elu yurtga sadoqat bilan xizmat qilishdir. Vatanini sevmagan, millatining tarixi va taqdiriga loqayd qaraydigan insonning komilligi haqida so‘z bo‘lishi mumkin emas.

Oila tarbiyasida doimiy ta’sirchan kuch oiladagi munosabat, oila muhiti, oila a’zolarining o‘zaro aloqasi, ota-ona, aka-uka va boshqalarning xulq-atvori, madaniy va siyosiy saviyasi, muomala madaniyati, oilaning daromadi, yashash sharoiti va boshqa holatlar bola kamolotiga ta’sir qiladigan asosiy omillardir. Oila qanchalik tartibli, yaxshi hulq-atvorli, uning a’zolarining o‘zaro munosabatlari samimiy bo‘lsa, oila tarbiyasi ham shunchalik samarali bo‘ladi.

Bola voyaga yetib, unda fikrlash alomatlari namoyon bo‘lsa, uni yaxshi kuzatish va ahvolini o‘rganish lozim bo‘ladi. Chunki bolaning qalbi sodda va toza bo‘lib, u har qanday naqshni qabul qilishga tayyor. Agar yaxshilikka odatlantirilsa, yaxshilik bilan ulg‘ayadi. Agar yomonlikka odatlansa, yomonlik bilan ulg‘ayadi va javobgarlik uning yaqinlari bo‘yniga tushadi.

Milliy g‘urur, vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish, har bir ota-onaning, tarbiyachi-murabbiylarning, jamoatchilikning Vatan oldidagi burchidir.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining kelgusida qanday inson bo‘lib yetishishi ko‘p jihatdan, maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisiga, eng yaqin kishilari ota-onalarining o‘zaro muomala madaniyatlariga, aloqalariga bog‘liqdir.

Shu bois, maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarini yoshlikdan xalq va yurt taqdiri uchun fidoiylik tuyg‘usini shakllantirish mafkuraviy tarbiyada muhim o‘rin tutadi. Buning uchun bola hayotining dastlabki yillaridan boshlab uni narsalar olami bilan tanishtirishning milliy an’analarimizga xos shakllarini qo‘llash lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. –T., 2016-y. 29-dekabr.

2. Karimov I .A. Yusak ma’naviyat yengilmas kuch. –T.: Ma’naviyat, 2008-yil.

3. Qurbonov N.M. Milliy tarbiya. – T.: Ma’naviyat, 2007-yil.

4. “Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar”. –T.: O‘zbekiston, 2000-yil.

Laylo PARMONOVA,
Qarshi davlat universiteti “Maktabgacha ta’lim” kafedrasi magistranti

MAKTABGACHA TA’LIM YOSHIDAGI BOLA UMUMIY RIVOJLANISHIDA MONTESSORI METODIKASINING O‘RNI

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar tafakkurini, motorikasini rivojlantirishda Montessori metodikasining ahamiyati haqida ma’lumot berilgan. Shuningdek, Montessori metodikasining asosiy prinsiplari, amalga oshirish yo‘llari va ijobiy natijalari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar. Bola, Montessori metodikasi, sensor rivojlanish, motorika, nutq.

В статье приводятся сведения о значении методики Монтессори в развитии мышления, моторики детей дошкольного возраста. Также были проанализированы основные принципы методики Монтессори, пути ее реализации и положительные результаты.

Ключевые слова. Ребенок, методика Монтессори, сенсорное развитие, моторика, речь.

The article provides information about the importance of the Montessori method in the development of thinking and motor skills of preschool children. The main principles of the Montessori method, ways of its implementation and positive results were also analyzed.

Key words. Child, Montessori technique, sensory development, motor skills, speech.

Bola tug‘ilishi bilan har bir onaga yangi shaxsiyatni va uning eng yaxshi fazilatlarini rivojlantirishga hamda “bu dunyoda mustaqil yashashni” o‘rgatish uchun noyob imkoniyat beriladi. Afsuski, hech bir ta’lim muassasasida bolalarni qanday tarbiyalash usullari, metodikasi o‘rgatilmaydi va yosh ona o‘z imkoniyati, tarixiy tajribalar va qadriyatlarga tayangan holda harakat qilishi lozim bo‘ladi. Bunda ota-onalar va tarbiyachilar ma’lum bir qiyinchiliklarga duch kelishadi.

Mariya Montessori – shifokor, o‘qituvchi, olim va bolalarni o‘qitishning yetakchi uslublari muallifi. U Italiyada tibbiy ma’lumot olgan va aqli zaif bolalar bilan ishlashni boshlagan birinchi mutaxassislardan biridir. XX asrning boshlarida u ishlab chiqqan dastur bolaning o‘zini-o‘zi tarbiyalash g‘oyasiga asoslangan edi. Aqliy rivojlanishdan orqada qolgan bolalar ta’lim-tarbiyasida Montessori metodikasidan foydalanilganda darslar boshlanganidan bir yil o‘tgach, ular o‘zlarining tengdoshlariga qaraganda chuqurroq bilimlarni namoyish etib, fan olimpiadalarida birinchi o‘rinlarni egallay boshlaganlar. Ushbu holat esa pedagogika sohasi vakillarini hayratda qoldirdi. Bunday muvaffaqiyatdan so‘ng Montessori tajribasi dunyo miqyosida tan olindi va u ishlab chiqqan Montessori tizimi normal bolalar ta’lim-tarbiyasida ham qo‘llanila boshlandi.

Mariya Montessori metodikasini amaliyotga tatbiq etish katta yoshdagilar tomonidan bolaning qiziqishlarini tushunishga, to‘liq rivojlanishi uchun sharoit yaratishga va kichkintoy qanday qilib ko‘proq narsani o‘rganishi mumkinligini tushunishga imkon beradi. Muayyan yoshdagi bolani qanday aniq obyektlar va o‘yinlar qiziqtirishi mumkinligi, rivojlanish darajasining muhim bosqichlari haqida ma’lumot beradi. Bolaning maktabgacha yosh davri ma’lumotlarni eng yaxshi qabul qiladigan davrdir. Masalan, inson erta bolalikdan o‘z tilini juda oson o‘rganishi ma’lum, 6 yoshdan keyin yozishni o‘rganishga ehtiyoj paydo bo‘ladi va bolani bu yoshda gapirishga majbur qilish juda

qiyin. Ushbu davrlar bir-birining o‘rnini to‘ldiradi, ammo hech qachon takrorlanmaydi.

Mariya Montessori tomonidan tashkil etilgan maktablarning afzalligi shundan iboratki, uning maktablaridagi xonalar didaktik materiallar bilan to‘ldirilgan tematik bloklarga bo‘linadi. Ushbu bo‘linish bolaga kerakli narsalarni topishga yordam beradi, ular shovqinsiz va o‘zlarining xohish-istaklariga mos ravishda predmetlarni o‘rganib chiqishlari mumkin bo‘ladi. Bola bugungi mashg‘ulotda nima qilishini o‘zi hal qiladi. U mustaqil ravishda kerakli buyumlarni oladi, uni o‘rganadi, o‘rganib bo‘lib uni joyiga qo‘yadi va keyin yangi materialga o‘tadi. Bunday metodika bilan Montessori erkinlik, mustaqillik asosida bola shaxsini rivojlantirish yo‘lini targ‘ib qiladi.

Montessori klassik maktabida beshta shunday zonalar mavjud:

• amaliy ko‘nikmalar;

• sensor rivojlanish;

• matematik zona;

• og‘zaki va yozma nutqni rivojlantirish;

• olamni idrok qilish zonasi (kosmik rivojlanish).

Montessori metodikasining an’anaviy ta’lim usullaridan farqlovchi quyidagi xususiyatlari mavjuddir:

• metodikani turli yoshdagi guruhlarda qo‘llash mumkin. Eng keng tarqalgan yosh guruhlari 3 yoshdan 6 yoshgacha bo‘lgan davr;

• ishtirokchilar mavjud bo‘lgan variantlar orasidan o‘zlari uchun mustaqil dars variantini tanlaydilar;

• “Kashfiyotlar orqali o‘rganish” modeli qo‘llaniladi. Bunda bolalar o‘qituvchi tushuntirishlaridan ko‘ra materiallar bilan mustaqil ishlash orqali ko‘proq tushunchalarni o‘rganadilar;

• mashg‘ulot o‘tkaziladigan xona bo‘ylab ishtirokchilarning harakat erkinligi ta’minlanadi.

Montessori metodikasi asosida ishlaydigan maktablar sinovlar va baholashning yo‘qligi bilan ajralib turadi (ba’zi zamonaviy Montessori o‘rta maktablarida baholardan foydalaniladi), vazifalarni birgalikda muhokama qilish tavsiya etiladi.

Montessori metodikasida o‘qituvchining vazifasi vositachilik bo‘lib, ta’lim autodidaktizm (o‘z-o‘zini o‘rganish) asosida amalga oshirilishi kerak, shuning uchun kattalar bolalarga o‘z fikrlarini va o‘z qarashlarini bolalarga singdirishga harakat qilmaydilar va bu holat ularning tabiiy rivojlanishiga to‘sqinlik qilmaydilar.

Rivojlanishning ikkinchi davri 6 yoshdan 12 yoshgacha davom etadi. Ushbu davr mobaynida Montessori bolalarda jismoniy va psixologik o‘zgarishlarni alohida qayd etadi. Shuningdek, auditoriyada maxsus muhitni yaratadi, darslarga mos keladigan materiallarni tayyorlaydi. Jismoniy o‘zgarishlar orasida u sut tishining yo‘qolishi va oyoq va tananing bir xil o‘sishini qayd etadi. Psixologik o‘zgarishlar orasida “ommaviy instinkt” yoki boshqa so‘zlar guruhlarda ishlash va muloqot qilish, shuningdek, aql va tasavvurni rivojlantirish tendensiyasi mavjud. Uning fikricha, ikkinchi bosqichning asosiy vazifasi bolaning intellektual mustaqilligini va ijtimoiy tashkilotchiligini shakllantirishdan iborat.

Rivojlanishning uchinchi davri 12 yoshdan 18 yoshgacha, shu jumladan, o‘smirlik davrida davom etadi. Montessori uchinchi davrni jinsiy yetuklikka, shuningdek, psixologik o‘zgarishlarga olib keladi. U bu asrning konsentratsiyasida psixologik beqarorlik va qiyinchiliklarni, shuningdek, ijodiy tendensiyalarni, adolat tuyg‘usini va o‘z-o‘zini hurmat qilish tuyg‘usini rivojlantiradi. Montessori, bu davrning asosiy vazifasi sifatida jamiyatda o‘z o‘rnini topish g‘oyasi ekanligini qayd etadi.

Rivojlanishning to‘rtinchi davri 18 yoshdan 24 yoshgacha davom etadi. Montessori bu davr haqida nisbatan kam yozilgan va bu yosh uchun maxsus ta’lim dasturi ishlab chiqilmagan. U Montessori metodikasini rivojlanishning dastlabki davrlarida ta’lim olgan bolalar rahbar bo‘lish uchun madaniyat va ilm-fanni o‘rganishga to‘liq tayyor ekanligiga ishonishadi.

Bola o‘zi bajara oladigan ishni uning o‘rniga bajarib bermang. Tarbiyachi yordam berishi mumkin, qachonki bolaning o‘zi yordam so‘rasa!

Agar bola topshiriqni bir necha marta qayta-qayta bajarsa ham sabr bilan kuting va kuzatishni davom eting.

Bolaga kundalik turmushda bajariladigan, bolaning imkoniyati yetadigan doimiy topshiriqni topshirish lozim. Masalan, har kuni ertalab gullarni sug‘orish, mushukka sut berish, nonushtadan so‘ng stolni artish.

Bolani maqtashni unutmang: “Juda yaxshi bajarding!”, “Sen bilan faxrlanaman!” va shu kabilar. Har qanday holatda ham bolaning yutuqlarini boshqa bolalarning yutuqlari bilan taqqoslash mumkin emas. Lekin yangi muvaffaqiyatlar doimo qayd etilishi kerak: “Bugun siz kechagidan ancha yaxshi ishladingiz!”.

Montessori metodikasidan foydalanish natijasida quyidagi ijobiy natijalarga erishish mumkin:

1. Bolalarda mustaqillik va ijtimoiy ko‘nikmalar rivojlanadi, jamoadoshlari va tarbiyachi bilan erkin muloqot qilish ko‘nikmasiga ega bo‘ladilar.

2. Zaruriy kundalik amaliy ko‘nikmalar egallanadi bolalar kiyinishni, qo‘llarini yuvishni, sochlarini tarashni, kiyimlarini taxlashni, ish qurollarini tartibga keltirishni va hokazolarni o‘rganadilar.

3. Bolalarning mantiqiy va analitik tafakkuri rivojlanadi.

4. Sabab-oqibat munosabatlarining dastlabki, asosiy asoslarini o‘zlashtiradilar.

5. Bolaning ehtiyojiga ko‘ra tabiiy ko‘nikma va malakalari rivojlantiriladi. Bola o‘z xohishiga amal qilgan holda bilim o‘rganar ekan, aynan shunday bilim uning salohiyati va iste’dodini rivojlantiradi.

6. Bolaning motorikasi rivojlantiriladi, mushaklar faolligi rivojlantiriladi, harakatlarni muvofiqlashtirishga o‘raganadi.

7. Atrofdagi dunyo, o‘simliklar, hayvonlar bilan tanishadi, dastlabki geografik bilimlar shakllantiriladi.

8. Ijodiy salohiyatlari rivojlantiriladi.

9. Mas’uliyat hissi, qoidalarga rioya qilish va boshlangan narsalarni oxirigacha yetkazish qobiliyati rivojlantiriladi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalar sensor qobiliyatlarini, tafakkurini rivojlantirishda Montessori metodikasidan foydalanish yuqori samara beradi. Bola ushbu metodika orqali predmetlarning xususiyatlarini sezgilar vositasida mustaqil ravishda, hech kimning yordamisiz o‘rganadi. Bu esa bolaning sensor qobiliyatlari, tafakkuri, idroki rivojlanishiga bevosita samarali ta’sir ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sodiqova Sh. Maktabgacha pedagogika. – T., 2013. – 287-b.

2. Yusupova P. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. – T.: O‘qituvchi, 1993. – 264-b.

Yulduz YARMANOVA,
Qarshi davlat universiteti “Boshlang‘ich ta’lim” kafedrasi o‘qituvchisi

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA SHAXSIY SIFATLARNI TARKIB TOPTIRISHNING PEDAGOGIK SHARTLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada tarbiyalanuvchi shaxsini rivojlantirish istiqbollari uning ijobiy shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirish va mustahkamlashga kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan bo‘lib, bolalar jamoasida ma’lum pedagogik shart-sharoitlarga amal qilishning o‘ziga xosligi haqida fikr bildirilgan.

Kalit so‘zlar. Tarbiyachi, tarbiyalanuvchi, bolalar jamoasi, shart-sharoitlar, funksiya.

В статье рассматриваются перспективы развития личности школьника, развития и закрепления его положительных личностных качеств и устранения недостатков, а также рассматриваются особенности соблюдения определенных педагогических условий в детском сообществе.

Ключевые слова. Воспитатель, ученик, детский коллектив, условия, функция.

The article examines the prospects for the development of the student’s personality, the development and consolidation of his positive personal qualities and the elimination of shortcomings, and also considers the peculiarities of observing certain pedagogical conditions in the children’s community.

Key words. Educator, student, children’s team, conditions, function.

Jamiyatda ma’lum ijtimoiy funksiyalar orqali o‘zini-o‘zi tasdiqlashga va o‘zini namoyon qilishga intilib, agar bu funksiyalar bolaning rivojlanishi uchun maqbul bo‘lgan faoliyat bilan bog‘liq bo‘lsa, uning layoqatini va qobiliyatini rivojlantiradi. Harakatlarni tanlashda, u bir tomondan o‘zining qobiliyatlari haqidagi ustun fikrlarga, ikkinchi tomondan jamoaning unga bo‘lgan munosabatiga e’tiborni qaratadi. Tengdoshlarning o‘z-o‘zini ishontirishga bo‘lgan urinishlariga bo‘lgan munosabati shaxsning o‘zini tanib olish jarayoniga tuzatishlar kiritadi. Bunday o‘zaro bog‘liqlik guruhdagi har bir bolaga nisbatan do‘stona muhit yaratilganida, bolalarning xususiyatlari jamoani ma’naviy-axloqiy qadriyatlari tizimining elementlariga aylangan hollarda ijobiy natijalar beradi. Agar biror kishi jamoa uchun ahamiyat kasb etmasa va bolaning o‘zi ham buni anglamasa, o‘zini-o‘zi tasdiqlash, o‘zini-o‘zi anglash jarayonida uni jamoaga yo‘naltirish muvaffaqiyatsiz tugatishi mumkin. Shu munosabat bilan guruhda mazmunli va xayrixoh muloqotni tashkil etishda tarbiyachining o‘rni va mas’uliyati ortib boradi. Tarbiyalash amaliyoti shuni tasdiqlaydiki, tarbiyachilar bolalar bilan tarbiya ishlarida bolalarning manfaatlarini, ularning layoqati va ehtiyojlarini yetarlicha e’tiborga olmasdan jamoani shakllantirishga mo‘ljalni olsalar, u holda ular o‘z oldilariga qo‘ygan vazifalarini yecha olmaydilar. Insonni jamoada tarbiyalash masalasi paydo bo‘lganda, u nimadan iborat bo‘lishini hal qilish muhimdir, chunki “tarbiya” tushunchasi – juda keng tushunchadir. Bunday holda jamoani shaxsning turli jihatlariga ta’siri haqida gap boradi. Guruh mazkur holda jamoaning tarbiyaviy tavsifi, quyidagi ko‘rsatkichlar bilan ifodalanishi mumkin. Xulq-atvorning tashqi xususiyatlaridagi o‘zgarishlar insonlarda

yangi ko‘nikmalar, odatlar va murojaat shakllarining paydo bo‘lishi, xulq-atvor, muloqot, faoliyat madaniyatida muayyan siljishlar, bu esa layoqatni yaxshilanishga olib keladi.

Tarbiyalanuvchi shaxsini rivojlantirish istiqbollari uning ijobiy shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirish va mustahkamlashga va kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Bolalar jamoasida fikrimizcha, ma’lum pedagogik shart-sharoitlarga amal qilish natijasida bu mumkin bo‘ladi, ular orasida eng muhimi quyidagilar:

1. Do‘stona bolalar jamoasini shakllantirish bilan har bir bolaga o‘ziga xos shaxs sifatida tabaqalashtirilgan yondashuvning organik uyg‘unligi.

Guruhdagi mavjud jamoaviy munosabatlarning o‘ziga xos xususiyatlarini bilgan va hisobga olgan holda, kattalar har bir bolaning faoliyati, qiziqishlari, sevimli mashg‘ulotlarini to‘g‘ri yo‘naltira olishi, shaxsiy intilishlarini jamoatchilik foydasi uchun rad etmaslik ko‘nikmasini tarbiyalash, balki ularni uyg‘unlashtirishni, har bir bolani asta-sekin bolalar muhitida o‘zini qulay his qilishini, unda o‘z o‘rnini o‘zi uchun zarur va boshqalar uchun muhim deb belgilagan holda shaxsiy va jamoa manfaatlarini qarama-qarshi qo‘yishning iloji yo‘q. Umuman olganda, ular bir-birini to‘ldirib, boyitib boradi.

Bola shaxsi uchun muhim bo‘lgan axloqiy fazilatlar: empatiya, hamdardlik, mehr-oqibat, ma’naviy saxiylik jamoaviy sharoitdan tashqarida namoyon bo‘lolmaydi, chunki ularni faqat yaqin odamlarga, masalan, ota-onalarga nisbatan namoyon etish, odamlar orasida jamiyatda yashaydigan va ulardan tushunish, g‘amxo‘rlik hamda o‘zini hurmat qilishni kutadigan shaxsning o‘zi uchun kelajaksizdir. Mazkur fazilatlar paydo bo‘lishida ular har bir bola uchun jamoaviy faoliyatda shaxsning o‘ziga xosligini ochib beradigan layoqatini hisobga olgan holda ishlab chiqilishi kerak. Bunday sharoitda jamoaning o‘ziga xos ta’siri – xudbinlik, takabburlik, o‘z xohish-irodasi va hokazo kabi salbiy hodisalarni yengishni tashkil etishdan iboratdir.

2. Individual xususiyatlarni aniqlagan holda har bir bolaga individual yondashuvni amalga oshirish. Bolaga individual yondashuvni to‘g‘ri amalga oshirish uchun avvalo, uni yaxshilab o‘rganish kerak bo‘ladi. Fanda bir xil yoshdagi bolalarga jismoniy va aqliy rivojlanishning tipik xususiyatlari tegishli bo‘lgan yoshga bog‘liq tavsifli belgilar deb qaraladi. Ammo yoshi bilan bir qatorda, tengdoshlar doirasidagi har bir bolaning o‘ziga xos xususiyatlarini rang-barang qiladigan individual xususiyatlar mavjud. Masalan; maktabgacha yoshdagi bolalarning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri, bu ularning hayotiy tajriba, bilim va ko‘nikmalarini bir-birlari bilan baham ko‘rishlaridir. Ko‘pincha bolalar MTTda bir-birlariga qanday qilib rasm chizishni, yasashni, turli xil materiallardan hunarmandchilik qilishni o‘rgatishlarini hamda zavq bilan muomala qoidalarini tushuntirishlarini kuzatish mumkin. Bu bolalar tabiatining faolligi, shuningdek, psixologik jihatdan bola har doim boshqa bolaga yaqinroq bo‘lishga intilishi bilan bog‘liq. Bolalarning ushbu yosh xususiyatidan jamoaviylik, do‘stlik va o‘zaro yordam hissini tarbiyalash uchun muvaffaqiyatli foydalanish mumkin. Yoshga bog‘liq bo‘lganligi sababli, u har xil bolalarda turlicha faollashishi va individuallikda namoyon bo‘lishi mumkin. Bir bola yaxshiroq chizadi va ushbu o‘ziga xos faoliyat turidan boshqa bolalarga nisbatan o‘zini ko‘rsatishga intiladi, boshqasi har xil mehnat turlarida yaxshi mustaqillik ko‘nikmalariga ega va tengdoshlariga boshqalarga qaraganda yaxshiroq o‘zlashtirgan narsalarini o‘rgatadi, uchinchisi bolalar o‘yinlarini tashkilotchisi va o‘rtoqlarini qiziqarli o‘yin yoki tashabbus bilan jalb qilishga qodir. Ma’lumki, maktabgacha yoshdagi bolalarning o‘ziga xos xususiyati ularning emotsionalligi va ta’sirchanligidir. Bola shaxsiyatining bir qator ruhiy xususiyatlarining rivojlanishi ko‘p jihatdan bunga bog‘liq. Shunday qilib, agar bola badiiy asarni idrok etishda adabiy qahramonni kechinmalari bilan birga unga hamdard

bo‘lsa, u holda bu xususiyatdan bolalar faoliyatini tashkil etishda mahoratli foydalanish mumkin. Tarbiyalanuvchida ma’lum sharoitlarda aniqlangan yorqin sezgir idrok, unga kattalarning tarbiyaviy ta’siridan mustaqil ravishda o‘zini original shaxs ekanligini namoyon qilishiga imkon beradi.

3. Shaxsiy xususiyatlarni o‘rganish bola shaxsidagi ijobiy belgilarga asoslangan bo‘lishi kerak. Ushbu talab albatta, hurmat va unga bo‘lgan oqilona talab bilan bog‘liq bo‘lishi lozim. Tarbiyachining mahorati har bir tarbiyalanuvchining yashirin fazilatlarini ochishga, ularga tengdoshlarning qiziqishini uyg‘otishdan iborat. Bolalarning guruhida, ijobiy jihatlarga qaraganda ko‘proq salbiy tavsifdagi bolalar ham uchrashini inkor etib bo‘lmaydi. Bular to‘polonchi, shovqin-suronli, tinib-tinchimas bolalar bo‘lib, ularda faoliyatga nisbatan layoqati yo‘q, ta’limiy faoliyatlarga jiddiy e’tibor bermaydigan, o‘zlarining nojo‘ya harakatlari uchun javob bera olmaydigan, tengdoshlariga hamdardlik va o‘zaro yordam ko‘rsatmaydigan bolalardir. Bir qarashda, bunday bolalar boshqalarga yoqmaydiganga o‘xshaydi. Biroq, bu unday emas. Ulardagi chuqur yashiringan imkoniyatlarini ochishda yordam berish uchun bunday bolalarga sabr-toqat, muhabbat va to‘g‘ri muomala bilan yondashish zarurdir.

Bolaga individual yondashuvni amalga oshirish uchun uning murakkab ko‘rinishdagi xatti-harakatlari, alohida qiliqlarini tushuna olish qobiliyati zarurdir. Har qanday holatda ham o‘sib borayotgan shaxsning eng yaxshi ruhiy kuchlariga ishonish va ularga ta’sir qilishning pedagogik vositalarini tanlashda ularga tayanish kerak. Bolaning xatti-harakatlarini har tomonlama tahlil qilish har bir tarbiyalanuvchining tabiatan o‘ziga xos xususiyatiga yaqinlashishga imkon beradi.

4. Individuallikka tayanish MTT bilan oilaning bog‘lanishisiz amalga oshirib bo‘lmaydi. Amaliyotdagi ko‘plab misollar, bolalar ko‘pincha uyda va MTTda qarama-qarshi munosabatda bo‘lishlarini tasdiqlaydi, MTT xodimlarining ota-onalar bilan tizimli hamkorligi yuzaga keladigan ziddiyatlarni yengishga yordam beradi.

Yuqorida bir qator shartlardan ko‘rinadiki, maktabgacha yoshdagi bolaning rivojlanish istiqbollarini va tarbiya jarayonida unga to‘g‘ri yondashuvni tanlash imkoniyatlarini ochib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sodiqova Sh. Maktabgacha pedagogika. – T.: Tafakkur bo‘stoni, 2013.–287-b.

2. Выготский Л.С. Педагогическая психология / Л. С. Выготский; под ред. В. В. Давыдова – М.: Педагогика-Пресс, 1999. С.– 536.

3. Лихачев Б.Т. Философия воспитания. - М., 1995. С.–288.

4. Коменский Я.А. Избр. произв./Сост. И.Д. Чечель. - М.: Изд. дом Ш. Амонашвили, 1996. С.–221.

5. Мудрик, А. В. Социализация человека: учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений / А. В. Мудрик. - М.: Издательский центр Академия, 2004. С.– 304.

6. Шадиев Р.Д., Ибрагимова Г., Набиев И. Современное дошкольное образование и инновационная деятельность. Бюллетень науки и практики — Bulletin Of Science and Practice (scientific journal). №4 2018. p-457-460. DOI: 10.5281/zenodo.399225.

7. Aslonova O.P. Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi, innovatsiyasi va integratsiyasi. Uslubiy-qo‘llanma. Qarshi. Fan va texnologiyalar.

Do'stnazar XIMMATALIYEV,
Qarshi davlat universiteti professori, p.f.d
Muzaffar TO'RAYEV,
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
Qarshi filiali katta o'qituvchisi

ZAMONAVIY AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI MUHITIDA BO'LAJAK DASTURCHILARNI KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Mazkur maqolada bo'lajak muhandis-dasturchilarni zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari muhitida kasbiy kommunikativ kompetentligini rivojlantirish, ularni tayyorlashning milliy va jahon ta'lim tajribasiga asoslangan tashkiliy-pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish orqali mamlakatimiz intellektual resurslari potensialini oshirish masalalari bayon etilgan. Shu bilan birga maqolada bo'lajak mutaxassislarda kreativ kompetentlikni shakllantirishning texnologik bosqichlari haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar. Internet-resurslari, modernizatsiya, konsepsiya, interaktiv xizmatlar, avtomatlashtirish, ma'lumotlar bazasi, intellektual, axborot xavfsizligi, motivatsiya, refleksiya.

В данной статье рассмотрено вопросы повышения ресурсного потенциала нашей страны через развитие профессиональной коммуникативной компетентности будущих инженеров-программистов в условиях современных информационно-коммуникационных технологий, совершенствования организационно-педагогического механизма их подготовки на основе отечественного и мирового образовательного опыта. В то же время в статье упоминаются технологические этапы формирования креативной компетентности будущих специалистов.

Ключевые слова. Интернет-ресурсы, модернизация, концепция, интерактивные сервисы, автоматизация, база данных, интеллектуал, информационная безопасность, мотивация, рефлексия.

This article discusses the issues of increasing the resource potential of our country through the development of professional communicative competence of future software engineers in the context of modern information and communication technologies, improving the organizational and pedagogical mechanism of their training on the basis of domestic and world educational experience. At the same time, the article mentions the technological stages of the formation of the creative competence of future specialists.

Key words. Internet resources, modernization, conception, interactive services, automation, database, intellectual, information security, motivation, reflection.

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlar farovonlikka erishishlari va rivojlanishlari uchun, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga bo'lgan ehtiyoji katta sur'atlar bilan oshib borayapti. Axborot texnologiyalarining kundalik hayotimizga singib ketgani natijasida, iqtisodiy o'sishning faollashuviga, dunyo aholisi yashash darajasining yaxshilanishiga erishilmoqda. Dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, erkin axborot oqimining ta'minlanishi bozor iqtisodiyotiga o'tishni tezlashtiradi va ijtimoiy farovonlikni oshiradi.

Hozirgi kunda barcha sohalarda erishilayotgan yutuqlar negizida aynan axborot texnologiyalari turli segmentlarining yuqori darajada rivojlanganligi va samarali qo‘llanishi yotadi. Yaqqol misol sifatida axborot texnologiyalarining bir qator segmentlari masalan, ma’lumotlar yetkazish tarmoqlari, axborot internet-resurslari va ular orasidagi elektron hujjat almashinuvini keltirish mumkin.

Bugungi kunda har qanday korxona zamon bilan hamnafas harakatlanishi va rivojlanishi uchun zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqishga, o‘z faoliyatiga yangi innovatsion texnika va texnologiyalarni kiritish, yuqori texnologiyalardan foydalanib raqobatbardoshligini oshirishga harakat qiladi.

Ishlab chiqarish korxonasi yoki tashkilotdagi zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish konsepsiyasining asosiy maqsadi – zamonaviy axborot-kommunikatsiya tizimlarini keng joriy qilish, rivojlantirish va takomillashtirish, mavjud axborot tizimlarini o‘z vaqtida ishga tushirish, ish jarayonining uzluksizligini ta’minlash va axborot almashuvini uyg‘unlashtirish, axborot tizimlarining samaradorligini oshirish hamda korxona tomonidan aholiga ko‘rsatiladigan xizmat turlarini, jumladan, interaktiv xizmatlarini kengaytirish hamda xizmatlar sifatini oshirishdan iboratdir.

Qo‘yilgan maqsadlarga erishish uchun quyidagilar asosiy vazifa hisoblanadi:

– mavjud axborot tizimlarida zamonaviy texnik yechim va texnologiyalarni keng qo‘llagan holda korxona faoliyatini avtomatlashtirish darajasini yuqori saviyaga ko‘tarish;

– axborot tizimlari va ma’lumotlar bazalarining uzluksiz faoliyatini ta’minlash;

– axborot resurslarini doimiy ravishda zaruriyat bo‘yicha yangilab borish va ulardan keng foydalanishni ta’minlash;

– korxona tizimida boshqaruv va ishlab chiqarish jarayonlarini zamonaviy texnologiyalar asosida avtomatlashtirish orqali xizmatlar turlarini amaliyotga keng tatbiq qilish va kengaytirish;

– fuqarolar va foydalanuvchilar tomonidan axborotlarni erkin va moneliksiz olishni ta’minlash, shuningdek, interaktiv xizmat turlarini kengaytirish;

– xavfsizlik va axborotlar muhofazasining tashkiliy va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va takomillashtirish hamda yangi texnologiyalarni qo‘llagan holda axborot muhofazasi tizimini yanada rivojlantirish;

– korxonaning internet tarmog‘idagi rasmiy veb-saytlari faoliyatini doimiy monitoring qilish va sifatini oshirish. Jumladan, ma’lumotlarni muntazam yangilab borish, veb-saytlar orqali ko‘rsatiladigan interaktiv xizmatlar turlarini kengaytirish;

– axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo‘yicha mutaxassislar malakasini muntazam ravishda oshirish, kadrlar tayyorlashni yangi sifat bosqichiga ko‘tarish asosiy vazifalardan hisoblanadi. Shu sababli kompyuter texnologiyalari sohasidagi yuqori malakali mutaxassislarga bo‘lgan ehtiyoj o‘sib bormoqda.

Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak muhandis-dasturchilarni tayyorlashning milliy va jahon ta’lim tajribasiga asoslangan tashkiliy-pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish orqali mamlakatimiz intellektual resurslari potensialini oshirishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Bo‘lajak muhandis-dasturchilarni tayyorlashda AKT sohasini rivojlantirish tendensiyalarini hisobga olgan holda o‘quv dasturlarini ishlab chiqish, dasturiy ta’minot muhandislarini tayyorlash uchun yangicha axborot va ta’lim muhitini yaratish, talabalarga dasturiy ta’minot muhandisi sifatida kasbiy tayyorgarlikni individuallashtirish uchun shaxsiy elektron muhitni yaratish imkoniyatini berish, kasbiy faoliyatga tayyorlashning yuqori sifatli moddiy-texnik bazasini ta’minlash, ularni o‘qitishda

zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan keng foydalanish, sanoat ish beruvchilari bilan keng aloqalarni o‘rnatish, zamonaviy texnologiyalar va axborot texnologiyalaridan foydalanishga yo‘naltirilgan malaka va ishlab chiqarish amaliyotlarini tashkil etishga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Bo‘lajak mutaxassislarni axborot texnologiyalari muhitida kasbiy faoliyat yuritish kompetentligini rivojlantirish quyidagilardan iborat:

1. Yuridik – zararli axborotlar ta’siridan himoyalanish va axborot xavfsizligiga rioya qilishga doir me’yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalanish;

2. Dasturiy-texnik – avtomatlashgan axborot tizimlari va aloqa tarmoqlarida axborot xavfsizligini ta’minlash metod va vositalarini egallaganlik;

3. Me’yoriy-metodik – faoliyat turi bilan bog‘liqlikda axborot xavfsizligi sohasida shaxsiy va jamoaviy me’yorlarga rioya qilish;

4. Ijtimoiy-madaniy – jamiyat a’zolari va shaxsiy qadriyatlar tizimiga ta’siri nuqtayi nazaridan axboriy faoliyatni quyidagi jihatlar bilan bog‘liqlikda axborot bilan ishlash faoliyatini boshqarish.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, bo‘lajak dasturchi-muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda zamonaviy axborot va ilg‘or pedagogik texnologiyalardan keng foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu uslub va vositalarni qo‘llanilishi ta’limda erishilgan natijalarni baholash imkonini beradi, talabalarni mustaqil materialni o‘rganishga qiziqtiradi, talabalarga egallangan amaliy va nazariy ko‘nikmalarni majmuaviy ko‘rsatish va bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy kompetensiyalarini asosli ravishda rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ximmataliyev D.O., Ismailova Z.K. Kasbiy faoliyatga tayyorgarlikni ta’minlashni modernizatsiyalash konsepsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2018. – 60-b.

2. Kasbiy faoliyatga tayyorgarlikni diagnostika qilishda pedagogik va texnik bilimlar integratsiyasi (Texnika oliy ta’lim muassasalarining “Kasb ta’limi” yo‘nalishlari misolida). Dissertatsiya (DSc): 13.00.05. –T., 2018-y.

3. Невзорова И.Б., Донина И.А. Готовность будущих техников-программистов к проектно-аналитической деятельности: структура и критерии оценки // Современные проблемы науки и образования. 2016. № 1.

4. Круглик В.С., Осадчий В.В. Формирование компетентности в области программированэия у будущих инженер-программистов //Журнал Интеграция образования. –Т. 23/ № 4. 2019. С. 587-606. DOI: 10.15507/1991-9468.097.023.201904.587-606.

5. Turayev S.J. (2019) “Methods of the using of software program Microsoft Excel in practical and laboratory occupation on physics” Scientific Bulletin of Namangan State University: Vol. 1 : Iss. 10 , Article 55. –P. 292-297.

Tursunoy BO‘RIYEVA,
Qarshi davlat universiteti, “Maktabgacha ta’lim” kafedrasi o‘qituvchisi

OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDAN FOYDALANIB MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA TABIATGA OID BILIMLARINI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI

Annotatsiya

Ushbu maqolada maktabgacha yoshidagi bolalarda tabiatga oid bilimlarini shakllantishda ommaviy axborot vositalarining o‘rni hamda ularning bolalar bilish qobiliyatlariga ta’siri to‘g‘risida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar. Ommaviy axborot, tabiat, sezgi, bilish, qobiliyat, rivojlanish, o‘simlik, hayvon.

В этой статье рассматривается роль средств массовой информации в формировании естественных знаний у детей дошкольного возраста и их влияние на способность детей к обучению.

Ключевые слова. Медиа, природа, интуиция, знать, умение, развитие, растение, животное.

This article discusses the role of the media in the formation of natural knowledge in preschool children and their impact on children’s learning ability.

Key words. Media, nature, intuition, know, skill, development, plant, animal.

Dunyoda yuzaga kelgan qator tendensiyalar ta’lim-tarbiya jarayonida ommaviy axborot vositalaridan foydalanish o‘zgacha tus olishiga sabab bo‘lmoqda. Mamlakatimizda maktabgacha yoshidagi bolalarni tabiatga oid bilimini ommaviy axborot vositalari asosida shakllantirish texnologiyalarini takomillashtirish masalasiga dolzarb muammo sifatida qaralmoqda. Shu bois maktabgacha yoshidagi bolalarni shaxs sifatida rivojlantirish va uning tabiatga oid bilimi va dunyoqarashini innovatsion axborot texnologiyalari, axborot-kommunikatsion texnologiyalari hamda ommaviy axborot vositalari asosida shakllantirish tizimiga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Maktabgacha ta’lim muassasalari tarmog‘ini kengaytirish va ushbu muassasalarda bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash, bolalarning maktabgacha ta’lim bilan qamrab olinishini jiddiy oshirish va foydalanish imkoniyatlarini ta’minlash pedagog va mutaxassislarning malaka darajalarini yuksaltirish masalalari O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq maktabgacha ta’lim muassasalarini tubdan takomillashtirishning asosiy vazifalari sifatida belgilandi.

O‘zbekistonda yuz berayotgan tub ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar jamiyat axborot muhitining keskin sifat va miqdor jihatidan o‘zgarishiga sabab bo‘ldi. Ommaviy axborot vositalari sohasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, tadbirlar, qator, farmon, farmoyishlar, qonunlarning qabul qilinishi ushbu sohaga bo‘lgan e’tibordan dalolat beradi. Aynan, 2007-yil 15-yanvardagi O‘zbekiston Respublikasining “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi O‘RQ-78-sonli Qonunining 1-moddasida “gazetalar, jurnallar, axborotnomalar, byulletenlar, axborot agentliklari, televideniye (kabelli, efir-kabelli

televideniye) va radioeshittirishlar, hujjatli kino, elektron axborot tizimi, shuningdek, doimiy nomga ega bo‘lgan, davlat tasarrufidagi, mustaqil va boshqa ommaviy davriy nashrlar ommaviy axborot vositalaridir” – deb ko‘rsatilgan.

Ommaviy axborot vositalari shaxs, bolalar dunyoqarashini shakllantirishga xizmat qilishi lozim. Ular orqali bolaning siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy-axloqiy, estetik-ekologik va ijtimoiy ongi rivojlanadi. OAVlar yosh avlod dunyoqarashini shakllantiruvchi muhim omil hisoblanadi. Yurtimizda bolalar uchun alohida gazeta va jurnallar, televideniye va radio ko‘rsatuvlari faoliyat yuritmoqda.

Bolalar organizmining rivojlanishi tug‘ilgandan boshlab amalga oshadi. Bu sezgi a’zolari va idrokning intensiv, juda tez rivojlanishi demakdir. Ana shu sezgi a’zolari va idroki tufayli tevarak-atrofdagi narsalarni, hidni, shaklni, uning katta-kichikligini, musiqani, tovushni, rangni ko‘radi, sezadi. Ular haqida fikr yuritadi. Sezgi a’zolariga ko‘z, quloq, burun, teri kirib, ular ko‘rish, eshitish, hid, ta’m, teri va harakatni, idroklari esa hayotni bilish vositasi hisoblanadi. Bolalarning psixik taraqqiyoti, ana shu sezgi a’zolari va idroklarining qanchalik taraqqiy etganiga bog‘liq.

Sezgi va idrok qanchalik boy, yaxshi taraqqiy etgan bo‘lsa, insonning tevarak-atrofdagi, tabiatdagi voqea-hodisalarni shunchalik tez tushunadigan va ular haqidagi ma’lumoti keng va ko‘p qirrali bo‘ladi.

Bolalar o‘simlik va hayvonot olamining tipik vakillari (olma, o‘rik, chinor, tol, akatsiya, terak, yong‘oq yoki gullar bilan, hayvonlardan: qo‘y, sigir, it, mushuk, ot, eshak, echki kabilar) bilan tanishtirganda ularning tashqi qiyofasini, gavda tuzilishini, terisini, ularning xatti-harakati, yugurishi, yurishi, tovush chiqarishlari bilan sezgi va idrokining rivojlanishiga katta ta’sir qiladi. Buni esa ommaviy axborot vositalari orqali ko‘rib, eshitib yanada rivojlantirish mumkin.

Bolalardagi sezgi va idrokni rivojlantirishda biror maqsadni ko‘zlab, mazmunli faoliyat jarayonida amalga oshirilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunday samarali faoliyatga televizor va radiodan yozib olingan materiallar orqali qushlarning sayrashi turlicha ekanligi aytib, chumchuq, zag‘cha, bulbul, qarg‘a, olashaqshaq, kaklik, kanareyka kabilarning tovushini bir-biridan ajrata olish, bir qushning ovozini qo‘yib “bolalar bu qaysi qush?”, ikkinchi qushning ovozini eshittirib, “bu qaysi qushning tovushi?” – deb bolalarni eshitish qobiliyatini rivojlantirish mumkin.

Tarbiyachilar bolalarning psixologik rivojlanishini yaxshi bilib, ularning sezgi va irodalarini rivojlantirishda tabiat elementlarining roli katta ekanligini esdan chiqarmasliklari lozim.

Yasli yoshidagi bolalarda ranglarni sezish, ko‘rish, eshitish, hid, ta’m va teri sezgilari juda erta boshlanadi. Shu sababli ularning sezgi va idroklarini tarbiyalashga qanchalik erta kirishilsa, shunchalik katta muvaffaqiyatlarga erishish mumkin. Boladagi sezgi a’zolarining rivojlanishi uning katta bo‘lganda aqliy jihatdan takomillashuvini ta’minlaydi. Bu esa insonning hayotda zehnli, sezgir, hozirjavob, tevarak-atrofdagi, tabiatdagi voqea-hodisalarni tez fahmlaydigan, analiz qiladigan kishilar bo‘lib yetishishida katta ahamiyatga egadir. Mashhur chex pedagogi Y.A. Komenskiy bilish jarayonida sezgi a’zolarining rolini juda katta ekanligini ta’riflab: “Sezgi a’zolarimiz ongimizdan tashqi olamga qarata ochilgan darchalardir. Biz ongimizda aks ettirayotgan hamma narsa va hodisalar faqat mana shu darchalar orqali ongimizga kiradi. Bordi-yu, birorta darcha yopilib qolgan bo‘lsa (ya’ni bironta sezgi a’zolarimiz ishdan chiqqan bo‘lsa), u paytda biz shu sezgi a’zolarimiz bilan bog‘liq bo‘lgan narsalarni to‘la aks ettira olmaymiz”, – degan edi.

Darhaqiqat, bu o‘xshatma bola ongini rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo‘lib, ularning birortasini “yopilib” qolishiga yo‘l qo‘ymasligimiz kerak.

Bolalar bog‘chasi bolalarni sezgi a’zolarini rivojlantirish uchun eng qulay joydir. Chunki bog‘chalarda buning uchun ko‘pgina ko‘rgazmalar, texnika va texnologiyalar, sharoitlar mavjud.

Kuzatuv jarayonida bolalarni juda qiziquvchan, har narsani bilgisi keladigan, uni o‘rganishga, bilishga, o‘ziniki qilib olishga intilayotganini bilamiz.

Ular yer kattami, Quyosh kattami?, Ot kattami, Fil kattami?, Daraxtlar nega katta?, Osmondagi samoliyot tez uchadimi, qush tez uchadimi?, Qorni kim yog‘diradi?, Qushlar qishda qayerda qishlaydi?, Shamolni kim puflayapti?, Bulutlar qayoqqa ketyapti? kabi savollar bilan murojaat qiladilar. Bolalarda bunday savollarning tug‘ilishi tabiiy hol bo‘lib, ular tabiat haqida, unda bo‘ladigan voqealar, ertaklardagi ajdaho, dev, yalmog‘iz kampir, sehrgar chol kabilar haqida bilgisi keladi. Tarbiyachilar esa bolalarning bu savollariga to‘g‘ri, aldamasdan, mohiyatini ilmiy asosda, tabiat qonunlari nuqtayi nazaridan tushuntirib berishi kerak. Bog‘cha yoshidagi bolalar tafakkurining xarakterli xususiyatlaridan biri ular tafakkurining konkret obrazli bo‘lishidir. Ular o‘z tushunchalarida, mulohazalarida abstrakt tushunchani emas, konkret bola yashaydigan muhitdagi o‘simlik hayvonlar haqida, tabiat elementlari haqida tushuncha berish kerak.

Tabiat yordamida bilish qobiliyatini rivojlantirish. Bilish – voqelikni inson ongida aks ettirishdir. Bilishning maqsadi tabiat va jamiyatdagi narsa va hodisalarni insonga bo‘ysundirish va unga xizmat qildirishdan iboratdir. Bilish, sezgi, idrok, xotira, xayol, tafakkur hamda nutqni rivojlantirishdan iborat. Bu esa aqliy tarbiyaning muhim vazifasi hisoblanadi.

Tevarak-atrofni, tabiatni, olamni bilish sezgi va idrokdan boshlanadi. Bu jarayonlarni qanchalik yaxshi bilsa, borliqni, tabiatni bilish imkoniyati shunchalik ko‘p bo‘ladi. Shuning uchun ham biz bog‘cha bolalarini ko‘proq bilishga, ongini rivojlantirishga o‘rgatishimiz lozim. Bilish jarayonini rivojlantirishda tabiatning roli katta.

Maktabgacha tarbiya muassasalarida tabiat vositasida bilish xususiyatlarini tarkib toptirish o‘rta va katta guruh bolalarida amalga oshirish samarali natija beradi. Lekin bu bilan, boshqa guruhlarda bilish nazariyasini singdirish, o‘rgatish kerak emas, degan fikr kelib chiqmasligi lozim.

Tarbiyachilar esa bolalarning aktiv bilish faoliyatini, ularning bilishga bo‘lgan qiziqishlarini oshirishimiz zarur. Buni amalga oshirishda tabiatda bo‘ladigan oddiy hodisalarning sodir bo‘lish sabablarini o‘rgatishdan boshlashimiz kerak. Bu yoshlarni tabiat sirlarini o‘rganishga, ular haqida fikr yuritishga, bilimini shakllantirishga va bolaning bilish qobiliyatini oshirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. // O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami. – T., 2017. B.38.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi O‘RQ-78-sonli Qonuni // –T., 2007. 15-yanvar.

3. Haydarov Q.H., Nishonova S.A. Tabiatshunoslik asoslari va bolalarni tabiat bilan tanishtirish. –T.: O‘qituvchi, 1992.

Xurshid NEKBOYEV,
QVXTXQTMOHM “Tabiiy va aniq fanlar” kafedrasi mudiri,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori

MEDIATA’LIM ASOSIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING KASBIY-TANQIDIY YONDASHUVINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya

Bu maqolada mediata’lim asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-tanqidiy yondashuvini takomillashtirish haqida fikr-mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar. Mediata’lim, yondashuv, o‘qituvchi, mehnat bozori, ustuvor vazifa, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.

В данной статье обсуждается, как улучшить профессионально-критический подход будущих учителей на основе медиаобразования.

Ключевые слова. Медиаобразование, подходы, учителя, рынок труда, приоритеты, информационные и коммуникационные технологии.

This article discusses how to improve the professional critical approach of prospective teachers through media education.

Key words. Media education, approaches, teachers, labor market, priorities, information and communication technologies.

O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan “Mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish”[1] ustuvor vazifasining ijrosini ta’minlash maqsadida oliy ta’lim muassasalari talabalarini kasbiy-tanqidiy yondashuvini rivojlantirishni axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, zamonaviy pedagogik va raqamli texnologiyalardan foydalanib kasbiy faoliyatga tayyorlashni jadallashtirish zarurati yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Bu esa, mediata’lim asosida oliy ta’lim muassasalari talabalarini pedagogik faoliyatda kasbiy-tanqidiy yondashuvini takomillashtirish hamda o‘zlashtirish natijalarini obyektiv va avtomatik baholash shakllari va usullarini ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

Hozirgi vaqtda dunyoda mavjud mediata’limning mavjud nazariy modellari tahlili keltirilib, ommaviy kommunikatsiyaning pedagogik aspektlari ta’lim va tarbiya yo‘nalishlarida o‘rganilgan. Ta’lim-tarbiya jarayonini ikkita o‘zaro bog‘liqlik, ya’ni ma’rifat tarqatish va ommaviy kommunikatsiyalardan foydalanib ta’lim berishga ajratish mumkin. Talabalarga mediata’lim berish maxsus axborot oqimlarini tashkil etish orqali amalga oshiriladi. Ommaviy kommunikatsiyaning talabalar kasbiy faoliyatiga ta’sir ko‘rsatishining o‘ziga xos jihati – ta’lim oluvchiga axloq me’yorlari madaniyat va qadriyatlarni obrazli badiiy shaklda yetkazishdir.

Mediata’lim modellarining xronologik tahlilida ikki xil model, ya’ni “predmetli” va

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.// O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami. –T., 2017. 39-b.

“aspektli” yoki “predmetlararo” model. Predmetli model fanlar blokiga maxsus fan kiritish bo‘lib, bunda ommaviy kommunikatsiya vositalari va uning o‘ziga xos xususiyatlari o‘rganiladi. Predmetlararo modelning konseptual asosi semiotik nazariya asosida mediata’lim berishda kasbiy-tanqidiy yondashuvni rivojlantirish. Mediata’lim berishdan asosiy maqsad bo‘lajak o‘qituvchilarni pedagogik kasbiy faoliyatida mediakommunikativ qobiliyat va kasbiy-tanqidiy yondashuvni rivojlantirishdan iborat. Bunga esa oliy ta’lim muassasasi yo‘nalishlaridan kelib chiqqan holda mediata’lim berishning bazaviy kasbiy va kengaytirilgan kurslari yordamida erishiladi.

Mediata’limda kasbiy-tanqidiy tafakkurni kamol toptirish nazariyasini qo‘llash talabalarda medianing manipulyativ ta’siridan himoyalanish, hozirgi demokratik jamiyatning axborot oqimida to‘g‘ri yo‘nalish olish ko‘nikmasini shakllantirishga yordam beradi. Turli axborotlar haddan tashqari ko‘p bo‘lgan hozirgi sharoitda talabalarni kelajakdagi o‘z pedagogik kasbiy faoliyatiga to‘g‘ri yo‘naltirish zarur.

Tadqiqotimiz doirasida ikkinchi darajali ma’lumotlar (reklama, turli ko‘rsatuv va filmlar anonsi va boshqalar) inson ongiga ta’siri ijtimoiy-psixologik aspektlari ham o‘rganib chiqildi. Xususan, reklamaning psixologik ta’siri haqida fikr yuritadigan bo‘lsak, reklama – ma’lumotlarni qayta ishlash jarayonida, ya’ni emotsiyalarda, fikrlarda, ehtimoliy qarorlarda ko‘rinadi. Mazkur holatlar esa kasb-hunar egallashda aniq bir ko‘rinishidagi axloqiy xatti-harakatlarini yuzaga chiqaradi. Reklama ta’sirining axloqiy komponenti – anglangan xulq-atvorni ham, anglanmagan darajadagi xulq-atvorni ham o‘z ichiga oladi.

Mediata’lim sohasida ustuvor yo‘nalish mediamatnlarga nisbatan auditoriyaning kasbiy-tanqidiy fikrlashini shakllantirish bo‘lishi shart deb hisoblovchi pedagoglar soni oshib bormoqda. Mediata’lim berishning muhim maqsadlarini quyidagicha izohlaydi:

– axborot texnologiyalari vositasida auditoriyaning mediasavodxonligini rivojlantirish, kasbiy-ijodiy qobiliyatlarini, tashabbuskorlikni, kasbiy-tanqidiy fikrlashni, mediamatnlarni mustaqil argumentli muhokama qila olish ko‘nikmasini, keng auditoriyaning idrok etish va dunyoqarashi shakllanishiga samarali ta’sirni rivojlantirish;

– auditoriyaning mediadan qanday foydalanish, turli mediamatnlarni yaratish va tarqatish texnologiyalari tushuna olishi, media bilan o‘zaro ta’sir madaniyatini shakllantirish, turli ko‘rinishdagi axborotni idrok eta olish mahoratini kamolga yetkazish, media yordamida o‘z fikrini ifodalashning xilma-xil shakllariga o‘qitish, media madaniyat ta’limi vaqtida xavfli stereotiplarga qarshi turish va boshqalar.

– mediata’lim asosida oliy ta’lim muasasalari talabalarini pedagogik kasbiy faoliyatga tayyorlash, kasbiy-tanqidiy yondashuvini rivojlantirish.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni sifat nuqtayi nazaridan pedagogik kasbiy tayyorlash jarayonida kasbiy-taniqidiy yondashuvini rivojlantirish quyidagi asosiy bosqichlardan:

1. Auditoriyada taqdim etiladigan mediata’limda media mahsulotlarini idrok qilish va uni rivojlanish darajalarini anglay olish.

2. Media materiallaridagi ma’noni ijodiy qobiliyat orqali o‘zlashtirish va mediamatnlarni to‘liq idrok eta olishni shakllantirish hamda rivojlantirish.

3. Talabalar mediata’limda mediamatnlarni mustaqil o‘zlashtirgan holda pedagogik kasbiy faoliyatiga mos kasbiy-tanqidiy yondashuvini rivojlantirishdan iborat.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning mediamateriallarni tahlil qilish ijodiy ko‘nikmalariga ega bo‘lishlarini ijobiy natijalari quyidagilarni o‘zida namoyon etadi:

– mediatalqinlar haqida atroflicha ma’lumotga ega bo‘lishni;

– media bilan kundalik to‘qnash kelishda ularni hayot tarzimizga, munosabatlarimizga va qadriyatlarimizga ta’sirlari haqidagi bilimga ega bo‘lishni;

– mediata'lim asosiy g'oyalarini mediamatnlarni teran tushunish uchun ularni tahlil qilishga, talqin qilishga tatbiq etishni;

– yakka tartibda qaror qabul qilishda media ahamiyatiga e'tibor qaratishni;

– aniq bir xatti-harakatlar yoki yechimlar qabul qilishda mediamatnlarning mumkin bo'lgan ta'sirlarini tahlil qilishni.

Kasbiy-tanqidiy yondashuv mediamadaniyatning u yoki bu ko'rinishdagi ma'lumotlarni turli argumentlar orqali shaxs madaniyati va ma'naviyatiga zid ekanligini hamda unga nisbatan o'z fikrini asosli ravishda isbotlashga talabalarni o'rgatish, ularda aksariyat ikkinchi darajali mediamatnlarda uchraydigan manipulyatsiyalarga qarshi tura olish ko'nikmasini shakllantiradi. Bu degani reklama rolikini ko'rgan har bir talaba albatta reklama qilinayotgan tovar uni ta'riflanishiga mos emasligini argumentlar orqali isbotlashi kerak emas. Kasbiy-tanqidiy tafakkur qila oladigan talaba har qanday manipulyativ holatlarga qarshi tura oladi. Uni har qanday harakatlar, turli manipulyatsiyalar bilan ham ishontirish qiyin.

Bo'lajak o'qituvchilarni pedagoglik kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida mediaga bog'liq bo'lgan kerakli va zarur ma'lumotlar bilan ta'minlash ularni keyingi pedagogik faoliyatini kafolatlaydi. Bu esa real dunyo obrazini ularning ongida adekvat akslanishiga olib keladi va atrof olam bilan uyg'unlikda ish olib borishiga imkon beradi.

Pedagogika ixtisosligi talabalari uchun "Talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlashda kasbiy-tanqidiy yondashuv" maxsus kursidagi ikkinchi darajali materiallardagi ma'lumotlarni idrok etishda mediata'lim modeli mazmunli-maqsadli komponentining tarkibiy qismini tashkil etuvchi talabalarning tanqidiy fikrlashlarini rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqilgan vazifalar va mashqlar tizimi mavjud. Tajriba-sinov ishlarini natijalari, ishlab chiqilgan mediata'lim modelining samaradorligini ishonchli tarzda tasdiqladi. Ikkinchi darajali materiallarni idrok etish darajasining takroriy tekshiruvi nazorat guruhida sezilarli o'zgarishlar yo'qligini aniqladi.

Shu o'rinda mediata'lim jarayonida foydalanish mumkin bo'lgan pedagogik texnologiyalar bayoni keltirilgan, ular: ("Bumerang", "Muammoli", "Labirint", "Ilg'or ma'ruza", "Audiovizual media matn bilan ishlash", "Konsepsiya xaritasi" kabi metodikalardir.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytganda, bo'lajak o'qituvchilarning aksariyatida media sohasidagi elementar bilim va ko'nikmalar yetishmasligini inobatga olib, zamonaviy pedagogikaning bir yo'nalishi sifatida mediata'lim doirasida, zamonaviy axborot makonida talabalarning kasbiy-tanqidiy yondashuvlarini rivojlantirish, media savodxonligini oshirish, turli xil media matnlarni qabul qilishda ularni joylashgan o'rnini aniqlash, ma'lumotlarni qabul qilishga nisbatan ilmiy-nazariy va tanqidiy yondashuv amalga oshirildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nekboyev X.X. Mediamatnlardagi ikkinchi darajali ma'lumotlarning inson ongiga psixologik ta'siri// Ta'lim fan va innovatsiya. – T., 2019 – №4. – 86-89-b.

2. Nekboyev X.X. Ikkinchi darajali ma'lumotlarni o'rganish asosida kasbiy-tanqidiy kommunikativ sifatlarni takomillashtirish// Pedagogik mahorat. Ilmiy nazariy va metodik jurnal. –T., 2019 – № 6. – 78-81b.

3. Nekboyev Kh.Kh.The influence of mass media on the development of personality modern conditions// Научные исследования-основа современной инновационной системы: Международной научно-практической конференции. – Россия, 2019. – С. 49.

Munavvar BOYMATOVA,
Qarshi davlat universiteti "Boshlang'ich ta'lim" kafedrasi o'qituvchisi

PEDAGOGIK MULOQOT IJTIMOIY-PSIXOLOGIK HAMKORLIK SIFATIDA

Annotatsiya

Maqolada pedagogik jarayonning asosi sifatida pedagogik muloqot tizimi tahlil qilingan. Shuningdek, pedagogik muloqotning pedagogik jarayon ishtirokchilari o'rtasidagi ijtimoiy-psixologik hamkorlikni o'rnatishdagi roli haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar. Muloqot, pedagogik muloqot, hamkorlik, konflikt, emotsional barqarorlik, ijtimoiy-psixologik hamkorlik.

В статье анализируется система педагогического общения как основа педагогического процесса. Также приводятся сведения о роли педагогического общения в установлении социально-психологического взаимодействия участников педагогического процесса.

Ключевые слова. Общение, педагогическое общение, сотрудничество, конфликт, эмоциональная устойчивость, социально-психологическое сотрудничество.

The article analyzes the system of pedagogical communication as the basis of the pedagogical process. It also provides information on the role of pedagogical communication in the establishment of socio-psychological interaction between participants in the pedagogical process.

Key words. Communication, pedagogical communication, cooperation, conflict, emotional stability, socio-psychological cooperation.

"Muloqot" so'zi arab tilidan olingan bo'lib, "uchrashish", "ko'rishish", "qabul qilish" ma'nolarini anglatadi. Muloqotga doir olib borilgan izlanishlar shuni ko'rsatadiki, pedagogik muloqot jarayonida muloqotga kirishuvchilarning o'zaro o'z-o'zini namoyon qilishi, pedagog va o'quvchilarning o'zaro kommunikativ o'z-o'zini ifodalashi yuz beradi, bu esa pedagog va o'quvchilarning ijodiy hissiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bunday o'zaro o'z-o'zini namoyon qilish pedagog va o'quvchilarning emotsional hissiyoti uzviyligi asosida yuz beradi, uni mustahkamlaydi, emotsional birlik natijasi sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur ta'sir pedagogik muloqotning mazmuniy tomoniga katta ta'sir ko'rsatadi, o'quvchilar bilish jarayoniga samarali ta'sir qiladi. Muayyan darajada pedagogik hamdardlik yuzaga keladi. O'qituvchi mazkur hamdardlikni faollashtiruvchi sifatida ta'sir ko'rsatadi va o'quvchilarni muammoni yechishga, izlanishda hamkorlikka undaydi, negaki u tomonidan o'quvchilar bilan bo'ladigan hamdardlik, o'z navbatida, pedagogning o'ziga ham ta'sir ko'rsatadi. Sinf jamoasining yalpi ravishda va har bir o'quvchida alohida ro'y beradigan emotsional holatini anglash va baholash nihoyatda muhim bo'lib, axborotni anglash darajasini aniqlash ko'rsatkichidir. Pedagogning bunday qobiliyati uning faoliyatini ma'lum darajada badiiy ijodga yaqinlashtiradi, bunday qobiliyat boshqalar ko'ra olmaydigan narsalarni ko'ra olishni nazarda tutadi, hodisalarning estetik mazmunini aniqlashtirishga xizmat etadi. Kundalik muloqot tizimida, insonlarning shaxsiy o'zaro aloqalarida axborot berishda suhbatdoshdagi har qanday o'zgarish izsiz qolmaydi. Eng muhimi bunday reaksiyalar to'g'ridan-to'g'ri olinadigan javoblardan ko'ra ko'proq axborot tashish xususiyatiga ega.

Psixologiya fani boshqa insonlar gap ohangi, yuz harakatlari va boshqa yaqqol ko‘zga tashlanadigan harakatlardan ularning emotsional holatini aniqlash tajribasiga ega. Biroq pedagogik muloqot doirasida bunday masalalar asosli ravishda tadqiq etilmasdan qolmoqda. Shu bilan bir qatorda emotsional qiziqishlarni anglab olish qobiliyati, ularga mos axborotlarni qabul qilish darajasini bilish pedagog uchun juda foydalidir. Tajribali o‘qituvchi sinfda mavzuni tushuntirib o‘quvchilarga bir boqish bilan mavzuni o‘quvchilar qay darajada o‘zlashtirishganini aniqlay oladi. Ana shunday ko‘nikmani pedagogda shakllantirish kasbiy tayyorgarlikning tarkibiy qismi bo‘lmog‘i lozim.

Pedagogik muloqotda o‘qituvchi bilan o‘quvchining bir-birini mutanosib ravishda tushunishi favqulodda muhimdir. Bu o‘quv – tarbiya jarayonini korreksiyalash va intensifikatsiyalash imkonini beradi. Ta’lim jarayonida o‘zaro to‘g‘ri tushunishni tashkil qilishda muhim rolni emotsional empatik va identifikatsiyalash o‘ynaydi. O‘zini bola bilan emotsional birlashtirish, uning hissiyoti va fikrlari bilan yashash, bu demak, uning fikrlari va qayg‘ularini adekvat tushunish – nihoyatda murakkab vazifa. Shunday qilib, emotsional birlikka erishuv pedagogik muloqot jarayonining muhim tarkibiy qismi hisoblanib, ta’sir etishni tashkil etish oldidan va undan so‘nggi muhim elementdir. Uning quyidagi tuzilishi qayd etiladi: Emotsional – (Pedagogik), Emotsional – Pedagogik birlik – ta’sir etish – birlik ta’sir etish. Bu o‘rinda emotsional birlik oldin sodir bo‘luvchi element sifatida keladi (prognostik) va yakunlovchi (baholovchi – aniqlashtiruvchi). Kasbiy-pedagogik funksiyasi ana shulardan iboratdir.

Endi sizning talabalik tajribangizga murojaat qilamiz. Eslang, imtihon oluvchiga javob berish qaysi holatda yengil bo‘lgan edi: u sizni diqqat bilan eshitgan, ko‘zingizga tik qaragan, boshini qimirlatgan paytdami, ya’ni siz bilan muloqotga kirishganda o‘zida qiziqish hosil qilganda, yoki jim o‘tirib eshitgandami, javobingizdan mamnun yoki mamnun ekanligini bildirmagan holatdami? Albatta, tabiiyki birinchi holatda imtihon topshirish muhimi ancha yoqimli, bu o‘rinda pedagogning manfaatdorligi yorqin aks etgan, u talab bilan qayg‘udosh, hamdard. Ikkinchi holda ko‘p talabalar, hatto a’lo darajada tayyorlangan talabalar ham imtihon oluvchining sovuq nigohi, befarq munosabati qarshisida so‘zdan adasha boshlaydi va hokazo.

Bunday xususiyat ko‘p darajada bolalar auditoriyasida o‘zini yaqqolroq namoyon qiladi. Tarix fanidan dars beruvchi maktab direktori darsga kasal holatda keladi. Uning qoloq o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar bilan shug‘ullanishga holi yetmay, a’lochi qizni javob berish uchun turg‘izadi. U a’lochi o‘quvchining pala-partish javobidan hayratda qoladi. Darsdan so‘ng qizdan nimaga bunday bo‘ldi deb so‘radi. “Sizga qachon javob bersak, – dedi u, – siz odatda bosh irg‘ab diqqat bilan eshitar edingiz, noto‘g‘ri javobimizni to‘g‘irlardingiz. Bugun esa mening javobimga hech qanday e’tibor bermadingiz, men o‘z javobimning to‘g‘riligiga shubhalana boshladim, to‘g‘ri gapirayapmanmi deb adasha boshladim” va hokazo.

Yuqorida keltirilgan o‘qituvchi tiplarida bo‘rttirish mavjud bo‘lsa-da, so‘zsiz o‘qituvchining o‘z ishiga bo‘lgan shaxsiy qiziqishi, bolalarga bo‘lgan muhabbati muhim rol o‘ynaydi.

Pedagogik muloqotda tezkor emotsional hamdardlik – muhim kasbiy element hisoblanadi.

Ziddiyatlarni stressogen faktorlar sirasiga kiritish mumkin. G.V.Ushakov yondosh stressli qayg‘urishlarni uch turga bo‘lishni taklif etadi:

1. Ijtimoiy.
2. Psixologik (ruhiy).
3. Tibbiy.

Ular haqida quyida mufassal to‘xtalamiz. Stresslarning birinchi turiga ijtimoiy muhitda tug‘iladigan shart-sharoitlar mansub bo‘lib, bunday holatda insonda yuz beruvchi ruhiy jarohat kamayadi yoki oldi olinadi. Bunda oldini olish chora-tadbirlarni soddalashtirish maqsadga muvofiq emas. Bunday ziddiyatlarni hal etish xilma-xil, turli darajali va ko‘p rejalidir. Ba’zi ziddiyatlar tezkorlik bilan bartaraf etishga moyil, ba’zilari esa shaxsiy va ijtimoiy kuch sarflashni talab etadi. Agar ishdagi va oiladagi ziddiyatlar tez hal etilsa, moddiy qiyinchiliklar, kamsitishlar, ijtmoiy-maishiy sharoitning pastligi, ishsizlik kabilar uzoq vaqt sarflanadigan va bartaraf etilishi qiyin bo‘lgan stressogen faktorlar sirasiga mansubdir.

Ruhiy zo‘riqishni psixologik profilaktika qilish insonning shaxsan bosh harakatlanuvchi subyekt sifatida chora ko‘rishni talab qiladi. Individning o‘z yashash muhiti va axloq-odobini tuzatishi ruhiy jarohatlarni oldini olishning asosini tashkil etadi. Yetakchi profilaktik tadbirlarga quyidagilar kiradi:

a) tug‘ilishdan oldin va keyingi psixoprofilaktika, shaxslararo munosabatlarni tartibga keltirish, b) oilada guruhiy moslikni ta’minlash, c) o‘quv – tarbiyaviy jamoada moslikni vujudga keltirish, d) mehnatni ilmiy tashkil etish, e) toliqish va ortiqcha zo‘riqishlarning oldini olish, f) kasbiy zararli narsalarni yo‘q qilish, g) ruhiy zo‘riqishlarni neytrallash maqsadida psixologik tayyorgarlik, h) zo‘riqishlarni yo‘q qilish.

Pedagogik shart-sharoitlar sirasiga shaxsning intilishlarini sharoitga moslashtirish, psixologik jihatdan sog‘lom muhitni yaratish, psixologik qadriyatlarni jamoa faoliyatiga tatbiq qilish kabilarni kiritish mumkin.

Ruhiy toliqishlarning olidini olish tibbiy profilaktikaga mansub bo‘lib, tibbiy stressologik bilimlarni aholi orasida, ayniqsa, o‘quvchilar va pedagoglar orasida tashviq qilishni kiritish mumkin. Nevrotik toliqishlar oldini olishning turli-tuman ilk profilaktika tizimi yaratilgan. Ularga aholi orasida yosh va jinsiy xususiyatlarni hisobga olgan holda ommaviy ruhiy-gigienik tadbirlarni misol qilib keltirish mumkin. Faol dam olish va hordiq chiqarish turlarini tanlash yuzasidan tibbiy tavsiyalar ham profilaktika turlariga kiradi. Istak va tibbiy ko‘rsatma shaklidagi profilaktik tadbirlarga homilador xotin-qizlarni kuzatish. Nevropatik holatning oldini olish, ichki oilaviy konfliktlarning oldini olishga yordamlashish va boshqalar kiradi.

Hozirgi davr pedagogikasi nazariyasi va amaliyotida pedagogik konfliktologiyani ta’limning mustaqil ilmiy-tadqiqot sohasi ekanligiga doir boy fakt va kuzatish natijalari to‘plandi. Pedagogik konfliktlar muammosi ilmiy bilimlar, ijtimoiy-gumanitar va aniq fanlarning barchasiga baravar taalluqlidir. Qayerda konflikt tushunchasi ishlatilmasa, uning sinonimi bo‘lgan “qarama-qarshilik”, “antagonizm” va h.k. terminlar ishlatiladi.

Ijtimoiy taraqqiyot konfliktlar va ularning hal etilishi uzviy bog‘liqdir. “Konflikt” – bu taraqqiyotni, rivojlanishni, yaxshilik va yomonlikni, yaratish va yemirishni harakatga keltiruvchi va to‘xtatuvchi tormozdir.

Konfliktlar nazariyasi bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislarning hamjihatlik bilan bildirgan fikrlariga ko‘ra, tadqiqotlar jarayonida tug‘iluvchi konfliktlarni boshqarish, o‘lchash mumkin. Konflikt “murakkab tizimlar uzviyligi usuli” sifatida baholanadi. U ziddiyatlashgan tomonlarning ajratilishi va qo‘shilish faktori sifatida xizmat qilishi mumkin. Ikki tizim orasidagi konfliktlar yangi konflikt tizimini vujudga keltiradi. Konfliktga kirishuvchi tizimlarni boshqarishda hal qiluvchi rolni zid tomonlarning bir-biri haqida axborotga qanchalik ega ekanligi o‘ynaydi. Muhim gnoseologik vosita sifatida tizimli misollarni keltirish mumkin, bunday modullar kattalashtirish darajasida qurilishi va eksperimental tadqiq etish imkonini berishi mumkin. Ijtimoiy hodisa va ziddiyatlar

orasida normativ hujjatlar va real voqelik o‘rtasidagi konflikt tipik hisoblanadi. Quyida konflikt nazariyotchilarining bir necha qarashlarini keltiramiz.

1. Konflikt – taraqqiyotning bosh immanent (tashqi, obyektiv) faktoridir.

2. Ko‘p masshtabli konfliktlar soni oshib boradi, bunday konfliktlar qisqa muddatda hal etilishni talab etadi.

3. Ziddiyat – oqibat natijasidir. Bu konfrontatsiya emas. Bu qarama-qarshiliklarning oldini olish usuli, murakkab tizimlarni uzviylashtirish usuli.

4. Konflikt tushunchasi apparati “sifat”, “samaradorlik”, “jarayon”, “kuch” kabi yondosh terminlarni o‘z ichiga oladi. Shu bilan birga bu terminlar bilan birga ijtimoiy, psixologik, texnik fanlarga doir tushunchalar ham qo‘llaniladi.

5. Konflikt tartibni buzishi, tartibga keltirishi va yangi tartib o‘rnatishi mumkin.

6. Hozirgi zamon konfliktlar konsepsiyasi o‘z ichiga quyidagi sohalarni qamrab oladi: noosfera, biosfera, akosfera, texnosfera, jonli va jonsiz materiya.

7. Konfliktlarni tizimiy matematik apparatdan foydalanib tadqiqi qilishning ikki yo‘li tavsiya qilinadi. Birinchi yo‘l barcha mavjud faktorlarni hisobga olgan holda tizimlar o‘zaro harakatini umumiy holda tavsif etishdan iborat. Konfliktga kirishuvchi tomonlarni tavsiflash, sabablari, mexanizmlari, boshlanishi, yakunlanishi yozib boriladi. Natijada, yirik modellar yuzaga keladi, bu modellar ko‘p planli natijalar bera oladi. Ikkinchi yo‘l ilk qo‘lga kiritilgan faktorlarni va oddiy modellarni tahlil etish yo‘li bilan to‘qnashuvlarning sabab va oqibatlarini baholashdir.

8. Konflikt zid tomonlarning konkret maqsadga erishish uchun olib boriladigan kurashini ifodalaydi. Qarama – qarshiliklar jarayoni mavjud umumiy qonunlar asosida rivojlanadi.

9. Konfliktlar muammosi keng ko‘lamdagi ilmiy adabiyotlarda ochib berilgan, biroq, konfliktlar nazariyasi mualliflarining ta’kidlashlaricha, uning hamma tomonidan tan olingan, bir fikrga kelingan ta’rifi mavjud emas.

10. Konflikt – qarama-qarshi kurashuvchi tomonlarning oldindan aytish mumkin bo‘lmagan, kutilmagan axloq – odobiga doir murakkab tizim.

11. Konfliktlar tipik bo‘lish bilan birga, doim lahzali va zalvorlidir.

12. Ilmiy – texnik progress sharoitida ergatik tizimlarda (“ergatik” – sosium individi va texnika birligi) o‘zgarishlar yuz beradi.

Konfliktning yagona bosh modelini shakllantirishning muhim omili – bu konfliktli o‘zaro harakatlarda jarayonlarning axborotliligidir. Pedagogik tizimdagi konfliktlarni tushunishda ijtimoiy konfliktlarning tavsif etilishi muhim o‘rinni egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. II jild. –T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. 671-b.

2. Boymatova M., Nurullayeva Sh. Zamonaviy o‘qituvchi modelida ta’lim jarayoni tashkilotchisi sifatidagi vazifalar. MUG‘ALLIM HƏM YZLIKSIZ BILIMLeNDIRIO‘ №3. Nəkis — 2019. 119-123-betlar.

Feruza CHORIYEVA,
Qarshi davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

MATABGACHA YOSHDAGI BOLALAR XULQ-ATVORIDA YUZAGA KELADIGAN SALBIY O‘ZGARISHLARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada bolalar xulq-atvoridagi yuzaga keladigan agressiv holatlar, ularning salbiy o‘zgarishlarni psixologik xususiyatlari, xorij psixologiyalari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar. Xulq-atvor, agressivlik, urushqoqlik, qaysarlik, tajanglik, g‘arazlilik, jizzakilik, psixologik xususiyat

В статье исследуется агрессивное поведение детей, психологические особенности их негативных изменений, зарубежная психология.

Ключевые слова. Поведение, агрессия, воинственность, упрямство, агрессия, предвзятость, ревность, психологические особенности.

This article examines the aggressive behavior that occurs in children’s behavior, the psychological characteristics of their negative changes, foreign psychology

Key words. Behavior, aggression, belligerence, stubbornness, aggression, bias, jealousy, psychological characteristics.

Jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida inson omiliga alohida e’tibor bilan qaralgan. Shunga ko‘ra, jismonan sog‘lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat’iy hayotiy nuqtayi nazarga ega, ijtimoiy faol yoshlarni tarbiyalash bugungi kunning ustuvor vazifasiga aylandi.

Afsuski, tarbiyadagi e’tiborsizliklar oqibatida xulq-atvorida salbiy ko‘rinishlar shakllanayotgan bolalar ko‘pincha oilada, tengqurlari davrasida, o‘qish faoliyatida va umuman jamiyat oldida o‘z o‘rnini topishga qiynalib, muvaffaqiyatlarga erisha olmaydilar. Urushqoqlik, qaysarlik, tajanglik, qo‘pol so‘zlash, haqoratlash, o‘z maqsadiga erishish uchun (egoistlik) hech narsadan tap tortmaslik, arazlash, kattalarga nisbatan hurmatsizlik va boshqalar bolalarga xos agressivlikning turli ko‘rinishlaridandir. Bunday bolalar o‘z g‘azablarini boshqara olmaydilar, o‘zlarining emotsional holatlari va o‘zgalarning his-tuyg‘ularini to‘liq anglamaydilar, ularda xavotirlanish darajasi yuqori bo‘ladi. O‘z emotsiyalarini boshqara olmasliklari oqibatida esa atrofdagilar bilan muloqotga kirishishga qiynaladilar va ular bilan tez-tez urishish oqibatida hech kim bilan do‘stlasha olmaydilar. Ularda verbal va noverbal agressiya, birovlarning mulkiga ziyon yetkazish, kattalarga bo‘ysunmaslik, mushtlashish, uydan qochib ketish, sababsiz nojo‘ya ishlarga qo‘l urish, odamlar va hayvonlarga nisbatan shavqatsizlik kabilar kuzatiladi. Ayniqsa, bolalardagi agressiv xulq-atvor asabiy buzilishlarga, buning oqibatida bilish jarayonlarining susayishiga, tarbiyada noto‘g‘ri yo‘nalganlikka va yanada og‘irroq asotsial xulq-atvorga olib kelishi mumkin.

Agressivlik – shaxsning nisbatan barqaror xususiyati bo‘lib, u tajovuzkorlikka tayyorgarlikni ifodalash bilan birga, dushmanlik asosida boshqalarning xulq-atvori, xatti-harakatini qabul qilish va tushunishga moyillikni bildiradi.

Agressiya – bu jismoniy yoki ruhiy zarar yetkazishga yo‘naltirilgan har qanday xulq-atvor shaklidir.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”dagi ta’rifga ko‘ra, “agressivlik-agressiv xatti-harakat” deb ko‘rsatilgan. Bu tushunchaning psixologik ta’rifiga ko‘ra, “Katta psixologik lug‘at”da: Agressiya – (lotincha aggressio – tajovuz, hujum) degan ma’noni bildirib, insonlarning jamiyat qoidalariga zid motivlashgan destruktiv xulqi, hujum obyektlariga (jonli va jonsiz) zarar keltiruvchi va insonlarga jismoniy ziyon yoki psixologik noqulaylik (inkor etish, zo‘riqish, bosim, qo‘rquv) yetkazuvchi holat. Yuqoridagi ta’riflardan shu narsa ayon bo‘ladiki, agressiya tushunchasi bir qancha emotsional holatlar bilan yonma-yon ifodalanadi.

Jahl so‘ziga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, jahl (arabchadan-nodonlik; aqlsizlik; jaholat haddan oshish; qonunbuzarlik) nojo‘ya xatti-harakatdan, gapdan yoki voqea-hodisadan ranjish, achchiqlanish, g‘azablanish tuyg‘usi, g‘azab deb ta’riflangan. Bu ta’rifdan g‘azab tushunchasi – arabchadan tarjima qilganda qaxr, jahl, zarda; norozilik, kuchli darajada achchiqlanish hissi deb bayon qilingan. Demak, inson agressiv holatida kuchli jahl, tajanglik, asabiylik, g‘azab, norozilik kabi salbiy hislarni boshdan kechiradi va buning natijasida kimgadir jismoniy yoki ma’naviy-ruhiy zarar yetkazish harakatini amalga oshiradi.

Psixologiyada “agressiya” tushunchasi turlicha yondashuv asosida tahlil qilingan bo‘lib, bir guruh tadqiqotchilar agressiyani salbiy xulq-atvor modeli sifatida baholasalar, yana bir guruh tadqiqotchilar bu xulq-atvorning ijobiy tomonlari ham mavjudligini ta’kidlaydilar.

Birinchisi, xulq-atvorning zohiriy (tashqi) alomatlariga asoslanadi: “Agressiya – kimgadir ziyon yetkazuvchi xulq-atvorning har qanday ko‘rinishidir”. Ikkinchisi, odamning botiniy (niyatlari) yo‘nalishi bilan bog‘liq, ya’ni insonni harakatga undovchi kuchlarini o‘rganish bilan anglash mumkin bo‘lgan holatlar bilan mushtarak holda ifodalanishi. “Inson ongi, tafakkuri, o‘z-o‘zini, fikrini boshqara olishi, motivatsiyasiga anglab munosabatda bo‘lish hamda xulq-atvor ifodasi bilan hayvonot olamidan ajralib turadi” – deydi Bandura.

Shu narsa alohida diqqatga molikki, agressiv xulq-atvorning kelib chiqishi va namoyon bo‘lishida oila va oilaviy o‘zaro munosabatlar, tengqurlar guruhi hamda ommaviy axborot vositalarining roli katta ekanligi alohida e’tirof etiladi.

Shuningdek, kator tadqiqotchilar agressiya turi, klassifikatsiyasi, ko‘rinishlari, shakllari borasida o‘z nuqtayi nazarlarini ilgari surganlar. Feshbax tomonidan agressiv xulq-atvor 2 tipga bo‘lib, agressiyaning maqsadi va mukofotlanishiga (agressiyaga javoban reaksiya nazarda tutilmoqda) asoslanib ajratilgan:

1. Dushmanlilik (g‘arazlilik) agressiyasi. 2. Instrumental agressiya.

– dushmanlik agressiyasi – agressivlikni qo‘zg‘atuvchi sabab va ta’sirlar jumladan, xaqoratlash, jismoniy hujum yoki shaxsiy omadsizlik ta’siri natijasida g‘azabni qo‘zg‘atish oqibatida sodir bo‘ladi. Bunday hollarda agressorning tezkor va jahl ustidagi harakati kuzatiladi.

– instrumental agressiya – odatda raqobat yoki qandaydir obyekt, statusni egallash maqsadida yuzaga keladigan xulq-atvor shakli hisoblanadi. Agressor istagidagi obyektni har qanday sharoitda ham qo‘lga kiritishga intiladi, yo‘lidagi to‘siqlarni yo‘q qiladi. Instrumental agressor birovga zaxmat yoki zarar yetkazish maqsadida emas, fakat biror predmetga ega bo‘lish maqsadida buzg‘unchilik qiladi. Dushmanlik agressiyasidan farqli ularoq, ya’ni avvaldan ziyon yetkazish, azob berishni rejalashtirmagan

holda sovuqqonlik asosida karama-qarshi tomondagi biror narsaga egalik qilish huquqini qulga kiritishga qaratilgan urinishdir.

Rolf Leber va Magda Shtutxamerlarning ta’kidlashicha, agressivlik ochiq va yashirin holatlarda namoyon bo‘ladi. Ochiq agressiv xulq-atvorda jabrlanuvchiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ochiq hujum qilinishi, jismoniy zarba orqali zarar yetkazilishi kuzatiladi.

Yashirin agressiya esa gap-so‘zlar, mish-mishlar, aldov va yolg‘onlar asosida ifodalanadi. Ko‘p hollarda ochiq agressiya yosh o‘tishi bilan kuchsizlanib borsa, yashirin agressiya esa aksincha kuchayib boradi.

A. Bass va A. Dark tomonidan agressiv xulq-atvorning quyidagi shakllari ajratib ko‘rsatilgan.

1. Jismoniy agressiya – boshqa bir odamga qarshi jismoniy kuch ishlatishni ifodalaydi;

2. Verbal agressiya – salbiy his-tuyg‘ularni og‘zaki tarzda ifodalanishi (qiy-chuv solish, so‘kinish, og‘zaki tahdid qilish, la’nat aytish, qarg‘ish);

3. Bilvosita agressiya – boshqa shaxsga qaratilgan g‘iybat, piching ko‘rinishida bilvosita olinadigan alam, hech kimga yo‘naltirilmagan nafrat (yer tepish, baqirib-chaqirish);

4. Negativizm – mavjud qonun-qoidalarga shunchaki qarshi chiqishdan tortib, ular bilan kurashishgacha bo‘lgan reaksiyalar;

5. Jizzakilik – asabiylashishga moyillik, arzimagan narsalarga jahl chiqishi, keskinlik, qo‘pollik qilish;

6. Sergumonlik – ishonchsizlikka moyillik, odamlardan shubhalanish, ular bilan ehtiyot bo‘lib munosabatga kirishish;

7. Ranj – butun olamdan yoki kimdandir alamzadalik, xayolan yoki chindan ham keltirilgan iztirobdan g‘azablanish, atrofdagilarga nisbatan nafrat va hasadning namoyon bo‘lishi;

8. Autoagressiya – o‘zi va atrof-muhit o‘rtasidagi munosabatlarda kuzatiladigan aybdorlik hissi, (o‘zini ayblash, men shundoqman, men bundoqman deb ich etini yeyish).

Yuqoridagi ilmiy tadqiqot ishlaridan shu narsa ayon bo‘ldiki, bolalarning jismoniy va psixologik jihatdan barkamol rivojlanishlari ko‘p jihatdan uni o‘rab turgan ijtimoiy shart-sharoitlarga, ayniqsa, oiladagi sog‘lom tarbiyaviy-psixologik muhitga, tarbiya jarayonlarida bolaning jismoniy-fiziologik va ma’naviy-psixologik rivojlanish qonuniyatlarini bilish va unga amal qilishga uzviy bog‘liq ekan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Богдалова Г.А. Эмоциональная устойчивость и её формирование у учащихся раннего подросткового возраста: Дис. ...канд. психол.наук. - Т.: НУ Уз, 2000, – С. 175.

2. Большой психологический словарь: Б.Г Мещеряков, В.П Зинченко. 3-е изд., 2002. – С. 16.

3. Бэрон Р. Агрессия. СПб.: 2002. – С. 44-64.

4. Бэрон Р, Ричардсон Д. Агрессия. - СПб.: 2000. – С. 73-89.

Nasiba XOLBOZOROVA,
Qarshi davlat universiteti 2-bosqich magistranti

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O‘QUVCHILAR IJTIMOIYLASHUVIDAGI PSIXOLOGIK TO‘SIQLAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar va ularning ijtimoiylashuvida yuzaga keladigan psixologik to‘siqlar haqida ma’lumotlar berilgan. Shuningdek, ijtimoiylashuv, jamoa va muloqot jarayonida yuzaga keladigan psixologik to‘siqlar haqida ma’lumotlar yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar. Ijtimoiylashuv, jamoa, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar, psixologiya, muloqot, og‘zaki nutq, yozma nutq, psixologik to‘siqlar, vaziyatli to‘siqlar, mazmunli to‘siqlar, motivatsion to‘siqlar va diqqat.

В статье представлена информация об учениках младшего школьного возраста и психологических барьерах, возникающих в их социализации. Также есть информация о коллективе, о психологических барьерах, возникающих в процессе социализации и общения.

Ключевые слова. Социализация, коллектив, учащиеся младшего школьного возраста, психология, общение, устная речь, письменная речь, психологические барьеры, ситуационные барьеры, значимые барьеры, мотивационные барьеры и внимание.

This article provides information about small school-age pupils and the psychological barriers that occur in their socialization. There is also information about the community, about the psychological barriers that arise in the process of socialization and communication.

Key words. Socialization, community, classroom community, small school age students, psychology, communication, oral speech, written speech, psychological barriers, situational barriers, meaningful barriers, motivational barriers and attention.

Ijtimoiylashuv – bu bizning jamiyatga qo‘shilib yashashimiz va shu jamiyatda mavjud bo‘lgan ijtimoiy tajribalarni o‘zlashtirishimizdan iborat bo‘lgan jarayondir. Jamoa ijtimoiy jamiyatning bir qismi hisoblanadi, unda ijtimoiy hayot va kishilik munosabatlarining barcha me’yorlari o‘z ifodasini topadi. Shaxs ijtimoiylashuvida jamoaning o‘rni kattadir. Yosh avlodni hayotga va mehnatga tayyorlashda, ularda oliy axloqiy sifatlarini shakllantirishda jamoa ruhida tarbiyalash alohida o‘rinni egallaydi.

Kichik maktab yoshi davriga 6-10 yoshli boshlang‘ich (1-4) sinf o‘quvchilari kiradi. Bola maktab ta’limiga maktabgacha ta’lim tashkiloti yoki oilada tayyorlanadi. Bunda u maktabda o‘quvchilarga qo‘yiladigan har xil talablar bilan tanishadi, fan asoslarini o‘rganish uchun biologik va psixologik jihatdan tayyor bo‘ladi. O‘quvchi maktab davrida jamoa bo‘lib o‘qiydi. O‘quvchilar jamoasi pedagogik – tarbiyachilar hamda bolalardan iborat jamoaning murakkab birlashmasi, o‘z-o‘zini nazorat, o‘z-o‘zini boshqaruv jarayonini tashkil etuvchi mustaqil tizim, shuningdek, o‘zining psixologik muhitiga, an’analariga ega guruh hisoblanadi. Sinf jamoasi doirasida o‘quvchilarning asosiy vazifasi o‘qishdir. Aynan sinf jamoasida o‘quvchilar o‘rtasida mustahkam shaxslararo muloqot va munosabatlar tarkib topadi.

Ta’limga psixologik tayyorgarlik deganda, bolaning obyektiv va subyektiv jihatdan maktab talabiga munosibligi nazarda tutiladi. U maktab ta’limiga avval psixologik jihatdan

tayyorlanadi, binobarin, uning psixikasi bilim olishga yetarli darajada rivojlanadi, shu yoshdagi bola idrokining o‘tkirligi, ravshanligi, sofligi, aniqligi, o‘zining qiziquvchanligi, dilkashligi, xayrixohligi, ishonuvchanligi, xayolining yorqinligi, xotirasining kuchliligi, tafakkurining yaqqolligi bilan boshqa yoshdagi bolalardan ajralib turadi. Maktab ta’limiga tayyorlanayotgan bolada diqqat nisbatan uzoq muddatli va shartli barqaror bo‘ladi. Bola diqqatining xususiyatlari rolli va syujetli o‘yinlarda, rasm chizish va qurish-yasash mashg‘ulotlarida, loy hamda plastilindan o‘yinchoqlar tayyorlashda, o‘zgalar nutqini idrok qilish va tushunishda, matematik amallarni yechishda, hikoya tinglash va tuzishda ko‘rinadi. Bola o‘z diqqatini muayyan obyektga yo‘naltirish, to‘plash, taqsimlash bo‘yicha ma’lum darajada ko‘nikmaga ega bo‘lib, o‘z diqqatini boshqarish va kerakli paytda to‘plashga intiladi. Uning xotirasi qiziqarli, ajoyib-g‘aroyib, kishini taajjubga soladigan ma’lumot va hodisalarni puxta esda olib qolish, esda saqlash, esga tushirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shu davrgacha bevosita kattalar rahbarligida u yoki bu axborotlarni o‘zlashtirib kelgan bo‘lsa, o‘z xohish-irodasi bilan zarur ma’lumotlar to‘plashga, o‘z oldiga aniq maqsad va vazifa qo‘yishga harakat qiladi. Bolaning ana shu faolligi xotirasining muayyan darajada rivojlanganini bildiradi. U she’r, hikoya va ertaklarni esda saqlashi uchun ko‘p takrorlashi, yod olishning eng qulay yo‘l va usullaridan foydalanishi ta’lim jarayonida unga juda qo‘l keladi, birinchi sinf o‘quvchisi ko‘pincha yaqqol obrazli xotiraga suyanib bilish faoliyatini tashkil etsa ham, bu ish xotiraning boshqa turlarini inkor qilmaydi, aksincha, ta’lim so‘z-mantiq xotirasini taqozo etadi. So‘z-mantiq xotirasining mavjudligi ma’nosini tushunib esda olib qolish jarayonining samaradorligi ortishiga keng imkoniyat yaratadi.

Bola maktab ta’limiga psixologik tayyorlanishining subyektiv tomoni ham mavjuddir. Uning maktabda o‘qish xohishi, intilishi, katta yoshdagi odamlar bilan muloqotga kirishish istagi mazkur tayyorgarlik bilan uzviy bog‘liqdir. Bolada shu davrga kelib, o‘qish, bilim olish haqida to‘g‘ri tasavvur shakllanadi. U maktab jamoasi a’zolarining mas’uliyatli vazifalarini anglaydi va ularga itoat qilishga, ularning ko‘rsatmalarini bajarishga moyil bo‘ladi. Lekin bolalar hammasi bir xil emasligi sababli ular o‘rtasida muhim farqlar vujudga keladi. Ba’zi bola maktabga butun vujudi bilan talpinadi, o‘qishga qancha vaqt qolganligini uzluksiz sanaydi, o‘quv ashyolarini oldinroq tayyorlab qo‘yishga harakat qiladi. Boshqa bir bola esa maktabdan qat’iy voz kechishgacha borib yetadi. O‘qishga salbiy munosabat ko‘pincha kattalarning qo‘rqitishlari oqibatida vujudga keladi. Shuningdek, aka va opalarining maktabdagi qiyin kechinma va vaziyatlar to‘g‘risidagi gaplari, uyda bolalarni ko‘proq dars tayyorlashga majbur qilish ham o‘qishga salbiy munosabat uyg‘otadi. O‘qishga salbiy munosabatdagi bolalar ta’lim muhitiga kirishishga qiynaladilar, qator ruhiy to‘siqlarga duch keladilar.

Psixologiyada psixologik to‘siqlar odamga ma’lum bir harakatni muvaffaqiyatli bajarishga xalaqit qiluvchi ichki to‘siqlar (istamaslik, qo‘rquv, o‘ziga ishonmaslik va hokazo) deb tushuniladi. Ijtimoiy psixologiyada muloqot jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan to‘siqlarning quyidagilarini farqlaydilar: psixologik, vaziyatli, mazmunli va motivatsion to‘siqlardir.

Psixologik to‘siq – bu sherigiga ma’qul tushmay qolish, tushunilmay qolishdan qo‘rqish, u tomondan inkor etilish va kalaka qilinishdan yoki keskinlikdan qo‘rqish, eng ezgu hislarini va niyatlarini samimiy izhor etishiga javoban qo‘pollik bilan javob berilishi mumkinligidan xavotirlanish kabilar tufayli intellektga oid, mehribonlikka oid, kuchga oid shaxsiy imkoniyatlarini namoyon qilish va amalga oshirishga xalaqit beruvchi, o‘ziga xos ichki psixik tormozdir.

Vaziyatli to‘siqlar – bu suhbatdoshlarning bir xil vaziyatni turlicha tushunishlari, unga turlicha yondashishlari bilan bog‘liq.

Mazmuniy to‘siqlar – odatda suhbatdoshini tushunmaganlik tufayli, uning mazkur jumlasi qanday ma’noda aytilgani, u qanday fikrni ilgari surayapti, nimani nazarda tutilyapti, nimaga olib boradi va shu kabi mulohazalarga borish tufayli yuzaga keladi.

Motivatsion to‘siqlar – shunday vaziyatlarga yuzaga keladiki, bunda gapirayotgan odam yo o‘zi bayon qilayotgan fikrning motivini yetarlicha anglay olmaydi yoki u atayin ularni (asosiy motivni) yashirishga harakat qilayotgan bo‘lishi mumkin.

Bola endi maktab yoshiga yetganda ularning bir-birlariga nisbatan munosabatlari yangicha mazmun kasb etadi. Bola ilgari ota-onasi, guruhdagi tengdoshlari, tarbiyachi bilan muloqotda bo‘lgan bo‘lsa, endi maktab o‘qituvchisi, sinf rahbari bilan ham muloqotda bo‘ladi. Bolalarda bu davrda mas’uliyat hissi shakllanadi. Shu o‘rinda, bolalarning maktabga tayyorgarligi masalasiga alohida to‘xtalib o‘tish joiz, deb hisoblaymiz. Psixologiyada “7 yosh inqirozi” deb yuritiladigan inqiroz davri mavjuddir. Bu davr bolaning o‘z “men”ligini tengdoshlari orasida tasdiqlashi bilan bog‘liq. Bundan tashqari, 7 yoshda bolaning bilish jarayonlarida (sezgi, idrok, xotira, xayol, diqqat) sifat o‘zgarishlari sodir bo‘ladi. Boladagi bo‘linuvchan beqaror diqqat o‘rniga barqaror diqqat shakllana boshlaydi, xotirasi mustahkamlanadi, tafakkur jarayonlari rivojlanadi. Gohida 6 yoshli bolada mana shu sifat o‘zgarishlari yuz bermaganligi tufayli ularni maktabga qabul qilish jarayonida “maktabga tayyor emas”, degan xulosa chiqarish mumkin bo‘ladi. Shu tufayli ota-onalar bolani maktabga berish chog‘ida albatta, mutaxassis maslahatini olishlari maqsadga muvofiqdir. Bolani maktabga moslashish davri uning butun maktab hayotiga nisbatan ancha qisqa davr, albatta, bu davrning davomliligi bolaning maktabga tayyorgarlik holati, oilaning ijtimoiy-iqtisodiy sharoiti, o‘qituvchi va maktabning tayyorgarlik darajasi kabi qator omillarga bog‘liq bo‘ladi. 1-sinf o‘quvchilari bilan muomala uslubini o‘qituvchi bolalar xulq-atvoridagi o‘ziga xos jihatlar, uning o‘z tengdoshlari va kattalar bilan o‘zaro muloqotga kirisha olish malakalariga qarab tanlaydi. 1-sinf o‘quvchilari orasida jamoa bilan muloqot qilish jarayonida turli darajadagi qiyinchiliklarni his qiladigan o‘quvchilar bor va biz bunday o‘quvchilarni quyidagicha guruhlarga bo‘lishimiz mumkin: gipermuloqotchan (sergap) bolalar; sinf-dars holatidan qo‘rqadigan bolalar; javob berishga uyaladigan, shuning uchun hyech narsani bilmaydigan yoki quloq solmayotgan o‘quvchi bo‘lib ko‘rinadigan bolalar. Ularning har biriga nisbatan o‘qituvchi sabr-toqat va xayrixohlik bilan turli xilda yondashishi kerak bo‘ladi.

Aynan sinf jamoasidagi muloqot jarayonida kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda yozma nutqqa nisbatan og‘zaki nutqning yaxshi rivojlanmaganligi tufayli bir necha psixologik to‘siqlar vujudga kelmoqda. Bunday to‘siqlarga biz: hamma hamma narsani biladi-yu men hyech narsani bilmayman; hamma hammani taniydi-yu men hyech kimni tanimayman; men gapirsam hamma menga qaraydi; gapirayotgan vaqtda bilgan ma’lumotlarimni unutib qo‘yishim va gapirayotgan vaqtda xatoga yo‘l qo‘yishim mumkin kabi misollarni keltirib o‘tishimiz mumkin.

Bunday toifadagi o‘quvchilar ko‘proq ichki dialog formasidagi muloqotni afzal ko‘radi, ya’ni yolg‘izlikda mulohaza yuritish, o‘zi haqida o‘ylash va shunga o‘xshaganlar uning uchun asosiy ishdir. Shuning uchun ham bunday insonlarning muloqotga kirishishi juda sust bo‘ladi. Shuningdek, bunday insonlarda doimo odamlarning uni tushunmay qolishlaridan xavotirda bo‘ladi.

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchi doskaga chaqirilganda u o‘qib berishga yoki

yozib berishga qo‘rqib, uyalib hijolat tortsa, bunday o‘quvchilarni tez-tez doskaga chiqaraverish kerak, ana shunda u tortinmaydigan bo‘lib qoladi. Qayta-qayta doskaga chiqaraverish qo‘rquv hissi susayib boradi va u nihoyat butunlay “so‘nib qolishi” va “yo‘q bo‘lib” ketishi mumkin.

Psixologik, ichki shaxsiy to‘siq o‘quvchining individual xossalardan va o‘zi kiradigan jamoaning ijtimoiy-psixologik belgilaridan kelib chiqadi.

O‘qituvchining 1-sinf o‘quvchilari bilan avtoritar uslubda ish olib borishiga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. 1-sinf bolasi uchun o‘qituvchining unga nisbatan mehribonlik bilan ijobiy munosabatda bo‘lishi o‘ta muhimdir. O‘qituvchining bolaga munosabati faqat uning aniq muvaffaqiyati evaziga bo‘lmasligi kerak. Bolalar nutqining o‘sishida ularning maktabda o‘qishi katta rol o‘ynaydi. Bola maktabgacha yoshda o‘ylamasdan gapiradi, maktabda esa bola gaplashayotgan til o‘qitiladigan va o‘rganiladigan ilm bo‘lib qoladi. Grammatikani o‘qib o‘rganish jarayonida bola nutqining fonetik jihati to‘g‘ri bo‘lib boradi, nutqning sintaksis tuzilishi takomillashadi. Maktabda o‘qitilayotgan hamma fanlarni o‘rganish jarayonida o‘quvchi nutqining lug‘ati boyiydi, so‘zlarning mazmuni chuqurlashadi va kengayadi. Bolalarning yozma nutqni egallashlari ular nutqining o‘sishida muhim bosqich bo‘ladi. Bola o‘z fikrlarini yozma nutqda bayon qilishga harakat qiladi. O‘quvchi o‘qituvchining topshirig‘iga binoan yozma ishlar bajarayotganda o‘zining shu ishiga baho berilishini, o‘z fikrining qanday til bilan bayon qilinganiga qarab baho berilishini oldindan bilib turadi. O‘quvchi maktabda berilgan topshiriqni tayyorlash vaqtida shu topshiriqni o‘ziga-o‘zi gapirib berishni mashq qilib turishi o‘quvchi nutqining o‘sishiga katta ta’sir qiladi. Bolalar nutqining o‘sishida o‘qituvchining nutqi katta rol o‘ynaydi, chunki uning nutqi o‘quvchilar uchun namunali nutq hisoblanadi. Shuning uchun o‘qituvchi o‘z nutqini takomillashtirish ustida ishlashi kerak. Maktabda bolalarda eng avvalo, faol ishlatiladigan so‘zlarning miqdori oshadi. Yozma nutqni, o‘qish va yozishni o‘zlashtirish o‘quvchi hayotida hosil qilingan malaka hisoblanadi. Kichik maktab yoshidagi bolalar tovushlarni bir-biriga qo‘shish orqali so‘z tuzish malakasini egallab olgach, ba’zida matn mazmunini noto‘g‘ri tushunadilar. Unga o‘quvchilarning so‘z boyligining kamligi yoki asosiy fikrni ajrata bilmasligi sabab bo‘ladi. Shu munosabat bilan o‘qituvchi oldida bolalarda lug‘at boyligini oshirish va ularni o‘qigan narsalari yuzasidan mustaqil reja tuzishga barvaqtroq o‘rgatish vazifasi turadi. Yozuv darslarida bola harf va so‘zlarni yozishda katta qiyinchilikka duch keladi. Dastlab bola butun e’tiborini yozish texnikasiga va o‘tirish qoidasiga rioya qilishga qaratadi. Avval bolaning yozma nutqi uning og‘zaki nutqi orqali belgilanadi, ya’ni u so‘zni qanday talaffuz etsa shunday yozadi. Bu davrda bola bilan ovoz chiqarib aytish bo‘yicha muntazam mashqlar o‘tkazish uning imlo qoidalarini muvaffaqiyatli o‘zlashtirishida katta ahamiyatga ega. Yozma nutqda imo-ishora, ohangdan foydanilmaydi, bolalarning yozma nutqlari ularning og‘zaki nutqiga qaraganda ancha bo‘sh bo‘ladi.

Bolalar nutqi kattalar nutqi ta’sirida o‘sadi. Shuning uchun pedagoglar bolalarga kichik maktab yoshidan boshlab og‘zaki va yozma nutqni o‘stirish bilan birga nutq madaniyatini ham o‘rgatib borishlari zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ismoilova N., Abdullayeva D. Ijtimoiy psixologiya. –T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati. 2013.

2. Aslonov I. Ijtimoiy faoliyat va muloqot. –T.,2019.

Vazira KELDIYAROVA,
Qarshi davlat universiteti "Maktabgacha ta'lim" kafedrasi o'qituvchisi

TAFAKKUR VA OBRAZLI TAFAKKUR HAQIDAGI DASTLABKI QARASHLAR (ARISTOTEL VA FAROBIY NAZARIYASI ASOSIDA)

Annotatsiya

Ushbu maqolada tafakkur va uning til bilan bog'liq holda rivojlanishi, obrazli tafakkurning namoyon bo'lishida bilvosita obrazlarga tayanib fikr yuritish borasida allomalar Aristotel va Farobiyning fikrlari haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlar. Tafakkur, tafakkur turlari, obrazli tafakkur, Aristotel va Farobiyning tafakkur haqidagi nazariyasi.

В этой статье представлены рассуждения философов Аристотеля и Фаробия о мышлении и его развитии в связи с языком, о том, как образное мышление опиралось на опосредованные образы в проявлении образного мышления.

Ключевые слова. Мышление, виды мышления, образное мышление, теория мышления Аристотеля и Фараби.

This article discusses Aristotle and Farobi's views on thinking and its development in relation to language, the signs of thinking based on indirect images in the manifestation of figurative thinking.

Key words. Thinking, types of thinking, figurative thinking, Aristotle and Farobi's theory of thinking.

Tafakkur – bu tashqi dunyo va uning qonuniyatlarini umumlashtirilgan, vositachilik bilan aks ettirish, ijtimoiy shartli bilish jarayoni, uning eng yuqori darajasi. Tafakkur bolaning ontogenezida doimiy ravishda rivojlanib, ko'rgazmali-harakatli, ko'rgazmali-obrazli va so'z-mantiqiy kabi tafakkur turlari bir-biriga o'zaro ta'sir o'tkazadi, o'zaro bir-birini to'ldiradi. Ammo, bir-birining o'rnini bosmaydi va bolaning butun hayoti davomida takomillashib boradi. Maktabgacha yosh davrida (3-7 yoshgacha bo'lgan davrida) bolalarda ko'rgazmali-obrazli tafakkur ustunlik qiladi. Bu tafakkurning qay darajada rivojlanishi va shakllanishi, bolaning kelgusi qobiliyatlarini nomoyon bo'lishiga, aqliy rivojlanishiga, maktab hayotida erishadigan yutuqlariga ham ta'sir etadi.

Ushbu muammoni tadqiq etar ekanmiz, dastlab uning tarixiy ildizlariga nazar tashladik. O'rganilgan manbalar tahlili shundan dalolat berdiki, yunon olimlaridan Geraklit, Demokrit, Aristotel, Epikur, Bekon, Gobbs, Lokk va boshqalar inson va uning tafakkuri, sezgilar, idrok va buning nutq bilan bog'liqligini payqashgan va o'z nazariyalarini tatbiq etishgan. Bu borada ayniqsa, Aristotelning fikrlari ahamiyatlidir. Aristotel (eramizgacha bo'lgan 384-yilda tug'ilgan) ta'limotida yana ham kengroq tekshirildi. Aristotel fanning turli masalalariga doir juda boy ilmiy meros qoldirdi. Uning logikaga oid "Orgapon", "Kategoriyalar", "Birinchi va ikkinchi Analitika", "Ritorika", "Jon haqida", "Idrok va idrok etiladigan narsalar haqida", "Xotira va esdaliklar haqida" kabi asarlari biz uchun ahamiyatli. Aristotel sezgilar bilan tafakkur aloqasini quyidagicha

aniqlaydi: aftidan, hissiy qabul qilingan miqdorlardan tashqari hech qanaqa yakka buyumlar mavjud bo‘lmaganligi uchun, aqliy fahmlangan narsalar hissiy bilinadigan shakllarda bo‘ladi: abstraksiyalar ham, xossa, holatni tashkil etuvchi hissiy bilingan narsalar ham shunga kiradi. Shuning uchun ham his etmagan (kishi) hech narsani bila olmaydi va aqlan fahmlay olmaydi ham”. “Agar hissiy qabullash bo‘lmasa, bilim ham bo‘lmasligi zarur... Hissiy qabullash yakka narsalarga qaratilgan bo‘ladi, aks holda ular haqida bilimga ega bo‘lish mumkin emas”. Biroq bir tomondan umumiyni yakka narsalarni his etmay turib bilib bo‘lmasa, Aristotslning fikricha, ikkinchi tomondan, yakka narsani his etishning o‘zi hali umumiy bilimii tashkil eta olmaydi. Bilim eng zarur va umumiy narsaga qaratilgan bo‘ladi. Ammo biz bilamizki, har qanday umumiy yakkalarda mavjuddir. Mana shu umumiy va zarur narsalarni bilish qobiliyatini Aristotel (aql yoki) tafakkur deb ataydi. Tafakkur fikrlovchi mavjudot, xususan, odamga xos bo‘lish bilan xarakterlanadi, chunki faqat odamgina istagan paytida fikrlay oladi. Aristotelning ta’kidlashicha: “tafakkur umumiylikni o‘rganadi va tafakkur qilish uchun biron bir buyumni bevosita his etish shart emas, mazkur buyum yoki hodisalarning obrazlari bo‘lsa bas. Shuning o‘zi tafakkurni imkoniyatdan voqyelikka aylanishi uchun kifoya qiladi. Chunki u yoki bu narsa yoki hodisa yo‘q bo‘lgan taqdirda ham bari-bir uning obrazi tafakkur obyekti sifatida qoladi, deydi. Aristotelning obraz haqidagi fikri ham diqqatga sazovordir. U: “…konkret narsadan boshqa biror narsa mavjudmi yoki yo‘qmi degan savol tug‘iladi. Men konkret deb materiyani va hamma moddiy narsalarni tushunaman. Agar u mavjud bo‘lmasa, u holda hamma narsa o‘tkinchidir, chunki hamma moddiy narsalar har holda o‘tkinchidir. Agar konkret narsadan boshqa biror narsa mavjud bo‘lsa, bu narsa, aftidan forma va obrazdir” – bundan ko‘rinadiki Aristotel insonda obrazli tafakkurning bilvosita hodisalarga bog‘liq holda yuzaga kelishini birinchilardan bo‘lib ifodalagan olimdir. Shuningdek, u: “Fikrlovchi (kishi) avvalo, mana shu obrazlar shaklida fikr yuritadi, aqlda mazkur shakllardan nimaga ahamiyat berish va nimalarni tashlab yuborish ravshanlashgach (fikrlovchi kishida), ana shu obrazlar bo‘lganda sezgilar bo‘lmagan paytda ham u harakatga keladi”, deydi.

Sharq mutafakkirlaridan O‘rta Osiyo xalqlar ijtimoiy-siyosiy va falsafiy fikrlar taraqqiyotiga salmoqli hissa qo‘shgan Farobiy, Ibn Sino, Beruniy, kabi mutafakkirlar mana shu antik dunyo faylasuflarining tafakkur va til haqidagi ilg‘or qarashlarini qunt bilan mutolaa qilganlar va mazkur muammoni o‘z asarlarida nisbatan chuqurroq tasvirlagan hamda takomillashtirganlar. Bu borada, ayniqsa, Abu Nasr Farobiyning qarashlari ahamiyatlidir. Abu Nasr Farobiy (873—950 y.) o‘zining “Falsafiy savollar va ularga berilgan javoblar”, “Mantiqqa kirish”, “Mantiq to‘g‘risidagi risolaga muqaddima”, “Ixso al-ulum”, “Fozil odamlar shahri” kabi risolalarida tafakkur va til masalasiga alohida e’tibor beradi. Mazkur muammo ustimda fikr yuritar ekan, bunda u o‘z davrida erishilgan tabiiy-ilmiy yutuqlarga asoslanadi va o‘zining falsafa, mantiq, psixologiya, til ilmi, fiziologiya va shu singari fanlar sohasidagi bilimlaridan o‘rinli foydalanadi. Tafakkur va til, Farobiyning qarashicha, faqat odamga xos xususiyatdir. Uning tushuntirishicha, odam – bu avvalo hayvondir. His etish odamga ham, hayvonga ham xosdir, ammo odamning aqli bor. Shuning uchun ham u “hayvonni ikkiga: aqlli va aqlsiz hayvonga bo‘ladi va “odam — bu aqlli hayvondir”, deydi. Ammo mutafakkirning yozishicha, odam kamol topib, haqiqiy insonga aylanishi uchun aql, tafakkurning o‘zi kifoya qilmaydi, buning uchun u o‘z aql, tafakkuri ifodalanadigan tilga, so‘zga (nutqqa) ehtiyoj sezadi. Bu fikrni u “Falsafaning asosiy g‘oyalari to‘g‘risida” deb nomlangan asarida “Odam – bu nutqli mavjudot”dir deyish bilan qat’iy ta’kidlaydi. Binobarin, odam, Farobiy ta’limoticha,

sezish, hissiy qabullash, tasavvurga, eng muhimi aql, tafakkur va nutqqa (tilga) ega bo‘lgan tabiat taraqqiyotiiing yakuni, tojidir.

Farobiy aqliy bilish jarayonida odam oldin sezilgan va ayni vaqtda uning faoliyatidan tashqarida bo‘lgan buyumlar obrazini o‘z xotirasida saqlab qolish xususiyatiga ega ekanligini ham aniq tushungan va buni u “xayol quvvati” deb atagan. “Xayol quvvati”, Forobiyning ta’kidlab ko‘rsatishicha, his etilgan narsalarning obrazini turli tartibda joylashtirib (ya’ni qo‘shish), biriktirish (sintez qilish) yoki bo‘lmasa ajratish vazifasini o‘taydi. Shundan so‘ng bilishnnig aqliy bosqichiga o‘tiladi. Buni olim “aqliy quvvat” deb nomlaydi. Aqliy quvvat, ya’ni tafakkur yordamida odam ongli ravishda abstraksiya, tushuncha vositasida fikr yuritadi. Bilishning mana shu bosqichida “go‘zal narsani yomon narsadan farq qiladi”, boshqacha qilib aytganda u o‘z amaliy faoliyatida tafakkurning muhim xislati bo‘lgan abstraktlashtirishdan foydalanadi. Ma’lumki, insonning beshta sezgi a'zosining har biri muayyan vazifani o‘taydi, ular orqali tashqi olamdan olingan xabarlar kishi tafakkuri organi – miyaga kelib tushadi va shu yerda umumlashtiriladi. Binobarin, inson sezgi a’zolarini hammasi mana shu miyaga tobedir, ularning ustidan hamisha miya nazorat qilib turadi. Shu ma’noda Farobiy “miya... sezgilarga rahbarlik qiladi, (ularni) o‘z buyrug‘iga bo‘ysundiradi va ma’lum mo‘tadillikda ushlab turadi” deydi. O‘rta asr sharoitida bunday fikrlarni ilgari surish, ular har qancha sodda bo‘lmasin, fanda juda katta jasorat edi. Farobiy tafakkur haqidagi ta’limotining muhim ilmiy qimmati ham shundadir. Farobiyning qarashicha, atrofni qamrab olgan buyumlar va hodisalarning hammasi “sezgi va aql” orqali bilinadi. Farobiy bilishni muhr bilan mumga o‘xshatadi, ya’ni muhr mumga bosilib, unda o‘z izini qoldirganidek, insondan tashqarida bo‘lgan buyum, hodisalar ham uning sezgi a’zolariga ta’sir etib, miyasida o‘z nusxa, obraz, suratlarini qoldiradi. Olim shuni ham ta’kidlab ko‘rsatadiki, “muhr bosilmasa, mumda uning izi paydo bo‘lmaydi”. Ajoyib o‘xshatish! Axir bizdan tashqaridagi biror obyektiv buyum yoki hodisa bizning sezgi a’zolarimizga ta’sir etmasa, bizning miyamizda ular haqida hech qanaqa obraz, surat, nusxa paydo bo‘lishi mumkin emas. Buni Farobiy juda yorqin va aniq anglagan. Yuqorida biz Aristotel haqida gapirib uning “his etmagan (kishi) hech narsani bila olmaydi va aqldan fahmlay olmaydi ham”, degan fikrini keltirgan edik. Farobiyning hozirgina keltirilgan fikri ham Aristotelning ana shu qarashiga juda o‘xshab ketadi va undan ko‘ra aniqroq sharhlangandir. Bundan tashqari, Farobiy o‘zining “Mantiqqa kirish”, “Mantiq to‘g‘risidagi risolaga muqaddima” va Aristotelning logikaga oid bir qator asarlarida yozgan sharhlarida ham tafakkurga doir fikrlarni ilgari suradi. Olim haqiqatni faqat tafakkur orqali bilish mumkin deb, unga alohida e'tibor bilan qaraydi. Shuning uchun ham Farobiyning tafakkur na uning murakkab xususiyatlari yuzasidan yuritgan mulohazalari chuqur va ilmiy asoslangandir. Bu jihatdan olimning tafakkurning abstraktlashtirish, umumlashtirish va shu kabi boshqa xususiyatlariga doir qarashlari alohida ilmiy qimmatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmedova M. Umumiy tahrir ostida. Falsafa. O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. – T., 2006-y.– B 506, 495-bet.

2. Nazarov Q. Bilish falsafasi (Gnoseologiya). – T.: Universitet, 2005. – 348 b.

3. Falsafa. Qomusiy lug‘at. – T.: Fan, 2000. – 492-b.

4. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2004. – 160-b.

Bosh muharrir:
Mahmudov Sarvar Yuldashevich

Bosh muharrir o‘rinbosari v.v.b:
Umaraliyeva Muhayyo Abdugaparovna

Mas’ul kotib:
Suyarova Lutfiya Muxiddinovna

Bosh dizayner – badiiy muharrir:
Mamasoliyev Akbarali Hamzayevich

Tahrir hay’ati:
Sherzod SHERMATOV, Risboy JO‘RAYEV, Komiljon MUQIMOV,
Ulug‘bek INOYATOV, G‘ayrat SHOUMAROV, Maqsudjon YULDASHEV,
Oynisa MUSURMONOVA, Lola MO‘MINOVA, Dilyara SHARIPOVA, Barno ABDULLAYEVA,
Rohatoy SAFAROVA, Xolboy IBRAGIMOV, Mirodiljon BARATOV, Sharibboy ERGASHEV.
Yashin ISMANDIYAROV, Muhabbat MIRSALIYEVA, Bahodir MA’MUROV,
Shukurullo MARDONOV, Ulfat MAHKAMOV.

Jamoatchilik kengashi:
Dilshod KENJAYEV, Sobitxon TURG‘UNOV, Nargiza RAXMANKULOVA, Ravil IS’YANOV,
Abduhalim MAHMUDOV, Kamola RISKULOVA,
Feruza QODIROVA, Islom ZOKIROV, Ravshan ABDUXAIROV.

Tahririyat manzili:

Toshkent shahar Shayhontoxur tumani Navoiy ko‘chasi, 30-uy.
E-mail: xalq_talimi@xtv.uz Tel: (0 371) 231-16-51, Faks: 231-16-52

Jurnalga yuborilgan maqolalarga javob qaytarilmaydi, jurnalda e’lon qilingan maqolalardan olingan matnlar “Xalq ta’limi’’ ilmiy-metodik jurnalidan olindi, deb ko‘rsatilishi shart.

Jurnal 2015-yil 20-martdagi 214/2-sonli qarori bilan OAK ilmiy nashrlari ro‘yxatiga kiritilgan.

“TAFAKKUR NASHRIYOTI” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri, Shayhontoxur tumani, Navoiy ko‘chasi, 30-uy

Bosishga ruxsat etildi: __.__.____-y. Qog‘oz bichimi 70x100 1/16. Ofset bosma usuli.
Shartli b.t. 12,0. Adadi __ ___ nusxa. – buyurtma.
Bahosi kelishilgan narxda.

Ushbu songa mas’ul – Umaraliyeva Muhayyo Abdugaparovna

© “Xalq ta‘limi” jurnali, 2021.